

Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 6-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan
K O' CH I R M A

31.01.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Ekologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi N.Sh. Shadiyeva 5140600-Geografiya ta'lif yo'naliishi uchun "Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi" deb nomlangan o'quv qo'llanmani Respublika OO'MTV huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokomasiga tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y.Farmanova (kengash kotibasi) - Ekologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi N.Sh. Shadiyeva 5140600-Geografiya ta'lif yo'naliishi uchun "Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi" deb nomlangan o'quv qo'llanmani Respublika OO'MTV huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etish uchun tayyorlanganliklarini ma'lum qildilar. Ushbu o'quv qo'llanmaga: BuxDUNing Pedagogika institute Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dotsent A.M. Mavlonov va Ekologiya va geografiya kafedrasi professori, geografiya fanlari doktori Y.Q. Hayitovlar ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Ushbu o'quv qo'llanma muhokamasi haqidagi Tabiiy fanlar fakulteti (2022-yil 29-yanvar) va Ekologiya va geografiya kafedrasi (2022-yil 28-yanvar) yig'ilish qarori bilan tanishtirdilar.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ekologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi N.Sh. Shadiyeva 5140600-Geografiya ta'lif yo'naliishi uchun "Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi" deb nomlangan o'quv qo'llanma Respublika OO'MTV huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokmasiga tavsiya etilsin.
2. Ushbu qarorni tasdiqlash universitet Kengashidan so'ralsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi



R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova

N.Sh.Shadiyeva

TABIIYOT VA GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI



Buxoro – 2022

ANNOTATSIYA

Mazkur o‘quv qo‘llanma – Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi” fani dasturi asosida ishlab chiqilgan. Fanning predmeti va vazifalari, tarixi, rivojlanishi, geografiya o‘qitishning maqsadi, metodlari va ularning turlari, tarkibi, mazmuni, ta’limda tutgan o‘rni va roli haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. O‘quv qo‘llanmadan Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari va uzlusiz ta’lim tizimi barcha bo‘g‘inlarining geografiya sohasidagi mutaxassislar va professor-o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

АННОТАЦИЯ

Этот учебник основан на программе «Методика преподавания естественных наук и географии» для студентов-географов. Подробная информация о предмете и задачах науки, истории развития, целях и методах обучения географии и их видах, составе, содержании, месте и роли в образовании. Учебник может быть использован студентами географического образования, а также специалистами и преподавателями географии всех отраслей системы дополнительного образования.

ANNOTATION

This textbook is based on the Science and Geography Teaching Methodology program for geography students. Detailed information about the subject and tasks of science, the history of development, the goals and methods of teaching geography and their types, composition, content, place and role in education. The textbook can be used by students of geographical education, as well as specialists and teachers of geography from all branches of the system of additional education.

Masul muharrir:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Biologiya kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori.

G.S. Ergasheva

Taqrizchilar:

Buxoro davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasи professori, geografiya fanlari doktori.

Y.Q. Hayitov

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti “Tabiiy fanlar” kafedrasи mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

A.M. Mavlonov

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta’lim tizimida yuqori malakali, ijodkor va mustaqil qaror qabul qila oladigan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o‘zlashtirib, yangiliklarga tez moslashadigan mutaxassis kadrlar tayyorlashni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘s Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaror ijrosiga binoan geografiya fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Uzluksiz ta’lim dasturlari” majmuasini tayyorlashning maqsad va vazifalari belgilandi. Ushbu vazifalarni amalgalashda rivojlangan xorijiy davlatlarning o‘qitish tizimi va metodikalaridan foydalangan holda o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarni bugungi kunning innovatsion talablari asosida tayyorlashni talab qiladi.

Barcha fanlarda bo‘lganidek maktab geografiyasi fanida ham tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari tizimida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qaytadan ko‘rib chiqildi.

Shu munosabat bilan “Tabiiyat va geografiya o‘qitish metodikasi” fani mazmunida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash munosabati bilan o‘qitish metodikasida ham qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Oliy ta’lim muassasalarida “Tabiiyat va geografiya o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari”da bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish va mazkur tayyorgarlik darajasini orttirish maqsadida yillik vazifalar belgilangan bo‘lib yangi tahrirdagi o‘quv dasturni amaliyotda qo‘llash, geografiyadan o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash tizimining metodik ta’minotini ishlab chiqish, geografiya

darsliklarining yangi avlodi va o‘quvchilarning mustaqil ish daftarini yaratish va qo‘llashga zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta’lim tizimida jahon andozalari talablariga javob beradigan yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash va ta’lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko‘p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog‘liq. Ayniqsa, hozirgi kunda murakkab axborotlarni, geografik hodisa va sabab-oqibatlarni, tabiiy geografik va ijtimiiy-iqtisodiy tushuncha va faktlarni ta’lim oluvchilar ongiga yetkazish va ularni shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Pedagogika sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali mutaxassislar bilan ta’minalash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ko‘p jihatdan uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishni taqozo etadi. Yangicha fikrlaydigan, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan malakali, intelektual bilimli mutaxassislarni, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan keng foydalana oladigan malakali kadrlarni tayyorlash davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim sohasidagi tub islohatlarning asosiy maqsadi jahon andozalari asosida bilimlar berish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Shuning uchun oliy ta’lim tizimidagi Geografiya ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi” fanining mazkur o‘quv qo‘llanmasi, bo‘lajak pedagoglarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuyini o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘qitish metodikasining asoslari, o‘qitish shakllari va ularning turlari, asosiy tushunchalari, tabiiyot va geografiya ta’limida qo‘llaniladigan metodlar bilan ishlash asoslari, dars jarayonida fakultativ mashg‘ulotlar, ekskursiyalarni tashkil etish haqida batafsil ma’lumotlar shakllantirilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma – Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi” fani dasturi asosida ishlab chiqilgan. Fanning predmeti va vazifalari, tarixi, rivojlanishi, geografiya o‘qitishning maqsadi, metodlari va ularning turlari, tarkibi, mazmuni, ta’limda tutgan o‘rni va roli haqida bat afsil ma’lumotlar berilgan. O‘quv qo‘llanmadan Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan magistratura talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari va ilmiy tadqiqotchilar va uzluksiz ta’lim tizimi barcha bo‘g‘inlarining geografiya sohasidagi mutaxassislar va professor-o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin. Bo‘lajak pedagogik kadrlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, fanning nazariy va pedagogik muammolarini yechishga, mutaxassislarning kasbiy-pedagogik faoliyatini innovatsion talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASINING OB’EKTI VA PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Tayanch so‘zlar: metodika, metod, pedagogika, antik davr, ibtidoiy jamoa, tosh asri, geografiya ta’limi metodi, didaktika, umumiy va xususiy metod, umumiy metodika, xususiy metodika, proyeksiya, tizimli, emperik metod

1.1.Tabiyyot va geografiya o‘qitish metodikasi fanining ob’ekti va predmeti

Geografiya o‘qitish o‘z mazmuni va mohiyati jihatidan pedagogika fanining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Maktabda geografiya ta’limining mazmuni va uni tashkil etish geografiya o‘qitish metodikasi fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Geografiya o‘qitish metodikasi fani o‘zining mohiyati va mazmuniga ko‘ra pedagogika fanlari tizimiga kiradi. Shuning uchun metodika fanining asosiy tushuncha va tamoyillari pedagogika fanining “Didaktika” qismi bilan chambarchas bog’liqdir. Taniqli metodist olim A.M.Panchesnikova “Geografiya o‘qitish metodikasi pedagogika fanining maktab geografiya predmetlarida o‘z aksini topuvchi proyeksiyasidir”- deb ta’kidlagan edi.

Metodika fani o‘quvchilarning yosh individual - psixologik xususiyatlarini o‘rganishda asoslanadi. Darslik, geografik kartalar, qo‘sishimcha geografik bilim manbalari, ko‘rgazmali qurollar, axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashda fanining o‘quvchidagi o‘z aksini topadigan qonuniyatlariga asoslanadi.

Metodika fani pedagogik tajriba - sinov ishlarini olib borish jarayonida matematik - statistika fanidagi qonuniyatlarga asoslanib, ilmiy natijalarning amaliy ahamiyatini asoslaydi. Metodika fani vaqt me’yorlarini belgilashda ham shu fanga asoslanib xulosalar beradi.

Geografiya o‘qitish metodikasi fani tabiiy geografiya va iqtisodiy - ijtimoiy geografiya fanlarini va ularning tarmoqlarining mohiyati va mazmuniga chambarchas bog’liqdir. Tabiiy geografiya fanini o‘qitish jarayonini metodik jihatlarini tadqiq qilishda geologiya, kartografiya va topografiya, geomorfologiya,

landshaftshunoslik, gidrologiya, glyatsiologiya, atmosfera fizikasi, geokimyo singari fanlarning asosiy tushuncha va tamoyillariga tayanib ish ko‘radi.

Metodika fani ijtimoiy - iqtisodiy geografiyani o‘qitish jarayonini o‘rganar ekan sotsiologiya, aholishunoslik, iqtisodiyot, ijtimoiy ekologiya, statistika singari fanlarga chambarchas bog’langan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Metodika fani maktabda o‘qitiladigan barcha umumta’lim fanlarining o‘qitish metodikalari bilan ham o‘zaro bog’langan. Ulardagi emperik qonuniyatlardan o‘z sohasini o‘rganish maqsadida foydalanish imkoniyati mavjud.

“Metod” – so‘zi lotincha «targ’ib qilish» degan ma’noni anglatadi. XVI – asrda Yevropada bu so‘z juda keng qo‘llanilib, diniy g‘oyalarni xalq ichida targ‘ib qiluvchi kishilarga nisbatan “metodistlar” unvoni berilar edi. Maktabda fanlarni o‘qitish tartibi, qoidalari va usullari haqida dastlabki fikrlar Yevropada XVIII – asrda fanlarni o‘qitish metodikasi sifatida shakllana boshladi.

Pedagogika – kishi tarbiyasi haqidagi fan hisoblanadi. Tarbiya mohiyatini, mazmunini, vazifalarini va qonuniyatlarini, ta’lim jarayoni qonuniyatları qo‘llab beradi. Pedagogika tarbiya nazariyasini, didaktika va maktabshunoslik o‘z ichiga oladi. Pedagogika fani quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi: a) maktabgacha yoshdagilar pedagogikasi; b) maktab pedagogikasi; v) hunar-texnika ta’limi pedagogikasi; g) oliy ta’lim pedagogikasi; d) harbiy pedagogika; j) pedagogika tarixi.

Geografiya o‘qitish, predmeti nimadan iborat? degan savollar esa oldimizga ko‘ndalang turadi. Geografiya o‘qitish metodikasiga oid adabiyotlar tahlilidan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Geografiya o‘qitish quyidagilarni o‘rganadi:

1. Maktab geografiyasining ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarini (nima uchun o‘qitamiz?) ;
2. Maktab geografiya ta’limining mazmunini (nimani o‘qitamiz?) ;
3. Geografiya ta’limining shakl va metodlarini (qanday o‘qitamiz?) ;
4. Geografiya o‘qitish vositalarini (nima yordamida o‘qitamiz?) ;

Maktabda geografiya o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Geografiya fanini o‘qitish maqsadlari.
2. Maktab geografiya ta’limining mazmuni.
3. Geografiya fanini o‘qitish metodlari.
4. Geografiya fanini o‘qitish va o‘rganishning tashkiliy asoslari.
5. Sinfdan va maktabdan tashqari geografiya ta’limining asosiy mazmuni.
6. Geografiya ta’limining vositalari.

Maktabda o‘quv jarayonining yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Geografiya o‘qitish metodikasi fani xuddi mana shu bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganadi.

Pedagogika fanining ta’lim jarayoni bilan bog‘liq qonuniyatlarini didiktika fani o‘rganadi. Fanlarni o‘qitish metodikalari esa didaktika fani qonuniyatlariga asoslanadi. Geografiya o‘qitish metodikasi fanini shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin.

1. Umumiyl metodika – geografiya fanini o‘qitishning umumiyl qonuniyatlarini, ta’limni tashkil etish shakl va metodlarini, o‘quv jarayonining asosiy bosqichlarini, o‘quv vositalarini va hokazolarni o‘rganadi va tadqiq qiladi.

2. Xususiy metodika –har bir sinfda o‘qitiladigan geografiya fani bilan bog‘liq qonuniyatlarini o‘rganadi va tadqiq qiladi.

Geografiya o‘qitish metodikasi fani sohasida ko‘p yillik tadqiqotlar o‘tkazgan taniqli olim, professor A.V.Darinskiy “Umumiyl metodika geografiya didaktikasidir” – deb ta’rif bergen edi.

Geografiya o‘qitish metodikasi fanini o‘rganib, uning qonuniyatları ustida tadqiqotlar o‘tkazgan yirik mutaxasis olimlar. A.V.Darinskiy, I.S.Matrusov, L.M.Pancheshnikova, A.Ye.Bibik, V.P.Golovlarning xizmatlarini ta’kidlab ko‘rsatish lozim.

Shu sohaning Respublikamizda rivojini ta’minlagan. H.Hasanov, M.Nabixonov, P.G‘ulomov, P.Musaev, R.Qurban niyozov, A.Hayitov, A.Aburaxmonov, Q.Baxromov, R.G‘oipova va boshqa olim – metodistlar xizmati salmoqlidir.

Geografiya o‘qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- Maktabda o‘qitiladigan geografiya kurslarining mazmunini belgilaydi;
- Maktab geografiyasiga qo‘yilgan davlat talablari mazmunini o‘rganadi;
- geografiya darslarining tiplari, ularni tashkil etish bosqichlarini o‘rganadi;
- geografiya ta’limida qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari va usullarini o‘rganadi;
- geografiya ta’limidagi qo‘llaniladigan o‘quv vositalarining tarkibi va amalda qo‘llash yo‘llarini o‘rganadi;
- Maktab geografiya xonasi, geografiya maydonchasi va o‘lkashunoslik muzeylarini jihozlash tartibini o‘rganadi;
- geografiyadan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunini o‘rganadi.

Geografiya o‘qitish metodikasi fani oldida hal qilishi lozim bo‘lgan quyidagi ta’limiy muammolar mavjud.

1. Geografiya ta’limini o‘lkashunoslik tamoyili asosida o‘rganish va amalda qo‘llash yuzasidan bajariladigan istiqbolli rejalarini tadqiq qiladi.
2. Geografiya darslarini yangi pedagogik texnologiya asosida samarali tashkil etish yo‘llarini belgilovchi yo‘nalishlarini o‘rganadi.
3. Davlat ta’lim standartlari asosida o‘quvchilar bilim ko‘nikma va masalalarini sifat darajasini o‘rganib undagi bo‘shliqlarni mazmunan to‘ldirish yo‘llarini belgilaydi.
4. Geografiyaga oid darslik, dastur, karta va boshqa o‘quv vositalarining yangi avlodini ishlab chiqish yuzasidan tavsiyalarni beradi.
5. Geografiyaga doir sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishning nazariy – pedagogik asoslarini ishlab chiqadi.

1.2. Fanning maqsadi va vazifalari

Geografiya ta’limi metodi pedagogika fanlari qatoriga kiradi va pedagogikaning asosiy qoidalariga suyanib aniqlangan geografik faktlar tushunchalar va qonuniyatlarga shuningdek didaktika tamoyillarining vazifalarini belgilaydi. Shu bilan birga o‘zining usul va yo‘llarini yaratadi va shu asosda hayot

tatqozo qilgan turli muammolarni hal qiladi. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarni tadqiq qilar ekan, geografiya o‘qitish tajribasini metodika fani yanada boyitadi. Ta’lim-tarbiya ishlarining sifatini oshirish, yaxshilash va o‘qituvchilarga amaliy yordam beradi.

Geografiya o‘qitish metodining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: har bir maktab geografiya kursining maqsadi, mazmuni va ahamiyatini belgilash uning mazmunini takomillashtirib borish unda o‘quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olish geografiya fanining asosiy g‘oya, tushuncha va qonuniyatlarini ajratib olish darsni o‘zlashtirishga imkon beradigan ta’lim yo‘llarini aniqlash, geografik ma’lumotlar asosida o‘quvchilarda dunyoqarash g‘oyalarini shakllantirish, o‘quvchini axloqlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek o‘quvchilarga amaliy ko‘nikma va malakalarni singdirish, ta’lim-tarbiya jarayonida ularning faolligini oshirish, mustaqillagini ta’minlaydigan samarali usullarni aniqlash, umumiyligi ta’limda geografik bilimlarni tizimlashtirish o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish, turli geografiya kurslariga mos keladigan o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan, ilmiy jihatdan asoslangan bilimlarni amalda tekshirib ko‘rish va shu asosda o‘qituvchilarni qurollantirish ta’limni tashkil etishning yangi an’anaviy va noan’anaviy usullaridan foydalanish, darslik va o‘quv qurollariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqarish kurslari bo‘yicha o‘quvchilar yoshiga mos keladigan o‘quv qurollarini va ulardan foydalanish metodlarini ishlab chiqarish o‘quvchilarni o‘lkashunoslik va sinfdan tashqari ishlarning mazmuni turlari bilan tanishtirish masalalarini hal qiladi.

Ta’lim va tarbiyaning umumiyligi qonuniyatlarni didaktika tadqiq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, didaktikaning mohiyati ta’lim-tarbiya jarayoni hisoblanadi. U aniq o‘quv fanlari uchun ta’lim va tarbiya jarayoni bilan shug‘ullanmaydi. Demak, geografiya o‘qitish metodi ilmiy pedagogik fan bo‘lib, u o‘qituvchilarga geografiyadan puxta bilim berish, ularni dialektik-materialistik dunyoqarash ruhida tarbiyalash va o‘qitiladigan geografiya fanining maqsadini, ta’lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, usullarini hamda geografiya o‘qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Geografiya o‘qitish metodining asosiy fan

sifatida universitetlar va boshqa oliv o‘quv yurtlari geografiya fakul’tetlarining o‘quv rejasiga kiritilishi va uni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarni məktəbda geografiya o‘qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Bilish nazariyasi geografiya o‘qitish metodining metodologik va nazariy muammolarga: ilmiy-tadqiqot metodlari va predmeti; O‘zbekistonda va chet ellarda geografiya ta’limida; geografiya va uning alohida kurslari bo‘yicha o‘qitish maqsadi va vazifalari; geografik bilimlarni egallashda ta’lim bilan tarbiyaning birligi; o‘quvchilarda geografik bilim, ko‘nikma malakalari va dunyoqarashni shakllantirish; geografiya ta’limi jarayonining umumiy qonuniyatları kiradi.

Geografiya o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- geografiya o‘qitish maqsadi;
- geografiya ta’limining mazmuni;
- geografiya o‘qitishning usullari;
- geografiya o‘qitish va o‘rganishni tashkil etish;
- o‘qituvchilarning yosh xususiyatlari va bilish imkoniyatlarini e’tiborga olish;
- geografiya ta’limining natijalari va h.k.

Yuqoridaq tarkibiy qismlar mustahkam aloqa mavjud. Masalan, o‘rganiladigan mavzuning maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta’lim shakllari, o‘qitish usullari hamda vositalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishni taqozo qiladi.

Geografiya ta’limi metodining nazariy va metodologik masalalari ko‘pgina metodist-geograf olimlar – A.Y.Bibik, A.V.Darinskiy, T.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, I.S.Matrusov, L.M.Panchishnikova, M.V.Rijakov, O.A.Mo‘minov, H.H.Hasanov, P.G.Musayev va boshqalarning asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Geografiya ta’limi metodi fani umumiy metod, tabiiy geografiyani o‘qitish metodi va iqtisodiy geografiya o‘qitish metodidan iborat. O‘z navbatida ularning

har biri xususiy metodlarni (maktab geografiya kurslarini alohida-alohida o‘rganish metodi)ni o‘z ichiga oladi.

Umumiy metod maktab geografiya kurslari uchun o‘qitish qonuniyatlarini, ya’ni o‘qitishning mazmunini, tashkil etilishini, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, sinfdan tashqari ishlash va boshqalarni o‘rganadi. A.V.Darinskiy umumiy metodni geografiya didaktikasi deb aytgan edi. Xususiy metod maktab geografiya kurslarining maqsadi, mazmuni, tarkibi, geografik bilim, ko‘nikma, malakalar shakllantirilishi, har bir kurs bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil ishlarining tashkil etilishi va hokazolar bilan shug‘ullanadi.

Geografiya ta’limi metodi:

- maktab geografiyasining ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari;
- geografiya ta’limining mazmuni;
- ta’lim jarayonida geografiya o‘qitish vositalari (dasturlar, darsliklar, atlaslar, o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun ilmiy-metodiy qo‘llanmalar va hokazolar)ni yaratish;
- o‘quvchilarning o‘z materialini o‘zlashtirishlari;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tarbiyalanishi;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilar fikrlashining rivojlanishi va hokazolar bilan bog‘liq vazifalarni hal qiladi.

Geografiya ta’limi metodi maktab geografiyasining ta’lim-tarbiyaviy maqsadlari, mazmuni, o‘qitishning shakl va usullari, o‘qitish jarayonida dastur, darslik, atlas, ilmiy-metodiy qo‘llanmalar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishlari, ta’limning tarbiya bilan qo‘sib olib borilishi, ta’lim jarayonida fikrlashni rivojlantirish vazifalarini hal qiladi. L.M.Pancheshnikova ta’biri bilan aytganda, “Geografiya ta’lim metodi quyidagi muammolarni: o‘qitishning maqsadi (Nima uchun o‘qiymiz), geografiya ta’limining mazmuni, (nimani o‘qitamiz), geografiya ta’limining vositalarini (Nimalar vositasida o‘qitamiz), o‘qitishning shakl va usullarini (qanday o‘qitamiz) tadqiq qiladi. Bundan tashqari geografiyaga oid bilimlarni egallash jarayoni, aqliy rivojlanishi, o‘quvchilarni tarbiyalash kabi muammolarni ham o‘rganadi”.

1.3.Geografiya ta’limi metodlari

Nazariy metodlar: bu metodlar ta’lim jarayonida to‘plangan va ma’lum natijalarga asoslangan ilmiy xulosalarni to‘plash asosida vujudga kelgan qonuniyatlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi.

- a) Tizimli tuzilishga ega bo‘lgan metodlar. Bu metodlar markazida matabda o‘rganiladigan geografiya fanlarini o‘qitish metodikasi asosiy o‘rinni egallaydi. Geografiya kurslari o‘rtasida, har bir kursdagi bo‘limlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni yagona tizim asosida o‘rganish bu metodning mazmunini belgilaydi. Oddiydan murakkabga qarab geografiya ta’limi mazmunini, maqsadlarini, o‘qitish metodlarini va o‘quv vositalarini muayyan tizimga solib o‘rganish maqsad qilib qo‘yiladi. N.N.Baranskiy tizimli tuzilish metodlari darslik va dasturlarni tuzishda, geografik atlas va qo‘srimcha ma’lumotlar hajmini belgilashda alohida rol o‘ynashini ta’kidlab ko‘rsatadi.
- b) Tarixiy metod. Bu metodning mazmuni turli tarixiy davrlarda metodika fani sohasida, hamda matab geografiya kurslarini o‘qitish jarayonida yaratilgan va ilmiy asoslangan muammolarni o‘rganib, zamonaviy ta’limning istiqbolini belgilash maqsadida qo‘llaniladi.
- v) Matematik metoddan geografiya fanini o‘qitish jarayonidagi pedagogik holatlarni aniq hisob – kitob qilish maqsadida qo‘llaniladi. Masalan: o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining qo‘llanilayotgan ta’lim metodlari o‘rtasidagi bog’liqlikni aniqlash uchun va pedagogik eksperiment natijalarining samaradorligini aniqlash jarayonida qo‘llaniladi.
- g) Taqqoslash metodi. Bu metod xorijdagi to‘plangan tajriba bilan o‘zimizda yaratilgan metodlarning samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladi.
- d) Adabiyotlarni tahlil qilish metodi. Tanlangan mavzu bo‘yicha adabiyotlar to‘planib, undagi g’oyalar ma’lum tizimga keltiriladi.

Empirik metodlar. Geografiya o‘qitish metodikasi fani matab geografiya ta’limi bilan chambarchas bog’liq hisoblanadi. Shuning uchun empirik metodlar

tajribaga asoslanib amalda qo'llaniladi. Empirik metodlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

a) Maktab hujjatlarini o'rganish metodlari. Geografiyadan dars ishlanmalari, o'quv mazmuni, rejalar, fan metodbirlashmalari, pedagogik kengash hujjatlari, o'qituvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar hujjatlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi.

b) Kuzatish metodi. Geografiya darslarini kuzatish, to'garak mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbat o'tkazish, yozma ishlar o'tkazish, o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatlarini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

v) Pedagogik tajriba – sinov metodi. Ushbu metod yangi darslik, yangi o'quv dasturi, o'qitishning samarali metodlarining natijalarini aniqlashda qo'llaniladi. Pedagogik tajriba - sinov quyidagi tartibda olib boriladi.

- Tajriba - sinov sinflari uchun maxsus o'quv dasturi tuziladi;
- Tajriba - sinovining istiqbolli dasturi tuziladi;
- Maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda parallel sinflardan nazorat va tajriba - sinov uchun alohida sinflar tanlanadi;
- Tajriba - sinov sinflari uchun didaktik ko'rgazma, qurollar va maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.
- Har bir o'quv choragida yoki dasturdagi ma'lum bir bo'lim yakunlanganda yozma yoki og'zaki nazorat ishlari o'tkaziladi.

Pedagogik" tajriba - sinov muddati bir yoki bir necha o'quv yili davomida amalga oshiriladi. Nazorat va tajriba - sinov o'tkazilgan sinflardagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari xulosalanib, taqqoslama matematik - statistik metod asosida tahlil qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Metod nima va uning turlari?
2. Pedagogik tajriba deganda nima tushuniladi?
3. Geografiya fani o'qitish maqsadlari nimalardan iborat?

4. Metod turlarini sanab o‘ting?
5. Didaktika nima va ularning turlari?
6. Emperik metodlar nimalardan iborat?

2-MAVZU: TIBIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMI METODIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Tayanch so‘zlar: geodeziya, qadimiy o‘lchov birliklari, gimnaziya, geografik nomenkltura, darsliklar va dasturlar mazmunini, o‘qitish metodlari, o‘quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash

2.1. Geografiya o‘qitish metodikasining fan sifatida shakllanishi.

Geografik bilimlar mukammallasha borgani sari insonlar o‘z sayohatlarini, xotiralarini, yurishlarini oddiy chizmalarda aks ettirganlar va shu tariqa geografik kartaning yaratilishida asos bo‘luvchi fakt va ma’lumotlarni to‘plaganlar. Qadimgi Rim, Misr, O‘rta Osiyo kabi davlatlarda geografik bilimlar birmuncha taraqqiy etgan. Birinchi marta “Geografiya” atamasini qo‘llagan grek olimi Eotosfen 2 tomli “Geografiya” nomli asarni yozgan. Shu tufayli ham uni “Geografiyaning otasi” deb aytildi.

Mashhur geograf, tarixchi Strobon ham 17 tomli “Geografiya” nomli asarini yozadi. Unda mamlakatshunoslik haqidagi bilimlar yaqqol aks etgan. Eng muhimi antik davr olimlarining Yer to‘g’risidagi fikrlarini umumlashtirib bergan. Qadimgi dunyoning eng mashhur astronom va geograflaridan biri Ptolomey ham geografiya faniga salmoqli hissa qo‘shtigan. U 8 tomdan iborat “Geografiya” nomli asar yozgan. Ayniqsa, Ptolomey tuzgan kartalar birmuncha mukammal bo‘lgan. Uning kartalaridan bir necha yuz yillar davomida foydalanib kelingan. Ayniqsa, O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan Muhammad al – Xorazmiy va Al - Beruniylarning geografiya sohasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Geografiya fanini maktablarda o‘qitish G’arbiy Yevropada XVII asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Rossiyada esa XVIII asrning boshidan geografiya mustaqil fan sifatida o‘qitilgan. Pyotr I Rossiyada iqtisodiy va siyosiy islohotlarni

amalga oshirishi ta’limda aloqalarni kuchayishi munosabati bilan geografiyaga ehtiyoj kuchaydi. 1710-yilda noma’lum Yevropalik tomonidan “Geografiya yoki yerning qisqacha ta’rifi” darsligi nashr ettirildi. 1719-yilda Rossiyalik olim Iogann Gyubner tomonidan “Yerning umumiy ta’rifi” darsligi yaratildi. Bu darsliklarning bir qator kamchiliklari mavjud edi. Ular murakkab tuzilgan bo‘lib, o‘quvchilar yoshiga mos emasligi, ko‘proq matematik geografiyaga doir ma’lumotlar bilan boyitilgani uchun ularni o‘zlashtirish qiyin kechar edi.

XVIII asrning birinchi yarmida Kaspiy dengizining qirg’oqlarini, Shimoliy Muz okeanidagi orollarni, Kamchatkani va Kuril orollarini o‘rganish yuzasidan katta ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Maktablarda mashhur geograf olim V.N.Tatishev tomonidan yaratilgan “Rossiya geografiyasidan ocherklar” kitobi birinchi darslik sifatida foydalanildi.

2.2. Geografiya fanini rivojlantirishga M.V. Lomonosovning qo‘shgan hissasi

M.V. Lomonosov geografiya fanini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Jumladan, uning rahbarligida Rossiyaning birinchi atlasi va mamlakatning ikkita kartasi nashr etildi. Maktablarda geografiya darsliklari aniq va to‘liq ma’lumotlar bilan to‘ldirildi. 1786-yilda Rossiyada xalq maktablarining ustavi qabul qilindi. Unga ko‘ra ikki tipdagi maktablar:

1. Kichik maktablar (ikki yillik)
2. Asosiy maktablar (to‘rt yillik) tashkil etildi. Asosiy maktablarda so‘nggi ikki yil davomida uch nomdagи geografiya kurslari o‘qitilar edi. Dastlab, o‘quvchilarga Yevropaning umumiy geografiyasi, keyin Rossiya geografiyasi, oxirida umumiy geografiya o‘qitilib, bunda dastlab yer haqidagi umumiy ma’lumotlar berilib, so‘ngra dunyodagi alohida mamlakatlarga ta’rif berilar edi. Yuqori sinflarda Rossiya geografiyasi va geografik statistika fanlari o‘qitilar edi. XIX asr boshida Rossiyadagi barcha o‘quv muassasalarida geografiya fanini o‘qitishga e’tibor kuchaytirildi. Gimnaziya maktablarini uchinchi sinfida haftasiga 14 soat geografiya o‘qitilar edi. Bundan dastlab yer haqidagi umumiy ma’lumotlar berilib so‘ngra dunyodagi alohida mamlakatlarda ta’rif berilardi. Yuqori sinflarda Rossiya

geografiyasi va geografik statistika fanlari o‘qitilar edi. E.F.Zablovskiy, K.A.Arsenev tomonidan yaratilgan darsliklar qo‘llanilar edi. K.D.Ushiniskiy geografiya ta’limini rivojlantirish yuzasidan bir qator ilg’or g’oyalarni o‘rtaga tashladi. U darsliklarni rasmlar bilan boyitish, oddiydan murakkabga qarab ma’lumotlarni joylashtirishni ta’kidlab, ko‘rsatib berdi. K.D.Ushenskiy bergan takliflar rus olimi D.D.Semyonov tomonidan hisobga olinib 1860-1867 -yillar davomida uch qismdan iborat “Geografiya darslari” nomli kitob yaratildi. Unda o‘lka geografiyasini o‘rganishga, darslarni ko‘rgazmali materiallar bilan boyitishga, o‘quvchilarni mustaqil tarzda kartalar chizishga, har bir geografiya darsini ma’lum tizim asosida oddiydan murakkabga qarab o‘rganishga e’tibor kuchaytirildi. D.D.Semyonov tomonidan yaratilgan darsliklar 15 martagacha qayta nashr qilinib, XIX asrning oxirigacha maktablarda o‘qitildi. O’sha davrda K.Smirnov va D.Linberg tomonidan yaratilgan darsliklar ham maktablarda o‘qitilar edi. Bu darsliklarning kamchiligi shunda ediki, ular murakkab tilda yozilib, rasm va chizmalari yo‘q edi. Bu darsliklarda geografik nomlarga e’tibor kuchaytirilgan bo‘lsada, ammo har bir matndan keyin savol va topshiriqlar yo‘q edi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida geografiyaga oid ilg’or pedagogik g’oyalar aks ettirilgan G.I.Ivanov, A.A.Kruber, A.S.Barkov, S.G.Grigorev muallifligida yangi darsliklar yaratildi. Darsliklarda geografik nomenklatura qisqartirildi, rasmlar bilan boyitildi, qo‘sishma ma’lumotlar, qiziqarli faktlar kichikroq shriftlar bilan darslikka kiritildi.

Maktab geografiyasini takomillashtirishda nashr qilingan bir qator yangi metodik qo‘llanmalar alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan N.Rayevskiy, S.Mecha, E.Y.Petri, S.P.Arjanova, A.P.Nechayev, B.P.Budanov tomonidan yaratilgan metodik qo‘llanmalarda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, geografiyaga doir rasmlar bilan ishlash, savol va topshiriqlarni oddiylashtirish va boshqa yo‘nalishlarda ilmiy metodik g’oyalar yaratildi.

1914- yilda maktabning yangi o‘quv rejasi qabul qilindi. Unda geografiya faqat quyi sinflarda emas, balki yuqori sinflarda ham o‘qitilishi ko‘rsatib qo‘yildi. 1915-

yilda Moskva shahrida butun Rossiya geografiya o‘qituvchilarining I syezdi o‘tkazildi. Syezd ishtirokchilari o‘z chiqishlarida geografiya fanini yana chuqurroq o‘rganish yuzasidan o‘z takliflarini berishdi. 1921- yilda taniqli geograf olim D.N.Anuchin rahbarligida geografiyadan umum davlat o‘quv dasturining loyihasi ishlab chiqildi. Unda ikkita asosiy masala ko‘zda tutilgan edi.

1. O‘quvchilarning geografiyani mustaqil o‘rganishga qiziqishlarini oshirish.
2. O‘quvchilarning o‘z o‘lkasi geografiyasini chuqur o‘rganishiga e’tiborini kuchaytirish ta’kidlanadi.

1924-1927 yillar davomida maktab ta’limida DOK tomonidan yaratilgan maxsus dastur asos qilib olindi. Uning maqsadi maktab ta’limini mehnat bilan bog’lashga qaratilgan tizimni vujudga keltirishdan iborat edi. Maktabda alohida fanlar o‘rniga “Tabiat, mehnat, jamiyat” deb nomlanuvchi yo‘nalishlar tuzildi. Bunday ta’lim o‘quvchilarni chuqur geografik bilimlar bilan qurollantirishga jiddiy zarar yetkazdi. 1927-yildan boshlab geografiya fani ya’na mustaqil fan sifatida maktablarda o‘z o‘rniga tiklandi. Maktab geografiya ta’limini takomillashtirishda 1932-yil 25 avgustda BKP ning o‘quv dasturlari haqidagi qarorida maktab geografiya ta’limiga quyidagi o‘zgarishlar kiritildi:

1. Geografiya darslarida karta asosiy bilim manbai ekanligini hisobga olib, maktab uchun geografik kartalar, atlaslar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.
2. O‘z Respublikasi, oblasti geografiyasini o‘rganishga e’tibor kuchaytirildi.
3. Kapitalistik mamlakatlar geografiyasini o‘rganishga ruhsat berildi.
4. O‘quvchilar bilimini baholashning 5 ballik tizimiga o‘tildi.

1934-yil 15 may “O‘rta va boshlang’ich maktablarda geografiya fanini o‘qitish haqida” hukumatning mahsus qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra maktab geografiya ta’limida quyidagi o‘zgarishlar kiritildi:

1. Oliy o‘quv yurtlarida geografiya o‘qituvchilari tayyorlash maqsadida alohida fakultet va kurslar tashkil etildi.
2. O‘z vatani geografiyasini o‘rganish uchun o‘quv soatlari 2 marotabaga oshirildi.

3. “Geografiya v shkole” ilmiy-metodik jurnalini nashr ettirish yuzasidan aniq tadbirlar belgilandi.
4. Maktablar uchun yangi darsliklar, geografik atlas, karta va yozuvlari kartalar ishlab chiqish yo‘lga qoyildi.
5. Geografiya darslarining mazmunini to‘ldirish maqsadida amaliy ishlarga yo‘l berildi.

1958-yil 24 dekabrda “Maktab haqida qonun” qabul qilindi. U ko‘p fanlar qatori geografiya faniga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. O‘z o‘lkasini o‘rganish uchun maktab dasturida alohida o‘quv soatlari kiritildi va oblastlar, o‘lkalar, tumanlar kartalarini nashr qilishga ruxsat berildi. 1966-yildan mustaqillik yillarigacha sobiq sho‘rolar hukumati tomonidan maktab geografiya o‘quv dasturini mazmunan o‘zgartirilgan 6 ta dasturi ishlab chiqildi va shu asosida maktabda V - X larda geografiya fanini o‘qitish yuzasidan ishlar amalga oshirildi. 1986-yilda qabul qilingan geografiya dasturi quyidagi jihatlari bilan oldingi dasturlardan farq qilar edi:

1. Dasturda tayanch geografik tushunchalar alohida ajratib ko‘rsatildi.
2. Geografiyadan amaliy ishlarning ikki turi ya’ni (A) mashq uchun bajariladigan amaliy ishlar, (B) yakuniy amaliy ishlar.
3. O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini aniqlashga doir talablar o‘quv dasturiga kiritildi.
4. O‘quvchilarning bilimiga nisbatan har bir kurs uchun alohida talablar qo‘yildi.
5. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini odilona baholash maqsadida baholash normasi o‘quv dasturiga kiritildi.

2.2. O‘zbekistonda geografiya o‘qitish metodikasi fanining rivojlanish bosqichlari

O‘zbekiston maktablarida geografiya ta’limini (darsliklar va dasturlari mazmunini, o‘qitish metodlari, o‘quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash va boshqa xususiyatlariga ko‘ra) 4 ta bosqichga ajratish mumkin.

I bosqich 1918-1934 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davr o‘zbek sovet maktablarida geografiya o‘qitishni yo‘lga qo‘yish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda yangi tipdagi maktablar bilan eski tipdagi sovet maktabi geografiyasiga asos solinadi. Yangi dasturlar asosida 1922-1923 yillarda “o‘qitishning kompleks dasturlari” ishlab chiqildi. Bu turli variantlarda bo‘lib, bir necha marta o‘zgardi va 10 yil mobaynida qo‘llanildi. Geografik materiallar kompleks mavzular orasida singib ketdi. Geografiyanı o‘rganish juda past saviyada olib borildi. Kompleks dasturlarining uzoq hukmronligi maktab geografiyasi uchun og’ir davr bo‘ldi. 1925-1926 yillarda maktablarning yuqori sinfida geografiya dasturlaridan umuman chiqarib tashlandi. Geografiya tibbiyat, fizika, ijtimoiy fanlar tarkibida o‘rganiladi. Kartani o‘rganish nihoyatda zaif bo‘ldi. Yuqoridagi fanlar geografiyanı o‘qitish vazifalarini mutlaqo bajara olmadilar. Kompleks metod asosida predmetsiz o‘qitish yo‘li edi.

II bosqich 1934-1935 yillarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek maktablarida geografiya o‘qitishning muayyan bir tartibga tushish bosqichi. Bu davrda yagona dastur asosida muayyan darsliklar yaratildi. O‘quvchi va o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanmalari ko‘proq nashr etila boshlandi. O‘zbek tilida metodik qo‘llanmalar vujudga kela boshladi. Maktab geografiyasiga hissa qo‘sha oladigan metodistlar, geografiya o‘qituvchilari yetishib chiqqa boshladi. Ko‘proq metodik kitoblar o‘zbek tiliga o‘girildi.

III bosqich 1956-1966 yillar. Bu davrni maktab geografiyasini turmush bilan bog’lash bosqichi desa ham bo‘ladi. Bu davrda maktab geografiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O‘qitishning samarali xillari tobora kengroq joriy qilina boshlandi. Mahalliy aholidan milliy kadrlar, yirik geograf va metodistlar yetishib chiqdi. O‘quvchi va o‘qituvchilar uchun ilmiy ommabop va metodik adabiyotlar tarjima qilindi. Geografik atama va nomlar ma’lum bir tizimga tusha bordi.

IV bosqich 1967-1990 yillar. Bu davrda ta’lim sohasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar chop qilindi. Ta’limni isloh qilish borasida bir qator tadbir va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Muayyan darsliklar tizimi va

yangi o‘quv kartalari paydo bo‘ldi. O‘lkashunoslikka e’tibor birmuncha pasaydi. Ammo O‘zbekiston geografiyasini o‘rganish bo‘yicha soatlar hajmi 20%dan oshmaydi.

Oktabr to‘ntarishidan keyin Sovet maktabini isloh qilishdan boshlandi. Darslar maxsus qarorlar asosida 9 yillik yagona mehnat makteblari tashkil etildi. Bu maktab II bosqichdan iborat. I bosqich 1-5 sinflar, II bosqich 6-9 sinflardan iborat. Bunday maktabda geografiya ta’limi maqsad va mazmun jihatdan o‘zgardi.

1928-1922 yillarda geografiyadan na’munaviy dasturlar paydo bo‘ldi. Bunda ayrim landshaftlarning xususiyatlarini o‘rganishga ko‘proq e’tibor berildi. O‘savrlar “Landshaft dasturlari” bilan mashhurdir. Masalan, “Ovchilar landshafti”, “ko‘chmarchilar landshafti” va h.k.

Landshaft dasturlari o‘zini oqlamadi. 1921-yilda geograf D.N.Anuchin rahbarligida umum davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan geografiya dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Ungacha ayrim hududlar, hatto, ayrim makteblar xuddi landshaftlar dasturiga o‘xshash bo‘lgan dasturlarni o‘zlari tuzar edilar. Anuchin dasturi Oktyabr to‘ntarishiga qadar bo‘lgan geografiya ta’limini eng yaxshi tomonlarini qisman bo‘lsa ham o‘ziga aks ettirgan bo‘lib, unda geografiyanı o‘qitish sinflar bo‘yicha taqsimlangan edi. Anuchin dasturiga muvofiq 3-sinfda o‘z qishlog’i, shahari, guberniyasi o‘rganilar edi. Bu turni mamlakatshunoslik deb ataydi. O‘quvchilar geografik nomlar, tushunchalar geografiyasiga oid rasmlar bilan tanishtirilar edi. 4-sinfda mamlakatlar turli mintaqalarning tabiatini, insonlar hayotini aks ettiruvchi rasmlar namoyish qilindi. 5-sinfda mamlakatshunoslikka oid bo‘lgan ma’lumotlar va “Qit’alar geografiyasi” o‘rganilar edi. 6-8 sinflarda Rossiya geografiyasi, 8-sinfda iqtisodiy geografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o‘rganilar edi. Mazkur dastur o‘quvchilarning geografiyaga oid bilimlarini oshirishga katta rol o‘ynaydi. Unda geografiyaga ajratilgan soatlar miqdori ancha ko‘p edi. 1924-yildan 1930-yillarda maktab geografiya ta’limi uchun og’ir yillar bo‘ldi. 1924-yildan boshlab maktab geografiyasi yangicha dasturlar asosida ishlashga o‘tdi. Ammo bu darsliklar bo‘yicha, geografiya bo‘yicha alohida predmetlar yo‘q edi. Unda geografiyadan uzuq-yuluq bilim

berilar edi. 1-4 sinflarda alohida geografiya kurslari o‘rnini kompleks mavzular egalladi. Bu mavzular mazmuniga qisqacha geografik savolda mahalliy tabiat va xo‘jalik bilimlari berilar edi. 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o‘rgatilar edi. Masalan: 1-sinfda yil fasllari, 2-sinfda mahalliy tabiat va xo‘jalik bilimlari edi. 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o‘rgatilar edi.

II bosqich sinflarda geografiya, biologiya, tarix, jamiyatshunoslik fanlari tarkibiga singib ketgan edi. Tabiiy geografiya va mamlakatshunoslik haqida bilimlar nochor ahvolga tushib qolgan edi. Xullas, kompleks dasturlarning qabul qilinishi geografiyani mustaqil fan sifatida barham topishiga olib keldi. Faqat 1927-yilda avval 1-bosqich maktablarida , keyinroq II- bosqich sinflarida geografiya fan sifatida qayta tiklandi. O‘zbekistonda 1920-1930 yillar oralig’ida geografiya darsliklari rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. G.N.Ivanovning “Boshlang’ich jo‘g’rofiya” darsligi geografiya darsliklarining to‘ng’ichi edi. Bu darslik 1927-yilda N.L.Korjenevskiy yordamida P.Arxeengelskiy tomonidan o‘zgartirib nashr qilindi. G.N.Ivanov, G.G.Ivanovlarning Baxtiyorov va Makarov bilan hamkorlikda birmuncha o‘zgartirib nashr qilingan “Jo‘g’rofiya o‘lkani o‘rganish” darsligi ham o‘zbek tilidagi dastlabki darsliklardan edi. Bu davrda Balashovning “O‘zbekiston hamda unga qo‘shti jumhuriyatlar va viloyatlar”, P.Anxangelskiyning “Jo‘g’rofiya” (o‘lkani o‘rganish darsligi), A.Obidovning “O‘zbekiston sotsialistik sho‘rolar jumhuriyati jo‘g’rofiyasi ” darsliklari geografiya ta’limida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. A.Obidovning “O‘zbekiston jo‘g’rofiyasi” darsligi O‘zbekiston geografiyasi ta’limida O‘zbekiston Respublikasini o‘rganishda 1-haqiqiy asar o‘zbek tilida dastlabki geografiya metodikasi paydo bo‘ldi. Uning muallifi N.Monov edi. Geografiya metodikasi suhbatlar metodida yozilgan bo‘lib, u holat kamchiliklarga ega bo‘ldi. Unda kartalar bilan ishlash metodlari yoritilmagan edi.

O‘zbekiston maktablarida geografiya o‘qitish samaradorligini oshirishda 1925-yildan boshlab chop etilayotgan “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining jurnalining roli katta bo‘ldi. Jumladan ushbu jurnallarning 1925-yil 5-6 sonlarida “Jo‘g’rofiyaning

foydasi”, “Lug’at va atamalar”, “Samarqand”, “Maktabda o’lkani o‘rganishning ahamiyati”, “Muz davrining oxirlarida Yevropada qanday irqlar yashadilar”. “Sahroi Kabir” va boshqa o‘nlab geografiyaga oid maqolalar e’lon qilinadi. Bu jurnal geografiya o‘qituvchilariga ilmiy va metodik jihatdan yaqindan yordam berdi. 1931-yil 4 iyuldan “Madaniy inqilob” (keyinchalik “O‘qituvchilar gazetasi”, hozirda “Ma’rifat”) gazetasi chiqa boshladi. Bu gazeta geografiya o‘qituvchilarining haqiqiy yordamchisi bo‘ladi. Unda yuzlab ilmiy, uslubiy maqolalar e’lon qilindi.

Geografiya ta’limida kadrlar yetishtirish masalasi sekin asta yo‘lga qo‘yildi. 1927-yilda Samarqand oliy pedagogika instituti ochildi. 1937-yillar oxirlariga kelib oliy ma’lumotli geografiya o‘qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Bular N.Ibodov, G.Nazarov, I.Mirzaboyev, A.Axrarov va boshqalar edi. 1930-yillarning o‘rtalarida Toshkent, Buxoro, keyinchalik Nukus, Urganch, Qo‘qon, Andijon shaharlarida pedagogika institatlari ochildi. Maktab geografiyasining taqdirini hal etishda maktab geografiyasi va ilmiy geografiyasining taqdiriga 1931-yil 5-sentabr va 1932-yil 25-avgustdagi qarori ta’sir etdi. Geografiyanı boshqa fanlar tarkibida o‘rganishga qat’iy xotima berdi. Geografiyanı boshqa predmetlar orasida teng huquqli bo‘lishga imkon yaratdi. Geografiyaning alohida fan ekanligini isbotlab berdi.

Nazorat savollari:

1. “Geografiya” atamasini qo‘llagan olim kim?
2. “Geografiyaning otasi” taxallusini olgan olim?
3. Moskva shahrida butun Rossiya geografiya o‘qituvchilarining I syezdi qachon o‘tkazildi?
4. 1958-yil 24 dekabrda qaysi qonu qabul qilingan?
5. O‘zbekistonda geografiya o‘qitish metodikasi fanining rivojlanish bosqichlari?
6. IV bosqich nechinchi yillarni o‘z ichiga qamrab oladi?
7. Samarqand oliy pedagogika instituti qachon ochildi?

8. 1931-yil 4 iyuldan qaysi gazeta chiqa boshladi?
9. Geografiyadan na'munaviy dasturlar qachondan paydo bo'ldi?

3-MAVZU: XORIJDA TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA'LIMI

Tayanch so'zlar: yagona o'quv rejasi, dastur, majburiy o'r ganiladigan fanlar, fin mamlakatlari, fakultativ mashg'ulotlar

3.1. Geografiya ta'limdi o'z o'lkasini chuqurroq o'r ganishga bo'lgan talab

Keyingi o'n yilliklarda geografiya o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi ancha yuqori pog'onaga ko'tarildi. Hozirgi kunda geografiya ta'limi jahonning ko'pgina mamlakatlarida 3 ta yo'nalishda olib borilmoqda.

1. Barcha o'quvchilar uchun yagona o'quv rejasi va dasturi asosida (Sharqiy Evropa va sobiq SSSR o'rnida vujudga kelgan) davlatlardir,
2. Bir necha asosiy fanlar qatorida ayrim kurslarni fakultativ tarzida o'r ganish (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Evropaning ko'pchilik mamlakatlarida).
3. Barcha o'quvchilar uchun o'r ganish majburiy bo'lgan fanlar qatorida qo'shimcha fakultativ mashg'ulotlar (Filippin, Frantsiya, Yaponiya va ko'pchilik mamlakatlarda) o'tkazish.

Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda geografiya ta'limi asosan tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslaridan tashkil topgan. Shahar va qishloq joylardagi barcha maktablarda yagona o'quv rejasi asosida o'tkaziladi.

Ikkinchi guruh mamlakatlarida geografiya bilimlari maxsus fanlar tarzida emas, balki integratsiya (birikma) tarzida bo'lib, boshqa fanlar, kurslar tarkibiga qo'shilib ketgan. Bunda geografiyani chuqur o'r ganishni xohlovchilar maxsus fakultativ mashg'ulotlar orqaligina o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. Shu tufayli ham bu guruhdagi davlatlarda geografiya ta'limi bo'yicha yagona davlat rejasi yo'q har bir o'qituvchi maktab joylashgan sharoit nuqtai nazaridan kelib chiqib,

o‘quv programmasini tuzish mumkin. Masalan; AQShda 1700 dan ortiq okrug mavjud bo‘lib, ularning barchasida o‘ziga xos bo‘lgan geografik ta’lim mavjud va bir - biriga o‘xshamaydigan programmalar bo‘yicha ish yuritiladi.

Uchinchi guruh mamlakatlarida geografiya majburiy o‘rganiladigan fanlar qatoriga kirmaydi va uni fakultativ mashg’ulotlar orqali o‘rganish asosiy o‘rinni egallaydi. Umuman olganda Evropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida barcha o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan fanlar qatorida, xilma - xil murakkablikdagi fakultativ kurslar turi keng tarqalgan.

Jahon tajribasida 3 bosqichli ta’lim tizimi asosiy hisoblanadi, ya’ni: boshlang’ich maktab 1 - 4 sinf, o‘rta bosqich 5 – 9 sinf, yuqori bosqich 10 - 12 sinf. Har bir bosqichda geografiya ta’limi o‘ziga xos maqsadga ega. Masalan, birinchi bosqich maktablarida geografiya ta’limining asosiy maqsadi atrof - muhitni o‘rganish. Ikkinci bosqichda o‘z mamlakatining xo‘jalik hayotini o‘rganish, zarur kasblar haqida ma'lumotlar olish, ta’limiy ko‘nikma va malakalarini shakillantirishdan iborat. Uchinchi bosqichdagi maktablarda insoniyatning global muammolarini va jahon xo‘jaligini o‘rganishdan iborat. Jahon tajribasida geografiya o‘qitishning ahvoli muhim emas. Shu tufayli uni o‘quvchilarga o‘rgatish bo‘yicha 2 fikr (yunalish) tarafдорлари bor.

Birinchi yunalish tarafдорларining fikri o‘quv rejalarida geografiyani mustaqil fan sifatida muntazam o‘qitishni amalga oshirish bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish tarafдорлари geografiyani boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiya (birikma) tarzida qo‘shib o‘qitishni isbotlab berishga urinadilar.

O‘quv fanlarini biriktirish borasida AQSh jahonda yetakchi bo‘lib, 40 - 50 yillardagi ta’lim islohatida ko‘pgina fanlar qatori geografiya majburiy o‘rganiladigan fanlar qatoridan chiqarib tashlandi va tarix, jamiyatshunoslik bilan birlashtirildi. Geografiyani bunday o‘qitish o‘quvchilarga talay qiyinchiliklarni tug’dirdi. Natijada geografiya ta’limining sifati juda pasayib o‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmay qoldilar. Masalan, Michigina universitetining geografiya fakultetida o‘qitish uchun ariza bergen 400 o‘quvchining yarmi geografiyani faqat boshlang’ich sinflarda o‘qiganlari malum bo‘ldi. Shu tufayli

ham hozirgi kunda AQSh da geografiyani mustaqil fan sifatida tiklash uchun kurash ketyapti.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida fanlarni o‘rganish ixtiyoriy bo‘lib, o‘quvchilar xohish istaklari ostida amalga oshiriladi. Bu gruppaga kiruvchi mamlakatlarda majburiy fanlar soni 7 - 8 tadan oshmaydi. Masalan, Finlandiya va Shvetsiyada fin va shved tili, iqtisod va sotsiologiya, biologiya, ximiya, ingliz tili, din va sport majburiy fan hisoblanadi.

Fin mamlakatlarida 9 - yillik majburiy ta’limdan keyin sifisiz gimnaziyalar keng tarqalgan. Bunday gimnaziyalarda o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi o‘ziga yillik o‘quv rejasi tuzadi. Bunday gimnaziyalarda o‘quv rejalarini kurs rahbarlari va ma’muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

Gimnaziyada o‘quv yili 6 davrga bo‘linadi. Har bir davr 6 haftadan iborat bo‘lib, kurslar 32 soatdan tashkil topadi. Har bir kursdan bittadan fan kuniga bir soatdan o‘qiladi. Gimnazist kuniga 4-7 soat o‘qiydi. Sport darslari mashg’ulotdan keyin o‘tkaziladi. Har davr yakunida o‘quvchilar bilimi baholanadi. Agar o‘quvchi qoniqarsiz baho olsa, u shu kursni qaytadan tanlaydi. Deyarli ko‘pchilik mamlakatlarda geografiya ta’limi tizimi davlatning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog’liq. Tabiiy va iqtisodiy geografiyani o‘rganish asos qilib olingan sobiq SSSR va Sharqiy Evropa mamlakatlarida tabiat va xo‘jalikning rivojlanish qonuniyatları, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, atrof - muhit muammolari geografiya ta’limining asosini tashkil qiladi.

3.2. Rivijlangan mamlakatlarda tabiiyot va geografiya ta’limi

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda geografiya ta’limining mazmuni sifat jihatidan yuqori bo‘lib, o‘quvchilar ma'lum ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu davatlarda geografiya ta’limi ko‘proq muammolarni, turli nazariya va qonunlarni, kategoriyalarni o‘rganishga bag’ishlangan bo‘lib, o‘quvchilarga o‘zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklar tug’diradi. Rivojlangan g’arb mamlakatlari geografiya talimida talimning ruhiy jabhalari asosiy o‘rinni egallagan. O‘quvchi ruhiyati, uni bilish faoliyatini o‘rganish katta e’tibor beriladi.

Geografiya ta’limi tadqiqotlari psixologlar ishtiroksiz deyarli amalga oshirilmaydi. Geografiya ta’limida turli matnlar, o‘yinlar, imitatsiya keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchi biror kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal hiladi, o‘zi xulosalar chiqaradi. Umuman bunda talimning asosiy maqsadi o‘quvchilarni kelgusi hayotga, ya’ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat. Turli mamlakatlardagi geografiyadan o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularda bitta kursni o‘qish uchun bir necha qo‘llanma chiqariladi. Ko‘pchilik hollarda ular ma’lumotlarga boy bo‘lib, axborot xususiyatiga ega. Bunday qo‘llanmalarda matn 20-40 foizni, tasvir 20 foizni, statistika 20 foizni, savol va topshiriqlar 20 foizni tashkil qiladi. Kitobdagagi tasvirlar nixoyatda sifatli. Quyi sinflar qo‘llanmalarida esa deyarli xarita yo‘q, ular o‘rnini xarita sxemalar egallagan. Tektsda raqamli sonlar deyarli uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash xarakteriga ega bo‘lib, ular eng past, eng yuqori, eng kichik, eng baland, eng uzun kabi tarzlarda berilgan. Mavzu yoki bo‘limdan keyin qo‘yiladigan savollar va topshiriqlar mavzu mazmunini aks ettirmasligi ham mumkin. Qo‘yiladigan savollarning aksariyati muammoli topshiriqlar, diskussiya savollari, amaliy o‘yinlar tarzida berilgan. O‘quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarida kompyuterlar bilan ishslash uchun maxsus savollar, qiziqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o‘yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallahsga keng o‘rin berilgan. O‘quvchilar ularni mustaqil bajarish jarayonida tadqiqotchi rolini o‘ynaydilar. Demak, geografiya darsligi kapitalistik mamlakatlar geografiya ta’limi metodikasida eng yetakchi o‘rinni egallaydi.

Angliya geografiya ta’limi kuchli tomonlari quyidagilardan iborat; Ta’limning nazariy tomonlarini kuchaytirish, ya’ni unda hozirgi zamon geografik tadqiqot metodlarini ko‘proq o‘rgatish. Geografiya talimi jarayonida psixologik-pedagogik tadqiqot metodlaridan unumli foydalanish, o‘quvchilarni gipotezalar tuzishga o‘rgatish. Darslikda turli mazmundagi eksperimentlar uysushtirish, ya’ni tasavvur, tushuncha va turli xil qarashlarni shakllantirish metodlariga keng o‘rin berilgan, biror usulni sinash, ta’limni uysushtirish shakllari ancha zaif.

O‘rganilayotgan muammoni muallif fikri asosida va unga qarshi asosda o‘rganish. 5 - 8 sinflarda geografiyani haftada 2 soat naqt ajratilgan. Bu sinflarda asosiy Yevropa va Yevropadan tashqari mamlakatlar geografiyasi o‘rganiladi. Topografiya va kartografiya asoslari bo‘yicha ham bilimlar beriladi. O‘qituvchilar diqqatiga bir necha variantdagi darsliklar tavsiya etiladi. «Mamlakatlar va xalqlari», «Yer va inson», «Yangi geografiya», «Yer bilimi» va hakoza. 9-10 sinflarda geografiya mustaqil fan sifatida o‘rganilmaydi desa ham bo‘ladi. Ayrim «Yerlardagina» qiziquvchi o‘quvchilar bilan Yevropa va Germaniya geografiyasi chuqur o‘rganiladi. Bu kurslarda mamlakatlar iqtisodi, siyosiy va davlat tuzumiga oid bilimlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Keyingi paytlarda geografiya, tarix, sotsiologiya iqtisod bilimlari birlashgan kurslar orqali unitishga e’tibor kuchaymoqda.

Gemaniyada ayrim joylardagina geografiya qisman mustaqil fan sifatida o‘qitiladi. Ba’zi geografik bilimlar birlashgan kurslar turkumidagi fanlarda ham boriladi. Yuqori sinflarda geografiya fanlarida mujassam muammolarni o‘rganishga ko‘proq e’tibor beriladi. Masalan, «Insoniyatning ko‘payishi», «Ocharchilik muammolari», «Transport muammosi», «Sanoat markazlarida inson hayoti», «Sanoat ekonomikasi» va hakazo.

Frantsiya maktablarida geografiya ta’limi birmuncha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Geografiya o‘qitishning maqsadi va vazifalari juda aniq belgilab qo‘yilgan. Frantsiya geografiya programmasi ikki bosqichli maktablarga mo‘ljallangan edi. Shunisi qiziqli Frantsiyada sinflar teskari hisob bilan yuritiladi. 1 – bosqich maktab 6,5,4,3 (o‘quvchilar yoshi 11-15 gacha). Oliy ma’lumot olish faqat litseylarda amalga oshiriladi. 2 -bosqich, 2,1 va bitiruvchi (15 - 17 yosh) sinflardan iborat: Geografiya talimi 6 - sinfdan boshlanadi, bunda «umumiyligining geografiya va Afrika materigi» o‘rganiladi. 5 - sinfda Amerika, Osiyo, Avstraliya, Antarktida, 4 - sinfda Evropa (Frantsiyadan tashqari), 3-sinfda Frantsiya geografiyasi o‘qitiladi. Litseyda o‘qishni davom ettirish 2,1 va bitiruvchi sinflarga to‘g’ri keladi. 2 - sinfda geografiya programmasi kollejda olgan (6-5-4-3) bilim va ko‘nikmalar chuqurlashtiriladi.

Vengriya maktablarida geografiya ta’limi 7 yil davom qiladi. 4 yil asosiy (5 - 8 sinf) va 3 yil (9-10-11 sinf gimnaziyada). Darslar haftada 2 soat. Geografiya ta’limi jarayonida 65 % vaqt yangi mavzuni bayon qilishga, 3% ekskursiyalarga, 29 % amaliy mashg’ulotlarga ajratiladi. Keyingi paytlarda Vengriya gimnaziyalarida geografiyaga ajratilgan soatlar kamaytirilishi kuzatilmoxda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalq maorifiga keyingi yillarda katta e’tibor berilmoqda. Masalan, Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida 1985 yilgacha xalq ta’limi uchun ajratilgan mablag’ 20 barobardan ortiq o’sdi. Ayniqsa, Malayziya, Saudiya Arabiston, Iordaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Suriya, Hindiston, Pokiston, Turkiya kabi malakatlarda xalq maorifi rivojlanishi ancha yuqori bo‘ldi. Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlarda bolalar 5 - 7 yoshdan boshlab mактабга bora boshlaydilar. Bangladesh, Birma, Livan, Pokiston, Shrilankada mактабга 5 yoshdan boradilar. Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlarda majburiy talim 5 yildan 10 yilgacha, o‘rta maktabda o‘qishni davom ettirish esa 4 yildan 8 yilgacha.

Geografiya uchun programmalari ko‘pchilik davlatlarda bir xil bo‘lib, mamlakatning tabiiy va iqtisodiy geografiyasini o‘rganishga bag’ishlanadi. Keyingi paytlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘quv programmalari geografiya darsliklari mamlakat xalq xo‘jaligi extiyojlarini e’tiborga olgan holda tuzilmoqda va yaratilmoxda.

Nazorat savollari:

1. Jahonning qaysi mamlakatlarida fanlarni o‘rganish ixtiyoriy bo‘lib hisoblaniladi?
2. Bangladesh, Birma, Livan, Pokiston, Shrilankada mактабга necha yoshdan boradilar?
3. Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlarda majburiy talim necha yilgacha?

4-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMINING TARKIBI VA MAZMUNI

Tayanch so‘zlar: kasb–hunar kollejida ta’lim, bilish faoliyati bosqichlari, ta’lim jarayonini boshqarish muammolari, induktsiya va deduktsiy, refleksiya, Umumiy metodlar, deduktiv, bilim, ko‘nikma, malaka, metodologiya, matnlar, so‘rovnoma, kuzatish, ilmiy texnika inqilobi, iqtisodiy ehtiyoj, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tabiiy jarayonlar gravitatsiyasi, ekologik ehtiyojlar, ekologik madaniyat.

4.1. O‘zbekistonda maktab geografiyasi taqdiri

O‘zbekistonda maktab geografiyasi taqdirini hal qilishda 1934-yil 15 may qarori alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Qarorda boshlang‘ich va o‘rta maktablarda geografiya o‘qitilishining sifatsizligi, kartalarning maqsadga muvofiq emasligi, mavzularning quruqligi, darsliklarning raqamlar bilan to‘laligi. Ayniqsa maktabni bitirib chiqayotgan o‘quvchilarning geografiyadan bilimlarining sayozligi va sifatsizligi tanqid ositiga olinadi. Qaror geografiyani qanday o‘qitish to‘g‘risida har bir sinfda geografiya fanlarini o‘qitishda ayrim ko‘rsatmalar berdi. Bu qarorga muvofiq geografiya ta’limi 3 bo‘g‘incha bo‘lib o‘qitala boshlandi (boshlang‘ich, yetti yillik, o‘rta). Geografiyadan haftalik soatlar bir muncha ko‘paydi. Bu qaror o‘quvchilar yoshini e’tiborga olgan holda ko‘rgazmali va qiziqarli bayon qilishni talab qiladi. 1934-1935 o‘quv yilidan boshlab yangicha dasturlar o‘tildi.

Bu dasturlarga asosan yangi darsliklar, ilmiy ommabop adabityolar, atlas, kartalar, o‘qituvchilar uchun o‘quv metodik qo‘llanmalarni yaratishga kirishildi. 1934-yilgi qaroridan keyin «География в школе» jurnalining chiqa boshlashi nafaqat Rossiyada, balki O‘zbekistonda ham geografiya ta’limini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ilg‘or o‘qituvchilarda oliy va o‘quv yurtlari o‘qituvchilari geografiyadan yaratishga jalb etildi. Darslarda o‘quvchilarning mustaqil va amaliy ishlariga e’tibor kuchaydi. 1935-yilda O‘rta Osiyo universitetida geografiya-geologiya fakulteti tashkil etildi. 1935-1940 yillar

mobaynida O‘zbekistonda pedagogika institutlarining aksariyatida geografiya mutaxasisligi ochildi. 1943-yilgacha Respublikada 10 ga yaqin o‘qituvchilar instituti ochildi. Ularda geografiya o‘qituvchilari ehtiyojlarini hisobga olib, metodik yordamlarini kuchaytirish maqsadida o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari, ular bazasida esa geografiya kabinetlari va kafedralari tashkil etiladi.

Geografiya ta’limi har tomonlama rivojlanishida N.N.Baranskiyning xizmatlari katta. U mualliflik qilgan iqtisodiy geografiya darsligi 20 yil mobaynida muntazam rivojlanishda nashr etilib ko‘rildi. N.N.Baranskiy «O‘qituvchi-ta’lim jarayonida markaziy figura» deb qayta-qayta ta’kidlagan. U geografiya ta’limida yetakchi o‘rinni karta va ko‘rsatmalilik egallashi zarur deb «Karta-geografiyaning ikkinchi tilidir», «Karta-geografiyaning alifbosi», «Birgina karta bir necha varaq matnning o‘rniga o‘tadi» degan o‘lmas fikrlar va g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydi. N.N.Baranskiy geografiya o‘qituvchilari tayyorlash ishiga ulkan hissa qo‘shtagan shaxsdir.

2-jahon urushi ham geografiyaga ta’limiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. Ko‘pgina geografiya o‘qituvchilari frontga jo‘nab ketdilar. Oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash izdan chiqdi. O‘quv qo‘llanmalar umuman yetishmay qoldi.

Urushdan keyingi yillarda maorif sohasida talaygina yutuqlar qo‘lga kiritila boshlandi. Dastlab 4 yillik, keyin 7 va 8 yillik (majburiy) to‘liq o‘rta ta’limga bosqichma-bosqich o‘tilishi, ta’lim mazmunini tubdan qayta qurishga yordam berdi. Bu davrda geografiya o‘qituvchilari diqqati ko‘proq o‘quv jarayonini amaliyot bilan bog‘lashga qaratildi. Geografiya ta’limini hayot bilan bog‘lash borasida tabiiy sharoitning xalq jo‘jaligidagi ahamiyatiga katta e’tibor berildi. o‘z o‘lkasi geografiyasini o‘rganish va o‘z joyining kartasini chizish, ob-havoni kuzatish, o‘z joyidagi barcha tabiiy komponentlarini kompleks o‘rganish geografiyanı turmush bilan bog‘lashga qaratildi.

Maktabda o‘quvchilarning mustaqil ishlariga katta e’tibor berildi. O‘zbekiston geografiyasini o‘rganishga bir muncha e’tibor kuchaydi. 1953-1954 o‘quv yillaridan boshlab amaliy mashg‘ulotlarni uyushtirish majburiy tarzda,

maktab geografiya dasturlariga kiritildi. O‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashga e’tibor kuchaydi. 1958-yil 24 dekabrda Oliy Sovetning maktab haqidagi qonuni geografiyaning takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu qonun boshqa fanlar qatori geografiya ta’limini ishlab chiqarish mehnati bilan yaqinlashtirishga e’tiborini kuchaytirdi.

Geografiya ta’limida o‘z o‘lkasini chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan talab oshdi. O‘zbekistonda geografiya ta’limini takomillashtirishda bir qancha ilmiy maskanlar va oliy o‘quv yurtlari qatori Pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutlaridagi geografiya laboratoriyasining xizmatlari katta bo‘ldi. Bu institut geografiya laboratoriyasida P.Musaev rahbarligidagi metodist geograf olimlar mактабда geografiya o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha qator izlanishlar olib bordi. P.Musaev o‘sha mustamlaka yillarda ham hadiksiramasdan milliy mактаб muammolari bo‘yicha g‘oyat dadil fikrlarini ilgari surdi.

1960-yildan boshlab geografiya ta’limi metodikasiga oid maxsus qo‘llanma va darsliklar nashr etila boshlandi. O‘sha davrlarda O‘zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, H.Hasanov, N.Daminov, Z.Akramov, O.Mo‘minov, M.Nabixonov, I.Mirzaboev va boshqalarning xazmatlari katta bo‘ldi. Umumta’lim mакtablari va oliy o‘quv yurtlari uchun geografik adabiyotlar, darslik va metodik qo‘llanmalarni tarjima qilish keng tus oldi. Bunda H.Hasanov, P.Sultonov, M.Qoriev, P.G‘ulomov, R.Rahimbekovlar unumli mehnat qildilar. Jumladan N.F.Kurazovning « Geografiya o‘qitish metodikasi » (1962), P.Budanovning « Tabiiy geografiya metodikasi » (1905), A.V.Darinskiyning « Geografiya o‘qitish metodikasi » (1964), N.Dalimovning « O‘zbekiston tabiiy geografiyasi » yangi darslik bo‘lib chiqadi. 1960-yillardan boshlab O‘zbekistonda geografiya ta’limi metodikasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O.Mo‘minov « O‘zbek mакtablarida tabiiy geografiya o‘qitish masalalari » (1967), T.Abdullaeva « Tabiiy geografiya o‘qitishda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish » (1967), M.Nabixonov « Geografiyada badiiy ko‘rsatmali vositalarining roli va qo‘llanilishi » (1969),

M.Asanov « Topografiyadan amaliy mashg‘ulotlar uyuştirish » (1970), M.Yunusova « Geografiya ta’limida natural qo‘llanmalardan foydalanish » (1985), R.Qurban niyozov « Geografiyadan fakultativ mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatga yo‘naltirish » (1986) mavzulari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. O‘rta va Oliy maktablarda geografiya o‘qitish metodikasini rivojlantirishda H.Hasanovning xizmatlari katta bo‘ldi. Professor Hamidulla Hasanov o‘quvchilar va geografiya o‘qituvchilari uchun o‘nlab ilmiy maqolalar, ilmiy ommabop adabiyotlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etdi va nashr ettirdi. Bular: « Geografiya terminlari lug‘ati » (1964), « Sayyoh geograflar » (1975), « Yer tili » (1967), « Maxmud Qashg‘ariy » (1965), « Geografiya imlosi » (1962), va boshqa bunga misoldir. H.Hasanov geografiya metodikasiga doir ishlarida o‘quvchi va talabalarning mustaqil ishlari, metodlari, bilimlarni nazorat qilishning o‘ziga xos tomonlarini ishlab chiqdi, rivojlantirdi, takomillashtirdi.

1960-1970 yillar oralig‘ida geografiya o‘qitish metodikasiga oid o‘nlab o‘quv qo‘llanmalari chop etildi va tarjima qilindi. Bular: M.Qorievning « O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi » (1964-1968 yillarda). O.Mo‘minov, Ye.Belskaya 2-3 sinflar uchun « Tabiatshunoslik », M.Qoriev, N.Dolilov, O.Mo‘minov « O‘zbekiston tabiiy geografiyas i» (7-sinflar), Z.Akramov, P.Musaev «O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi » (8-sinflar), M.Nabixonov, E.Safarov, G.Asanovning « O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi » (oliy o‘quv yurtlari), P.Musaev « O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasini o‘qitish » (1977), O.Mo‘minov « Geografiya ta’limi metodikasi » (1978), P.Musaev, R.Qurban niyozovning « Geografiya darslarida ta’limning texnika vositalaridan foydalanish » (1990) kabi o‘nlab darslik o‘quv va metodik qo‘llanmadari chop qilindi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu davrlarda geografiya metodikasining erishgan yutuqlari bevosita o‘qituvchilari amaliyoti bilan muntazam bag‘langan edi. Bu avvalo geografiya ta’limi metodlari bo‘yicha mahalliy sharoitni e’tiborga oladigan nazariyalar paydo bo‘ldi. Bu nazariyalar asosi – « Geografiya v shkole », « Sovet maktabi » jurnali, « O‘zbekiston geografiya jamiyat » to‘plamlarida o‘z aksini topdi.

Respublikamizda atlas kartalar, yozuvsiz kartalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining nashr etilishi, yuqoridagilarni tasdiqlashi mumkin. Eng muhimi dasturlarda mavzularni o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Ammo shuni takidlash kerakki, chop etilgan metodik adabiyotlarning ko‘pchiligi chuqur izlanishlarsiz, tadqiqot uyushtirmasdan, eksperimentlarsiz nashr etilishi hollari bo‘ldi. Eksperimental tadqiqotlar orqali nashr etilgani ishlar saviyasi ham hayot talablariga unchalik javob bermadi. Ularda o‘quvchilarda zarur ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonlari mavjud edi.

O‘zbekistonda 1969-1970 o‘quv yilida geografiyadan yangi dasturlar joriy etildi. U 1980-1981 o‘quv yiligacha amal qildi. Bu dastur bir muncha takomillashtirildi. Har bir geografiya kursi uchun zarur amaliy ishlar qat’iy qilib qo‘yildi. Birinchi marta dasturda mavzular bo‘yicha fanlararo aloqalar, o‘quvchilar bilimi ko‘rsatildi.

Umumta’lim maktablarni takomillashtirish va rivojlantirishda maktabni isloh qilishga tayyorgarlik ishlari ko‘rib chiqildi. Isloh geografiya ta’limi mazmuniga ham ta’sir qilmasdan qolmadi. Maktab geografiyasi kurslari tarkibida ham ba’zi o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Ta’limning 11 yillik tizimga o‘tish bilan geografiyani o‘qitishda ham mehnat ta’limi kasb-hunar yo‘nalishiga e’tibor kuchaytirildi.

4.2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda geografiya ta’limi

Mamlakatimiz o‘z mustaqillikga erishgach respublika xo‘jaligining barcha sohalarida bo‘lganidek ta’limda ham tub islohotlar davri boshlandi.

1992-yilda ilk bor O‘zbekiston respublikasining « Ta’lim to‘g‘risida » gi yangi qonuni qabul qilindi. Uning 3-moddasida « Ta’lim dasturlari » ni tanlashda yagona va tabaqlashtirilgan yondashuv zarurligi ta’kidlangan. Bu qonunga asosan mamlakatimizda geografiya ta’limida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Yangi mazmundagi o‘quv dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Dasturlar asosida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik adabiyotlari yaratishga kiritildi. SSSR tabiiy va iqtisodiy geografiyani mukammal o‘rganish o‘rniga o‘z respublikalarini, shu

sohadagi geografiyalarini atroflicha o‘rganishga e’tibor qaratildi. Ta’lim muassasalarini ilmiy maktab uchun zarur bo‘lgan didaktik vositalar bilan ta’minalashga, o‘quv muassasalarini attestatsiya va akreditatsiya o‘tkazish tizimi kiritildi va amalga oshirildi. Asta-sekin milliy ta’lim tizimi shakllana boshladi. Metodik olim Musaev rahbarligida geografiya o‘qitishga oid milliy ta’lim konsepsiysi ishlab chiqildi. Milliy maktablarda geografiya o‘qitish mazmunan va deyarli o‘zgardi. Horijiy mamlakatlar bilan ta’lim sohasi bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ulardan ilg‘or pedagogik texnologiya tanqidiy nuqtai nazarda ko‘rib chiqldi. Mamlakatimizda tashkil qilingan « Ustoz » jamg‘armasi orqali ko‘pgina geograflar horijiy mamlakatlarda bo‘lib ularning tajribalarini o‘rganib qaytdilar va hokazo. Amalga oshirilgan tadbirlar tufayli mamlakatimizning o‘ziga xos milliy ta’lim tizimi shakllanib, uning moddiy bazasi mustahkamlanib bordi. Mamlakatimizda yangi turdagи o‘quv muassasalari, litseylar, gimnaziyalar, kollejlar tashkil qlindi. Ularda ta’lim tizimi deyarlik yangidan uyushtirildi. O‘quvchilarni tabaqa lab o‘qitish joriy etildi. Ammo bu tadbirlarning barchasi mafkuraga sodiq xodimlarini tayyorlashga da’vat etilgan sobiq ta’lim tizimining yangilash borasidagi dastlabki qadamlar edi.

Endilikda mamlakatimizda « Kadrlar tayyorlash milliy dasturi » ga muvofiq maqsad, mazmun, vazifalar, boshqarish, tashkil etish va xalqimizning milliy-madaniy an’analariga mos keladigan tamoman yangicha « ta’limiy xizmat » ni shakllantirishga kiritildi. Bunday ta’limiy xizmatning metodalagik negizini prezident I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan « Jamiyat mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin» degan g‘oya yotadi. Uning pedagogik asosini esa har bir shaxsning qobiliyati va iste’dodini rivojlantirish, takomillashtirishi orqali jamiyatning quyidagi ta’limiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish tashkil qiladi. Ana shunday konsepsual g‘oyalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi maktabni, shaxs va jamiyatni rivojlantirishga, ta’limning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini e’tiborga olib demokratiya hamda insonparvarlik tamoyillari asosida boshqarishga undaydigan mexanizm sifatida boshqa fanlar qatori geografiya ta’limda ham tayanch o‘quv tizimi vujudga keldi. Bu mexanizm

jamiyatning geografiya ta’limiga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmasi, davlat talabi bilan bolaning shaxsiy imkoniyati mayli o‘rtasidagi tafovutni muvozanatlovchi vositadir. Yuqoridagi g‘oya va fikrlar hamda konsepsiylar asosida mamlakatimizda geografiya ta’limining mazmuni va tuzilishi quyidagi tazimda barpo etildi.

Umum ta’lim maktablarida:

5-sinf « Tabiiyot » (1999-2000 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich tabiiy geografiyasi);

6-sinf « Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi »;

7-sinf « Turkiston tabiiy geografiyasi » (I-yarmida);

« O‘zbekiston tabiiy geografiyasi » (II-yarmida);

8-sinf « O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi »;

9-sinf « Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi ».

Akademik litseylarda:

1-kurs Ekologiya asoslari;

2-kurs Amaliy geografiya;

3-kurs Iqtisodiy geografiya.

Kollejlarda iqtisodiy geografiya asoslari o‘qitish tarzida belgilanadi.

Mustaqillik yillarda geografiya ta’limi mazmuni va maqsadi o‘zgarish munosabati bilan dastlabki paytlarda geografiya o‘qituvchilari talaygina qiyinchiliklarga duch keldilar. Bular avvalo o‘quv qo‘llanmalari va vositalarning yetishmasligi bilim berishda faqat o‘qituvchining yetakchilik qilishi, o‘quvchilarning esa oddiy ishtiroki bo‘lishi hukm surdi. Aksariyat o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amalda qo‘llash almasliklari ma’lum bo‘ldi. O‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlarida muammoli metodlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish bilmadilar.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi ToshDU Geografiya fakulteti olimlari tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan dasturlari hozirgi davr talablariga birmuncha javob berishi bilan ajralib turadi. Ammo o‘rta maktablar uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari oliy ta’limda aks etgan bilimlar tizimidan barmuncha ajralib qolgan. Ayniqsa « Boshlang‘ich tabiiy geografiya », « Materiklar va

okeanlar geografiyasi «, « Turkiston tabiiy geografiyasi « kurslari talablar darajasida emasligi tajribalarda ayon bo‘ldi.

Bu muammolarni hal etish uchun respublikamizdagi butun geografiya olimlari, metodistlari faollik etishlari zarur bo‘ladi. Shu tufayli ularni zamon talablari darajasida yozish uchun tajribali olimlar taklif etildi. Mustaqillik yillarida o‘nlab ilmiy-ommabor, o‘quv-metodik adabiyotlar yaratildi va geografik mazmundagi adabiyotlarni yozishga kirishildi.

5-sinfda « Tabiiyot » kursi A.G‘ulomov, A.Musaev, A.Bahromov muallifligida chop etildi.

6-sinf uchun « Boshlang‘ich tabiiy geografiya » va « Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi » A.Bahromov, R.Qubonniyozov, Maxammadieva muallifligida chop qilindi.

7-sinf uchun « Turkiston tabiiy geografiyasi » P.G‘ulomov, X.Vaxobov, A.Xasanov, « O‘zbekiston tabiiy geografiyasi » A.Mo‘minov, P.Baratov, M.Mamatqulov, R.Rahimbekovlar muallifliklarida o‘quvchilar diqqatiga havola etildi.

8-sinf uchun « O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi » (Z.M.Akramov, P.Musaev) darsligi qayta ishlandi.

9-sinflarda o‘qitiladigan « Jahonning iqtisodiy geografiyasi » dasturi bilan darsligi o‘rtasida nomuvofiqliklar mavjud. Chunki bu darslik Rossiya uchun yozilgan darsliklarning aynan tarjimasi hisoblanadi. Dasturda mavjud bo‘lgan ko‘pgina bilim va mavzular darslikda yo‘q. Holbuki, o‘quvchilar dunyosining turli regeonlarida joylashgan mamlakatlarni, ularning aholisi, xo‘jaligi va boshqa xususiyatlarni O‘zbekiston bilan taqqoslash imkoniyatlariga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Shu tufayli bu darslikni jahon standartlari darajasida yaratish olimlarimiz oldida turgan eng muhim muammolardan biridiro. Geografiya darsliklaridan tashqari o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun o‘nlab metodik adabiyotlar chop etildi: bular R.Qurban niyozov, Xoliquvlarning oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun « Geografiya » ma’lumotnomasi (1993), R.Qurban niyozov « O‘zbekiston

geografiyasi «, (qiziqarli savol va topshiriqlar). R.Qurban niyozov « Umumiyl tabiiy geografiyasi « (1999). P.Baratov « O‘zbekiston tabiiy geografiyasi « (1996). T.Asomov, M.Nabixanov, I.Safarov « O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi», P.G‘ulomov « Inson va tabiat «(1992) va boshqalar tomonidan ko‘plab adabiyotlar geografiya o‘qituvchilariga havola etildi.

Aksariyat viloyatlarning tabiiy va iqtisodiy geografiyalari yaratildi: Farg‘ona (Abdug‘aniev), Surxandaryo (A.Ro‘ziev), Buxoro (I.Nazarov), Xorazm (R.Qurban niyozov) mualliflida amalga oshirildi.

Ilmiy va metodik adabiyotlarning chop etilishi geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha chuqur tadqiqotlarning amalga oshirilishi hamda ta’limning barmuncha takomillashuvi tufayli geografiyani o‘qitishni tashkil qilish borasida talaygina yangilik vujudga kelishga sabab bo‘ldi. O‘qitish jarayonida baholash tartiblarining o‘ziga xos shakllari, metodlari yaratildi. Geografiya ta’limida o‘quvchilar bilimini tekshirishning reyting tizimi jadallik bilan joriy etila boshlandi. Bu tizim orqali o‘quvchilarning nazariy, amaliy bilimlarni tekshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Reyting tizimi o‘quvchilarning mustaqil yoshlarini mukammal baholash imkoniyatlarini yaratdi. Maktab ta’limi jarayonida reyting tizimi bilan bir qatorda test nazorat qilish metodikasi ham kirib keldi.

Bu metod o‘qituvchining vaqtini tajash, o‘quvchilar bilimini serqirra baholash imkonini yaratdi.

Shu jihatdan olganda test savollariga bag‘ishlangan metodik adabiyotlar, jumladan axborotnomalarning nashr etilishi ayni muddao bo‘ldi. 1992-yildan respublikamizning barcha oliy o‘quv yurtlarida kirish imtihonlarining test metodida amalga oshira boshlanishi ham katta samarali natijalarga olib keldi. Mustaqillik yoshlarida talaygina o‘quv vositalari yaratildi. Ma’lumki, geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida kartasiz dars olib borish mumkin emas. Respublikamizda o‘quv xaritalarini nashr etish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. O‘tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tabiiy xaritasi, O‘zbekiston respublikasining tabiiy, iqtisodiy, iqlim, ekologik aholi zichligi, dunyoning siyosiyl

ma'muriy va boshqa kartalarini nashr etildi. 1999-yilda Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston geografiya atlasi chop qilindi. 7-8-9-sinflar uchun atlas va konturli kartalar nashr qilindi. Ammo dunyoning turli mazmundagi kartalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalari nashr etishda sustkashlikka yo'l qo'yildi.

Xorijiy ilg'or mamlakatlarda kartalar va boshqa didaktik materiallarni disketga kiritib, o'quv disketlarini yaratish yo'lga qo'yilgan. Buni bizni respublikamizda amalga oshirish uchun qulayliklar mavjud. Yuqori saviyadagi geografiya darsliklari, o'quv metodik adabiyotlarni, atlas kartalar, ta'lim vositalarini yaratish uchun muntazam ravishda tanlovlardan e'lon qilib turish maqsadga muvofiq.

2000-2007 yillar davomida maktab geografiya o'qitish metodikasi sahasida Respublikamizda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Shulardan A.Abduraxmonov «Geografiya darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish» mavzusida, A.Xaitov «Geografiya darsliklarda o'quvchilarga ekalogik ta'limtarbiya berish» mavzusida, Q.Baxramov «Geografik hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida ta'lim samaradorligini oshirish», R.Gaipova «Geografiya darslarida ko'rgazma didaktik qurollardan foydalanish» mavzularida ilmiy-tadqiqot ishlarini yakunlab ta'limning samarali metodlarini qo'llab geografiya o'qitish metodikasi fanining rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

4.3. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida geografiya fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiysi O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni va 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimining 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori hamda 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”da belgilangan vazifalar yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya ta’lim tizimida geografiya fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

Jumladan:

- ta’lim sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya, Janubiy Koreya mamlakatlarining ta’lim sohasidagi tajribasidan foydalanib, milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;
- geografiya fanidan Davlat ta’lim standarti talablarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;
- geografiya fani bo‘yicha umumiyo‘rtta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini amaliyatga tatbiq etish;
- geografiya fanini umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;
- geografiya fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- geografiya fanining mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan geografik va geologik bilimlarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;
- geografiya fanini o'qitishda variativ o'quv modullarini ishlab chiqish;
- umumiy o'rta ta'lif jarayoniga geografiya fanini o'qitishda milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) fanini o'qitishda o'quvchilarda ekologik tarbiyaning samarali shakl va usullarini keng joriy etish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) fanini o'qitishda o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda geografik qonuniyatlarni hisobga olish ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda geografiya fani bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta'lifning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) fani bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;
- geografiya fanining metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limi me’yoriy hujjatlarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limi bo‘yicha maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini uzviyligini ta’minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limi mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o‘qitishning yangi yo‘nalishdagi metodikasini ishlab chiqish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida geografiya ta’limining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash va bitiruvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish orqali hayotga tayyorlash ishlarini tashkil etish;
- geografiya ta’limi mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan geografik va geologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida tizimli o‘quv modullarini ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta’minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;
- geografiya (tabiiy fanlar (Science) bilan) ta’limining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va budjet mablag‘lari bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

– me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish.

Nazorat savollari:

1. O'rta Osiyo universitetida geografiya-geologiya fakulteti qachon tashkil etildi?
2. Geografiya ta'limi har tomonlama rivojlanishida kimning xizmati katta?
3. Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston geografiya atlasi nechinchi yilda chop qilindi?
4. 6-sinflar uchun «Boshlang'ich tabiiy geografiya» va «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» darsligining Muallifi kim?
5. O'zbekiston Rezpublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni 17-moddasining mazmun mohiyati?
6. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga nimalar kiradi?
7. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari?

5-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QITISH METODLARI

Tayanch so'zlar: Metod, didaktika, universal metod, ta'lim-tarbiya, Interfaol ta'lim, muhokama usuli, interaktiv, demonstratsiya, pinbord usuli, ko'rsatmali qo'llanmalar, birlamchi manbalar,


5.1. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarii amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish metodlari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga

oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’lim metodini hosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo‘li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta yo‘llardan oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo‘lni aytiladi. Masalan, savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, maktabda o‘rgatish, maktabgacha ta’lim muassasasida o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazma qurollar va boshqalar vositasida o‘rgatish. Shunga o‘xhash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqoridagiga o‘xhash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo‘llaniladi. Masalan, savod o‘rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo‘llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo‘l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo‘llaniladi. Bular, oilada, maktabgacha ta’lim muassasasida, maktabda savod o‘rgatishni amalga oshirishda o‘qituvchining, tarbiyachining qo‘llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta’lim- tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo‘llash metodlarini o‘z ichiga oladi. Shunga o‘xhash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo‘l o‘ziga xos metodlarni qo‘llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma’lum yo‘lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi. Biror metodni qo‘llashdagi harakatni amalga oshirish ko‘rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko‘rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o‘zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to‘xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashg’ulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy xolatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki g’adir-budurligi o‘zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo‘lgan turli harakat ko‘rinishlari nazarda tutiladi. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiyl belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish operastiyalarining yoki yo‘llarining yig’indisi deyish

mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan boliq jihatlardan ko'rib chiqiladi.

5.1 jadval. Interfaol ta'lim tizimi sxemasi



Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi.

Ta'lim metodlari va ularning turlari. O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatlari kechdi deb hisoblasa bo'ladi. Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov- ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga (usullarga) tayangan holda kechadi. Ta'lim metodini (usulini) – ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i

sifatida ta’riflash mumkin. Ta’lim modelini, esa bir yoki bir nechta ta’lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin. Ta’lim metodi –bu ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan, bиргаликдаги faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo‘l-yo‘rig‘i. Ta’lim metodlarini ta’lim maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘quvchi va o‘qituvchining bиргаликдаги ish faoliyatini tashkil qilishning belgilari bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslublar;
- O‘quvchi markazda bo‘lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar.

Odatda ushbu uslublardan biri yoki bir nechtasi ayrim o‘qitish modellarida birvarakayiga foydalilanadi. Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy uslublardan tashkil topadi va bu uslublar dars mavzusiga to‘la muvofiq bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo‘llaniladi.

O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslub. Bu uslub orqali o‘qituvchi o‘zi egallagan ma’lumot va ko‘nikmalarni o‘quvchilarning sezgi organlari orqali uzatish yo‘llarini qidiradi. Bunda o‘quvchilarning ishtiroki passiv bo‘ladi, ya’ni ular tinglaydilar, kuzatadilar va ma’ruzalarni yozib boradilar. Bu uslublar asosan o‘qituvchining quyidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

Og‘zaki o‘qitish usuli (ma’ruza, hikoya). Insonlar o‘rtasidagi eng sodda muloqot yo‘llaridan biri – og‘zaki nutq – og‘zaki ta’rif yoki asosiy mazmunning og‘zaki ifodasi hisoblanadi. Bu uslub butunlay «so‘zlash» orqali amalga oshiriladigan o‘qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o‘quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi. Bunda asosan o‘quvchining eshitish qobiliyati ishga solinadi.

Tasviriy ifodalarni qo‘llash usuli (illustratsiya). Bu faoliyat orqali yetkazilishi kerak bo‘lgan bilim yoki malakalarni tasvirlovchi rasmlar orqali o‘quvchilarning ko‘rish qobiliyati ishga solinadi. O‘quvchilarga yetkazilmoxchi bo‘lgan ma’lumotlar tasvirlab berish orqali, turli simvollar yordamida yetkaziladi.

Bunday tasviriy ifodalar quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: doska, maxsus oq doska, flipchart, video tasvir, videoproyektor, kodoskop, kompyuter grafiklar, magnit taxta, rasmlar, suratlar, bo‘yoqli rasmlar, grafik va jadvallar, diagrammalar, namunaviy va maxsus shaffof qog‘ozga tushirilgan tasvirlar.

Namoyish etish usuli (demonstratsiya). O‘qituvchi ma’lum bir asbob yoki jihozdan foydalanish vazifasini yoki topshiriqqa aloqador harakatlarni namuna sifatida namoyish etib berishi mumkin. Yakka holda namoyish etish o‘quvchini ko‘rish qobiliyatidan foydalanishga undaydi.

O‘quvchi markazda bo‘lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar. Bu uslublar qo‘llanilganda o‘qituvchi o‘quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O‘quvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- o‘quvchini yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimni ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini o‘quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o‘quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o‘qishni sog‘lom muhitda saqlab qolinishi;
- o‘qituvching yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

O‘quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o‘quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo‘ladi. Bu uslublar asosan o‘qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi. quyida ularning ba’zilari ustida qisman to‘xtalamiz.

Savol berish orqali o‘qitish usuli. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.

Muhokama usuli. O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.

Suhbat usuli. Mavzuga aloqador manbaviy ma’lumotlar beriladigan bir sharoitda va darsning bir qismi sifatida ana shu mavzu haqida tushuntirish berish muhim hisoblanadi. Odatda ma’ruza vaqt 30 daqiqadan uzoq bo‘lmasligi kerak va asosiy vaqt ma’ruza ta’riqasida va mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchiga savollar berish uchun bir oz vaqt ajratiladi.

Guruhlardagi muhokama usuli. Ushbu o‘qitish uslubi o‘qituvchining juda oz «so‘zlashiga» imkoniyat yaratadi va vaqtning asosiy qismi o‘quvchilarning o‘zaro muhokamalariga bag‘ishlanadi. Qachonki o‘quvchilar mavzu haqida qandaydir darajada bilimga ega bo‘lsalar bu uslubdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xatto mavzu haqida tasavvurga ega bo‘lmagan holda, yoki mashg‘ulotlar avvalida o‘rganilgan bilimni takrorlash uchun ham foydalanishlari mumkin.

Yangilik kashf etish orqali o‘rganish usuli. Bu yondoshuv o‘quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. O‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
2. O‘rganish jarayoni ma’lum bir topshiriqqa yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.
3. Topshiriq quyidagilarni ta’minlaydi:
 - Tayanch ma’lumot olish uchun asos
 - O‘quvchi uchun notanish bo‘lgan ma’lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so‘rovga e’tibor berish
 - Oldindan aniqlangan va sog‘lom tarzdagi o‘rganishga asoslangan natijalar.
4. Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.
5. Guruhdagi hamkorlik:
 - fikr va faoliyatni rag‘batlantiradi
 - mushohadaga chorlaydi

- guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlaydi.
6. Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchining qo'shajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan.
 7. O'qituvchi asosan o'qish jarayonini yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini o'taydi. Kamdan-kam hollarda o'qituvchi ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Amaliy mashg'ulot. O'qituvchi bir guruh o'quvchilarining ko'nikmalarini to'liq yoki qisman shakllantiruvchi amaliy faoliyat orqali o'qitishni xohlasa bu usuldan foydalanishi mumkin. Odatda bu jarayon o'z ichiga so'zlash, tasviriy ifoda va o'qituvchi tomonidan namoyish etish va muhokamalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon materiallar va maxsus jihozlardan foydalanish imkonи bo'lган ustaxonalarda amalga oshiriladi. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, o'quvchilar nafaqat rasmiy o'qitish orqali o'rganadilar, ya'ni kitoblar, gazeta va jurnallar, televideniye, internet va sinfdosh do'stlar orqali, balki ko'proq bevosita aloqa orqali o'rganadilar. Bu vositalar o'qituvchi o'tgan darsni mustahkamlashda foydalanishi mumkin.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan ham foydalanish mumkin:

Baxs-munozara usuli. O'quv guruhini ikki guruhga bo'lган holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

Tadqiqot usuli. O'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qisi; o'quvchilarining olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi; keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'rilib tekshirish; Bosqichlari: darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan muammoni yoki masalani qo'yish, uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash, muammoning yechimiga oid taxminlar, bashoratlar qilish va ularning qanchalik to'g'rilibini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish; Ta'lim oluvchilar ayrim tadqiqot ishlarni ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishadi, ularni yozadilar va qo'yilgan maqsad va natijalarni tahlil qiladilar.

Rolli o‘yinlar. Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o‘yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o‘rinda, matnli material o‘rniga o‘quvchilar tomonidan rollar o‘ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Bosqichlari: vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo‘lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish; o‘yin davomida o‘quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatib borish; o‘quvchilarning hatti-harakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma’lum malaka va ko‘nikmalarni egallashlariga imkoniyat yaratish; o‘yin natijalarining tahlili; o‘yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash;

Loyiha usuli. Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta’limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o‘quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar. Ta’lim oluvchilar ayrim kichik loyiqa ishlarini, diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda loyihalashtiradilar, mustaqilbajaradilar, ularni yozadilar, taqdimot qiladilar, qo‘yilgan maqsad va natijalarini tahlil qiladilar.

Mustaqil o‘rganish usuli. Ushbu usul ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini, o‘z – o‘zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to‘liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqtiga bilan o‘tkazib turiladi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, darslik bilan ishslash va mustaqil amalaiy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir o‘quvchi alohida yoki umumiylar tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yo‘naltirib boshqaradi va nazorat qiladi.

Aqliy hujum. Dars mavzusiga oid qo‘yilgan muammoni yechish yoki savolga javob topish maqsadida g‘oyalarni jamlash va saralash usuli. Qatnashchilar birlashgan holda yechimi noma’lum muammoni yechishga yoki savolga javob topishga harakat qiladilar. Eng maqbul yechimni topish bo‘yicha shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar. Bosqichlari: muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;

uning yechimini topish uchun o‘quvchilarni jalb qilish; turli yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosalash;

Pinbord usuli. Bu usul aqliy hujum metodining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda qo‘yilgan muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalar alohida qog‘ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar bo‘yicha sinflarga bo‘linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.

Boshqalarni o‘qitish orqali o‘rganish usuli. Bu usulda ta’lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo‘yilgan muammo bo‘yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o‘z bilganlarini boshqalarga o‘rgatadilar.

Lug‘at bilan ishslash (diktant). Bilimlarni baholashning joriy nazorat shakli; odatda qisqa vaqt davomida o‘tkaziladi; o‘quvchilarning o‘tilgan atama va tushunchalarni bilish darajasini tekshirish uchun o‘tkaziladi;

Konferensiya. Oraliq nazoratning bir turi bo‘lib, asosan chorak yoki yil davomida ma’lum mavzular bo‘yicha mustaqil yozilgan ishlarning og‘zaki ma’ruza ko‘rinishidagi taqdimoti.

Juft-juft muloqot. Biror mavzu bo‘yicha yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga chorlash; o‘zaro fikr almashish va ularni ba’zilarini tinglash;

Ovozga qo‘yish metodi. Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo‘yicha ovozga qo‘yish; har bir fikr bo‘yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so‘ng yana ovozga qo‘yish; xulosalash;

«Charxpalak» usuli. Mazkur metod guruhlarda ishslash usulining takomillashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, uning yordamida o‘quvchilar o‘rganiladigan material bo‘yicha ma’lum bilimga mustaqil ega bo‘lish, jamoa bilan ishslash malakasini ega bo‘lish, boshqalarni o‘qitish, axborot bilan almashish hamda jamoa bo‘lib qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

5.2. Geografiya o‘qitish metodlari haqida tushuncha

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar muayyan bilimlar ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Didaktikada metod-deganda, o‘qituvchi rahbarligida turli metodlar vositasida o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma malakalari bilan qurollantirishda hamda, ularning dunyoqrashini shakllantirish tushuniladi.

O‘quv materiali mazmuni ta’limning turli vositalari yorlamida va turli metodlar bilan o‘zlashtiriladi. Shu sababli har doim o‘qituvchi oldida muvaffaqichtliroq va saraliroq o‘qitish va o‘qishga yordam beradigan yo‘llarni egallah muammozi turadi. O‘quv materiallarini o‘rganishning turli shakllarini qidirish, darsning maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Metod so‘zi grekcha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib aynan «tadqiqot» degan ma’noni anglatadi.

Didaktika fani metod terminiga ta’rif berish bo‘yicha aniq bir qoidani hali yaratganicha yo‘q. Bu masala borasida turli ta’rif va qoidalar mavjud. Didaktika fanida ta’lim metodi deganda o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayonida bирgalikdagi faoliyati tushuniladi. Bunda ular qo‘yilgan maqsad uchun bирgalikda harakat qiladilar. Metod o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati turlarini, ta’lim qanday kechishligini, o‘qituvchilar materialini qay darajada tushuntirishi kerakligi bilan belgilanadi. Metodning alohida detallari usul deyiladi.

Masalan: yangi bilimni o‘zlashtirishda darslik bilan ishslash bunga misol bo‘lishi mumkin. metod va usul o‘rtasida doimiy aloqa mavjud. Geografiya asoslarini puxta o‘zlashtirish, o‘qvchining bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma’lum darajada ta’lim metodlariga bog‘liq.

Ta’lim metodlari-o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish metodlari bo‘lib, o‘quv materialini nazariy va amaliy o‘zlashtirish shaklidir.

Ta’lim metodlari o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malaklarni egallah bilingina cheklanib qolmaydi. Ta’lim metodlari deyilganda, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantiradigan, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirga o‘rgatadigan, to‘laroq ilmiy bilimni asoslangan to‘g‘ri dunyoqarash va e’tiqodni tarbiyalaydigan metodlarga tushuniladi.

Ta’lim metodlari uchun 2 ta asosiy xususiyat xos:

1. Metodlar-o‘qituvchi faoliyati yo‘l yo‘riqlari bo‘lib, o‘quvchi faoliyatini belgilashga yordam beradi.

2. Ta’lim metodlari faqat bilim, ko‘nikma, malaklarini shallantirish bilangina cheklanmasdan balki, o‘quvchilarda ijodiy faoliyat bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini tarbiyalashga ham yordam beradi.

Ta’lim metodlari o‘qitishning umumiyligi va aniq maqsadlariga hamda mакtab ta’limining mazmuniga ham bog‘liq. Ta’lim metodlari ko‘p hollarda o‘quvchilarning ruhiyati yoki xususiyatlarini e’tiborga olishni talab qiladi. Uni tanlash mакtabning moddiy texnika vositalarini, kartalarni, atlaslarni va ularidan foydalanish imkoniyatlarini hasobga oladi. O‘qitish metodlari pedagogikada mакtab joylashgan sharoitda, hamda o‘qituvchilar tajribasida tarkib topgan an’analarga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan: o‘qituvchi o‘z ishiga alohida tus bag‘ishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko‘radi. Ilmiy texnika jarayon sharoitida an’anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Ta’lim metodlari muammoysi eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. U quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Birinchi talab: metodning tarbiyaviyligi bunda har qanday metod o‘quvchilarning umumiyligi rivojlanishiga, bilimga qiziqishlarini e’tiqod, his-tuyg‘u qarashlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limning tarbiyaviy vazifasini amalga oshirish metodning tanlashiga bog‘liq.

Ikkinci talab: metodning ilmiyligi dars berish va ta’limning har qanday metodi o‘quv jarayonining qonuniyatlarini bilan belgilanadi. Metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo‘lsa, shunchalik ravshan va aniq bo‘ladi. Eng muhim shundaki, biror metod yordamida qanday umumiyligi va aniq vazifalarni hal etish mumkinligini, u qanday mazmunga mos kelishini, faoliyatining qanday turlarini talab qilishni va ularni qanday tashkil etish lozimligini ko‘ra bilish kerak. Metodning ilmiyligi grafik voqeasi va hodisalarini, qonuniyatlarini to‘g‘ri anglashni ta’minlaydi va o‘quvchilarni to‘g‘ri ilmiy tasavvurga olib boradi.

Uchinchi talab: metodning ommabopligi. Bunday o'quvchilar rivojlanishining pedagogik imkoniyatlari e'tiborga olinadi. etod o'quvchilarda mavhum tafakkurni ham egallay oladi va jadal rivojlanadi. Demak, metod tanlanganda o'quvchi nimalarni tushuntirish kerakligi haqda emas, balki u nimani tushuna olishi haqida ham o'ylash kerak.

To'rtinchi talab: Ta'lism metodining samaradorligi, uning o'quv materialining mustahkam egallahsga qaratilganligidir.

Beshinchi talab: O'z ish faoliyatida ilg'or tajribalarni qo'lllash va uni muntazam o'rghanish nazariya va amaliyotda ta'lism metodlari bilan bog'liq yangiliklarni doimo o'rghanib borish lozim. Geografiya o'qitish metodlari haqda so'z borar ekan «Metod», «Usul» degan so'zlar yonma-yon uchraydi. Metod usul bir-biridan ba'zan farq qlmaydi, bir xil ma'noda yuritilib kelinadi. Masalan: kartalarni solishtirish-taqqoslash metodi deb yuritiladi. Bu noto'g'ri chunki kartalarni solishtirish metod emas, u solishtirish usulidir xolos. O'zbek tilidagi mavjud qo'lanmalarda taqqoslash ham, solishtirish ham birdek-taqqoslash deb ishlatiladi. Bu chalkashliklardir. Taqqoslash-o'rghanilayotgan geografik ob'ektni ilgari o'rghanilgan ob'ekt bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Maslan, Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Sirdaryoni Yenesey bilan taqqoslab, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Taqqoslash og'zaki bayon metodining bir usulidir. Solishtirish kartalarni solishtirish va tahlil qilish bilan bir geografik ob'ektga xos bo'lgan ob'ekt va hodisalarining sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan: turli mazmundagi kartalar solishtirilib tahlil etiladi. Solishtirish-kartografik qo'lanmalar bilan ishslash metodining bir usulidir. Metod usullar yig'indisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Geografiyaga xos bo'lgan karta bilan ishslash metodi bir necha usullarni o'z ichiga oladi. Masalan: a) karta bo'ylab sayohat; b) kontur kartaga geografik ob'ektlarni tushirish; v) kartalarni solishtirish va h.k.

Ba'zi usullarni bir necha metod tarkibiga kiritish ham mumkin. Taniqli metodist M.K.Kovalevskaya ta'lism vositalarini (darslik karta bilan ishslash), bilimning og'zaki bayon shakllari (hikoya suhbat, tushuntirish, ma'ruza) ni bilish

metodlari (taqqoslash, kartalarni qiyoslash, umumiy xulosalar chiqarish)ni o‘quvchilarning o‘quv faoliyati turlari va shakllari (nazariy bilimlarni egallash, amaliy ish metodlari, mustaqil ish metodlari)ni metodik metodlar deb hisoblangan. Metodlar turlicha bo‘lishi mumkin. masalan: taqqoslish usuli og‘zaki bayon, suhbat. Karta bilan ishslash metodlarida ishtirok etishi ham mumkin. Demak, metod bilan usul o‘rtasida uzviy bag‘lanish bor.

Ta’lim metodlarining tasnifi shu tarzda kelib chiqadi, bu narsa o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘quv materialini egallash shakllaridagi o‘xhash va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda hamda o‘z o‘qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Ta’lim metodlari muayan belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi.

Hozirgi kunda ta’lim nazariyasi va geografiya ta’limida quyidagi tasnif keng tarqalgan:

I.Bilim olishni asosiy manbalariga ko‘ra:

1. Og‘zaki bayon (hikoya, tushuntirish, ma’ruza)
2. Suhbat
3. Kartografik qo‘llanmalar bilan ishslash
4. Ko‘rsatmali qo‘llanmalar bilan ishslash.
5. Kuzatish va tajribalar.
6. Raqamli materiallar bilan ishslash.
7. Darslik va qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishslash.
8. Amaliy metodlar

II. Didaktik maqsadlarga ko‘ra:

1. Yangi materiallarni o‘rganish.
2. Bilimlarni mustahkamlash
3. Bilim ko‘nikma, malakalarni tekshirish metodlari.

III. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko‘ra:

1. Analistik
2. Sintetik
3. Induktiv

4. Deduktiv metodlar.

Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo‘yicha I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin bo‘yicha metodlar tasnifi quyidagicha:

1. Izohli ko‘rgazmali metod
2. Reproduktiv yoki olingan bilimlarni qayta tiklash metodi.
3. Muammoli bayon
4. Qisman izlanuvchi metod
5. Tadqiqot metodi.

S.G.Shapovalenko didaktik metodlarni 3 ta guruhga ajratishni tavsiya etadi.

1. Og‘zaki metodlar
2. Ko‘rgazmali metodlar
3. Amaliy metodlar

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: «Yangi bilim olish metodlari» va «Olingan bilimlarni qayta tiklash metodalariga» ajratish ham mumkin. Har bir ta’lim metodi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limiy va tarbiyaviy tomonlar bilan birlashib turadi.

Ko‘pchilik pedagoglar ta’limda faol va sust metodlarni ham ajratadilar. Bu unchalik to‘g‘ri yo‘l emas. Chunki barcha metodlar ham o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘quvchilar faoliyatini faolllashtirish mumkin. Metod tanlashda ko‘pgina tomonlarni e’tiborga olish zarur.

O‘quvchilarning bilish faoliyati ko‘pgina omillarga xususan o‘quv materialining murakkabligini nazariy bilimlar hajmi sinfning darjasи, o‘quvchilarning mustaql ishlarni qay darajada bajara olish qobiliyati va h.k bog‘liq. Ayrim metodlar o‘quvchilarda esda saqlab qolishni, ayrimlari fikrlashni ba’zilari his-hayajonni rivojlantiradi.

Har bir metod ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Masalan: hikoya va ma’ruza metodlarini qo‘llash shu paytda yaqin natija beradiki qachonki o‘quvchilarda bilim olishga ishtiyoq kuchli bo‘lsa, savol javob metodi bilan dars o‘tish o‘qituvchilardan ko‘p vaqt va mahorat talab qilishi bilan birga o‘quvchidan ham zarur bilimlar bo‘lishini taqazo etadi. Yoki muammosi hamda tadqiqot metodlarini

qo‘llash, uni uyuşdırış uchun ko‘p vaqt o‘qituvchilardan esa kuchli bilim talab etadi. Biror metodni tanlagan paytda albatta o‘quvchilarning bilish faoliyati, aqliy darajasi. Ta’lim vositalari bilan ta’minlanganlik ahvoli ham e’tiborga olinishi kerak.

5.3. Geografiya ta’limi metodlari

Ta’lim metodlari samaradorligini oshirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifalardan biridir. Bir yoki bir necha metodni afzal ko‘rish yoki bilish qiyin. Bunga har tomonlama yondashish zarur. Ta’limdagi muvaffaqiyatni ta’lim metodlari tizimi ta’minlaydi. Metodlarning har biri o‘ziga xos afzalliklarga ega. U yoki bu tushunchani o‘quvchi ongida shakllantirishda har bir metodning o‘ziga xos o‘rnii bor.

Ta’lim metodlarida o‘qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi ruhiy pedagogik uslubiy va maxsus ilmiy tayyorgarligi aks etgan bo‘ladi. Xuddi ana shu omillar ta’lim metodlari samaradorligini belgilaydi. Muayyan metodga yaxshi tayyorgarlik bo‘lgan o‘qituvchida shu metodning o‘zi salbiy jihatlarini ham namoyon qilishi mumkin. Shu sababli ta’lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Metodlarni noto‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari sust egallahsga sabab bo‘ladi. Demak ta’limda universal metod yo‘q.

Shu tufayli ham o‘qituvchi faqat bitta metoddan foydalanim dars o‘tmaydi. Bunday bo‘lishi mumkin emas. Geografiya ta’limining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o‘qituvchi aksariyat darslarni o‘tishda olgan bayon metodlarini (leksiya, hikoya, suhbat, savol-javob karta bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi). Har bir bilim ko‘nikma malaka xilma-xil metodlarni qo‘llashni talab qladi. Chunki u yoki bu metodni tanlash dars mazmuni, maqsadi o‘quvchilarning tayyorgarligi o‘quv jihozlari bilan ta’minlanganlik kabi ko‘plab omillarga bog‘liq ekanligini hayotning o‘zi talab qilmoqda.

Geografiya ta’limida kartalarani rasmlarni tanlashda izchillikning bo‘lmasligi ham bilimlarning sust o‘zlashtirishga sabab bo‘ldi. Masalan: 7-sinfda

«Afrika tabiat zonalari» mavzusida o‘quvchilar «ekvator o‘rmon» «sovanna», «sahro» kabi tushunchalarni egallashlari kerak. Bunda dastlab o‘qituvchi o‘quvchilarda yuqoridagi tabiat komplekslarining tasvirini o‘quvchilar ko‘z oldida gavdalantirish keyin esa uni kartadagi o‘rni bilan bog‘lab ularda tabiiy hududiy komplekslar turli tumanligi haqda o‘quvchilar zarur bilimga ega bo‘ladilar.

Quyidagi geografik bilim manbalariga ko‘ra o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati asosida eng ko‘p qo‘llaniladigan geografiya ta’limi metodlarini ko‘rib chiqamiz.

5.2. jadval. Ta’lim metodlari

N	Umumiy metodlar	Xususiy metodlar
1	Og‘zaki bayon	Tushuntirish, hikoya, o‘quvchining o‘qib berishi. Taqqoslash, savol-javob, suhbat ma’ruza.
2	Kartografik qo‘llanmalar bilan ishslash	Reja, topografik karta, umumgeografik karta, mavzuli karta, kontur karta, karta sxema, globus bilan ishslash. Geografik nomlarini o‘rganish karta bo‘ylab sayohat, karta ko‘chirish, kartogrammalar tuzish va h.k
3	Darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishslash.	Izohli o‘qish, mavzu rejasi tuzish, darsslik matnini mustaqil o‘qish, darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarish. Darslikdagi karta sxema, sxema rasmlar bilan ishslash, vaqtli matbuot yangiliklarini o‘qish, xrestomatiya ma’lumotlaridan o‘qib borish, badiiy adabiyotdan mavzuga oid parcha o‘qish va h.k
4	Ko‘rgazmali qo‘llanmalar bilan ishslash.	Rasmlar bilan ishslash. Texnika vositalari bilan ishslash (diafilm, kinofilm, dioproektorlar) hajimli qo‘llanmalar bilan ishslash. (globus model jellyuriy maket, gerbariy va h.k) grafik tasvirlar sxema, diagramma. Profil turli chizmalar bilan ishslash turli hisob kitoblar qilish va h.k
5	Kuzatish.	Ob’ekt va hodisani bevosita kuzatish rasmlar, diapozitivlar, kinofilmlarni kuzatish geografik,

		astronomik gidrolik, gemerfologik, fenalogik kuzatishlar ekskursiyalar va tajribalar.
6	Birlamchi manbalar.	Davlat hujjatlari geografik matnlar, gazeta jurnallar badiiy adabiyotlar bilan ishlash.

Yuqoridagi turli shakl – formalardan foydalanishda, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan hollarda qo‘llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin. Boshlang’ich ta’lim darslarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma mohiyatini nazorat guruhi respondentlarining 34 foizi, tajriba guruhining 43 foizi ijobiy tarzda e’tirof etgan bo‘lsalar, tegishli ravishda 30/21 foiz respondentlar esa boshlang’ich ta’lim darslari faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish muammosining u qadar dolzarblik kasb etmaslikligini, O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan o‘tish davri sharoitidagi ayrim muammolarning mavjudligi bu borada muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini bermasligini ta’kidlaydilar. Boshlang’ich ta’lim darslari o‘qituvchilarining interfaol metodlar mohiyatidan xabardor bo‘lmasligiga asosiy ta’sirni ko‘rsatgan omillar ichida ushbu nazariya mohiyatidan ma’lumot beruvchi manbalarning mavjud ehtiyojlarni qondira olmasligi yetakchi o‘rin tutishini tegishli ravishda respondentlarning 42/46 foizi alohida ta’kidlab o‘tgan bo‘lsalar, 22/28 foiz respondentning javoblari ijobiy xarakterdadir. Pedagogik texnologiyalar mohiyatidan xabardor etuvchi manbalarning deyarli rus tilida ekanligi ham 42/36 foiz respondentlarning e’tiroziga sabab bo‘lgan. To‘rtinchı savolga javob bergen respondentlarning 30/9 foizi boshlang’ich ta’lim darslari ma’muriyati tomonidan pedagogik jarayonni interfaol metodlar asosida tashkil etish masalasiga e’tiborning qaratilayotganligini e’tirof etgan bo‘lsalar, 34/31 foiz respondentlar ushbu fikrga qarama-qarshi bo‘lgan mulohazani qayd etadilar. Respondentlarning 30/33 foizi garchi kasb-hunar kolleji o‘quv faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilmagan bo‘lsada, o‘quv yurti rahbariyatining bu yo‘lda olib borayotgan harakatini qo‘llab-

quvvatlashlarini ta'kidlab o'tganlar. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish uchun poydevor bo'lishi lozim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarning ba'zi o'qituvchilar ishlayotgan kasb-hunar kollejida mavjud ekanligini tegishli ravishda 23/26 foiz respondent e'tirof etgani holda, 41/38 foiz respondentlar ushbu fikrga zid bo'lgan fikrni bildirganlar. Savolnoma tarkibidan o'rin olgan yettinchi savolga javob qaytarar ekanlar kuzatilgan respondentlarning 10/14 foizi pedagogik faoliyatini texnologik yondashuv asosida tashkil etayotgan o'qituvchilarning kasb-hunar kolleji rahbariyati tomonidan rag'batlantirilib borilayotganligini ta'kidlaydilar. Biroq aniqlangan ko'rsatgichlar nihoyatda past bo'lib, bu boradagi holat mutlaqo qoniqarsiz ekanligini anglatadi. Kuzatilgan 54/50 foiz respondent ushbu savolga salbiy ma'noda javob qaytargan. Boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilari pedagogik texnologiyalar mohiyatini o'zlashtirish jarayonida xalqaro hamda ijtimoiy tashkilotlarning bu boradagi yordamlarini qaydarajada his etayotganliklarini aniqlashga qaratilgan savolga respondentlarning 12/11 foizi ijobiy va 52/53 foizi salbiy javob qaytarganlar. Bizning nazarimizda mazkur o'rinda xalqaro tashkilotlarning yordamini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlariga jalg' etilgan respondentlar tomonidan bayon etilgan javoblardan ko'rinish turibdiki, boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish bugungi kun talablari darajasida emas ekan. Mazkur holatni bartaraf etish uchun maxsus dastur asosida muayyan pedagogik faoliyatni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish lozim.

Nazorat savollari:

1. Savod o'rgatish yo'llari qaysilar?
2. Ta'lim metodlarini sanab o'ting
3. Birlamchi manbalar?
4. Suhbat usuli ma'ruza vaqt davomiyligi qancha?
5. S.G.Shapovalenko didaktik metodlarni nechta guruhga ajratishni tavsiya etadi?

6. Ta’lim metodlari uchun qaysi asosiy xususiyatlar xos?
7. Ta’lim metodlarida o‘qituvchining qaysi xislatlari aks etgan bo‘ladi?

6-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMIDA XARITA VA GLOBUSDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: navbatchi kartalar, davlat standartlari, geografik kenglig, ko‘rzagmali qurol, yer o‘qi, meridian, paralel, geografik kenglik va uzoqlik.

6.1.Xarita bilan ishlash

«Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» shuningdek, 1999-yil 16 – avgust O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 390 – sonli «Umumiyl o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori shu asosda qabul qilingan «Geografiya ta’limini ilmiy – uslubiy jihatdan qayta qurish konsepsiysi» maktab geografiya ta’limini tubdan isloq qilish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Maktab geografiya kurslari ham mazmunan, ham struktura jihatdan yangilandi. O‘quvchilarning maktabda o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarining me’yori davlat standartlari darajasida belgilandi. Yuqorida tilga olingan me’yoriy hujjatlar barcha umumta’lim fanlari qatori maktab geografiya kurslarida o‘quvchilarning jonli geografik mushohadaga chorlovchi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini tarkib topdirishga qaratilgan ilg‘or ta’lim usullarini ishlab chiqish hamda amalda qo‘llash zaruratini keltirib chiqardi.

Xarita va globus bilan ishlash mavzusi mohiyati jihatdan geografiya ta’limidagi zaruriy o‘quv vositasi hisoblangan geografik karta hamda globusdan foydalangan holda o‘quvchilarga puxta geografik bilim va o‘quv malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ma’lumki, maktabda tabiiy geografiyaning boshlang‘ich kursi – barcha o‘qitiladigan geografiya fanlarining poydevori hisoblanadi. Geografiya ta’limidagi asosiy, bosh ilmiy tushunchalar xuddi mana shu kursda o‘quvchilarda shakllanadi.

Geografik karta hamda globus mana shu tushuncha va qonuniyatlarni o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladigan zaruriy o‘quv vositasi ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur.

Umumiyl o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari tabiiy geografiyasi kursi hamda unda o‘rganiladigan har bir mavzu yuzasidan o‘quvchilar aniqlay olishi, o‘lchay bilishi, hodisalarning sabab – oqibat bog‘lanishlarini mohiyatini anglab bilishi hamda ular bilan bog‘liq tegishli amaliy o‘quv malakalarini o‘quvchida shakllantirishni zarur qilib qo‘ygan bir paytda, karta va globuslardan foydalanish ayniqsa katta ahamiyat kasb etmoqda. Biz mazkur mavzuni yoritishda bir qator ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlili asosida, o‘quvchilarning yosh va individual – psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishga harakat qildik. Karta va globus bilan ishlashda mакtabda to‘plangan ko‘p yillik tajribamizga asoslandik. Geografiya ta’limini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Karta geografiya fanidagina emas, balki insoniyatning amaliy faoliyatida ham cheksiz ahamiyatga ega. Chunki biron bir geografik tadqiqotni, inson turmush faoliyatini kartasiz tasavvur etish qiyin.

Uchuvchi, quruvchi, tuproqshunos, ekolog, agronom, injener, sayyoh, kosmonavt, harbiy soha mutaxassisini kartasiz ish ko‘ra olmaydi. Ta’lim jarayonida kartalar ta’limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi. O‘quvchilar karta bilan pastki sinflardan tanisha boshlaydilar. Karta geografik obektlar joylashgan o‘rnini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki hodisa va voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham ifodalaydi. Geografiya ta’limida qo‘llaniladigan kartalar ko‘rsatmali qurol va geografik bilim manbai sifatida qo‘llaniladi. Kartani bilish va undan foydalana olish deganda undan xilma – xil ma’lumotlarni, xususan tabiiy va iqtisodiy geografik ma’lumotlarni anglab olishga tushuniladi. Kartaning eng muhim xususiyatlaridan biri bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo‘limgan hodisalarni modellashtirishdan iborat. Geografiya o‘qitish metodikasi nuqtayi nazaridan 4 ta vazifani bajaradi.

1. Karta o‘rganish obekti bo‘lib xizmat qiladi.
2. Karta ko‘rzagmali qurol vazifasini bajaradi.

3. Karta geografik hodisalarni o‘rganishda bilim manbai vazifasini bajaradi.
4. Karta geografiya ta’limida psixologik - pedagogik vazifasini, ya’ni geografik bilimlarni egallab esda saqlab qolish vazifasini bajaradi.

O‘quvchilar tabiiy geografiyani o‘rganish jarayonida juda ko‘p geografik terminlar, atoqli nomlar haqida aniq tasavvur va tushunchalarga ega bo‘ladilar. Bu fanni o‘rganishda o‘quvchilar geografik kartani o‘qishga o‘rgatiladi. Chunki o‘quvchilarning bunday malakaga ega bo‘lishlari o‘z navbatida ularning bundan keyingi geografik bilimlarini o‘zlashtirishlarida muhim rol o‘ynaydi.

Geografik kartani mustaqil o‘qiy olish malakasi faqat geografiya fanini chuqur o‘zlashtirishda emas, balki insonning butun aqliy taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. O‘rta maktabni bitirgan yoshlar kelajakda kim bo‘lishdan qat’i nazar, geografik kartani yaxshi bilsa, u biron kitob, maqola va gazeta xabarlarini o‘qiyotgan vaqtda, radio tinglaganda, kinofilm yoki televizor ko‘rayotganda shu voqealar yer sharining qayerida sodir bo‘layotganligini aniq tasavvur etadi.

Geografik kartalar ularning ta’limdagi ahamiyati haqida juda ko‘p ibratlifi krlar geograf – olimlar tomonidan aytilgan. Chunonchi, YE.N.Kabanova – Mellerning fikricha «Geografik karta yer sharining formasini mayda detallarsiz umumlashtirib beradi. Geografik kartada turli obektlar ma’lum masshtabda va ma’lum tartibda tasvirlanadi» - deb ta’riflaydi. A.A.Polovinkin «Geografiya va geografiya kartasi bir – biri bilan chambarchas bog‘langan. Kartasiz geografiya bo‘lmaydi va bo‘lishi mumkin emas»- deb bejiz aytmagan. V.L.Budanov «Har bir ishning boshlanishi va yakunlanishi geografik karta bilan bo‘ladi» - deb ta’kidlagan edi. N.N.Baranskiy «Karta geografiyaning ikkinchi tilidir» - deb aytgan fikrlari geografiya ta’limida kartaning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Geografiya o‘qitish sohasida xizmat ko‘rsatgan metodist olimlardan V.P.Budanov, V.A.Gruzinskaya, N.N.Studensov va boshqalar geografik kartani o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, tegishli ko‘rsatmalar berishgan. V.P.Budanovning ta’kidlashicha kartadagi geografik joy real voqelikdagi

«prototipi» ga mumkin qadar o‘xhash bo‘lishi kerak. Shundagina o‘quvchilar kartaga qarab o‘sha real voqelikni aniq tasavvur eta oladilar.

Tajribali geografiya o‘qituvchilari kartaga tasvirlangan joylarni o‘quvchilarga tasavvur ettirishida turli ko‘rgazma qurollardan samarali foydalanadilar. O‘quvchilar tabiiy geografik kartani ma’lum darajada o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng ular kartaning biror joyi bo‘ylab xayoliy sayyohat qila oladigan bo‘ladilar. Shuning uchun karta avvalo yer yuzini yaxlit holda tasavvur ettirgandan so‘ng keyingi bilimlar uchun zamin hosil bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Bu jihatdan O.I.Galkinaning kartani o‘rganishda oddiydan murakkabga yondoshish prinsipi, A.N.Turpanov o‘quvchilar bilan o‘tkazgan ilmiy - tadqiqot ishlarida geografik kartadagi voqeliklarni shartli belgilar asosida tasvirlanishida o‘quvchilarning faol bilim olishga intilishi asoslangan. A.I.Sokolovaning fikricha o‘quvchilar ongida geografik kartada ko‘rsatilgan obektlarning (orol yoki yarim orol, dengiz, materik va hokazolar) shakllari kartani o‘qishda asosiy yo‘l ko‘rsatgich bo‘lib qoladi. M.Vohidov kartada berilgan geografik nom va terminlarni o‘quvchilar uzoq vaqt esda saqlab qolishlarini tajribada aniqlagan. Shunday qilib, psixolog va metodistlarning geografik obektlarning nomlarini va ularning kartada joylashgan o‘rnini yaxshi eslab qolish, geografik kartani mustaqil o‘qiy olish malakasini hosil qilish masalalariga oid bir qancha ishlarining tahlili kartaning geografiya ta’limining boshlang‘ich kursi o‘quvchilarning puxta geografik bilimlarini yanada puxtalashtiradi. Tabiiy geografidagi mavzularini o‘rganishda o‘quvchilarning kartani o‘zlashtirishining psixologik asoslari.

Maktabda o‘qitiladigan tabiiy geografiyaning boshlang‘ich kursi o‘quvchilarda geografiyadan ma’lum bilimlar sistemasini hosil qiladi. Bu jihatdan olganda geografiyaning boshqa bir qator predmetlardan deyarli farqi yo‘q. Faqat geografik tushunchalar muqarrar ravishda karta bilan bog‘lab hosil qilishiga ko‘ra boshqa fanlardan farq qiladi. Tabiiy geografiya kursi Yer sharidagi eng asosiy geografik obektlar va ularning kartada joylashgan o‘rinlarni o‘quvchilarga umumiylar tarzda sistemali ravishda tushuntiriladi. Masalan, tabiiy geografiyani o‘rganish jarayonida o‘quvchilar asosan quyidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar.

1. Yer qobiqlari to‘g‘risida (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera to‘g‘risida) bir butun tabiatning asosiy qismlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, ularni tadqiq qilish haqidagi ilk ilmiy tasavvurlarga ega bo‘ladilar.

2. O‘zi yashab turgan jildning tabiiy sharoiti xususiyatlari (relefi, suvlari, iqlimi, o‘simlik va hayvonot olami) haqida muayyan tasavvur va tushunchalar hosil qiladilar.

3. Joy rejasi, globus va kartada Yerning tasvirlash xususiyatlarini o‘rganishga doir tushuncha hamda qonuniyatlarni o‘zlashtiradilar.

4. Umumiy geografik tasavvur va tushunchalar asosida har bir geografik obektning nomi hamda uning kartadagi o‘rnini bilib oladilar.

Xullas, tabiiy geografiya kursini to‘la hajmda o‘zlashtirgan o‘quvchilar asosiy geografik obektlar va ularning kartada joylashgan o‘rnini mukammal bilib olishlari ko‘zda tutiladi.

Geografiyadan davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq geografik bilimlar sistemasi quyidagi asosiy tushunchalardan hosil qilinadi:

1. Umumgeografik tushunchalar (masalan, pasttekislik-lar, tog‘, daryo, ko‘l, dengiz, okean va boshqalar). Bunday tushunchalar yakka tasavvurlarni umumlashtirish asosida tarkib topadi.

2. Yakka yoki alohida olingan geografik tushunchalar (qit’alar, shaharlar, orollar, yarim orollar, daryo va ko‘llarning nomlari). Ana shu geografik nomlar o‘rtasida kartani o‘qishda shu nomlarni belgilovchi joylarni kartadagi joyini bilib oladilar.

3. Mavhum tushunchalar (masalan, yer o‘qi, meridianlar, paralellar, geografik kenglik va uzoqlik, ekvator va hokazolar) ham geografik kartani o‘qishdagi yordamchi omillar hisoblanadi.

Tabiiy geografiyani o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan regeonal tushunchalarning o‘zlashtirilishi katta ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchilarning tabiiy geografiyadan olgan bilimlarini bir qismi regeonal xususiyatlar bilan bog‘liq. Shuni aytib o‘tish lozimki, regeonal tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni ancha murakkab xarakterga ega. O‘z navbatida regeonal geografik tushunchalarni

o‘zlashtirish jarayoni har doim ma’lum miqdordagi konkret geografik obektlarning nomlarini hamda ularning geografik kartadagi fazoviy o‘rinlarini eslab qolish va tasavvur etishdan boshlanadi. Regeonga tegishli geografik obektlarning nomlarini mustahkam egallab olmasdan turib geografik tushuncha haqida to‘liq fikr yuritib bo‘lmaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida eng muhim geografik nomlarni o‘quvchilar ongiga singdirib borish geografik karta bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi. Demak, o‘quvchilar geografik kartani o‘rganishlari davomida ularning ongida ikki tomonlama murakkab assotsiyalar hosil qilindi. Birinchidan, har bir geografik obekt nomining strukturasiga oid assotsiyalar hosil qilinadi. Ikkinchidan, har bir geografik nomning kartada joylashgan o‘rniga assotsiya hosil qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchida har bir geografik obektga nisbatan ana shunday murakkab assotsiya hosil qilsa, o‘quvchilarning geografiyadan o‘zlashtirgan bilimlari to‘la va mustahkam bo‘ladi. Yuqoridagilardan ravshanki, tabiiy geografiya darslarida kartani o‘zlashtirishning muhim psixologik xususiyatlaridan biri o‘quvchilar ongida har bir geografik obektning nomi bilan uning kartada o‘rnashgan o‘rn o‘rtasida mustahkam assotsiyalar hosil qilishdan iboratdir. Bundan tashqari shuni ham e’tiborda tutish lozimki, o‘quvchilar har bir geografik obektning nomini alohida – alohida emas, balki boshqa bir qator nomlar bilan mazmunan hamjihatlikda o‘rganadilar. Shuning uchun tabiiy geografiyani o‘rganish davomida o‘quvchilar ongida asosiy geografik nomlarning shu obektlarni kartada joylashgan o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan yagona tizim vujudga keladi. Demak, obekt nomi va uni tabiiy kartadagi holati o‘rtasida bog‘liqlik ta’limni samarali bo‘lishiga garov hisoblanadi. Ma’lumki, tabiiy geografiya kursi juda murakkabdir. Bu kursda o‘quvchilarga yer kurrasining tuzilishi, uning harakati, gradus to‘ri, yer atmosferasi, joy rejasi va kartalar tushuntiriladi. Biroq, geografik kartani o‘zlashtirish ko‘proq ikki mavzu – «Litosfera» va «Gidrosfera» bilan bog‘liq bo‘lib, bu mavzularda geografik kartada tasvirlangan hamma obektlar berilgan. Shu boisdan ham bu ikki mavzuni o‘rganishda o‘qituvchi ko‘proq ko‘rgazmalilik prinsipiga asoslanmog‘i lozim. Ko‘pchilik o‘quvchilar o‘z tajribalariga asoslanib Yer yuzining turli ko‘rinishlariga, ya’ni past-tekisliklar, tog‘lar, daryolar,

sharsharalar, dengizlar, okeanlar, vulqonlarni kartadan o‘rganib, ular haqida tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

Geografiya darslarini kuzatish ko‘pgina o‘qituvchilar geografik obektlarning kartada joylashgan o‘rnini o‘quvchilar ongida mustahkamlashda geografik obektlarning shaklini ifodalovchi maketlar, rasmlar, sxema, chizmalardan foydalanadilar. Tajribali geografiya o‘qituvchilari ma’lum geografik obekt haqida o‘quvchilar ongida ko‘p tomonli assotsiyalar hosil qilish ya’ni geografik karta, rasm, sxema, modellar asosida bir obektga ko‘p tomonlama assotsiyalar hosil qilish bilan chuqur bilim berib kelishmoqda. Bir qator o‘qituvchilar o‘quvchilarning kartani puxta bilishlari uchun asosiy geografik obektlarning kartada joylashgan o‘rinlarini ular ongida mustahkamlashdan tashqari ularni gorizont tomonlariga orientirlash maqsadida joyning geografik kengligi va uzoqligini aniqlashga doir mashqlar o‘tkazib turadilar. Bu esa o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talab ya’ni, o‘quvchilar karta va globusdan gradus to‘ri bo‘yicha berilgan kenglik va uzunlikka qarab geografik obektlarning kartada joylashgan o‘rinlarini aniqlay olish malakalarini tarkib topishiga yordam beradi.

O‘quvchilar tomonidan geografik obektlarni va ularning kartada joylashgan o‘rinlarini o‘zlashtirishning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Tabiiy geografiya kursi o‘quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda asosiy geografik obektlarning nomlari hamda ularning kartada joylashgan o‘rni o‘rgatiladi.
2. Bu kursni o‘rgatishda dunyo tabiiy kartasini o‘zlashtirishga ilmiy asos qo‘yiladi va geografik kartani o‘qishga doir dastlabki malakalar shakllanadi.
3. Tabiiy geografiya kursini o‘rganish davomida har bir geografik obekt haqida ko‘p tomonlama assotsiyalar hosil qilganligi tufayli u haqidagi bilimi mustahkam bo‘ladi.
4. Tabiiy geografiyanı o‘qitish davomida o‘qituvchi o‘quvchilarni geografik kartani mustaqil o‘qishga o‘rgatar ekan, har bir geografik obektning (daryo, tog‘, tekislik, dengiz va h.k) kartada joylashgan o‘rniga nisbatan assotsiyativ

bog‘lanishlar hosil qiladi. Bunday bog‘lanishlar o‘z navbatida har bir geografik obektning kartada joylashgan o‘rnini esda olib qolishning psixologik asosi hisoblanadi.

5. Tabiiy geografiya kursida o‘quvchilar ongiga geografik termin va nomlarini mustahkam singdirishlari uchun ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish zarur.

6. Geografik kartani o‘qish bilan bog‘liq, ammo mazmunan bir qator murakkabroq mavzular masalan, gradus turi joyning geografik kengligi va uzoqligini aniqlash singarilar o‘tiladi. Kartadan joyning geografik koordinatalarini aniqlash o‘quvchilarda muayyan oriyentirlay olish qobiliyatlarini shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, beshinchi sinfda asosiy geografik obektlarni mustahkamlash esda olib qolish va bu obektlarning kartada joylashgan o‘rnini aniq tasavvur qila olish faqat o‘quvchilarning qobiliyat darajalariga emas, balki asosan o‘qituvchining qo‘llaydigan ta’limiy metodlariga va o‘tkaziladigan amaliy mashqlarning yetarli miqdorda bo‘lishi va xilma-xilligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

6.2. Kartalar va ularning turlari

Maktab geografiya kurslarida qo‘llaniladigan kartalarni klassifikatsiyalashda V.P.Budanovning alohida xizmatini ta’kidlab o‘tish lozim. Kartalarni masshtabiga ko‘ra klassifikatsiya qilishda ular asosan uch guruhga ajratiladi.

I. Yirik masshtabli kartalar:

1:10000; 1:25000; 1:50000; 1:100000; 1:200000

II. O‘rta masshtabli kartalar:

1:300000; 1:500000; 1:1000000

III. Kichik masshtabli kartalar:

1:1500000; 1:2500000; 1:5,000000; 1:10000000

Masshtabiga ko‘ra kartalarni tanlashda geografiya o‘qituvchisi ko‘proq kichik masshtabli kartalarni tanlashi lozim. Chunki ular umumiy geografik tasvirlarni o‘quvchilar yaxlit tasavvur etishga yordam beradi. Ta’limda oddiydan –

murakkabga tomon yo‘naltirilgan tartibda avval kichik, keyinchalik o‘rta masshtabli kartalardan foydalanish zarur.

Mazmuniga ko‘ra kartalarni klassifikatsiya qilishda V.P.Budanov ularni ikki guruhga ajratadi.

I – guruhi: Umumgeografik kartalar

- a) topografik kartalar.
- b) obzor – topografik kartalar.
- v) obzor kartalar.

II. Maxsus kartalar (ular 2 guruhgaga ajratiladi).

- 1. Tabiiy kartalar.
 - a) iqlim kartalari.
 - b) tabiat zonalari kartasi.
 - v) tabiiy kartalar.
 - g) geologik (orografiq) kartalar.
 - d) tuproq kartalar.
 - ye) o‘simlik kartalari.
 - j) hayvonot kartalari.
 - z) ekologik artalar.

2. Iqtisodiy – ijtimoiy geografik kartalar.

- a) aholi geografiyasiga oid kartalar.
- b) tarixiy kartalar.
- v) siyosiy kartalar.
- g) iqtisodiy kartalar.

Kartalarning yuqorida tilga olingan klassifikatsiya bo‘yicha turlari asosan maktab geografiya kurslarida qo‘llaniladi. Tabiiy geografiya kurslarida asosan yarim sharlar tabiiy kartasi, globus qo‘llanilganligi uchun ular masshtab jihatdan kichik masshtabli, mazmun jihatdan esa tabiiy kartalar qatoriga kiradi.

Geografiyada kartografik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirish quyidagi yo‘llar bilan erishiladi.

1. O‘quvchilarga karta va globus yer sharining modeli ekanligini ongli tarzda o‘zlashtirib olish lozim. Hamma geografik kartalarga o‘xshab maktab o‘quv kartalari ham masshtabli, maqsadi, mazmuni, ishlatilishi va boshqa xususiyatlariga qarab turlarga bo‘linadi.

Geografiyada dastlab umumgeografik kartalardan foydalanilsa, kartaga bo‘lgan ko‘nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so‘ng tematik kartalardan foydalanish imkoniyati tug‘iladi.

So‘nggi vaqtarda kosmosdan olingan ma’lumotlardan foydalanishga katta e’tibor berilmoqda. Kosmosdan olinayotgan ma’lumotlar asosida meteorologik va sinoptik kartalar tuzilmoqda.

Maktab o‘quv kartalari boshlang‘ich sinf o‘rta va yuqori sinf kartalariga bo‘linadi, mazmuni va rasmiylashtirilishi bo‘yicha ular o‘zaro farq qiladi.

O‘quv kartalari yirik masshtabli, o‘rta va mayda masshtabliga bo‘linadi. Tabiiy geografiyaning boshlangich kursida ko‘proq mayda masshtabli yarim sharlar kartasi va materik kartalari qo‘llaniladi. Ishlatilishi bo‘yicha devorga osib qo‘yiladigan kartalar va stol ustida yoyib qo‘yiladigan kartalar va o‘quv atlaslari ishlatiladi. Kitoblardagi oq – qora rangli kartalar mazmunining soddaligi, sxematik ravishda tuzilganligi, kartografik to‘rlarning ba’zilarida yo‘qligi bilan ajralib turadi.

6.3. O‘quvchilarni karta bilan ishlashga o‘rgatish

Geografiya o‘qitish uslubiyotida karta bilan ishlash 3 ta bosqichda olib borilishiga alohida e’tibor beriladi. Bular «kartani tushunish», «kartani o‘qish» va «kartani bilish». Uquvchilari bilan mana shu 3 ta jarayonning mohiyatini avval tushunib olish zarur. Biz quyida geografik karta bilan ishlashning mana shu 3 jihatni haqida to‘xtab o‘tmoqchimiz.

Kartani tushunish deganda - ma’lum kartografik bilimlarga ega bo‘lish, karta uning xususiyatlari, mazmuni, qo‘llanish sohasidan xabardor bo‘lish, undagi shartli

belgilarning ma’nosini bilish, kartani qayerda qo’llash lozimligini bilish tushuniladi.

Kartani o‘qish deganda – kartadagi shartli belgilarni bilish va shu asosda geografik hodisa yoki jarayon haqida xulosa qilish, kartada belgilangan geografik hodisani tushunish, ularni o‘rganish tushuniladi. Kartani o‘qish kartani tushunishga nisbatan yuqoriroq pog‘ona bo‘lib uni o‘qish uchun kartadagi shartli belgilarning mazmunini chuqur o‘zlashtirish, masshtab, kartografik proyeksiyalar va boshqa jarayonlarni chuqur bilish hamda karta bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lishni talab etadi. Kartani bilish karta bilan ishlashning oliy nuqtasi bo‘lib geograf olim va metodistlar kartani bilishga turlicha ta’riflar berganlar. Masalan, A.A.Polovinkin «Kartani bilish bu uni o‘qiy olish, kartani tushunish va kartadagi nomenklaturani bilishdan iborat» - deb hisoblaydi. I.I.Zaslavskiy «Kartani bilish uni o‘qish va tushunishdan tashqari kartani tuzilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish va undagi kartografik tasvirlarni yodda saqlash hamdir» - deb ta’kidlaydi. A.V.Darinskiy esa «Kartani bilish deganda undagi nomenklatura va tegishli kartografik bilimlarga qo‘srimcha shartli belgilarni chuqur bilish va kartaning tuzilishi ham kiradi» deb ta’riflagan. Yuqoridagi ta’riflardan shunday xulosa qilish mumkinki kartani bilish bu juda murakkab jarayon bo‘lib bunda kartani tushunish, shartli belgilar asosida undagi obyektlarni o‘qiy olish, kartadagi joy nomlarini to‘liq bilish hamda kartaning tuzilishi haqida zaruriy kartografik bilimlarga ega bo‘lishni talab etar ekan. Uquvchilarga kartani o‘rgatish jarayonida biz ularga oddiydan murakkabga yo‘naltirilgan ikki bosqich ya’ni kartani tushunish va o‘qiy olishga o‘rgatishimiz zarur. Kartani o‘qish, tushunish deganda o‘zaro bog‘langan, lekin mazmun jihatidan bir-biridan fark qiluvchi tushunchalarni bilamiz. Kartada tasvirlangan voqeal-hodisalarini shartli belgilar yordamida o‘qish, uni tushunib yetadi degan gap emas. Buning uchun karta mazmuni to‘g‘risida ma’lum darajada nazariy geografik ma’lumotga ega bo‘lmoq kerak. Kartani o‘qish kartografik belgilar orqali tasvir ma’nosini tushunish demakdir. Kartadagi har bir rang chiziq, belgi biror bir voqelikni tasvirlaydi. Shuning uchun o‘quvchilarning kartani o‘qishdan oldin ular ekskursiyalarga olib chiqiladi, relyef va ularning kartada tasvirlanishi o‘rgatiladi.

Shuningdek, kartada tasvirlangan voqea - hodisalarini alohida emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi, bir-biriga ta’sirini esdan chiqarmaslik lozim. Kartani o‘qishni yaxshi bilgan kishi kartada tasvirlangan territoriyada nimalar borligini bila oladi. Kartani tushungan kishi esa tasvirlangan hodisa va voqealarni ayta oladi. O‘qish va tushunish bir-biriga bog‘liq. Kartani o‘qishni bilmasa, uni tushunib bo‘lmaydi. Ammo kartani tushunmasdan o‘qiy olsa bo‘ladi. Kartani bilish tushunchasi yuqorida ta’kidlaganimizdek, tushunishdangina iborat bo‘lmasdan, kartaning tayyorlanishini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun geografiyasida oddiy topografik plan olish usullari o‘rgatiladi, chunki mayda masshtabli geografik kartalar uchun asos topokarta hisoblanadi.

6.3. Globus bilan ishlash

Globus – yer sharining modeli hisoblanib u geografik kartalar singari zaruriy o‘quv vositasi hisoblanadi. Globusning geografik kartadan bir qator qulaylik tomonlari mavjud. Odatda maktab geografik kurslarida qo‘llaniladigan globuslar quyidagi to‘rt xil masshtabda bo‘ladi.

1:30000000 – o‘rta globus

1:40000000 – katta globus

1:50000000 – kichik globus

1:83000000 – eng kichik globus

Globusning geografik kartaga nisbatan qulayliklari quyidagilardan iborat.

- Globus yerning taxmini aynan ifodalangani uchun unda qiyofa, maydon, burchak xatoliklari bo‘lmaydi.

- Globus yerning qutblarini, uning o‘qini va shaklini kartaga nisbatan aniqroq ifodalash imkonini beradi.

- Globusda karta orqali tushuntirib bo‘lmaydigan abstrakt tushunchalarni, ya’ni, yerning o‘qi, uning o‘z o‘qi atrofida aylanishi, yer o‘kining ekleptika tekisligiga nisbatan qiyaligi singarilarni tushuntirish imkonini beradi.

- Ekvator, meridian, parallel chiziqlarni aniq belgilanganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

- Globus faqat tabiiy geografiya kurslarida emas, boshqa geografiya kurslarini o‘rganish jarayonida ham qo‘llanishi mumkin.

Globus bilan ishlash jarayonida quyidagi ishlarni bevosita amalga oshirishadi.

1. Yerning shaklini tasavvur qilish, ekvator hamda meridian chiziqlarining uzunligini aniqlash, yerning o‘qini o‘lchash bilan uning diametri va radiusini aniqlash mumkin.

2. Globusda ma’lum nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlash juda qulay hisoblanadi.

3. Sana o‘zgarish chizig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlarni aniq bajarish imkoniyati yaratiladi.

4. Shimoliy va janubiy qutb doiralari, shimoliy hamda janubiy tropiklarni o‘quvchilar chuqur tasavvur etishiga bag‘ishlangan topshiriqlarni yechish.

5. Kecha va kunduzning almashinishi, eng uzun va qisqa kun, bahorgi va kuzgi tengkunlik, qutb kechasi va qutb kunlari kabi tushunchalar mohiyatini o‘quvchiga tushuntirishda alohida ahamiyatga ega.

6. Globusda ikki nuqta orasidagi masofani aniqlashga doir topshiriqlarni bajarish ancha qulay va aniq hisoblanadi.

Tabiiy geografiyaga oid mavzularni o‘quvchilar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirishda globus juda katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yer ellipsoidini tekislikda tushurishda yer sharining haqiqiy shakliga yaqinroq bo‘lgan globus ko‘proq misol qilib olinadi. Globus yer sharining shar shaklida kichraytirilib tasvirlangan modelidir. Yer ellipsoidi globusdan juda kam farq qilib, bu farq amalda sezilmaydi. Ular har xil mazmunga ega bo‘lib geografiq, siyosiy-ma’muriy, induksion (qora rangli bo‘lib, materiklarning konturlarioq rangda chizilgan), amaliy ishlarni bajarish uchun proyekcion globuslarga bo‘linadi. Hozirgi kunlda relyefli globuslar ham mavjud. Ularning yer shari relyefini o‘rganishda ahamiyati katta. Globusni yasash uchun yer yuzasi 12 ta meridional

bo‘laklarga bo‘linib, tayyor sharga yopishtiriladi. Globus geografiya darslarida ayniqsa juda muhim ko‘rgazmali quroq bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yerning shar shakli tasvirlanadi.
 2. Yer yuzasidagi geografik obyektlarning o‘zaro joylashish holatlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Yer yuzasining ayrim bo‘laklari (materiklar, okeanlar, orollar, dengiz va ko‘llar) ning bir-biriga nisbatan joylashishi haqida ham aniq tasavvur olinadi.
 3. Yer yuzasining hamma joyida maydon va shakllar deyarli o‘zgartirilmay tasvirlanadi.
 4. Globus yuzasining hamma joyida masshtab bir xil bo‘ladi.
 5. Globusda yer yuzasidagi hamma burchaklar to‘g‘ri tasvirlanadi, meridian va parallellar o‘zaro kesishganda to‘g‘ri burchak hosil qiladi.
- Globusda yer yuzasidagi ikki nuqta orlig‘idagi eng yaqin masofa bo‘lgan ortodromiyani hamda meridianlarni bir xil burchak bilan kesuvchi chiziq loksodromiyani aniqlash mumkin. Ekvator va parallellar loksodromiya bo‘lib hamma meridianlarni 900 li burchak bilan kesadi.

Amaliy ishlarni bajarishda induksion, proyektion, kesilgan va boshqa xil globuslardan foydalaniladi. Induksion globusda parallellar va meridianlar bo‘r bilan chizib ko‘rsatilsa, o‘quvchilarga tushuntirish oson bo‘ladi.

Proyektion globus simdan yasaladi, soyasi yordamida kartografik proyeksiyalar tushuntiriladi. Umuman olganda globuslar geografik bilimlarni o‘quvchilar to‘liq idrok etishlarida va ularda geografik obyektlarni fazoviy tasavvur etishda ularning ahamiyati juda kattadir.

Globus va kartada kerakli nuqtani topish.

Dars jihizi: Yarim sharlar kartasi va globus. Darsni o‘quvchilardan so‘rashdan boshlagan yaxshi:

1. Qutblar deb nimaga aytildi?
2. Ekvator deb nimaga aytildi?
3. Qutblar ekvatordan qancha masofada joylashgan?
4. Toshkent qaysi parallelda joylashgan?

5. Moskva qaysi meridianda joylashgan?
6. Ekvator qaysi materiklarni kesib o'tgan?
7. Ural tog'lari shimoldan janubga 60 meridian bo'ylab qancha masofaga cho'zilgan?

Shundan keyin yangi mavzuni tushuntirishga o'tish mumkin.

Qaysi biringiz shaxmat o'ynashni bilasiz? – deydi o'qituvchi – shaxmat o'ynaydigan odam shaxmat taxtasi 6 ta katakda bo'lganini biladi. Har bir donani shaxmat taxtasida o'z o'rni bor. Shaxmat taxtasidagi barcha vertikal qatorlar raqamlar bilan belgilangan. Agar bizga masalan farzin 3 A katakda turibdi deyishsa, demak farzin vertikal birinchi qator bilan gorizontal uchinchi qatorda kesishgan katakda joylashgan bo'ladi. Endi yarim sharlar kartasiga qarang. Uni meridian va parallellar kesib o'tgan. Bu chiziqlarning hammasi o'z belgilariga ega. Masalan, kartalar va globuslarda ekvator 00 ni, ekvatordan shimoldagi birinchi parallel 100 ni ikkinchi parallel 200 ni bildiradi va hokazo. Ekvatordan janubdan o'tgan parallellar ham shunday graduslar bilan belgilangan.

Bu raqamlar joylarning geografik kengliklarini bildiradi. Ekvatordan shimoldagi kengliklar shimoliy (sh.k.) janubdagisi (j.k.) kengliklar deyiladi. Shundan keyin o'qituvchi karta va globusdagi joyning geografik kengligini qanday topishni va uni qanday atalishini tushuntiradi. U Toshkent, Moskva, Nyu-York, London, Sidney shaharlari, Gavay orollari koordinatalarini aniqlash yuzasidan misollar keltiradi.

Dars oxirida o'quvchilar savollarga javob qaytaradilar va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar.

1. «Vostok» va «Mirniy» kemalarida rus ekspeditsiyasi 1821-yil 10-yanvarda orolni kashf qilishadi. Uning koordinatalari 690 j. k. va 910 g'.u. bu orolning nomi nima va u qaysi okeanda joylashgan? (Pyotr I oroli).
2. Baliq ovlovchi flotiliya bazasi 500 sh.k. va 1500 sh.q.u.da joylashgan. Kartada baza turgan nuqtaning koordinatalarini topping.
3. Katta orolning markaziy qismi 190 j.k. va 470 sh.q.u da joylashgan, bu orolda eng kichik chala maymunlar yashaydi. Karta va globusdan bu orolni topping.

Nomi nima? (Madagaskar) yarim sharlar kontur kartasiga bu orolning nomini yozib qo‘ying. Orolning uzunligi va kengligini km.larda aniqlang.

4. Olimlar 800 sh .k. va 1400 sh.q.u da suv osti tog‘ tizmasi borligini aniqlashdi, u Shimoliy qutb orqali Grenlandiya oroligacha cho‘zilgan. Bu tog‘ tizmasining yo‘nalishini yozuv siz kartada belgilang va nomini yozib qo‘ying. (Lomonosov tizmasi).

5. Yevropadan Avstraliyaga borayotgan yong‘in chiqdi. Kemandan radio orqali, kemaning 800 sh.q.u.da va 400 sh.k.da ekanligi, kema kapitani yordam so‘rayotgani xabar qilindi. Falokatga uchraganlarga yordam berish kerak bo‘lgan joyni kartada nuqta bilan belgilang.

6. 1937-yil fevral oyida «Shimoliy qutb» stansiyasi joylashgan muzni oqim janubga uzoq masofaga olib ketdi va muz parchalandi. Shimoliy qutb stansiyasidan lagerni qutqarish uchun borayotgan «Taymir» va «Murman» muzyorar kemalariga radio orqali stansianing qayerda ekanligi haqida to‘xtovsiz xabar berib turildi. Papaninchilar ekspeditsiyasi 1937-yil 19-fevralda taxminan 710 sh.q va 200 g‘b.u. da muz ustidan olindi. Bu joyning karta va globusdan doiracha bilan belgilab qo‘ying.

7. Vertolyot hamma tomoni shimol yo‘nalishini ko‘rsatadigan nuqtaga qunishi kerak. Bu nuqtaning kengligi va uzunligini aniqlang (Janubiy qutb, 900j.k.va 00 uzunlik).

8. 330 sh.k. va 130 sh.q.u.da joylashgan tumanda bir vaqt havo harorati 580 S bo‘lgani qayd qilingan. Bu yer yuzasining eng issiq nuqtasidir. Bu joyni kartada qizil kvadrat bilan belgilab qo‘ying.

9. Angliyadan Amerikaga uchib borayotgan samolyot 300 sh.k va 700 g‘b.u.da dengizga qulab tushdi. Uchuvchi rezina qayiqda shimoliy sharq tomonga uzoq vaqt suzdi hamda 360 sh.k va 560 g‘b.u.da kemaga chiqarib olindi. Samolyot qulab tushgan joyni yozuv siz kartada plus ishorasi bilan uchuvchi rezina qayiqda suzib o‘tgan yo‘lni punktir chiziq bilan kema uchragan joyni doiracha bilan belgilab qo‘ying.

10. Dengizchilar okeanda ichiga xat solingan shishani topib olishadi. Xatda halokatga uchraganlar yordam berishni so‘rab murojaat qilgan edilar. Shisha ichiga suv kirib, ayrim harflar va raqamlar o‘chib ketgan edi: 420...k va 1730...u. yangi orol...yaqin.

Kema qaysi orollar yaqinida halokatga uchragan? (Yangi Zelandiya). Mana shunday qiziqarli topshiriqlar orqali joyning koordinatalarini topishga bag‘ishlangan topshiriqlar o‘tkazilsa, ularni karta bilan ishlashi samarali bo‘ladi.

Karta va globusdan joy nomlarini o‘rganish.

Karta va globusdan geografik obyektlarning joylashishini o‘quvchilar eslab qolishlari ancha murakkab jarayon. Buning uchun xilmetodlarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Odatdagi kartadagi obyektlarni avval o‘qituvchi keyinchalik o‘quvchilar topadilar. O‘qituvchining asosiy vazifasi ko‘rsatilgan obyekt nomining to‘g‘ri aytilishi va esda saqlab qolishini ta’minlash kerak.

O‘qituvchi obyektlarni qanday ko‘rsatish va ularni kartadan qanday qilib izlash kerakligini haqidagi yo‘l – yo‘riqlarni aytishi maqsadga muvofiqdir. Geografik nomlarni o‘quvchilar eslab qolishi uchun o‘qituvchi geografik joy nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, uni sinf doskasiga yozishi lozim. Keyin shu obyektga xos bo‘lgan xususiyatlarni ya’ni, uning shakli, kattaligi, rangi yo‘nalishining va boshqa o‘ziga xos tomonlarini aytadi. Imkonim boricha o‘scha obyektlarning kartadagi shaklini rangli qog‘ozlarda qirqib ko‘rsatadi va bu shakllarni o‘quvchilarga tanish bo‘lgan figuralarga taqqoslab borsa, unda o‘quvchining shu obyekt haqidagi bilimi yanada puxtarot bo‘ladi. Masalan, Apenin yarim orolini – etikka, Shri – Lanka orolini – tuxumga, Saxalin orolini – baliqqa, Skandinaviya yarim orolini – arslonga, Qora Dengizni – loviya urug‘iga, Buyuk Britaniya orolini – quyonga o‘xshatishadi. Obyektlarni bunday o‘xshatish bir muncha aniq va to‘g‘ri bo‘lmasa ham, o‘quvchilar uni tezda esda saqlab qoladilar va kartadan (globusdan) tez topa oladilar. Eskirgan kartalarni karton qog‘ozga yopishtirib ulardan geografik obyektlarning shakllarini qirqib yasab qo‘ysa va ularni darsni mustahkamlash qismida 3-5 minut davomida mashqlar uyushtirilsa kartadagi obyektlarni

o‘quvchilar puxtarot o‘zlashtiradilar. Bu usuldan foydalanish o‘quvchilarda obyektlarning shakllarini to‘g‘ri tasavvur qilishda yordam beradi. Darslarda o‘yin tarzida har 2 o‘quvchiga 10 tadan xuddi shunday shakllar tarqatilib musobaqalar uyushtirish yaxshi natijalar beradi. O‘quvchilar o‘zlariga tushgan shakllarning qaysi obyektlar ekanligini, ularning kartadagi o‘rnini, ularga oid o‘lgan boshqa ma’lumotlarni aytib borish talab etiladi. Masalan, o‘quvchiga Tasman orolining shakli tushsa, o‘quvchi uni kartadan topib, uni sayyoh Abel Tayeman tomonidan kashf etilganini aytadi.

O‘quvchilar bilmaydigan boshqa ma’lumotlarni o‘qituvchi to‘ldirib borishi metodik jihatdan ancha afzal o‘qitish usuli hisoblanadi. Har bir geografik joy nomini ma’nosini anglatish – shu obyektlarni nafaqat esda qolishini balki ularning kartadagi o‘rnini va o‘quvchilarda fazoviy kartografik tasavvurlarni shakllanishiga ham yordam beradi. Kartadan geografik obyektlarni ko‘rsatishda o‘ziga xos didaktik qoidalarga amal qilish kerak. Albatta obyektni ko‘rsatgich yordamida ko‘rsatish, uni to‘smaslik, shahar haqida gap ketganda ko‘rsatgich punsonda bo‘lishi, daryolarni boshlanish joyidan quyilishiga qarab ko‘rsatish shular jumlasidandir. Geografik obyektning yaqinidagi boshqa obyektlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish karta va globusdan tegishli obyektni tez topishga yordam beradi. Masalan, Suvaysh kanali Afrika va Yevroosiyo materiklari o‘rtasida ekanligini yoki O‘rta yer dengizini Afrika va Yevropa oralig‘ida joylashganligin aytish, ularni kartadan tez va aniq toplishiga yordam beradi.

Kartadan geografik obyektlarning o‘rnini tez esda saqlab qolish ko‘nikmalarini o‘quvchilarda shakllantirishda ko‘pchilik o‘qituvchilar shartli tarzda bayroqchalar, yulduzchalar va boshqa vositalardan foydalanadilar.

Geografiya o‘qituvchisi geografik obyektlarni o‘quvchilar tomonidan mexanik yodlashlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak. O‘quvchilar geografik kartalarni o‘rganishda obyekt va hodisalarning xususiyatlarini sxematik chizmada, rasmlarda va boshqa belgilarda ifodalashni o‘rgansalar, ularni kartani mazmunini puxta egallashlariga imkoniyat kengayadi. Karta – sxemalar xuddi ana shu xususiyatni

o‘zida aks ettiradi. Karta sxemalarni yozuvsız kartalarda chizish vaqtni tejaydi va obyektlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Geografiya ta’limida navbatchi kartalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Navbatchi kartalar devoriy o‘quv kartalar yordamida amalga oshiriladi. Yarim sharlar kartasida bayroqchalar qo‘yish, iplar tortish va dunyoning qaysi qismida qanaqa voqealar bo‘layotganligi haqida ma’lumot berib boriladi. Geografiya o‘qitish metodikasida kartani puxta o‘zlashtirishga qaratilgan boshqa usullarining ichida geografik o‘yinlar ham muhim rol o‘ynaydi. Shuni hisobga olib, kartadagi obyektlarni aniqlashga yordam beruvchi o‘yinlar ancha samarali bo‘lib hisoblanadi.

Nazorat savollari:

- 1. Geografiya o‘qitish metodikasi nuqtayi nazaridan nechta ta vazifani bajaradi?**
- 2. Maktab geografik kurslarida qo‘llaniladigan globuslar xil masshtabda bo‘ladi?**
- 3. Mazmuniga ko‘ra kartalarni klassifikatsiya qilishda V.P.Budanov ularni nechi guruhga ajratadi?**

7-MAVZU: GEOGRAFIYA TA’LIMINI UYUSHTIRISHNING SHAKLLARI

Tayanch so‘zlar: didaktik maqsad, bilim va ko‘nikma, dars tiplari, ommaviy suhbat usuli, dars klassifikatsiyasi

7.1. Geografiya dars tiplari va ularning xususiyatlari.

Dars murakkab pedagogik obyektdir. Dars tiplari juda xilma-xil. Metodik adabiyotlarda dars tiplari: didaktik maqsadlarga, ta’lim metodlariga, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishga, ta’lim mazmuniga qarab klassifikatsiya qilinadi.

Eng keng tarqalgan, ommaviy qo'llaniladigan dars klassifikatsiyasi didaktik maqsadlar asos qilib olingan klassifikatsiyadir. Bunday klassifikatsiya quyidagi dars tiplaridan iborat:

1. Aralash dars.
2. Kirish darsi.
3. Yangi bilimlarni o'rganish darsi.
4. Ko'nikma va malakalarni rivojlantirish darsi.
5. Takrorlash darsi.

Darslarning mazmuni va didaktik maqsadlarga qarab turli dars tiplaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati va vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini beradi.

Turli dars tiplariga to'xtab o'tishga harakat qilamiz.

Aralash dars.

Darsning bu tipi, qadimdan maktab geografiyasidagi asosiy dars tipi deb tan olingan va keng qo'llanib kelinadi. Aralash dars o'zlashtirishning barcha jarayonlarini o'ziga kamrovchi dars tipidir. Aralash dars o'z oldiga bir necha didaktik maqsad quyganligi bilan boshqa dars tiplaridan farq qiladi. Bu dars yangi materiallarni o'rganish, muayyan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ularni takrorlash yo'li bilan mustahkamlash, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashni maqsad qilib qo'yadi.

Aralash dars quyidagi tarkibiy qismlarga ega:

- darsning vazifasini tushuntirish, o'quvchilarning ishga tayyorgarligini tekshirish;
- yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan oldingi mavzu bilan yangi materialni bir-biriga bog'lash;
- uy vazifaning bajarilishini tekshirish;
- yangi materialni o'rganish va uni yakunlash;
- mustahkamlash va darsda bajarilgan ish natijalarini tekshirish;
- uyg'a vazifa berish va uning bajarishga oid yo'l-yo'riq ko'rsatish qismlaridan iborat.

Geografiya ta’limida eng ko‘p tadbiq etiladigan bu ommaviy darsda turli ta’lim vositalari va metodlaridan foydalanish mumkin va maqsadga muvofikdir. O‘qituvchilarining ko‘pchiligi bir qolipda ishlashga o‘rganib qolganlar. Darsni o‘tgan materialni takrorlash va uy vazifasini tekshirishdan boshlaydilar. Bunga taxminan 20 minut atrofida vaqt sarf bo‘ladi. Undan keyin yangi materialni og‘zaki bayon etadilar. Darsni bu qismiga ham odatda 20 minut atrofida vaqt sarflanadi. Darsda o‘rganilgan yangi materialni mustahkamlash va uygaga vazifa berishga esa taxminan 5 minut atrofida vaqt sarflanadi. Bunday strukturali darsda yangi materialni o‘rganish va o‘quvchilarining mustaqil ishlashiga yetarli vaqt ajratilmaydi, binobarin, asosiy material sinfida o‘rganib ulgurilmaydi. Ayni vaqtida o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini tekshirishga ko‘p vaqt sarflanadi. Ba’zi darslarda esa yangi o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga ulgurilmaydi. Aralash darsni bunday zaylda o‘tish ta’lim tarbiya vazifalarini to‘liq hal eta olmaydi. Aralash dars o‘ylab, oqilona tashkil etilsa, har bir dars o‘rganiladigan material mazmuni, ta’lim vositalarining mavjudligi, o‘quvchilarining tayyorgarligi va saviyasiga qarab olib borilsagina yaxshi natijaga erishish mumkin. Agar aralash dars, oldingi darsdagi mavzu bilan bir-biriga yaqindan bog‘liq bo‘lsa, darsni oldingi dars materiali yuzasidan o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini tekshirishdan boshlash mumkin.

Yangi material asosan va bevosita dars jarayonida o‘rganib tugallanishi kerak. Yangi materialni o‘rganish uchun 30 minut atrofida vaqt ajratilishi lozim. Aralash darslarda, uy vazifasi yangi materialni o‘rganib bo‘lgach, mustahkamlashdan oldin berilgani maqsadga muvofiq (uy vazifasini darsning oxiriga, o‘quvchilar e’tibori susaygan vaqtga qoldirish kerak emas).

Yangi materialni mustahkamlashdan maqsad material asosan o‘zlashtirilganligiga qanoat hosil qilishdan iboratdir. Geografiya kurslari mazmunida nazariy bilimlarni ko‘payib borishini nazarda tutadigan bo‘lsak, yangi bilimni o‘rganish jarayonida uni mustahkamlab va yakunlab borish maqsadga muvofikdir. Aralash dars turli dars tiplarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘qituvchi aralash darsda qaysi dars tiplaridan foydalanishni belgilab, uning elementlarini

o‘ylab, rejalashtirishi lozim. An’anaviy aralash darslardan tashqari turli kombinatsiyali dars tipini tatbiq etishimiz ham mumkin. Masalan, aralash dars o‘z oldiga ikki (ilgari o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va yangi bilimlarini o‘zlashtirish) didaktik maqsad quysa, uning taxminiy strukturasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Uy vazifani o‘quvchilar tomonidan bajarilishini tekshirish:
 - a) vazifani to‘g‘ri, to‘liq va saranjom bajarganligi;
 - b) bajarilgan vazifaning mazmuni va natijalari.
2. Ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirish: a) ommaviy suhbat usuli bilan; b) individual og‘zaki so‘rash; v) qisqacha yozma yoki test tipidagi topshiriqlar.
3. Dars mavzusi, maqsad va vazifasi bilan o‘quvchi.larni xabardor qilish, asoslash.
4. Yangi materialni o‘rganilishi va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi.
5. Bilimlarni umumlashtirish va sistemaga solish.
6. Darsga xulosa yasash va uygaga vazifa berish.

Yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, ularni amalda tadbiq qilishni maqsad qilib, bunga aralash darsning taxminiy strukturasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Tayanch bo‘lib xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni qayta tiklash.
2. Dars mavzusi, maqsad va vazifasini bayon etish,, o‘tkaziladigan mashqlarni asoslash.
3. Yangi material (qoida, qonuniyatlar)ni o‘rganish va o‘quvchilar tomonndan o‘zlashtirilishi.
4. Egallangan bilimlarni dastlabki tadbiqi (sinash mashqlari).
5. Ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish instruksiya va topshiriqlar bo‘yicha mashq (ijodiy topshiriqlar).
6. Bilimlarni ijodiy tadbiq etishga oid mustaqil ishlar.
7. Darsning yakunlanishi.

Kirish darsi.

Kirish darsi odatda o‘quv yilining boshida, yangi kurs boshlanishida o‘tkaziladi. Kirish darsining maqsadi yangi kursni o‘rganishga o‘quvchilarni jalganishiga bo‘lingan shart.

etishdan iboratdir. Kirish darslarida o‘quvchilarning ilgari olgan bilimlariga asoslanilgan holda ularni yangi kurs mazmuni bilan tanishtiriladi.

O‘qituvchi mazkur darsda yangi kursni o‘rganishdagi ish usullari (kuzatish, karta va darsliklar bilan ishslash) bilan, asosiy ta’lim vositalari (darslik, kartalar, atlas, kontur karta, geografiya daftari) bilan tanishtiradi. Shuningdek ayrim tashkiliy masalalar (darsga qanday tayyorgarlik bilan kelish, yangi bilimlarni o‘rganishdagi o‘quvchilarning vazifalari, topshiriqlar, mustaqil va amaliy ishlarni bajarish tartibi) bilan o‘quvchilar xabardor qilinadi. Kirish darsni shuningdek, o‘rganiladigankursga uning mazmuniga, geografik bilimlarga o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, kursning amaliy ahamiyatini yoritishni ham maqsad qilib qo‘yadi. Kirish darslarini ko‘pincha yangi bilimlarni o‘rganish darsiga tegishli deb qaraladi, chunki bu ikkala tipdagi dars muayyan umumiylilikka ega.

3. Yangi bilimlarni o‘rganish darsi.

Mazkur dars tipida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish elementi bo‘lishi shart emas. Dars o‘qituvchi tomonidan har tomonlama batafsil yoritib berishni talab etadigan, katta hajmdagi, murakkab materialar o‘rganishuchun bag‘ishlanadi. Bunday darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir. Agar o‘rganiladigan material turli bilim manbalari, ta’lim vositalaridan foydalanishni taqozo etsa, material mazmuni murakkab bo‘lsa, geografiya o‘qituvchisi shunday dars tipini tanlashi maqsadga muvofiq. Yirik mavzularni o‘rganishga kirishishda (yangi yirik mavzuni boshlashda), chorak boshlarida, siklon va antisiklon kabi murakkab qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan mavzularni o‘rganishda shu tipdagi darsdan foydalaniladi. Yangi materialni o‘rganish darsida asosan illustratsiyali tushuntirish metodidan foydalanadi. Materialni tushuntirishda bilim manbalari (karta, suratlar, jadvallar, sxemalar va turli didaktik materiallar)dan keng foydalaniladi. O‘quv materiallarini mustahkamlab borish uchun o‘quvchilardan oldingi egallagan bilimlarini qayta tiklash, o‘quvchilar bilimiii rivojlantiradigan topshiriqlar, muayyan mustaqil ishlar bajarish talab etiladi.

Bunday tipdagi dars strukturasi taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) darsning asosiy maqsadi va vazifasi;
- 2) yangi materialni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil etish;
- 3) bilimlarni qismlari—mantiqiy bo‘limlari bo‘yicha yakunlash va mustahkamlash;
- 4) o‘rganilgan materialni tadbik, etishni talab etadigan topshiriqlar berish;
- 5) uyga vazifa topshirish.

Yangi bilimlarni o‘rganish tipidagi darsni tashkil etish va o‘tkazish, o‘qituvchidan katta tayyorgarlik, mas’uliyat, maxorat va ijod talab etadi. Chunki bunday darslarda o‘quvchilar diqqatini va ish kobiliyatini o‘zoq vaqt o‘ziga jalb etib turish, o‘rganiladigan geotrafik obyekt va hodisalarning asosiy belgilarini moxirlik bilan ochib berish, materiallarning o‘rganish usullarini yangilab turish talab etiladi. Yangi materiallarni o‘rganish tipidagi dars variantlaridan biri, yuqori sinflarda tatbiq etiladigan maktab leksiyasidir. Leksiya o‘quv materialini ifoda etnsh, tushuntirish turlaridan biri bo‘lib, sistemali, izchil, ilmiyjixatdan asoslangan, tegishli xulosalar chiqarishni talab etadi. Zamonavny maktab leksiyasi yangi bilimlar manbai bo‘lib xizmat qilish bilan birga u o‘quvchilarni keyingi mustaqil ishlarga tayyorgarlik, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Leksiya darsi didaktik maqsadlarga ko‘ra kirish leksiyasi, obzorli leksiya va yakuniy leksiyaga bo‘lishi mumkin.

Kirish leksiyasi, odatda kurs va yirik bo‘limning muxim nazariy masalalari, asosiy g‘oyalari va tushunchalarini o‘ziga kamraydi.

Kirish leksiyalarida ayrim problematik masalalarni batafsil ko‘rib chiqib, hal etish ham mumkin. Kirish leksiyalarida problemami masalalarni hal etnsh, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘llaydi. Leksiyaning bu turi yakunlash, dalillar keltirish, o‘quvchilardagi bor bilimlarnn jalb etish, predmetlararo aloqalarni bog‘lash kabi turli usullarni tadbiq etishni taqozo etadi.

Obzorli leksiyalar yirik mavzularga obzor berishda (masalan, «Dunyo siyosiy kartasiga obzor»), shuningdek ayrim tabiiy geografik o‘lkalar yoki mamlakatlarni masalan, «Janubiy va Janubiy Sharkiy Osiyo: mamlakatlari», «Latin Amsrikasi mamlakatlari») o‘rganishda qo‘llaniladi. Obzorli leksiya taxlil qilnsh va

yakun yasash bilan qo'shib olib boriladigan tavsifga ko'lroq e'tibor berilishi bilan kirish leksiyasidan farq qiladi. Obzorln leksiyada asosan — o'quvchilar uchun muhim va qiziqarli bo'lgan faktlar, problemali masalalarga alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Obzorli leksiyalar asosan O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, jaxonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kurslari materiallarini o'rganishda tatbiq etiladi. Geografiya kurslarida, ba'zan yakuniy leksiya ham qo'llaniladi. Yakuniy leksiyaning vazifasi iqtissadiy: geografiya kursni yoki uning yirik bo'limidagi o'rganilgan bilimlarni sistemaga solish va yakun yasashdan iboratdir. Ayrim ilg'or tajriba sohiblari, o'z mакtablarida darsning reaksiya-seminar sistemalarini ham qo'llamoqdalar. Bir necha soat vaqt ajratiladigan leksiyaseminar darslari: leksiya darsi, mustaqil ish darsi va sinov darslaridan iborat bo'lishi mumkin.

4. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi.

Mazkur darsning maqsadi — nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularni mustahkamlash va tadbiq etish bilan bog'liq bo'lgan, geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun bu dars tipini ba'zan bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirish darsi deb ham yuritiladi.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati muayyan amaliy ishlarni bajarishdan iborat bo'ladi. Bunday dars programada aloxida rubrika bilan ko'rsatilgan o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan asosiy bilimlar va egallashi zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarning shakllanishiki ta'miplashi zarur.

Geografik ko'nikma va malakalar uzoq vaqt davomida shakllanadi. Zarur ko'nikma va malakalarning ayrimlari «aralash dars» va «yangi bilimlarni o'rganish dars»larida (o'quvchilarning nazariy va amaliy faoliyatları jarayonida ham shakllanadi. Binobarin, amaliy ishlarning muayyan qismi, masalan, maxalliy va mintaqa vaqtini aniqlashga oid vazifalar O'zbekiston geografik o'rnini o'rganishda bajarilshi ham mumkin.

Amaliy ishlarning muayyan qismini esa yangi materialni o'rganib bo'lingach mustahkamlash davomida ham «bajarish (masalan, Afrika iqlim mintaqalari va

ularnnng xususiyatlari o‘rganib bo‘lingach, o‘quvchilarni iqlim diagrammalarini o‘qish usullari bilan tanishtirish) mumkin.

Oldingi darsda o‘rganilgan materiallarni tekshirishda ham muayyan miqdorda amaliy ishlar olib borilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar geografik obyektlarni tasvirlash, obyektlarga siyosiy xarakteristika berish, geografik koordinatlarni aniqlash bilan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsidagi amaliy ishlar ikkiga: ta’limiy va yakuniy amaliy ishlarga bo‘linadi. Ta’limiy amaliy ishlar o‘quv ishining biron turi (masalan, obyektning geografik o‘rnini belgilash, karta asosida profil tuzish...)ni o‘ngatish, bilimlarni mustahkamlash, turli ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Masalan, «Afrika» mavzusidagi iqlim xususiyatlarini tahlil qilishga oid amaliy ish — ta’limiy xarakteriga ega bo‘lsa, keyingi mavzularni urganishda shu mazmundagi amaliy ish — mashq qilish xarakteriga ega bo‘ladi. Odatda birnecha mashqlar o‘tkazilgach, shakllangan ko‘nikma va malakalarnn tekshnrib ko‘rish va bundan keyin rivojlantirish maqsadida yakuniy amaliy ish o‘tkaziladi.

Yakuniy amaliy ish mazmuniga ko‘ra ko‘proq geografik obyektlar, tabiiy komponentlari, tabiiy komplekslar, xalq xo‘jaligi tarmoqlariga xarakteristika berish yoki ularni tasvirlash, ishlab chiqarish sikllar sxemasini tuzish, iqtisodiy rayonlarga xarakteristika berishga bag‘ishlangayi bo‘ladi. Ularni bajarish uchun maxsus dars xam ajratish mumkin. Masalan, O‘rta Osiyo Respublikalari xujaliklariga siyosiy xarakteristika tuzishga oid ko‘nikma va malakan shakllantirishga alohida dars ajratish mumkin (O‘zbekistonning iqtisodiy - ijtimoiy geografiyasi kursini o‘rganadi).

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Ta’lim tarbiyaviy maqsadni belgilash.
2. Amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ta’lim vositalari va ulardan foydalananish yo‘llari bilan o‘quvchilarni tanishtirish.
3. O‘quv ishlari usullarini egallash, amaliy ish topshiriqlari natijalarini o‘quvchilar tomonidan rasmiylashtirishga oid ko‘rsatma berish (darsning asosiy qismi)

4. Qilingan ishlarga yakun yasash.

5. Uyga vazifa berish.

Amaliy ishlarni bajarish va o‘quvchilar faoliyatidagi muvaffaqiyat o‘qituvchining maxorati va o‘quvchilarning tayyorgarliklariga: taqqoslash, qiyoslash, hisob-kitoblar qilish, reja asosida xarakteristika berish va tasvirlash, bir-biriga bog‘liqligini aniqlash, biron territoriya xo‘jalignniig ixtisoslashuvini belgilash. bilim manbalari bilan ishslashga bog‘liq.

5. Yakuniy takrorlash darsi

Yakuniy takrorlash darslari o‘quvchilarning bilimlarini bosqichma-bosqich tartibga solish va yakunlash maqsadida o‘tkaziladi. Takrorlash darsining vazifasi — ilgario‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va o‘quv ishlari ish usullarini qayta tiklab tizimga solishdir. Yakunlash — bir qator o‘rganilgan obyekt va hodisalardagi umumiylilikni belgilashdan iborat.

Yakuniy takrorlash darslari geografiya kurslaridagi nazariy bilimlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishida, egallangan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashda katta axamiyatga ega. Bilmilarni umumlashtirish va yakunlash geografiya kurslaridagi ayrim (masalan, tabiiyterritorial kompleks, ishlab chiqarish sikllari, territorialishlab chiqarish komplekslari haqidagi) bilimlarni tizimiga solishda, tabiatning rivojlanishi hakidagi g‘oyalarni tushunib yetishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yakuniy takrorlash darslari har bir geografiya kursining oxirida, yirik bo‘limlar o‘rganib bo‘lingach o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Yakuniy takrorlash darslarining asosiy xususiyatlari — ilgari egallagan bilimlarni tushunib yetish, tizimga solish va yakunlash bilan yangi bilimlar egallahdan iborat. Shuning uchun mazkur dars tipipining asosiy vazifasi — o‘quvchilarning o‘zlaridagi bor bilim, fakt aloqadorliklarga tayanib, umumiyligi xususiyatlari, qonuniyatlarini egallahlaridan iborat. Yakuniy takrorlash darsi mavzularni eslatish va o‘qituvchining kirish so‘zi bilan boshlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil bajaradigan ishiga yo‘l yuriqlar ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mustaqil ishlari geografiya kursi yoki yirik bo‘limidagi asosiy

masalalarni takrorlash, turli xil bilim manbalari bilan ishslashga oid o‘quv ish usullarini tadbiq etishni ta’minlashi lozim.

O‘zbekiston tabiiy geofafiyasi kursining nihoyasida o‘tkaziladigan yakuniy takrorlash darsi namunasini ko‘rib chiqaylik. Dars O‘zbekiston tabiiy gsografiyasi kursida o‘rganilgan tabiat komponentlarni haqidagi umumi tushunchalar, ularning o‘zaro aloqadorligi hamda tabiiy geografik qonuniyatlarni takrorlashdan boshlanadi.

Ta’lim vositalaridan foydalanib o‘tkaziladigan suxbatda quyidagi savollarga javob olinadi.

1. O‘zbekiston territoriyasida geografik zonallik qonuniyati kanday vujudga keladi?
2. Tabiiy territorial kompleks komponentlarining o‘zaro aloqadorligi nimalarda o‘z ifodasini topgan?
3. Tabiiy hududiy kompleksi komponsntlarining o‘zaro bir-biriga aloqadorligi nima uchun tabiiy sharoiti va boyliklaridan samarali foydalanish, tabiatni muxofaza qilish va qayta tiklash uchun nlmiy asos hisoblanadi?

Yakuniy takrorlash darslarining asosiy vazifasi o‘tilgan bilimlarni takrorlash va o‘quvchilar bilimini kengaytirishdir. Ayni vaqtda programma materiallarini o‘quvchilar tomonidan qay daraja o‘zlashtirilganligini aniqlash imkoniyatini ham beradi. Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: har bir geografiya darsi o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lishi kerak. Umuman olganda har bir geografiya darsi asosan uch qismdan:

1. Darsning boshlanishi — darsning maqsad va vazifasi bilan o‘quvchilarni tanishtirish.
2. Darsning asosiy qismi muayyan ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etish.
3. Darsning yakuniy qismi — yakun yasaladi va uyga vazifa topshiriladi.

7.2. Geografiya darslarida o‘quvchilar mustaqil ishlarni tashkil etish

O‘quvchilar faoliyatini faollashtirish ularning mustaqil ishlariga alohida e’tibor berishni talab etadi. O‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va bilimlarni puxta o‘zlashtirishning asosiy vositasn — o‘quvchilarling mustaqil ishlaridir.

Maktabni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari, isloh asosida ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan maktab geografiya programmalarini, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ta’lim vositalaridan bilim manbai tarzida foydalanishni nazarda tutadi. O‘zbekiston pedagogikasining asosiy talablaridan biri o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirishdir. K.D. Ushinskiy, o‘quvchilar mustaqil ko‘rsatishlari tufayligina bilimlarni puxta o‘zlashtiradilar degan fikrni bildirgan edi. O‘quvchi o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida ishlamasa, bilimlarni rasman egallaydi, keyingi amaliy faoliyatda undan foydalana olmaydi. B. P. Yesipov o‘quvchilarnint mustaqil ishlari ta’lim jarayonida quyidagi vazifalarni hal etishi mumkin deydi:

- 1) o‘quvchilarning ongliligi va o‘zlashtirgan biliming sifatini oshirishga;
- 2) ularda programma talab etgan o‘quv ish usullariga (shu jumladan bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga) oid bilim va ko‘nikmalarining shakllanishiga;
- 3) O‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda, ishlab chiqarishda tadbiq eta olish;
- 4) o‘quvchilarning bilim, qobiliyatlari (kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tafakkur, ijodiy faollik va bilimlarni tadbiq etish)ni rivojlantirish;
- 5) aqliy va jismoniy mehnat madaniyatiga, mustaqil ishlashiga, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga odatlantirish;
- 6) o‘quvchilarni kelgusida samarali va mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyatlarini beradi, deb ta’kidlaydi. «Mustaqil ish deb nimaga aytildi?» degan savolning vujudga kelishi tabiiy.

Ayrim metodistlar, o‘qituvchining bevosita yordamisiz sodir bo‘ladigan o‘quvchilar faoliyatini mustaqil ish deb hisoblaydilar. Buni to‘liq ta’rif deb bo‘lmaydi.

Ko‘pchilik geografmetodistlar: o‘qituvchining topshirig‘i asosida, muayyan ajratilgan vaqt mobaynida bajariladigan, aqliy faoliyat talab etadigan ishlarni mustaqil ish deb biladilar. Yuqoridagi fikrlarni nazarda tutib, bilim va ko‘nikmalarini ijodiy tadbiq etib, yangi bilimlarni egallahsha xarakat qiladigan ta’limni mustaqil ish deb tushunish mumkin.

Yirik metodist geograf M. K. Kovalevskaya fikricha: «O‘quvchilar yangi fakt, hodisalarini aniqlash uchun o‘z bilim va tajribalarini tadbiq etsalar, ilgari ularga ma’lum bo‘lmagan sabab va oqibatlarni izlasalar, yoki masalani hal etishning yangi usullarini topsalar (ya’ni bilim va ko‘nikmalarda yangi natijalarga erishsalar) bunday ishni mustaqil ish deyish mumkin».

Ayrim o‘qituvchi va metodistlar «mustaqil ish» bilan «amaliy ish»ni bir xil deb tushunadilar. Har qanday amaliy ishni ham mustaqil ish deyish qiyin. Amaliy ishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda, geografiya o‘quv faniga xos bo‘lgan (karta bilan, raqamli ko‘rsatkichlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish kabi) ko‘nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Olingan bilimlarni mustahkamlash amaliy ishlarning asosini tashkil etadi. Amaliy ish o‘qituvchi bilan o‘quvchilar faoliyatining nisbatini belgilaydi. Amaliy ishlar o‘quvchilar tomonidan ommaviy tarzda ham, o‘qituvchining ishtirokida ham bajarilishi mumkin. O‘quvchilar amaliy ishlarning bajarish usullari (masalan, kartani o‘qish, karta asosida biron territoriyaga geografik xarakteristika berish)ni egallaganlaridan keyin ishlarni mustaqil bajarish imkoniyati vujudga keladi. Amaliy ishlarning xarakterli xususiyati egallangan bilimlarni amalda tadbiq etish, mustahkamlash bo‘lsa, mustaqil ishlarning asosini yangi bilim va ko‘nikmalarni egallahash, yangi bilimlarni izlashda ilgari egallangan bilimlarga tayanish tashkil etadi. Mustaqil ishlar o‘quvchilar faoliyatini amaliy ishlarga nisbatan ko‘proq qamrab oladi. Ular amaliy ish bilan birga turli bilim manbalari bilan ishlashni ham o‘z ichiga oladi.

7.3.Mustaqil ishlarning elementlari

Mustaqil ishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga tayyorlash, ayni vaqtda yoshlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Demak, mustaqil ishni — yangi bilim va ko‘nikmalar egallahash, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish deyish mumkin.

Mustaqil ish bir necha elementlardan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mustaqil ishni tashkil etganda ularning bir-biri bilan aloqadorligini

nazarda tutish taqozo etiladi. O‘quvchilarga tayyor bilim berish amalda keng tarqalgan ta’lim tarzidir. Ta’limning bunday tarzi o‘quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi. Psixologlar: «...bunday bilim keraksiz yuk bo‘lib qoladi» deydilar. O‘quvchi qanday bilim olayotganini, qanday bilayotganini, bilish usullarini qanday egallayotganini tushunib yetsa, uni mustaqnl ta’lim olish deyish mumkin. Demak, geografiya ta’limidagi mustaqil ishning didaktik vazifasi — o‘quv ishlarining o‘ziga xos usullarini egallah, binobarin, fanning tadqiqot metodlarini egallahni ta’minalashdan iborat.

Geografiya darsidagi mustaqil ish turli didaktik maqsadlarni nazarda tutishi mumknn. Mustaqil ish asosan yangi materialen o‘rganish jarayonnda va mustahkamlashda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak. Darsda o‘qituvchi raxbarlitida yangi materialning muayyan qismini o‘quvchilar mustaqil o‘rganishlari ham mumkin.

Yangi materialni o‘rganish jarayonidagi o‘quvchilarining mustaqil ishlari ikki xil yo‘l bilan olib boriladi:

- 1) O‘qituvchn yangi materialni tushuntirib boradi, o‘quvchilar esa ayni vaqtida, o‘qituvchiii tinglash bilan birga muayyan mustaqil ish bajaradilar. Masalan, ifoda etilayotgan yangi material asosida konsept olishlari yoki o‘rganilayotgan geografik obyekt va hodisalarini kontur kartaga tushirib boradilar.
- 2) O‘qituvchi mustaqil ish uchun o‘quvchilarga topshoriq beradi, so‘ngra yangi materialni tushuntiradi, keyin o‘quvchilar mustaqil ish bajaradilar.

Umuman mustaqil ishlar katta ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o‘quvchilarvning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o‘rganilgan masalani chuqurroq uylashga uningeng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil nshsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko‘nikma va malakalarli xosil qilish, mustaqil bilim olishni taminlab bo‘lmaydi. Fantexnika ulkan odimlar bilan rivojlanib borayotgan jadallashtirish davrida, maktab quchog‘ida olingan bilimlar ko‘p utmay eskirib qolishni xech gap emas. Binobarin, mexnat faoliyati davomida o‘z bilnmlarni muttasil to‘ldirib, boyitib borish taqozo ztiladi. Bunga tinmay mustaqil bilim olib, o‘z ustida ishlab

borish bilangina erishnsh mumkin. Mustaqil ishlar o'quvchilarning o'quv faoliyatlarida, turli didaktik masalalar nn hal etishda nazariy: bilimlarni shakllaktirishda, geografik qonuniylatlarni aniqlashda, bilim va ko'nikmalarni egallash va amalda tadbiq etishda olib boriladi. Mustaqil ish ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni tekshirishda, yangi materiallarni o'rganishda, uni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek ekskursiyada tadbiq etilishi mumkin.

Mustaqil ishlarga metodik talablar. Mustaqil ish avvalo geografiya o'qituvchisidan, shuning dek o'quvchilardan muayyan tayyorgarlik talab etadi. Mustaqil ishga o'quvchilarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan, sekin asta murakkablashtirib o'rgatib borish lozim. O'qituvchi o'quvchilarni dastlab darslik teksti, illustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishslashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishslashga, spravochnik va lug'atlar, geografiya atlasiari oxiridagi nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biroq geografik obyektga reja asosida xarakteristika berishga, konsept tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqoridagi ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma zgallangach, o'quvchilarga boshqa, murakkabroq mustaqil ishlarni tavsiya etish mumkin.

Agar o'quvchilar mustaqil ishlarni bajarishga oid yetarli tayyorgarlikka, muayyan ko'nikma va tajribaga ega bo'lmasalar, ular mustaqil ishlarni bajarishda qiynaladilar, kutilgan samaraga erishnsh qiyin.

O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarga quyidagi metodik talablar quyiladi. 1. Mustaqil ish o'quvchilar kobiliyati va tayyorgarligiga mos, ular uddasidan chiqa oladigan, ayni vaqtida ularnnng fikrlash qobiliyatini, ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

2. O'quvchilarning mustaqil ishlari ilgari egallagan bilim, ko'nikma, shuningdek tajribalardan fondalanishni taqozo etadigan hamda ularni yanada revojlantiradigan bo'lishi lozim.

3. Mustaqil ishlarning turi va maznini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarligiga va individual xususiyatlariga mos kelishi shart.

4. Mustaqil ishlar mazmunn xilma-xil va qiziqarli bo‘lshini nazarda tutish kerak. Ularning natijasi o‘quvchilarga yangilik berishi shart.

5. Har bir mustaqil ish natijasi o‘z vaqtida tahlil qilinishi muhokama qilib baholanishi, mustaqil ish natijalari esa ta’lim jarayonida foydalalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlar quyi sinflardan yuqori sinflarga astasekin murakkablashib borishi lozim.

Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida tabiat hodisalarini mustaqil kuzatish buyicha quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin: a) ob havoning o‘zgarishini; b) o‘simlik va xayvonlardagi mavsumiy o‘zgarishlarni; v) quyoshning gorizontdan balandligini mustaqil kuzatish.

«Reja va karta» mavzusida;

1) joyning rejaini mustaqil o‘qish;

2} topografik diktant yozish;

3) kompas yordamida azimutlarni belgilash, azimut bo‘yicha obyektlarni topish;

4) uncha katta bo‘limgan joyni ko‘z bilan chandalab rejaini olish;

5) masshtab yordamida globus va O‘zbekiston kartasidan oraliqlarni o‘lchash.

Materiklar va okeanlar geografiyasi kursida o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun oddiy xulosalar chiqarishga oid topshiriqlar berish mumkin. Masalan, turli iqlim tiplarini xarakterlovchi raqamli ko‘rsatkichlar asosida o‘quvchilar (ilgari egallagan bilimlarga tayangan xolda) iqlimi tiplarini aniqlashlari, tegishli xulosalar chiqarishlari mumkin. O‘quvchilardan quyidagi topshiriqqa ham javob talab etish mumkin. «Atlasdagi tegishli mavzutik kartalarnn tahlil qilib, Shimoliy Amerikaning 50° va 60° sh. k. lari oralig‘idagi Tinch okean soxilining iqlimi va uning tarkib topishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang».

O‘zbekiston geografiyasi kursida mustaqil ishlar yanada murakkablashib ta’lim jarayonidagi salmog‘i ortib boradi.

1) O‘quvchilardan sabab-oqibat bog‘lanishlarni belgnlashni talab etish mumkin. Masalan, Sharqiy Yevropa tekisligi iqlimini xarakterlashda, territoriya iqlimining shimoli g‘arbdan janubi sharqqa tomon kontynentallashib borishining sabablarinn

tushuntirib berishni o‘quvchilardan talab etish mumkin. O‘quvchilarning mustaqil ish bajarishidagi faolligi, ishning samarasi ko‘pincha beriladigan topshiriqqa ham bog‘liqidir, Binobarin, mustaqil ish topnshriqlariga muayyan talablar quyiladi:

1. Muhim tushuncha, sabab oqibat bog‘lanishlar, dunyoqarash g‘oyalarini aks ettirishga, ya’ni kurs temalarining ta’limtarbiyaviy maqsadlarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.
2. Topshiriqlar bilimlarning barcha komponentlari (umumiylar, xususiy tushunchalar, sabab oqibat bog‘lanishlar, qonuniyatlar, faktlar, tabiat bilan jamyyatning o‘zaro ta’siri masalalari, ta’lim va aqliy faoliyat usullari)ii qamrab olgan bo‘lishi kerak.
3. Turli ta’lim vositalari: darslik, qo‘sishimcha adabiyot (gazeta, jurnal, ilmiy ommabop kitoblar, xrestomatiya) lar, turli mazmundagi gsografik kartalar bilan birga suratlar, rasmlar, fotografiyalar, ekranli qo’llanmalar, televide niye eshittirishlari, foydali qazilmalar namunalari, gerbariyalar, statistik ma’lumotlar bilan mustaqil itilish ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minalash.
4. O‘quvchilarniig bilim qobiliyatlarini rivojlaitirish va ijodiy fikrlashga imkon berish.
5. O‘quvchilarda geografiyaga qiziqish uyg‘otish.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari uylab to‘zilgan topshiriqlar sistemasida va muntazam ravishda olib borilgandagina samara beradi.

Nazorat savollari:

1. Ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirish qaysi usullar yordamida amalga oshiriladi?
2. Mustaqil ishlarga qanday metodik talablar qo‘yiladi?
3. Mustaqil ishning asosiy maqsadi?
4. Ta’lim vositalaridan foydalanib o‘tkaziladigan suxbatda qanday savollarga javob olinadi.
5. «Mustaqil ish» bilan «Amaliy ish»ni bir biridan farqini izohlang?

8-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA DARSLARINI REJALASHTIRISHNING TA'LIMDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

Tayanch so'zlar: *ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil, umum pedagogik tahlil, tabaqalashtirish, ixtiyoriy ta'lim olish, darsning maqsadi, darsda ilmiylik, amaliy-metodik yordam,*

8.1 O'qituvchining darsni tashkil etishdagi mahorati

«Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun har bir o‘qituvchidan tashabbuskorlik, ijodiylik, mustaqil fikrlay olish, yechimlarning yangi, andozasiz yondashuvlarni talab qiladi. Maktabdagagi dars pedagogik ijodkorlikning bosh plasdarmi hisoblanadi. Darsda o‘qituvchining asosiy ehtiyoji: uzatish, berish, o‘rgatish amalgalashuvlari o‘qituvchi o‘z ijodkorligini namoyon qiladi.

Dars ishlarida an'anaviy metodika bo'yicha ko'plab kamchiliklar haligacha yo'qolgan yo'q. Masalan, dars o'tish jarayonida ma'nosini anglamay, yod olish elementlari haligacha saqlangan. Ko'pchilik o‘qituvchilar hozirgi zamon iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotni yorita borib, yetilib qolgan muammolarni tahlil qilishga e'tibor berishmaydi, balki o'quvchida materialning eng muhim joylarini yodlab olishni talab etadilar. Bunday dars berishdan qochish kerak. O'quv jarayonini tashkil etishga yangicha sifat yondashuvi kerak. Shuning uchun maktabdagagi formapizmni bartaraf etishga qaratilgan yangi g'oyalar, konstruktiv holatlar pedagogik jamoatchilik tomonidan katta e'tibor bilan kutib olinmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, pedagogik hamkorlik haqida aytish o'rini. Bunday pedagogik hamkorlikning mualliflari o‘qituvchi-novatorlar V.F.Shatalov, Ye.N.Lisenkova, P.I.Volkov, M.P.Shetinin va boshqalar haqida gapirish mumkin. Pedagogik hamkorlik metodikasiga tayanib ishlansa, ancha yengil bo'ladi. Bu yerda o‘qituvchi xotirjam, bolalar ham xotirjam, o‘zaro ishonch, ularga yengil, o‘qituvchi ham xursand. Quyida o‘qituvchi-novatorlarning pedagogik hamkorlikka asoslangan ijodiy laboratoriyalari ishi bilan tanishimiz.

O‘quvchilar bilan munosabat. O‘qituvchi oldida o‘quvchilarni ta’limning umumiy mehnatiga jalb etishdek muhim vazifa turadi. Pedagogik hamkorlik oldingi pedagogikadan, bolalarni o‘qishga tortishda o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi mehnati asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi. O‘quvchilar bilan munosabatda novatorlik yondashuvining mohiyati shundaki, ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi ta’lim tizimida adekvativ o‘zgarishlarni talab etadi. V.I.Juravlevning ta’kidlashicha, hamkorlik pedagogikasi nafaqat munosabatlar, balki bilish operasiyasining tuzilishini, bilimlarni jamoa bo‘lib egallah va mustaqil bo‘lib yakka tartibda ishslashni (eng yaxshi sherik bo‘lish uchun) ham talab etadi.

Ixtiyoriy ta’lim olish. Hamkorlik pedagogikasining bu prinsipi o‘quvchida qo‘rqish hissini yo‘qotish, erkin bo‘lish, o‘ziga ishonch uyg‘otish, unda to‘laqonli ijodiy ishslashga qobil insonni ko‘rish, V.A.Suxomlinskiy so‘zi bilan aytganda, muvaffaqiyatdan yuzaga kelgan ko‘tarinkilik bo‘lsa, o‘sha yerda o‘qishga qiziqish bo‘ladi. Qiyin maqsad g‘oyasi. Tajribani o‘tkazuvchi o‘qituvchilarning yozishicha, ularning ishlari an’anaviy darsdan shunisi bilan farq qiladiki, ular bolalar bilan hamkorlik g‘oyasini quvvatlab turadi, bolalar oldiga ko‘proq murakkab maqsadlarni qo‘yadi, ularning o‘ta murakkabligiga e’tiborni qaratadi va ushbu maqsad albatta amalga oshiriladi, bu o‘rinda mavzu yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak. Mazkur holatda o‘quvchilarni maqsadning o‘zigina emas, balki qiyinchiliklarni yengishga bo‘lgan qat’iy ishonch ham birlashtiradi.

8.2.Dars tahlili va uning turlari

Maktabni ilmiy-metodik boshqarishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri darslarni tahlil qilishdir. Maktab rahbariyatining ish ko‘lami qanchalik ko‘p qirrali bo‘lmasin, ichki boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri – ta’lim jarayonini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat.

Shuning uchun, darslarga kirish va uni tahlil etish – ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omildir.

Darslarni uch yo‘nalishda tahlil etish mumkin:

- to‘liq (majmuaviy);
- ayrim yo‘nalishli;
- qisqa (aniq) maqsadli.

Darsning to‘liq tahlilida: darsning maqsadi, mazmuni, tashkil etilish shakli, ularning o‘zaro aloqalari, shuningdek, uning didaktik, pedagogik, psixologik, ilmiy, metodik, tashkiliy tomonlari ko‘zda tutiladi.

Ayrim yo‘nalishli tahlilda darsning ayrim yo‘nalishlari keng qamrovli va chuqur, ya’ni, darsni psixologik va metodik jihatdan tashkil etilish mexanizmlari alohida o‘rganiladi. Ayrim yo‘nalishli tahlilda umumiyo‘ganishning ayrim qirralari, ilmiy-nazariy, metodik tomonlari chuqur tahlil etilib baholanadi. Lekin, bu holda ham darsning maqsadiga erishilganligi, o‘quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklarining hisobga olinishi, dars rejalarining to‘liq bajarilishi inobatga olinadi.

Darsga qo‘yilgan qaysi talablar bajarildi? Qaysi tomonlari ijro etilmay qoldi? Darsda o‘qituvchi nimani bera oldi? kabi savollargina emas, balki o‘quvchilar mustaqil bilim olishga kirisha oldilarmi? Darsda ular o‘qituvchiga hamfikr, hamkor bo‘la oldilarmi? Matn ustida, darslik ustida ishlaganlarida o‘quvchining yakka tartibda, juft-juft bo‘lib, kichik guruhlarda ishlashiga muhit yaratildimi? Ilg’or pedagogik texnologiya, innovatsiyalardan foydalanildimi? degan savollarga ham tahlil jarayonida javob izlanishi kerak.

Dars tahlilida quyidagi psixologik holatlarga e’tibor berish zarur:

- o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish uslublarining qo‘llanilishi;
- diqqat-e’tibor, his-hayajon holatlarning kechishi;
- o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish maqsadida, yangi tushuncha va fikrlarning qo‘llanilishi;
- o‘quvchining aqliy faoliyatlarini ishga sola oldimi? Shunga muhit yarata oldimi? kabi savollarga javob bor yoki yo‘qligi;
- o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari uchun ruhiy holat vujudga keltirilgan yoki keltirilmaganligi;

- dars jarayonida o‘quvchilarni jonlantirish, undash, ma’qullah, maqtash, ma’naviy qo‘llab-quvatlash, hazil-mutoyiba qilish va maslahatlar berish kabi xatti-harakatlar unumli qo‘llanildimi?
- o‘qituvchi “Bolalarga do‘stona munosabatda bo‘lish” dastur loyihasi doirasida o‘quvchi bilan samimiylilikni va o‘zaro hurmatni joyiga qo‘yishga erisha oldimi?
- dars jarayonida ijodiy muhit yaratildimi? O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro tushunmovchilik sodir bo‘lgan holatlarda o‘qituvchi vaziyatdan chiqa oldimi?
- o‘qituvchi va o‘quvchi orasida bir-birini tushunishga va muomala madaniyatiga erishildimi?

Yuqoridagi psixologik holatlarni hisobga olganda darsni tahlil etishni quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq:

1. Darsning tili, uning umum darslar tizimidagi o‘rni.
2. Dars jarayonida didaktik maqsadlarning amalga oshirilishi.
3. Darsning mazmuni (darsda ilmiylik, tushunarлilik, ketma-ketlikka rioya qilinganligi).
4. Darsning uslubiy tomoni, ko‘rgazmali va texnika vositalarning to‘g’ri tanlanganligi.
5. Darsda o‘quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashlarining tashkil etilishi.
6. O‘quv materialini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi, ularning bilim sifati va materialni tushungan holda o‘zlashtirilishi.
7. Darsda o‘quvchilarning iqtidorlarini shaxsiy takomillashtirishga erishilganlik darajasi.
8. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirganligi.
9. Darsda bolalarni rivojlantirish, tarbiyaviy holatlarning hal etilishi, darsni ularning dunyoqarashlariga moslash, o‘rganilayotgan materialga munosabatlari, ularni tahlil qila bilishlari, sintez va umumlashtira olishlari.

10. Darsning hayot bilan bog'langanlik darajasi.

11. Darsda normal ruhiy muhitning yaratilganligi.

Dars turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Yangi materiallarni o'rganish.

2. O'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslar.

3. Umumlashtirilgan darslar.

4. O'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarini tahlil va nazorat etish darslari.

8.3.Darsni kuzatish va uning tahlili.

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarining umumiyligi, bilim olishdagi faoliyati, o'quv fanga bo'lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblar bilan mustaqil ishlay bilishi, o'qituvchiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o'qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o'qituvchining o'quv dasturi materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to'g'ri qo'yishi, dars jarayonni to'g'ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etish, o'quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtidan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi, kabi jihatlar inobatga olinadi.

O'qituvchinig darsini bir necha marta kuzatish va tahlil qilish uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, umumiyligi o'rta ta'limga muktab o'qituvchilarining darslarini tahlil qilishda ko'pincha kuzatuvchilar darsga yaxlit tizim sifatida qaramay ko'proq tashqi jihatlariga baho beradilar, darsning mazmun-mohiyati xususida yuzaki

muloxaza yuritadilar. Shuningdek, dars tahlilida o‘qituvchining ko‘rsatmali quroldan foydalanishi, didaktik kartochkalar bilan ishlashi va hokazolar aytiladiyu, ammo ulardan nima maqsadda, qaysi vaziyatda foydalanilgani, qanchalik samara bergenligi, vaqt taqsimotiga to‘g‘ri amal qilinganligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan olmaganligi kabi masalalar to‘g‘risida fikr yuritilmaydi. Bundan tashqari yana bir jiddiy kamchilik o‘qituvchining o‘zini o‘zi tahlil qilishga e’tibor qaratmaslikdir. O‘zini-o‘zi tahlil qilish tamoyili o‘qituvchining o‘z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga oid maqsadli yo‘lni belgilab olishiga asos bo‘ladi.

O‘qituvchilar aksariyat hollarda dars jarayonida quyidagi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Jumladan:

- Dars maqsadi bilan o‘quvchilarni tanishtirmaslik;
- Interfaol metodlardan samarasiz foydalanish;
- Dars jarayonida barcha o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlay olmaslik;
- O‘quvchilar bilan yakka va jamoa tartibda ishlashga erisha olmaslik;
- O‘quvchilarning mustaqil ishlashini ta’minlamaslik;
- O‘quvchilar bajargan ishlarini vaqtida baholamaslik;
- O‘qituvchi nutqining ravon ta’sirchan emasligi;
- Mavzuni amaliyot bilan bog‘lab tushuntirmaslik;
- Mavzuni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tushuntirishga e’tibor bermaslik;
- Sinf doskasi, darslik, o‘quvchi daftari, qo‘sishimcha adabiyotlardan foydalanishning tizimli yo‘lga quyilmaganligi;
- O‘quvchilarga beriladigan savollarning muammoli tarzda tuzilmaganligi kabilar.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilish lozim. Shundagina natijasi samarali bo‘ladi va o‘quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarishga yordam beradi. Dars tahlilida tizimsizlik, aniq bir maqsadning yo‘qligi, darsga tasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o‘qituvchiga amaliy yordam ko‘rsata olmaslik esa darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi. Darslarni tahlil qilish faqatgina metodik ahamiyatga ega bo‘lmay, balki

maktabda o‘quv-tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim shakllaridan biridir. O‘qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi darslarni qiyoslash va yo‘l qo‘yilgan xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkoniyatini beradi. O‘qituvchilarning o‘zaro dars kuzatishi tajriba almashinuv jarayoni bo‘lib, dars o‘tayotgan o‘qituvchi bor mahoratini ishga solib, yuqori ishchanlik bilan faoliyat ko‘rsatsa, tahlil qiluvchi o‘qituvchi esa taklif va mulohazalar berish orqali tajribasini boyitadi, metodik malakasini oshiradi.

Dars tahlili o‘quv mashg‘ulotini kuzatish, o‘rganish shaklida olib boriladi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. O‘qituvchining darsi kim tomonidan kuzatilishi lozim? Qanday maqsad bilan kuzatiladi va tahlil qilinadi? O‘qituvchining darsi viloyat XTB, tuman, xalq ta’limi bo‘limi, ta’lim muassasalari rahbarlari, xodimlari, metodistlar va o‘qituvchilar tomonida kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Buning uchun eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur. Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta’lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;.
- ilg‘or ish usullari va metodlarini o‘rganish va ommalashtirish;.
- o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishi;
- o‘quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘rganish;
- dars jarayonida yuzaga kelashi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarning oldini olish o‘qituvchiga amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar psixologik xususiyatlarinng tomonlarida o‘ziga xosligini e’tiborga olish;
- darsda o‘quvchilarni faollashtirish va mavzuni o‘zlashtirishlari e’tiborga olinganligi.

Dars o‘quv jarayonining juda ko‘p ta’lim-tarbiya qirralarini hal qiluvchi asos hisoblanadi. Shunga ko‘ra darsga kuzatuvchi va tahlil qiliuvchilardan maxsus tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi.

Darsni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Darsni kuzatishga tayyorgarlik
2. Darsning borishini kuzatish
3. O‘z-o‘zini tahlil qilishni ta’minlash
4. Dars tahlili va takliflar berish

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratishni tavsiya etamiz.

1. Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik.
 - dars kuzatishdan ko‘zlanayotgan maqsad va vazifalarni shakllantirish;
 - kuzatiladigan darsni aniq belgilab olish;
 - dars kuzatish tuzilmasini tayyorlash;
 - kerakli materiallarni tayyorlash; o‘qituvchi bilan suhbatlashish.
2. Darsning maqsadlarini tahlil qilishda:
 - o‘quv fani va mavzuning xos tomonlari, o‘quvchilar yoshi va bilim darajasi e’tiborga olingan holda ta’lim-tarbiya maqsadining to‘g‘ri va asosli qo‘yilganligi;
 - o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o‘rnini hisobga olgan holda maqsad qo‘yilishining to‘g‘riliği va asoslanganligi;
 - dars asosiy g‘oyasining to‘g‘ri quyilishi va o‘quvchilarga maqsadning yetkazishlishi, maqsadga erishish darajasi.
3. Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:
 - dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;.
 - darsning turi, strukturasining puxta o‘ylanganligi;
 - darsning bosqichlarining mantiqiy ketma-ketliligi va bir-biri bilan bog‘liqligi;
 - dars bosqichlari uchun vaqtning to‘g‘ri taqsimlanganligi;
 - o‘qitish shakllarining to‘g‘ri tanlanganligi;
 - dars rejasining mavjudligi va uning o‘qituvchi tomonidan bajarilishini tashkil qilish;

- dars jihozlari. O‘qituvchi va o‘quvchilarning mehnatini unumli tashkil qilish.

4. Dars mazmunini taxlil qilishda.

- dars mazmunining Davlat ta’lim standarti talablariga mosligi;
- materiallarning ishonchliligi, to‘liqligi, tushunarliligi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darjasи;
- darsning tarbiyaviy yo‘nalishi, ta’limiy ta’sir darjasи;
- darsni hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo‘naltirish bilan bog‘lash;
- o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- yangi materialning asosiy g‘oyasini ajratish. Yangi tushunchalarni shakllantirish. Tayanch bilimlarning muhimligini ko‘rsatish.

5. O‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish.

- Mashq va topshiriqlarning xususiyatlari, mustaqil ishlarining turlari, murakkablik darjasи, o‘quvchilar tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;
- o‘qituvchi tomonidan tushuntirish ishlarining olib borilishi;
- o‘qituvchining yordami. Yangi materialning o‘zlashtirilganlik darjasи;
- yangi mavzuning oldingi mavzular bilan bog‘langanligi. Takrorlash (tashkil qilish, shakllari, usullari, hajmi).

6. Dasr o‘tish metodikasini tahlil qilish.

O‘qitishning metod, vosita va usullarini tanlashda o‘quv materialining mazmuniga, dars maqsadlariga, sinfning imkoniyatlariga mos tanlanganligi va asoslanganligi. O‘qituvchi tomonidan darsning har bir bosqichida metod, usullarni to‘g‘ri qo‘llaganligi, ishlatilayotgan metod va usullarning xilma-xilligi. Ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnika vositalaridan samarali foydalilaniganligi. O‘qituvchining metodik qurollanganligini va pedagogik texnikasini baholash.

7. O‘quvchilarning darsdagi intizomi va ish faoliyatini tahlil qilish.

Sinfga umumiy baho berish. Sinfning diqqati va faolligi. Fanga bo‘lgan qiziqishi. O‘quvchilarning dars bosqichlaridagi layoqati. O‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish. O‘quv faoliyati shakllaridan foydalanishning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash. Umumta’lim va maxsus ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Yagona talablarning bajarilishi. Iqtidorli va qoloq o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash. Umumiy va yakka ishlash faoliyatni birgalikda olib borish. Sinfning intizomi va intizomni saqlash usullari.

8. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqati. Pedagogik etikasi , nutqi, ahloqiy va psixologik iqlimning tashkil etilishi.

9. O‘quvchilar bilimini baholash. O‘quvchilarga berilgan bilim ko‘nikma va malakaning sifati. Mustahkam va chuqur bilim berilishi. G‘oya va materiallarning asosi tomonlarini ko‘rsata olishi, amaliy ko‘nikmalarning egallaganlik darajasi. Tekshirish turlari. Baholarning jamlanganligi.

10. Uy vazifasini tahlil kilish. Uy vazifasini berishdan maqsad va hajmi. Sinfda bajarilgan ish bilan uyga berilgan vazifaning hajmi. Uyga berilgan vazifaning xususiyati (ijodiy, takrorlash, mustahkamlash, rivojlantirish), uy vazifasini berishda o‘qituvchining izohi.

Dars tahlili quyidagicha bayon etiladi.

Sana: _____

O‘qituvchi: _____

Fan: _____

Sinf: _____

Kuzatishdan maqsad: _____

Dars bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Tushuntirish va fikr-mulohaza bildirish

O‘z-o‘zini tahlil qilishda o‘qituvchiga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

- 1.Qanday talab asosida darsga rahbarlik qilindi?
- 2.O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlar qanday hisobga olindi?
- 3.O‘quvchilar faoliyatini rejalashtirishda nimalar inobatga olindi?
- 4.Mavzu bo‘yicha materiallar to‘g‘ri tanlanganmi?
- 5.Tanlangan metodlar o‘z natijasini berdimi, bermagan bo‘lsa sababi?
- 6.O‘quvchilarning bilimlarini oshirishda imkoniyat yaratilganligi?
- 7.O‘quvchilar mustaqil ishlashlarining pedagogik qiymati.
- 8.O‘quvchilarning intizomi, axloqiy tarbiya berishning shakllantirilishi.
- 9.Qanday qiyinchilik kuzatildi? Uni yengish yo‘llari, kelib chiqish sababi.
- 10.Maqsadga erishilganligini asoslash, erishilmagan bo‘lsa sabab?

Xulosa qilib aytganda, umumiyo‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilarning kasbiy malakasini, mahoratini oshirishda amaliy-metodik yordam berishning eng samarali usullaridan biri o‘qituvchining darsini kuzatish va unga beriladigan tavsiya hisoblanadi. O‘qituvchilarning darsini kuzatish va uni tahlil qilishning asosiy maqsadi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, maktabning ta’lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishga, o‘qituvchilarning ma’suliyatini oshirishga qaratilmog‘i lozim.

Nazorat savollari:

1. Darslarni necha yo‘nalishda tahlil etish mumkin?
2. Dars tahlili qanday bayon etiladi?
3. O‘z-o‘zini tahlil qilishda o‘qituvchiga qaysi savollar bilan murojaat qilish mumkin?
4. Dars qaysi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi?

9-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUV EKSKURSIYALARI

Tayanch so'zlar: iqtisodiy geografik o'quv, ekskursiya, pedagogik kengash, kompleks ekskursiya, geografik o'rni, ixtisoslashuv, mehnat unumdarligi

9.1. Ekskursiya – geografiyani o'qitishning muhim shakli

Geografik ekskursiyalar – sinf yoki muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv dasturiga muvofiq, o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muxit yoki sun'iy yaratilgan sharoitda ob'ektlarning yashash muhiti va unga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan o'quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi. O'quv ekskursiyalarini umum ta'limga muktablari ta'limiyligi – tarbiyaviy ishlarda katta o'rin tutadi. O'quv ekskursiyalarida yil davomida olingan bilimlar mustahkamlanadi va tabiatda va ishlab chiqarishda mustaqil tadqiqotlar olib borish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ekskursiyaning turlari. Umumiyligi ko'ra, bir soatlilik, bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – geografiya maydonchasida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi. Bir kunga mo'ljallangan ekskursiya – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga, suv omboriga uyushtiriladigan ekskursiya planini matab ilmiy bo'lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Ko'p kunlik ekskursiya – o'quv yilining oxirida kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, biologiya, til adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta'limga fani o'qituvchilari bilan birgalikda o'tkaziladi. Ko'p kunlik ekskursiya – rejasini pedagogik kengashda tasdiqlanadi. O'quv ekskursiyalarini maktablarda bahorda va kuzda o'tkaziladi. Ularning asosiy qismi tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriladi. O'quv ekskursiyalarining maqsadi matabda olingan geografik bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash va maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda kuzatishlar olib borish

ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda o‘quv ekskursiyalarning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

1. Joyda reja olish va xaritalar bilan ishlash bo‘yicha olingan bilimlarni yanada chuqurlashtirish va dala, ya’ni tabiiy sharoitda topografik va kartografik ishlarini olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish.
2. Astronomik bilimlarni yanada chuqurlashtirish va osmon jismlari oy, sayyoralar va yulduzlarni (katta va kichik ayiq, qutb yulduzlarini) aniqlash va ularga qarab mo‘ljal olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. Joyning relyefini o‘rganish va relyef to‘g’risidagi bilimlar va ko‘nikmalarni yanada chuqurlashtirish hamda dalada mustaqil ravishda relyefning asosiy turlarini o‘rganish ko‘nikmalarini shakillantirilishi. Bundan tashqari relyef hosil qiluvchi omillarni ham o‘rganish usullari bilan tanishtiradi.
4. Joyning geologik tuzilishini o‘rganish metodikasi bilan tanishtirish.
5. Ob-havoni kuzatish va suv havzalarini o‘rganish ko‘nikmalarini shakillantirish. O‘quvchilar ob-havo turlarini aniqlay olishlari lozim.
6. Joyning tuproq qoplamini o‘rganish va asosiy tuproq turlarini aniqlash ko‘nikmalarini shakillantirish
7. Joyning o‘simlik qoplamini o‘rganish usuli bilan tanishtirish. O‘simliklarni qavatlarga (yaruslarga) bo‘lib o‘rganish ko‘nikmasini shakillantirish.
8. Hayvonot dunyosini o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish.
9. Landshaftlarni ajratish ko‘nikmalarini shakllantirish.
10. Korxonani o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirish.

Demak, mazkur vazifani bajarish davomida o‘quvchilarning olgan geografik bilimlari va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashadi, ularda tabiatni va tabiiy geografik jarayonlarni o‘rganish va kuzatish tajribalariga va ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu esa keyingi sinflardagi geografik bilimlarni o‘zlashtirishda juda katta zamin yaratadi. O‘quv ekskursiyalari tabiiy geografiya kurslari (V-VII sinflar) bo‘yicha 4- marta uyushtiriladi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi bo‘yicha 1-marta ishlab chiqarish korxonasiga uyushtiriladi. O‘quv ekskursiyalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografik o‘quv ekskursiyalari;
- o‘lkashunoslik o‘quv ekskursiyalari;

- maxsus o‘quv ekskursiyalari (geografik, beogeografik, meteorologik va h.k). O‘quv ekskursiyalari turi va o‘tkazilish joyini geografiya o‘qituvchisi tanlaydi. Tabiiy geografiya o‘quv ekskursiyalarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni maktabda olgan bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashdir. Iqtisodiy geografik o‘quv ekskursiyalari davomida o‘quvchilar ishlab chiqarish jarayonini o‘rganishadi va sanoat geografiyasi xaqida bilim va ko‘nikmalari kengaytiriladi. O‘lkashunoslik bo‘yicha o‘quv ekskursiyalari davomida o‘quvchilar o‘lkani tabiatni, boyliklari, xo‘jaligi, madaniy-tarixiy yodgorliklarini o‘rganishadi va tegishli ma’lumotlar yig’iladi. Maxsus geografik sayoxatlar o‘qituvchini dasturiga binoan olib boriladi. Ular ko‘pincha joyning geologik sharoitini va foydali qazilmalarini, tuprog’i, o‘simgi va hayvonot dunyosini yoki ko‘nikmalarini o‘rganishga bag’ishlangan bo‘ladi. O‘quv ekskursiyalariga chiqishdan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Tayyorgarlik ishlari quyidagi qismlarga bo‘linadi: nazariy; amaliy; tashkiliy. Nazariy tayyorgarlik jarayonida o‘quv ekskursiyaida amalga oshiriladigan ishlar xususiyati va turiga ko‘ra o‘quvchilarni bilimlari mustahkamlanadi. Tabiatga uyuştiriladigan ekskursiyalarni olib borishdan avval sinf sharoitida tabiiy geografik bilimlar mustahkamlanadi, ya’ni reja olish, litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera haqidagi nazariy bililar qaytariladi va mustahkamlanadi. Amaliy tayyorgarlik bosqichida o‘quvchilarga ekskursiya davomida zarur bo‘ladigan ish usullari haqida bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Agar o‘quv ekskursiya daryo vodiysi bo‘ylab o‘tkaziladigan bo‘lsa daryoni ko‘ndalang kesimini, suvni tozaligini va sarfini aniqlashni bilishlari va uddalay olishlari lozim. Agar o‘quv ekskursiyaida reja olish ko‘zda tutilgan bo‘lsa turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakillangan bo‘lmog’i lozim. Tashkiliy tayyorgarlik quyidagi bosqichlardan iborat: - o‘qituvchi ekskursiyani mavzusini e’lon qiladi. Mavzu tabiiy geografik yoki iqtisodiy geografik bo‘lishi mumkin.

Masalan, qishloqda suv xavzalarini o‘rganish, maktab atrofidagi o‘simliklarni o‘rganish, ishlab chiqarish korxonasini o‘rganish;

-o‘qituvchi ekskursiyani maqsadi va rejasi bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. O‘quv ekskursiyaining maqsadini o‘qituvchi aniqlaydi. Uning maqsadi o‘quvchilarga topografik xaritalar bilan joyda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quv ekskursiyani rejasi bilan o‘quvchilarni tanishtirish. Rejada yo‘nalish, to‘xtash joylari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim;

-sinf ma’lum bir guruhga bo‘linadi; har bir guruhda 5-6 tadan o‘quvchi bo‘lishi lozim. Xar bir guruhni rahbari tayinlanadi. Xar bir guruhni vazifalari tushuntiriladi;

- o‘quvchilar qanday kiyim kiyishi, nimalarni o‘zlari bilan olib borishini va ekskursiyada o‘zlarini qanday tutishlarini va xavfsizlik muxofazasi qoidalariga roya qilishlari xaqia ko‘rsatma beriladi. O‘qituvchi ekskursiyani maqsadi va vazifalaridan kelibchiqqan xolda jihozlar, priborlar va anjomlar ro‘yxatini tuzadi va ularni yig’adi. O‘quv ekskursiyalarida quyidagi jihoz asboblar va uskunalar lozim bo‘lishi mumkin: kompas, termometr, reyka, arqon, xarita, barometr, tuproq parmasi (bur) va h.k. O‘quv ekskursiyalarini quyidagi xollarda o‘tkazish mumkin: yangi mavzuni o‘rganishdan oldin; qator mavzularni o‘rganib bo‘lgandan so‘ng. O‘quv ekskursiyalarini muvoffaqiyatli o‘tkazish ekskursiya o‘tkaziladigan joyni tanlashga bog’lik. Agar ekskursiyani mavzusi relyef shakllarini o‘rganishga bag’ishlangan bo‘lsa iloji boricha relbelefi xilma xil bo‘lgan joy tanlanishi lozim. Tog’ jinslariga bag’ishlangan ekskursiyalarini o‘tkazishda geologik ochilmalar mavjud bo‘lgan joylar tanlanadi. O‘quv ekskursiyalari o‘tkaziladigan joylarni tanlashda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tanlangan joy o‘quv mavzulari va o‘quv o‘lkashunoslik maqsadi va vazifalariga mos kelishi zarur. Demak, o‘lkashunoslik materiallari bilan bevosita bog’liq bo‘lgan mavzu va masalalarni o‘rganishda;

- o‘ziga xos o‘quv ekskursiya obyektlari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, o‘rganish, ularni tasvirlash va bevosita ko‘rish imkonini yaratmog’i lozim;

- o‘quv ekskursiyalari davomida tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmog’i lozim. Masalan, maktab joylashgan qishloq, tuman, shaharda noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simgilik va hayvonot dunyosining, noyob tabiat yodgorliklarini mavjudligi va h.k;
- o‘quv ekskursiyalarida o‘quvchilarni yoshi bilan bog’lik bo‘lgan xususiyatlarni xisobga olish;
- geografiya va o‘lkashunoslik obyektlarini o‘zgarishini o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishini xissiy-emotsional xususiyatlarini xisobga olish;
- ma’lum bir geografiya predmetlari bo‘yicha aniq mavzularning o‘quv tarbiyaviy talablarini xisobga olish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘quv ekskursiyani o‘tkazishga tayyorgarlik darajasini xisobga olish;
- o‘quv sayoxatlarida ma’lumotlarni yig’ish imkonini hisobga olish. Mazkur ma’lumotlar qayta ishlangandan so‘ng ularni kitob shaklida nashr qilish mumkin.

9.2.Tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari

Umumta’lim maktablarida o‘quv ekskursiyalarining katta qismi tabiiy geografiya kurslari buyicha o‘tkaziladi. Shuning uchun tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari bo‘yicha juda ko‘p ishlar amalga oshirilgan. Tabiiy geografiya o‘quv ekskursiyalarini ikkita yirik guruhga bo‘lishimiz mumkin.

-umumiyl tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari. Bunda ekskursiya davomida o‘quvchilar joyni umumiyl tabiiy geografik sharoitini o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;

-maxsus tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari. Bunday ekskursiyalarda tabiiy geografik sharoitlarni ayrim tarkiblari alohida o‘rganiladi. Masalan, relyefi, tuproq, o‘simgilik va h.k. Umumiyl tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari maktab tabiiy geografiya kurslarini ma’lum bir predmetlarini o‘rganib bo‘lingandan so‘ng uyushtiriladi. Tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalari quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

1. O‘quv ekskursiyalariga tayyorgarlik ishlari. Tayyorgarlik ishlariغا quyidagilar kiradi: ekskursiya o‘tkaziladigan joyni tanlash va uni xaritasini topish

yoki xomaki rejasini tuzish; ekskursiyani vaqtini va davomiyligini aniqlash; ekskursiya uchun zarur bo‘lgan jihozlar va priborlar ro‘yxatini tuzish va u ularni topish; o‘quvchilar bilan suxbat o‘tkazish va ularni ma’lum bir guruxlarga bo‘lish;

2. O‘quv ekskursiyasini o‘tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: ma’lum bir vaqtda o‘quvchilar yig’iladi. Ular bilan yana bir marta suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quv ekskursiyaining maqsadi va vazifalari tushuntiriladi. Xar bir to‘xtalgan joyda quyidagi ishlar bajariladi. Nuqtaning (joyning) geografik o‘rni aniqlanadi. Nuqtaning geografik o‘rni maktabga nisbatan, daryoga nisbatan, yo‘lga va boshqa tabiiy geografik yoki iqtisodiy ob’ektlarga nisbatan aniqlanishi mumkin. Bundan tashqari agar topografik xarita mavjud bo‘lsa nuqtaning matematik geografik o‘rni ham aniqlanadi. Shundan so‘ng nuqtaning umumiyl tabiiy geografik o‘rni o‘rganiladi. Avval nuqtaning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, gidrografik tarmoqlari, tuproqlari o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda landshaftlari o‘rganiladi. Demak, umumiyl tabiiy geografik ekskursiyalarda o‘quvchilar xar bir nuqtani yoki joyni umumiyl tabiiy geografik sharoitini o‘rganish va baxolash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Bu esa yil davomida olgan tabiiy geografik bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Joyni geologik tuzilishini o‘rganish iloji boricha ochilmalar mavjud bo‘lgan joyda olib boriladi. Birinchi navbatda, ochilmada qaysi davr yotqiziqlari va qanday tog’ jinslari ochilib qolganligi aniqlanadi. Tekislikda ko‘proq to‘rtlamchi davr yotqiziqlari keng tarqalgan bo‘ladi. Tog’li o‘lkalarda bir necha geologik davrlarga xos bo‘lgan ochilmalar bo‘lishi mumkin. Ochilmada qanday tog’ jinslari joylashganligi aniqlanadi. Ular magmatik, cho‘kindi va metamorfik jinslarning qaysi guruhiba mansubligi aniqlanadi. O‘quvchilarga ular qanday sharoitda xosil bo‘lganligi tushuntiriladi. Cho‘kindi jinslar ochilmasi o‘rganilayotganda ularni qatlamsimon joylashganligiga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi va har qatlamdagи jinslarni xususiyatiga qarab ularni qanday sharoitda xosil bo‘lganligi tushuntiriladi. Masalan agar ochilmani tubida shag’al va xarsang toshlar qatlami, uning ustida qumlar, qumlarni ustida gillar qatlami joylashgan bo‘lsa demak dastlab kuchli oqim ta’sirida xarsang toshlar oqizib keligan, so‘ngra

sokin oqim sharoitida qum qatlami xosil bo‘lgan. Dengiz yoki ko‘l sharoitida yoki sekin oqadigan ariq daryo sharoitida gillar qatlami vujudga kelgan. Joyning foydali qazilmalari o‘rganilganda ekskursiya davomida g’isht xomashyosi, shag’allar, toshlar va qurilish materiallari o‘rganilishi mumkin. Joyni relyefini o‘rganishda o‘quvchilar diqqatini relyef hosil qiluvchi omillar va asosiy relyef shakillarini ajratishga qaratilishi lozim. Bundan tashqari tashqi kuchlar va inson faoliyati ta’sirida hosil bo‘lgan relef shakillari xam aloxida ajratib ko‘rsatilishi zarur. Joydagи suv havzalari daryo, soy, ko‘l, buloq bo‘lishi mumkin. Shunining uchun o‘quvchilarga gidrografik sharoitni asosiy tarkibiy qismlari xaqida gapirib, mazkur tarkibiy qismlarni qaysi biri o‘rganilayotgan joyda mavjudligi aytib o‘tiladi va uni o‘rganiladigan o‘lchamlari ko‘rsatib beriladi. Joydagи tuproqlar o‘rganilganda ularning asosiy turlariga e’tibor beriladi. O‘simliklar o‘rganilganda ular uchta qatlamga bo‘lib o‘rganiladi: daraxtlar, butalar, o‘tlar, hayvonlarni o‘rganishda ular ham guruhlarga bo‘lib yuboriladi: sudralib yuruvchilar, tuyoqlilar, qushlar. Xar bir nuqtada tarqalgan landshaftlarni o‘rganish. Maxsus tabiiy geografik ekskursiyalari ayrim mavzularni o‘tib bo‘lgandan so‘ng amaliy ko‘nikmalarni shakillantirish maqsadida o‘tkaziladi. Masalan, litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera mavzularini o‘tib bo‘lgandan so‘ng uyuştirish mumkin. Maxsus tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalarini o‘tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o‘quv ekskursiyaning maqsadi va vazifalari xamda o‘tkazish joyi, vaqt o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. O‘quv ekskursiyasi xaqida va ekskursiya o‘tkazish tartibi qoidalari xaqida o‘quvchilar bilan suxbat o‘tkaziladi. Maxsus o‘quv ekskursiyalari quyidagi mavzularda olib borilishi mumkin: joyning geologik tuzilishni o‘rganish; joyning relyefini o‘rganish; joynining ichki suvlarini o‘rganish; joyning tuprog’ini, o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish; joyning landshaftlarini o‘rganish; Umumiy tabiiy geografik o‘quv ekskursiyalaridan farq qilib maxsus tabiiy geografik ekskursiyalarda tabiatni ayrim tarkibiy qitsmlarini juda chuqur va har tomaonlama o‘rganiladi. Masalan, joyning geologik tuzilishi ochilma mavjud bo‘lgan sharoitda quyidagicha o‘rganiladi (B.A.Chernov, 1985)

1. Kundalikda ochilmaning tartib raqami va ochilmani o‘rganish vaqtি yoziladi, ochilmani geografik o‘rni aniqlanadi va kundalikka yozib qo‘yiladi.
2. Ochilmani qatlamlarini joylanishini aniqlash. Har bir qatlamning qalinligи va tog’ jinslarining holatini o‘rganish.
3. Ochilmani kundalikda chizmasini chizish. Har bir qatlamni chizish davomida undagi tog’ jinslarini tarkibiga e’tibor berish. Tarkibi nimalardan iborat, qo‘shilmalar bormi, bor bo‘lsa ularning o‘lchamlarini aniqlash. Qatlamlar chizmasida pastdan yuqoriga qarab xarflar bilan belgilanadi.
4. Qatlamlardagi tog’ jinslarining rangi, tarkibi, qo‘shilmalari, xolati tavsifi tuziladi. Masalan, qizil rangli gil, tarkibida mayda shag’al toshlar mavjud, gilning namligi o‘rtacha. Gillar plastik holatda. Qatlamlarni yotish xolati aniqlanadi: gorizontal yoki qiya yotish. Qatlam qiya yotgan bo‘lsa uning qiyaligi aniqlanadi. Agar fotoapparat bo‘lsa ochilmani rasmga olish mumkin.

5. Tog’ jinslarini namunalari olinadi. Namunalar qopchalarga olinishi mumkin. Agar uning tarkibiy xolati o‘zgarmagan xolda olish lozim bo‘lsa o‘lchami 10x10x10sm li monolitlar olinib ular parafanlanadi. Buning uchun parafin (sham) erilib, dokacha o‘ralgan monolit unga botiriladi. So‘ngra monolitga etiketka yopishtiriladi. Unda quyidagi ma’lumotlar yozilgan bo‘lishi lozim. Monolit olingan ochilmani tartib raqami, tog’ jinslarining nomi, olingan chuqurlik, monolit olingan yil, oy, kun. O‘quvchilar ochilmalarni o‘rganish ko‘nikmasiga ega bo‘lganlaridan so‘ng bunday ishlarni mustaqil ravishda bajarishlari mumkin.

9.3. Iqtisodiy geografik o‘quv ekskursiyalari

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik o‘quv ekskursiyalari yuqori sinflarda o‘tkaziladi va o‘quvchilarni iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi va bir vaqt ni o‘zida iqtisodiy geografik tadqiqotlar olib borish usullarini egallashadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo‘yicha o‘quv ekskursiyalari ham ikki guruhga bo‘linadi: umumiy iqtisodiy geografik o‘quv ekskursiyalari; maxsus iqtisodiy o‘quv ekskursiyalari.

Umumiy iqtisodiy va ijtimoiy geografik o‘quv ekskursiyalari. Umumiy iqtisodiy va ijtimoiy geografik o‘quv ekskursiyalari o‘quv yilining oxirida ma’lum bir predmet to‘la o‘rganilib bo‘lingandan so‘ng olingen bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun o‘tkaziladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik o‘quv ekskursiyalari quyidagi tartibda o‘tkaziladi. O‘quv ekskursiyalariga tayyorgarlik davrida o‘qituvchi ekskursiya o‘tkaziladigan joyni tanlaydi, mazkur joy iqtisodiy geografik sharoiti haqida ma’lumotlarni to‘playdi. O‘quv ekskursiyasi rejasi ishlab chiqladi.

O‘quv ekskursiyaini o‘tkazish. O‘quv ekskursiyani o‘tkaziladigan kun belgilangan vaqtda o‘quvchilar yig‘ilishganda o‘qituvchi yana bir marta suhbat o‘tkazadi. O‘quv ekskursiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va ekskursiya davomida o‘quvchilar amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar tushuntiriladi. Shundan so‘ng o‘quv ekskursiyasi boshlanadi. Ma’lum bir joyning ijtimoiy geografik sharoitini o‘rganish quyidagi tartibda olib boriladi.

Obyektni iqtisodiy geografik o‘rnini aniqlash. Iqtisodiy geografik obyektlarni geografik o‘rnini asosiy davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan avtomobil, havo va temir yo‘llarga nisbatan, tuman, viloyat va markazlarni hamda poytaxtga nisbatan, yirik daryolar va dengizlarga nisbatan joylanishi. So‘ngra joyning ya’ni obyektning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari o‘rganiladi. Tabiiy resurslarni o‘rganishda ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muofiqdir: yer resurslari, suv resurlari, mineral resurslar, tuproq resurslari, biologik resurslar, rekratsion resurslar. Aholi va mehnat resurslari quyidagi tartibda o‘rganiladi: qishloq yoki maktab joylashgan joy axolisining joylashishi, ularning kasbi, statistik ma’lumotlar asosida axolining boshqa ko‘rsatgichlari ham aniqlanadi. Obyektning xo‘jaligi o‘rganiladi. Bunda sanoatning asosiy tarmoqlari, dehqonchilik va chorvachilikning qaysi tarmog‘i yaxshi rivojlanganligi aniqlanadi va aynan shu tarmoqqa ko‘proq e’tibor beriladi. Agar qishloq yoki maktab joylashgan joydan davlat yoki viloyat axamiyatiga ega bo‘lsa ular xaqida ma’lumotlar aniqlanadi. Bunday yo‘llar mavjud bo‘lmagan tadqiqotlarda qishloqdagi yoki shahardagi yo‘llarni o‘rnini tavsifi beriladi.

Maxsus iqtisodiy geografik o‘quv ekskursiyalari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida maxsus o‘quv ekskursiyalari ko‘proq o‘tkaziladi. Maxsus iqtisodiy geografik o‘quv ekskursiyalarida xo‘jalikni ayrim tarmoqlari alohida chuqur va har tomonlama o‘rganiladi. Masalan, joyning mineral resurslari; suv resurslari; ishlab chiqarish korxonalari va h.k. Mazkur o‘quv ekskursiyalari davomida o‘quvchilarda sanoat va qishloq xo‘jaligi xaqida chuqur bilim va ko‘nikmalar shakillantiriladi. Sanoat korxonalarini quyidagi tortibda o‘rganish mumkin:

1. Korxonaning barpo etilish vaqtin, sabablari, rivojlanishning asosiy bosqichlari.

2 Korxonaning iqtisodiy geografik o‘rni; tabiiy obyektlarga nisbatan joylashishi (joy relyefi, suv havzalari, o‘rmonlar, foydali qazilma konlari va h.k); transport yo‘llariga, boshqa aholi manzilgohlariga va yirik xo‘jalik obyektlariga nisbatan joylashishi.

3. Korxonani qaysi vazirlikka bo‘ysunishi: tuzilishi; texnologik jarayonini o‘ziga xos xususiyati; texnologik jihatdan qurollanganligi va avtomatlashtirish darajasi; korxonani ishlab chiqarish aloqalari; fan texnika yutuqlarini qo‘llanilishi.

4.Korxonani ixtisoslashuvi va uni asoslash; mahsulot turlari; foydalanilgan xom-ashyo, yoqilg‘i va materiallar turlari va ularni tejash; elektro texnika ta’minoti; chiqindilardan foydalanish.

5.Korxonadagi ishchilar soni va ularni mehnat kategoriyalari, kasblar va malakalar bo‘yicha tarkibi; ishchilarni ma’lumotlik darajasi; mehnat va hayot sharoiti va ularni yaxshilash choralar.

6.Mehnat unumdarligi o‘sishi; mahsulot sifatini oshirish va tannarxni pasaytirish.

7. Korxonani rivojlantirish yilliklari.

Qishloq xo‘jalik korxonalarini quyidagi tartibda o‘rganiladi:

1. Qishloq xo‘jalik korxonasining (fermer xo‘jaligi) vujudga kelish vaqtin va sabablari. Tabiiy sharoitning o‘ziga xos xususiyatlari. Tabiiy va iqtisodiy obyektlarga nisbatan geografik joylashishi; suv ayirg‘ichda, vodiyya, botiqda,

terassada, yoyilmada joylashishi; yo'llarga (asosiy, ikkinchi darajali, temir yo'llar va h.k.) va aholi punktilariga nisbatan joylanishi.

2. Qishloq xo'jaligi korxonasining o'lchamlari: ekin maydoni, axolisi va uning zichligi (1m² ga)

3. Fermer xo'jaligining yer fondi, ularning o'lchamlari va turlari. Foydalanilayotgan yerlar; yaxshilangan yerlar (sug'orilish, qurilish, sho'r yuvish, jarlarni tekislash).

4. Fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi (don, sabzavot, texnika ekinlari, bog'dorchilik, uzumchilik).

5. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi: ixtisoslashuvi (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik va h.k). yem-xashak ta'minoti.

9.4. Tarixiy geografik va o'lkashunoslik ekskursiyalari

Tarixiy geografik o'lkashunoslik umumta'lim maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni shaxs sifatida shakillanishida muhim rol o'ynaydi. O'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar quyidagi faoliyatini amalga oshirishadi. O'lkashunoslik bilish faoliyati mazkur faoliyat davomida o'lkashunoslari o'lka to'g'risidagi alohida tarixiy voqealar va ma'lumotlar xaqida bilimlarga ega bo'lishadi. Mazkur faoliyat ma'naviy yo'nalishiga ega va turli xil murakkablikka ega bo'lgan darajalardan iborat. Masalan, o'lka haqida oddiy bilimlardan tortib ekspeditsiyalardan olingan murakkab bilimlarga ega bo'ladilar. O'zgartiruvchi faoliyati. Mazkur faoliyat davomida amaliy-ma'naviy qadriyatlar barpo qilinadi (ko'rgazmalar, tarixiy o'lkashunoslik burchaklari, mifik muzeylari, memorial taxtalarni tashkil qilish). Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat ham asosan ma'naviy xususiyatga ega. Mazkur faoliyat natijasida har qanday shaxs o'zi uchun va jamiyat uchun u yoki bu tarixiy ma'lumotlarni voqealarni, kishilarni qahramonligini ahamiyatini anglaydi. Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat ma'naviy qadriyatlarini ishlab chiqaruvchi shaklida ularni iste'molchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, urf-odatlarni avloddan-avlodga o'tishi. Bunda

katta avlod ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish, yosh avlod esa uni iste’mol qiladi. Kommunikativ faoliyati o‘lkashunosliklarda o‘zaro aloqa, munosabat, ko‘nikma va malakalarni shakilantiradi va rivojlantiradi. Hayotni har qanday bosqichida mustaqil ravishda shaxsiy aloqalarni o‘rganishga imkon beradi. Yuqoridagi keltirilgan tarixiy-o‘lkashunoslik faoliyatining hamma turlari birbiri bilan chambarchas o‘z aro bog’langan va yaxlit faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, maktabda yoki joyda o‘lkashunoslik muzeyini tashkil qilish davomida memorial taxta o‘rnatish o‘zgartirish faoliyatiga kiradi, uni o‘rganish uchun yangi bilimlar olish bilish faoliyatiga kiradi, mazkur bilimlar ichidan eng muximini tanlab olish kadirlar faoliyatiga, shaxslar bilan bo‘ladigan muloqatlar esa kommunikativ faoliyatga kiradi. O‘lka tarixi o‘lkashunoslikning murakkab faoliyatiga kiradi. Bunday tarixiy materiallarning hajmi katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Ekskursiya turlari?
2. Maxsus o‘quv ekskursiyalari
3. O‘quv ekskursiyalarning asosiy vazifalari?
4. O‘quv ekskursiyasini o‘tkazish qaysi tartibda amalga oshiriladi?
5. Qishloq xo‘jalik korxonalari qanday tartibda o‘rganiladi?

10-MAVZU: O‘QUVCHILARNING BILIM VA KO‘NIKMALARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH

Tayanch so‘zlar: o‘quv, ko‘nikma, bilim, takrorlash, tekshirish, baholash, yozma tekshirish, og’zaki tekshirish, umum metodik talablar.

10.1. O‘quvchilar bilimini baholashning zarurligi

O‘qituvchining o‘qitish jarayonini nazorat qilib borishi, o‘quvchilar bilimini tekshirishi va baholashi o‘qitish jarayonining majburiy elementidir. Tekshirish bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirishga xizmat qiladi, chunki uzoq vaqt

tekshirishsiz qolgan bilimlar oson unutiladi. Bilimlarni takrorlash yangilarini o‘rganish uchun tayanchdir. Tabiatshunoslik darslarida o‘tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish yangi mavzuni o‘rganish jarayonida va uni o‘rganishdan keyin, shuningdek har bir chorak hamda yil oxirida o‘tkaziladi. Takrorlashning turli uslublari mavjud. Hammadan avval bu: ko‘rilgan diafilmlar yoki kinofilmlar, suratlar, kontur kartalar bo‘yicha suhbat vaqtida, o‘quvchilar tomonidan tajribalar o‘tkazilayotganida; masalalar yechish va mashqlar bajarilayotganida; qiziqarli savollarga javob berilayotganda bilimlarni umumiyligi yoki individual tekshirishdir.

Takrorlash turlaridan biri o‘quvchilar bilimini og’zaki hisobga olishdir, u har bir darsda butun sinfni umumiyligi so‘rash yoki ayrim o‘quvchilardan individual so‘rash ko‘rinishida o‘tkaziladi. Umumiyligi so‘rashning qimmati shundaki, bunda javob berishga ko‘proq sondagi o‘quvchilarni jalgan qilish va sinf e‘tiborini ushlab turish imkoniyati bo‘ladi. Biroq ayrim savollarga olingan javoblar har bir o‘quvchi bilimlarining chuqurligini aniqlashga imkon bermaydi va ularga o‘z fikrlarini ravon hikoya tarzida bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga halaqit beradi. Shuning uchun ham individual so‘rash, ya‘ni ayrim o‘quvchining ravon hikoyasi so‘rashning asosiy turi hisoblanadi.

So‘rash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlari naqadar aniqligi va fahmlab olinganligini, ularning o‘rganilayotgan jonsiz tabiat ob‘ektlari, o‘simlik va hayvonlar to‘g’risidagi tasavvur va tushunchalarini qanchalik to‘g’ri ekanligini aniqlash kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra materialni faqat og’zaki bayon qilinishi bilan qanoatlanib qolmaslik kerak. Talab qilish kerakki, o‘quvchilar javoblarida kuzatish natijalaridan foydalansinlar, o‘z hikoyalarini o‘qituvchi materialni tushuntirishda foydalangan jadval, model va boshqa o‘quv qurollarini ko‘rsatish bilan birga olib borsinlar.

Alohibda o‘quvchidan so‘rashning butun sinf bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi munosabati bilan sinf e‘tiborini har bir javobga qaratilishiga erishish kerak. Sinf e‘tiborini faollashtirish uchun savolni butun sinfga berish, keyin tayinli o‘quvchini javobga chiqarish lozim. Bu barcha o‘quvchilar

diqqatlarini to‘plashga va materialni xotirada tiklashga majbur qiladi. Bundan tashqari javob beruvchi o‘quvchi yo‘l qo‘ygan xato va noaniqlikni tuzatish, uning javobini to‘ldirish va qo‘srimcha savollar berish uchun butun sinfga javobni kuzatib borishni taklif qilish kerak. O‘qituvchi javob berayotgan o‘quvchiga e‘tibor berish bilan birga butun sinfni o‘z nazorati ostida ushlab turmog’i lozim. O‘quvchilar e‘tiborini bo‘sashganligini o‘z vaqtida payqash va uni tiklash usullarini topish, chekinish harakatlarini o‘z vaqtida payqash va bartaraf qilish g’oyat muhimdir.

Bilimlarni yozma tekshirish. Tekshirishning bu turi savollarga yozma javob berish yoki yozma topshiriq bajarish tarzida o‘tkaziladi. Yozma ishlar uchun o‘rganilgan ob‘ektlarni sanab berish bilan bog’liq bo‘lgan: tabiat hodisalari, landshaftlarning ayrim elementlari va odamlarning xo‘jalik faoliyatlarini o‘rtasidagi aloqa yoki o‘zaro bog’liqlikni oolib beruvchi; bolalarning tabiatshunoslik tushunchalarini bilib olganliklarini aniqlovchi; tabiatdagi kuzatish va natijalarni ta‘riflashni mo‘ljallagan, tabiiy ob‘ekt yoki jarayonlarni rasmlar chizish yordamida tasvirlash; tabiat ob‘ektlarini tanib olish bilan bog’liq bo‘lgan savollar taklif qilinadi. Misol tariqasida «Dala o‘simgilari» mavzusi (3-sinf) bo‘yicha tekshirish ishi uchun savollar keltiramiz: 1. Paxta mevasi nima deb ataladi? 2. G’allaning poyasi nima deb ataladi? 3. Poliz o‘simgilarning qaysilarini bilasiz? 4. Uzum qanday ko‘paytiriladi? 5. Yirtqich qushlar qanday foyda keltiradi ? Yozma ish uchun tezis tipidagi dasturlashtirilgan topshiriqlar, raqamli diktantlar, dasturlashtirilgan kartochkalardan foydalanishi mumkin. Bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni baholash. O‘quvchilarning og’zaki javoblari ularning bilimlarini aks ettiradi va o‘qituvchi tomonidan har bir o‘quvchining qanday o‘zlashtirayotganligini, u o‘quv materialini qanchalik egallaganligini ko‘rsatuvchi baholar bilan qadrlanadi. Shuning bilan birga ular ma‘lum darajada o‘qitishning sifatini ham aniqlaydi, chunki o‘quvchilar bilimi uning asosiy o‘lchovidir. Bilimlarni baholash intensivligini oshirish uchun bir necha o‘quvchilardan bir vaqtida so‘rash uslubini qo‘llash mumkin. Masalan, bir o‘quvchi sinf oldida o‘qituvchiga javob beradi, 2-3 o‘quvchi doskada rasmlar chizadi, bir necha

o‘quvchi didaktik dasturlashtirilgan kartochkalar bilan ishlaydi. O‘quvchilar bilimini baholashda materialni ular qanchalik aniq va ravon tushunganliklari, javobning aniqligi va to‘liqligi, shuningdek uning shakli, ya‘ni bilimni bayon qilishning izchilligi va to‘g’riliqi hisobga olinadi. Tabiatshunoslik bo‘yicha o‘quvchilar bilimlarini baholashning o‘lchovlarini sinflar bo‘yicha keltiramiz.

1- sinf. Birinchi sinf yakunida o‘qitishning oxiriga kelib, bolalar yil fasllarining xarakterli belgilarini; bir nechta buta o‘t o‘simliklarining, yaqin atrofdagi bir nechta hayvonlarning nomlarini bilishlari va ularni taniy olishlari; tabiatda o‘zini tutish qoidalarini bilishlari va bajarishlari kerak. Birinchi sinfda baho qo‘yilmaydi, ammo muvaffaqiyatli javoblar rag’batlantiriladi.

2- sinf. Ikkinci sinfda «5» bahosi yil fasllarining ayrim belgilarini bilganlarga; 3—4 daraxt, buta, o‘t o‘simliklari va xona o‘simliklarini, shuningdek qushlar va hasharotlarning 3—4 ta turini bilgan va farqiga bora olganlarga qo‘yiladi. Bolalar, shuningdek tabiatda muntazam kuzatishlar olib borgan va ularni «Kuzatishlar kundaligi»da qayd qila olgan bo‘lishlari; xona o‘simliklarini to‘g’ri sug’ora olishlari, ularni parvarish qilishni bilishlari; shaxsiy gigiena qoidalarini, kun va ovqatlanish rejimini bilishlari hamda bajarishlari kerak. «4» bahosi ham «5» bahosidagi o‘lchovlar bo‘yicha qo‘yiladi, ammo javobda ba‘zi noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi. «3» bahosi o‘quvchi tabiatdagi o‘z kuzatishlarini qayd qila olish, ular to‘g’risida ravon aytib bera olish uquvlarini yetarli egallamaganida qo‘yiladi. Salbiy baho qo‘yilmaydi.

3-sinf. «5» bahosi o‘z joyida eng ko‘p tarqalgan mavsumiy hodisalar to‘g’risidagi to‘liq bilimlarga, ular to‘g’risida sabab, oqibat bog’lanishlarini ko‘rsatish bilan va o‘zining tabiatdagi kuzatishlariga tayanib hikoya qila olish uquviga; o‘z joyida ko‘proq tarqalgan o‘simlik va hayvonlar, ularning yashash sharoitlari to‘g’risida (darslik va tabiatni kuzatish kundaligi hajmida) hikoya qila olish o‘quviga; o‘z joyidagi odamlarning yil fasllari bo‘yicha mehnatlari to‘g’risida aytib bera olish uquviga qo‘yiladi. O‘quvchilar odam organizmi va uning salomatligini saqlash to‘g’risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, tabiatda muntazam kuzatish olib borishlari va ularni kuzatishlar kundaligida qayd qilib

borishlari; havo haroratini to‘g’ri o‘lchay olishlari, gerbariylarni rasmiylashtira bilishlari, kundalik materiallari bo‘yicha kuzatishlariga yakun chiqara olishlari kerak. «4» bahosini qo‘yishda ham o‘sha talablarga rioya qilinadi, biroq bunda biroz noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi. «5» va «4» baholari faqat darslik materialini bilgangagina emas, balki shuning bilan birga o‘quv-tajriba uchastkasidagi va ekskursiya vaqtidagi faol ishlariga, kuzata olishlariga va tabiatning o‘zidan bilim ola bilishiga ham qo‘yiladi. «3» bahosi tabiat to‘g’risidagi noaniqlik, uzuq bilimlarga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlay olmaslikka, tabiatning mahalliy hodisalari, o‘simplik va hayvonlari, tabiatdagi odamlar hayoti to‘g’risida bilim yetarli bo‘lmaganda, tabiatda kuzatishlarni muntazam olib bormaganda va kuzatishlar kundaligini sistemali yuritmaganda qo‘yiladi. Salbiy baho qo‘yilmaydi.

4- sinf. «5» baho dasturning asosiy mavzulari bo‘yicha aniq bilimlarga, plan bilan xaritaning farqiga borish, kompasdan foydalanish, joyida ufq tomonlarini farqiga borish, o‘z o‘lkasi tabiatni to‘g’risida (darslik yoki mahalliy o‘lkashunoslik qo‘llanmasi hajmida) gapirib berish, o‘z kuzatishlaridan amalda foydalanish uquvlariga, shuningdek Vatanimiz tabiatni to‘g’risida to‘g’ri, to‘liq hikoyaga, har xil zonalar tabiatidagi sabab-oqibat aloqalarini ko‘rsata olishiga; tabiatga ehtiyyotlik munosabati nimadan iboratligi va kishilar tabiatni qanday ehtiyyot qilayotganliklarini tushuntira olishiga; amaliy ishlarni to‘g’ri bajarishi va kuzatishlar kundaligini muntazam yuritishiga qo‘yiladi. «4» bahosi o‘sha bilimlar uchun qo‘yiladi, ammo javob berishda uncha katta bo‘lmagan noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi. «3» bahosi bilimlarning noaniqligi, to‘la bo‘lmaganligi, o‘quv materialini bo‘sh ekanligi, hikoyada o‘z kuzatishlaridan foydalana olmaganligi va amaliy ishlarni va kuzatishlar kundaligi yuritishni sifatsiz bajarganligi uchun qo‘yiladi. «2» bahosi o‘quvchi kerakli narsani topolmagan va uning xususiyatlarini to‘g’ri ta‘riflay olmagan, shuningdek shu guruhning xarakterli belgilarini ko‘rsata olmagan, hodisalarni tushuntirolmagan va aniq misollar keltirolmagan, tajriba o‘tkazolmagan va xulosalarni ifodalay olmagan hollarda, shuningdek u javobida adashganda, biroq materialni tushunganda qo‘yiladi. «1» bahosi o‘quvchi butunlay

javob bermagan yoki «taxminan» javob bergan, materialni tushunmagan hollarda qo‘yiladi.

O‘qituvchi bu me‘yorlardan foydalana borib, har o‘quvchining individual xususiyatlarini, uning o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi harakatlarini, o‘zining kamchiliklari va qiyinchiliklarni bartaraf qilish qobiliyatini hisobga olishi zarur. Baho sinfdagi yoki joylardagi aniq amaliy ish uchun ham qo‘yilishi mumkin. Bunda ishning izchil va puxta bajarilishi, o‘quvchining mustaqillik darajasi, olingan xulosalarning to‘g’riliqi, ularni ifodalana olishi hisobga olinadi. Kamida oyda bir marta o‘quvchilarning kuzatishlar kundaligidagi ishlar baholanadi. Bunda kuzatishlarning mustaqilligi, o‘z vaqtida o‘tkazilganligi, ob-havoni qayd qilish to‘g’riliqi hisobga olinadi. «Kuzatishlar kundaliklari» da o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan imlo xatolari albatta tuzatiladi, ammo tabiatshunoslik bo‘yicha baho qo‘yishda hisobga olinmaydi.

10.2. O‘quvchilar bilimini tekshirishdagi umum metodik talablar.

O‘quv choragi yoki yili uchun yakuniy baho qo‘yishda o‘quvchi dastur talablarida ko‘rsatilgan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni qanchalik egallaganliklarini hisobga olish lozim. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki javoblari, ularning amaliy faoliyati va kuzatishlar kundaligini yuritish sifati hisobga olinadi.

Tabiatshunoslik bo‘yicha daftar tutish. 1-sinfdan boshlab o‘quvchilar atrof olam bilan tanishishga bog‘liq ijodiy ishlar uchun daftar tutishlari kerak. Bu ularga kuzatuvchanliklarini rivojlantirishga va tabiat to‘g’risidagi bilimlarini sistemalashtirishga yordam beradi. Daftarlarda asosiy o‘rinni ko‘pincha o‘quvchilarning uy vazifasi sifatida mustaqil chizgan rasmlari egallaydi. Rasm chizish yoki savollarga javob tarzida yozuvlar qilish uchun o‘quvchilar materialni oldindan o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Birinchi yarim yilida o‘quvchilar hech narsa yozmaydilar, faqat rasm chizadilar, o‘quv yilining ikkinchi yarmida ular shu rasmlar ostida qisqacha yozuvlar qiladilar. Xat-savodga o‘rgatishning alifbe davrida o‘quvchilar park va xiyobonlarning daraxtlari bilan tanishish maqsadida o‘tkazilgan ekskursiyadan keyin har xil shakldagi barg plastinkalarini qog’oz

varag’iga qo‘yib, uning atrofini rasm tarzida chizadilar. Keyin ular bargni qarab chiqadilar va uning tishli, oval, kesik qirg’oqlari, bargda tomirlarni joylanishi, bandi rasmlarini chizadilar, chizilgan bargga bo‘yoq beradilar. Mustaqil rasm chiza oladigan o‘quvchilar bargni qog’oz varag’iga qo‘ymasdan rasm chizadilar. Chizilgan rasm yoniga bargning o‘zini yopishtirish mumkin. Ikkinchchi yarim yilda o‘quvchilar rasmlar tagiga «CHinor bargi», «Terak bargi» kabi yozuvlar qiladilar. Yil fasllari to‘g’risidagi hikoyalar o‘qilgandan keyin o‘quvchilar butun suratlarni chizishlari mumkin. Biror o‘simplikni kuzatish paytida o‘quvchilar e‘tiborini o‘simpliklarning rivojlanishi bilan bog’liq jarayonga qaratish va ularni kunlar bo‘yicha yozdirib borish kerak. Masalan, «20 fevralda o‘rik daraxtida kurtaklar paydo bo‘ldi», «25 fevralda o‘rik gulladi», «Gullah 5 kun davom etdi». Ishni osonlashtirish maqsadida birinchi sinf o‘quvchilariga qator topshiriqlar beriladi, topshiriqlarga ko‘ra ular faqat o‘simplikning rivojlanishini xarakterlovchi kunlarni belgilab boradilar. 2-sinfda o‘quvchilar kuzatishlar kundaligi va ijodiy daftarlar bilan ish olib boradilar. 3-sinfdan boshlab tabiatshunoslik sistematik kursini o‘rganish bilan bog’liq holda daftarlarida ancha murakkabroq ishlarni olib boradilar. Tabiatshunoslik bo‘yicha daftarning mazmuni quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Tushuntiruvchi yozuvli rasm. Asliga qarab chizish yaxshi. Masalan, amaliy mashg’ulotda «G’o‘za» mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar g’o‘zaning organlari bilan rasmini chizadilar. Agar darsda vaqt yetarli bo‘lmasa, rasm chizish uyda tugallanadi. O‘qituvchining doskaga chizganlarini daftarga chizilishi mumkin. Har bir rasm odatda uning ayrim qismlarini ifodalaydigan tegishli yozuvlar ko‘rinishidagi tushuntiruvchi matnga ega bo‘lishi kerak (masalan, ildiz, poya, barg, gul, meva);

O‘qitish oxirida olingen qisqacha ta‘riflar, umumlashtirishlar, tavsiyalar. Masalan, «plan», «masshtab», «kompass» tushunchalarining ta‘rifini yozish, u yoki bu tabiiy zona uchun «Qazilma boyliklarning xususiyatlari» jadvalini tuzish mumkin; Yangi qiyin atamalar; Uy vazifasini tayyorlash rejasi yoki javsblar tayyorlash kerak bo‘lgan savollar; Beriladigan savollarga yozma javoblar; Yozma

ishlar, uyda yoki jonli tabiat burchagidagi tajribalarning natijalari. Masalan, o‘quvchiga uyda biror o‘simlikni qalamchasidan o‘stirish topshirig’i berilgan. U daftariga qalamchaning qachon kesilgani va suvgan solinganini, qachon ildizchalar hosil bo‘lganini yozib borishi, shuningdek rivojlanishning har xil davridagi qalamcha rasmini chizishi kerak. Daftarda asta-sekin xilma-xil va qiziq material to‘planib boradi, u tabiatshunoslikni o‘rganishni osonlashtiradi. O‘quvchilar daftarlaridagi barcha yozuv va rasmlar muntazam, o‘z vaqtida va batartib bajarilishi lozim. Ishning bajarilmasligi javobning bahosini pasayishiga olib keladi. Daftar muntazam va sinchiklab tekshirib borilishi hamda o‘quvchilarning javob berayotganlarida esa naridan-beri qarab chiqilishi lozim. Tekshirishda yozuv va rasmlarning to‘g’ri bajarilganligi aniqlanadi. O‘quvchilarning daftardagi ishlari albatta baholanadi.

Kuzatishlar kundaligi va tabiat hamda mehnat kalendar.

Birinchi sinfda kuzatishlar ikkinchi yarim yildan boshlab olib boriladi. Ob-havoning o‘zgarishlarini kuzatish g’oyat muhimdir. Osmonning holatlarini kuzatish jarayonida «ochiq», «bulutli», «kam bulutli» tu-shunchalari; «quyoshni kuzatishda — «sovuuq», «juda sovuq» («ayoz»), «iliq», «issiq»; Shamolni kuzatganda — «kuchli», «kuchsiz» tushunchalari shakllanadi. Shu vaqtning o‘zida bolalar yog’inning har xil turlari— yomg’ir, qor, do‘l, tuman, qirov, buldurug’ to‘g’risida tasavvurlar oladilar. Bolalar asta-sekin ob-havoni kuzatish natijalarini kundaliklari va sinf tabiat kalendarida har kuni belgilab borishga o‘rganadilar. Ob-xavo va shamolning kuchi darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan belgilanadi.

Ob-havoni kuzatishdan tashqari o‘quvchilar o‘simlik va hayvonlar hayotidagi mavsumiy hodisalarni payqashga o‘rganib boradilar. Bolalar o‘simliklar faqat tabiatni bezatib qolmasdan, balki odamlar va hayvonlar uchun zarur ekanligini bilib oladilar. Ular oziq beradi, havoni hayot uchun zararli gaz va changlardan tozalaydi.

Darsga tayyorlana turib o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini hisobga olishning mazmuni, metod va shakllarini yaxshi o‘ylashi kerak. O‘qituvchi payqagan

bilimlardagi xatolar va kamyailiklar individual topshiriqlarni bajarilishida bartaraf etilishi lozim. Hajman katta bo‘limgan nazorat ishlar o‘quvchilarni ortiqcha band qilmasin (orfografik xatolar tekshirish paytida tuzatilib boriladi va ona tili darslarida ishlab chiqiladi). O‘quv materialini o‘zlashtirilishini tekshirishda bolalar bilimlarini faqat o‘tgan dars topshirio‘yicha emas, balki butun mavzu materiali bo‘yicha aniqlash lozim. O‘qituvchi qo‘ygan savollar ayrim tabiat ob‘ektlari va hodisalarini o‘rtasidagi sababiy aloqalar hamda o‘zaro bog’lanishlarni ochib bermog’i zarur.

Nazorat savollari:

1. Bilimlarni tekshirishning o‘zlashtirish yuqori bo‘lishi uchun ahamiyati qanday?
2. Bilimlarni og’zaki tekshirishda qanday vazifalar hal etiladi?
3. Bilimlarni yozma tekshirishni qanday izohlaysiz?
4. Umumiyo so‘rash va individual so‘rashning farqli tomonlarini tushuntiring.
5. Bilimlarni tekshirishning qanday turlarini bilasiz?
6. 1-sinfda o‘quvchilarining o‘quv va ko‘nikmalari qanday baholanadi?
7. 2-sinfda o‘quvchilarining o‘quv va ko‘nikmalari qanday baholanadi?
8. 3-sinfda o‘quvchilarining o‘quv va ko‘nikmalari qanday baholanadi?
9. 4-sinfda o‘quvchilarining uquv va ko‘nikmalari qanday baholanadi?
10. O‘quvchilar bilimini tekshirishda qanday umum metodik talablarga amal qilinadi?

11-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMI JARAYON QISMLARI

Tayanch so‘zlar: *individual psixik, psixologik-pedagogik, tarbiyaviy maqsad, milliy dastur, kasbiy ta’lim, politexnika ta’limi, o‘quv dastur.*

11.1. Ta’lim jarayonining mohiyati va vazifalari

Ta’lim jarayonining ilmiy, nazariy uslubiy va amaliy asoslarini, ya’ni ta’lim, bilim berish, o‘qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo‘limi didaktika shug’ullanadi. Didaktika – grekcha so‘z bo‘lib, ”didasko”, ya’ni o‘qitish, o‘rgatish ma’nolarini beradi. Ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish, tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasi uning mohiyati mazmun va vazifalari, o‘qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi. Ta’lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o‘zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o‘quvchi, talabaga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta’limdagи yutuqlar, avvalo o‘qituvchiga bog’liq. Mutaxassis sifatida o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo‘lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo‘lishi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o‘rganish va baholash, pedagogik ta’sir ko‘rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlab olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Ta’limning asosiy vazifasi shaxsni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta’lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma’noni bildiradi. Ya’ni: ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o‘stirishdir. Ta’lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to‘plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko‘nikma va malakalar hamda e’tiqodlar shakllantiriladi. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya’ni unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirok etadi. O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab, reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni singdiradi, o‘quvchi esa uni faol o‘zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo‘lgan ijodiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Ta’lim o‘quvchi-talabalarning o‘zlashtirish, o‘zida bilish qobiliyatlarini hamda fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv jarayon emas, balki o‘quvchiga noma’lum faol, ijodiy faoliyat, mehnat jarayonidir. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi bilmaslikdan bilishgacha, noto‘g’ri va noaniq bilishdan tobora to‘liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik jarayonlar faol ishtirok etadi va amaliyotda sinab ko‘riladi. O‘qituvchi, o‘quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to‘g’ri yo‘lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olishi zarur. O‘quvchi va talabalarning erkin fikrlash qobiliyatini o‘quv va amaliy mashg’ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan o‘stirish lozim. O‘quvchi, talaba tafakkur jarayonida voqelikni tahlil qilishni va taqqoslashni, bilimlarning o‘zлари uchun tushunarli sohalaridagi sabab-xulosalar chiqarishni o‘rganadilar, ya’ni oddiy, so‘ngra esa ancha murakkab tushuncha hamda fikr-mulohazalar hosil qilishni bilib oladilar. Ta’limda o‘qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o‘quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan narsaning ongli ravishda o‘zlashtirib olinishga erishiladi. Materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari tõg’risida ham g’amxo‘rlik qiladi.

11.2. O‘qitish jarayonining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlari.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o‘quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali uch vazifani, ya’ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini birlashtiradi. 1) Ta’limiy maqsad – o‘quv materiallarining mazmunini bilish, ya’ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir. 2) Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g’oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon-e’tiqodlarini

shakllantirishdir. 3) Rivojlantiruvchi maqsad – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchi-talabada mustaqil ishslash iste’dodi paydo bo‘ladi. Uni o‘ylashga o‘rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Ta’lim turli bosqichlarda amalga oshadi. Birinchi bosqich – o‘quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o‘quvchi-talaba ta’limning mazmuni bilan tanishib, o‘zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi. Ikkinchi bosqich – ular o‘quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo‘ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalananadilar. Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o‘qituvchining qo‘sishimcha izohlari orqali mustahkamlanadi. To‘rtinchi bosqichda – ular o‘zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar. Bularni bilish orqali o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o‘quv jarayonining hamma bosqichlarida o‘qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Yuqorida fikrlardan xulosa chiqaradigan bo‘lisak, o‘qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog’i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan: 1) o‘quvchi va talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi; 2) ularda dunyoqarashni, ishonch va e’tiqodlarini o‘stiradi; 3) yoshlarni muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli, tarbiyalı kishilar bo‘lib yetishishlariga, qobiliyat va iste’dodlarini o‘stirishga erishiladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o‘qituvchida o‘z kasbiga layoqat bo‘lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko‘rinadi. Bundan tashqari o‘qituvchi, o‘quvchiga o‘z faoliyatining ob’ekti sifatida qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim. Bundan tashqari o‘qituvchi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi-talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o‘quv materiallarini to‘g’ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira

bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o‘quvchiga nisbatan talabchan bo‘lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o‘rinli foydalana olish, ta’lim natijalarini dastlabki va keyingi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash kabilar. Xullas, o‘qituvchi keng ko‘lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari darajasida ta’lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

11.3.Ta’lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari).

1997-yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida” Qonuni qabul qilindi. Bu Qonunda ta’kidlanishicha, ta’limning mazmuni: har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baxtsaodati yo‘lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilangan. Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan. Yangi demokratik jamiyat qurishda ta’limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

- ilmiy bilimlarning yetakchi roli to‘g’risidagi qoidaga;
- insoniyatning madaniy-ma’rifiy merosi boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini egallab olish haqidagi “Milliy dastur” ko‘rsatmalariga;
- tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib rivojlantirish, iymon-e’tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy hayot bilan, yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog’liqligi haqidagi qoidaga;
- ta’limning bir maqsadga qaratilganligi (umumiyl yoki kasbiy ta’lim);
- ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktik prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.

Ta’limning mazmuni o‘zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. Yangi demokratik jamiyat qurayotgan hozirgi kunlarda fan va texnikaning, pedagogik

texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xalqimizning madaniy-ma'rifiy yuksalishi tufayli bu jarayon ayniqsa tezlashdi. Biroq material tanlash va ta'limning mazmunini yangilash didaktik muammolar bo'libqolmay, balki yetarlicha murakkab muammodir. Yangi demokratik jamiyat qurayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillashtirishni nazarda tutiladi:

- fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutulish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchiloyshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;
- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va etakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;
- o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar: kompyuter, kserks, elektron pochta va shu kabi boshqa bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Biror maqsadga qaratilganligi bo'yicha umumiy ta'limni politexnika ta'limi, kasbiy ta'limdan farq qilish kerak.

Umumiy ta'lim – bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim – insonni o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Politexnika ta'limi – o'quvchilarni hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan qurollantirishni ta'minlaydi, hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o'zlashtirib olish uchun baza (asos) ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallab olishni nazarda tutadi. Umumiy politexnik va kasbiy ta'limning birga qo'shib olib borishigina yangi demokratik jamiyat qurishga qodir bo'lgan yuqori malakali, ongli va faol zahmatkashni tayyorlashga imkon beradi. Ta'lim mazmuni

quyidagi davlat xujjatlari va rasmiy hujjatlarda o‘z aksini topadi:

1. O‘quv rejasi.
2. O‘quv dasturi.
3. Darslik.

O‘quv rejasi – davlat hujjatidir. Unga barcha umumta’lim maktablari so‘zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatiladi. Bu hujjat matabning yagona o‘quv rejasi hisoblanib, u xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alovida aniq bir fanning o‘quv rejasi - shu fanni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O‘quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

1. O‘quv tarbiya ishining maqsadi, o‘quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko‘nikmaga aylantirib, uni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish.
2. Maktab o‘quvchilariga bilim berish yoshiga qarab tizimga solinadi va qoidalarga asoslanadi:
 - a) Boshlang’ich ta’lim- I-IV sinflar
 - b) Umumiyo‘rta ta’lim - V-IX sinflar.
 - v) O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, akademik litseylar, kasb-hunar kolleji.

Ta’lim to‘g’risidagi Qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi tenglashtirilgan. Ularning o‘quvchilari va bitiruvchilari oliy o‘quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo‘nalish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishda konstitusiyaviy haq-huquqlarini amalgalash oshirishda teng huquqlidirlar. Shu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma’lum ma’noda farq qiladi.

O‘quv dasturi – har bir alohida fan uchun o‘quv dasturi tuziladi. Dastur o‘quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o‘quv rejasi bo‘yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g’oyaviy- siyosiy yo‘nalishini o‘zida aks ettiradigan davlat hujjatidir. O‘quv dasturida bir sinfda alohida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu

birinchini to‘ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. O‘quv dasturida shu fan bo‘yicha o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi. Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda yo‘nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo‘linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo‘linib, shu mavzu yuzasidan o‘quvchi qanaqa bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi lozim bo‘lsa, shu qisqacha ifodalanib beriladi. O‘quv dasturining o‘zini amal qilinishi kerak bo‘lgan qoidalari mavjud.

1. Dasturni aniq bir g’oyaga asoslanganligi.

Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohasidagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim. Dastur uzoqni ko‘ra bilish qoidalariiga asoslanishi kerak.

2. Dastur ilmiylik prinsipiga asoslanadi.

Harbir ta’lim va tarbiya g’oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O‘quv dasturi aniq mazmun va mantiq g’oyalarini o‘zida aks ettirishi lozim.

Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o‘rgatiladi. Aks holda o‘rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo‘ladi.

4. Nazariyot bilan amaliyotning birligi prinsipi.

Talabalar nazariy olgan bilimlarini, amalda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishi nazarda tutiladi.

5. O‘quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

Vaqt o‘tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma’lum bir ilmiy qonun-qoidalari paydo bo‘lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o‘zida qisqacha ifodalaydi.

6. O‘quv dasturi hujjatlar isloh qilingan ta’lim, davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, licey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslik - o‘quv jarayonining asosi. Darslik o‘quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi. Darslik, ya’ni fan ob’ektiv borliq o‘rtasidagi muhim qonuniyatli bog’lanishlarni aks ettiradi. Darslikdagi bilimlar tizimi o‘zaro ichki, mantiqiy bog’lanishlarga ega bo‘lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holdayarataladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g’oyalari tizimli va izchil bo‘lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi lozim. Shu holdagina o‘quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.
3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog’langan bo‘lishi kerak.
4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta’riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o‘quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo‘lmog’i zarur.
5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo‘lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.
Ta’limning maqsadi – mustaqiljamiyatimiz ravaqiga nazariy va amaliy hissaqo‘sha oladigan “Barkamol avlod”ni tarbiyalash.

Ta’limning vazifasi - yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Darsning maqsadi – o‘qituvchining rejalshtirgan aniq bir mavzusini o‘quvchilarga bildirish va o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirib ko‘rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni – uni o‘qituvchi tomonidan rejalshtirilgan tugal ma’noga ega matn tashkil etadi. Uni o‘quvchilar ongiga singdirish jarayonida manbaa, xulosa va hikoyalardan foydalaniladi.

Dars – o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat. Shu maqsad va mazmun o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, metod va tuzilishi bo‘lgan, qat’iy dars jadvaliga muvofiq, o‘qituvchi rahbarligi ostida, sinf o‘quvchilarining hammasi bilan yoki har biri bilan individual ravishda o‘tkaziladigan ilmiy muloqotning tashkiliy formasiga aytildi.

Dars pedagogik processning asosiy ko‘rinishi. Dars aniq maqsad tugal mazmuniga ega bo‘lishi bilan birga, o‘zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy ravishda bog’langan bo‘lishi shart.

Dars turlari - darsning maqsadi, mazmuni va o‘quvchilarning yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi har xil bo‘ladi. endi biz darsning nimaligini yanada ravshanroq ko‘rsatib berish maqsadida darslarni turlarga ajratamiz, saralaymiz va ularning tuzilishi bilan tanishamiz.

Ular quyidagilarga asosan turlarga ajratiladi:

1. Darslarni asosiy maqsadi va mazmuniga qarab turlarga bo‘lish;
2. Darslarni o‘qitish processining analiziga qarab turlarga bo‘lish;
3. Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo‘lish.

Darslarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng ob’ektiv va ma’quldir. Darsning mazmuni dasturda ko‘rsatilgan bo‘ladi. Darsning maqsadi esa, ana shu mazmunni bildirishdan va bildirilgan narsamizga asoslanib, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishdan iborat. Bir darsning maqsadi dastur materiallaridan o‘tish bõlisa, boshqa bir darsning maqsadi xuddi shu o‘tilgan materiallarni qaytarishdan? yana birining maqsadi esa, o‘quvchilarning uni qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlashdan iborat bo‘lishi mumkin. Tajribadan bizga ma’lumki, darsning maqsadi bilan mazmuni o‘rtasida ma’lum bog’lanish bo‘lib, asosan ular darsning usulini va tuzilishini belgilaydi. Shuning uchun darsni turlarga ajratganda, saralaganda darsning maqsadi va mazmunini asos qilib olish eng to‘g’ri yo‘ldir. Harbir dars turiga qarab o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi. Darsslarni saralash, dars tuzilishini bilishimizga, o‘rganishimizga yordam beradi. Shunday ekan, darsning tuzilishini o‘rganish uchun darsslarni asosiy 3 turga ajratsak bo‘ladi:

1. Yangi mavzuni o‘tish darsi;

2. O‘tilgan mavzuni qaytarish, mashq o‘tkazish darsi;
 3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va ularga baho berish darsi.
1. Bu dars turlarining birinchisida, ya’ni yangi mavzuni o‘tish darsida faqatgina yangi mavzu o‘tilar ekan, bunday darsda ilgari o‘tilgan mavzuni qaytarish, mashq qildirish yoki o‘quvchilar bilimini tekshirish kabi ishlarni qilish mumkin emas, deb o‘yplash noto‘g’ri.Yangi mavzuni o‘tish darsida yangi mavzuni o‘rganishdan boshqa ishlarni hamqilish mumkin. Lekin bu ishlar o‘sha darsning asosiy o‘rnini egallamasligi, bu darsning bosh maqsadi bo‘lgan yangi mavzuni o‘rganishni qulaylashtiradigan yordamchi vosita bõlib xizmat qilishi lozim. Bunda faqat o‘tiladigan mavzuni emas, balki amaliy suratda (laboratoriya ishlari, tajriba uchastkalari va boshqa amaliy joylarda) o‘rgatiladigan, bildiriladigan bilimlar majmuasini o‘tishni ko‘zda tutadi. Mavzu maqsadiga ko‘ra olingan nazariy bilim, amaliyot jarayonida ko‘nikma, malakaga aylantiriladi. O‘quvchilarning bu bilish kategoriyalarini aniqlash va takomillashtirish uchun tajriba uchastkalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, bilim maskanlarida, laboratoriya xonalarida amalgalashiriladi.O‘quvchilarga biron nazariy mavzuning amaliyotga tadbiqini o‘rgatganimizda, shu ishni qanday bajarilishini ko‘rsatamiz. So‘ng bu ishni qanday bajarishni o‘quvchilarning o‘zlariga taklif etamiz. Bu ishlarni bir necha bor o‘zları sekin-asta shu ishni bajarishga ko‘nikma hosil qiladilar. Shunday qilib, oxirgi tegishli natijaga erishamiz.
2. O‘tilgan mavzuni qaytarish, mashq qildirish darsi.Bu dars o‘tilgan mavzuni qaytarish va mashq qildirish darslari o‘qitilgan bilimlarnigina takrorlashdan, ular ustida mashq o‘tkazishdangina iborat bo‘lmay, o‘rgatilgan ishni qaytarish, mehnat malakalarini beradigan mashqlar o‘tkazishdan hamiborat bo‘lmog’i lozim.
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va ularga baho berish darsi.Bunday dars turida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini qanchalik o‘zlashtirganligi va uni qay darajada amaliyotda qo‘llay olish malakasi tekshiriladi va baholanadi, o‘quvchilarni olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish darajasining emas. Balki biz ularni inson sifatida qanday tarbiyalanayotganligi, ularda inson

fazilatlari qay darajada shakllanib borayotganligini hame'tibordan xoli qoldirmasligimiz kerak. O'quvchi aqliy va axloqiy bilimlarni puxta egallab, uni hayotga tadbiq eta bilmasa, bu egallagan bilimlari ularni amaliy jihatdan ma'naviy boyitsa, o'sha holatdagina biz "Barkamol avlodni tarbiyalash" dek bosh maqsadimizga erishib boramiz. Yuqoridagi uch asosiy turdan boshqacha bo'lgan yana bir xil qo'shma darslar turi hammavjud. Bu dars turida yuqoridagi saralash nuqtai nazaridan olganda, o'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirish, yangi mavzuni o'tish va uni pishiqtirish uchun qaytarish kabi turli ishlar qo'shilsa hamlekin qo'shma darslarning asosini bu ishlarning bittasi, qo'shma darslarning maqsadiga to'laroq javob bera oladigan tashkil etadi, qo'shma darsdagi boshqa ishlar esa, shu asosiy ishga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Nazorat savollari:

1. Didaktika nima?
2. O'qitish jarayonining maqsadlari?
3. Darsning tuzilishini o'rganish uchun darslarni nechi turga ajratiladi?
4. Ta'limiy maqsadi ?
5. Ta'limning vazifasi ?

12-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA'LIMIDA KOMPETENTSIYALAR

Tayanch so'zlar: kvalifikasiya, shaxsiy ijtimoiy sifatlar, kasbiy shakllanish, kasbiy kompetensiya, motivasiyani shakllantirish, tarbiya prinsiplari.

12.1. Kompetensiya tushunchasining mzmuni

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqliman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O'qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Zardusht ta’limotida, “muallim — kohinlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo‘sinda o‘rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etishdir” deyilgan. Uning “yasht”larida aqlu farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so‘z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, “Avesto”ning “Yasht”larida tanballigi, befarqligi, mas’uliyasizligi, loqaydligi, farosatsizligi, o‘quvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehnini, ularning mustaqil tafakkurini o‘tmaslashtiradigan, ayni chog‘da, yoshlarning aqlini “Zanglatadigan”, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e’tiqodini zaiflashtirib, ma’anaviy jihatdan qashshoqlashtiradigan “Yomon ustozlar” qattiq qoralanadi.

Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: “Noshud, yomon muallim o‘quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra”.

Talabalarga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o‘qituvchining shaxsiyati qanday bo‘lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, adabiyot va san’at, ma’rifatchilik jadal taraqqiy etgan. Shuningdek, o‘qitishning sinf tizimlari,

bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari surilgan va ma’lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘qituvchi va mudarrislarning insoniy xislatlariga bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergen. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta’midotidan qondirilishini yo‘lga qo‘ygan, eng mahoratli ustozlarni e’zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarning dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o‘xhash fikrlarni G‘arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, Disterverg: “Yaxshi o‘qituvchi o‘zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O‘qituvchi o‘z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim, yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o‘rgatadi” degan.

12.2. O‘qituvchining kasbiy shakllanishi

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi. Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni biriktirib qo‘yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O‘qituvchi o‘z kasbini sekin-asta o‘zlashtirib borishi

bilan birga ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etadi. Shu yo‘l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O‘qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o‘qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishi yosh o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi kompetensiyasining ahamiyati

O‘zbekistonda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g‘oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minalash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo‘lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqr bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O'qituvchida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatini hisoblanadi. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O'qituvchi obro'si – o'quvchilarga bevosita emotSIONAL-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga Shuningdek, o'quvchilarga

ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan xislatlar, ya’ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o‘z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko‘nikmalar asosida rivojlanadi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzlusiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzlusiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko‘ngilli, ochiq chehrali, shirinso‘zli, bolalarni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishi;
- Mehr-muhabbat, qalb g‘urini o‘quvchilarga bab-baravar bo‘lib berishi, sinfda do‘stona muhitni yaratish va o‘quvchilarning o‘quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag‘batlantirish metodlari ekanligini anglash;
- O‘quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas’ul ekanligini chuqr his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e’zozlash;
- Har qanday pedagogik vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo‘rqtishdan o‘zini tiyishi zarur;
- O‘quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg‘ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o‘quv jarayoniga o‘zgacha talab va o‘zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Bu esa ta’lim sohasida o‘quvchi, o‘qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya’ni, DTS talablarini o‘zlashtirish va undagi me’yorlardan yuqoriq natijalarga erishishni taqozo etadi.

DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta’lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etishidir.

Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O‘quv soatlarida o‘quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko‘nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

O‘quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o‘z yo‘nalishini tanlashi va buning asosi bo‘lgan qarashlarini isbotlashi, o‘rni kelganda himoya qilishni o‘rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta’lim mazmunining natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ta’limni isloh qilishda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilagn talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o‘qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- o‘z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o‘zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e’tiqod sohibi bo‘lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi;
- o‘z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo‘lishi va yangilikka intilishi;
- o‘z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o‘rganishi va ularni targ‘ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat’iylik, vazminlik, haqqoniylik, o‘zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo‘lishi;
- o‘z kasbiga to‘la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo‘lmog‘i lozim. Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagog-o‘qituvchi o‘zining butun bilim va tajribasini ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo‘naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

12.3. Kompetensiya turlari, kvalifikasiya va kompetensiya

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

- 1.Kasbiy.
- 2.Shaxsiy.
- 3.Umuminsoniy.
- 4.Ma’daniy.
- 5.Maxsus.

Kasbiy kompetensiya

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;
- O‘z ustida ishslash;
- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- O‘quvchilarda motivasiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;

- Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O‘z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarini anglash;
2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Shaxsiy kompetensiya

- Muloqatchanlik;
- Bag‘rikenglik;
- Etakchilik;
- Faol,tashabbuskor;
- Moslashuvchan;
- Sog‘lom turmush tarzi;
- Mas’uliyat;
- Ishchanlik;
- Insonparvarlik.

Umummadaniy

- Ma’lumotli;
- Madaniyatli;
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- Milliy madaniyatga ega bo‘lish;
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

Maxsus

- O‘quvchilar ehtiyojini bilishi;
- Turli yosh xususiyatlarini bilishi;

Kvalifikasiya va kompetensiyaning o‘zaro munosabati

Kvalifikasiya- potensial faoliyatda bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lish.

Kompetensiya-bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarini faoliyatda ko‘rinishi.

Nazorat savollari:

1. Kompetensiya-bu?
2. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari?
3. Kvalifikasiya va kompetensianing o‘zaro farqi?
4. Ibn Sino o‘qituvchining shaxsiyati qanday bo‘lishi kerakligi haqida qanday fikrlarni bildirgan?
5. Kompetensiya turlari?

13-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMIDA TARBIYA TURLARI

Tayanch so‘zlar: tarbiya metodlari, tarbiya turlari, tarbiya vositalari, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, tushuntirish, hikoya, ma’ruza, pedagogik talab, mashq qilish, musobaqa, seminar-trening, rag’batlantirish, ma’qullah, ko‘ngil ko‘tarish, jazolash

13.1. Tarbiya qonunlari to‘grisida tushuncha

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogolarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiylashtirish, ta’lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog’langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g’oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sigan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsahkamlashadi.

Tarbiya qoidalari. Tarbiya qoidalari pedagogik ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e’tish maqsadida foydalanaladigan boshlang’ich holat, rahbarlik asosidir. Ta’lim qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalari hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e’tishi, usullari va ularga qo‘yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi. Tarbiya qoidalariiga quidagilarni kiritish mumkin:

- tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi
- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog’liqligi
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning utsivorligi
- o‘qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish
- izchillik, tizimchilik, uzuksizligi.

Tarbiyaning umumiyligi usullari.

Bola o‘qishni, tarbiya olishni, ulg’ayib jamiyatga hayotida faol ishtirok e’tishni xoxlaydi. Pedagog uni qay tarzda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonida tarbiyalashi zarurligini bilishi kerak. O‘qituvchi do‘s, murrabbiy yo‘l boshlovchi bo‘lgandagina o‘quvchilar o‘zlarining ichki adabiyotlarini oolib ko‘rsatadilar. Avval ta’kidlaganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilimi va tarbiyaga e’ga bo‘lgan qonunlar, tarbiyalanovchilar (faoliyatlarini o‘z ichiga olgan) bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatishlari kerak. Tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarining xamkorligidagi faoliyat va o‘zaro ta’sir ko‘rsatish usullaridir.

13.2.Tarbiya usullarga tavsif.

Xalq pedagogikasi o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujasamlashtirgan. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan juda xilma xil tarbiya usullari mavjud. Tushuntirish (o‘rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

1. Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, o‘rnak bo‘lish, yaxshiliklar to‘g’risida gapirish).
2. Nasixat berish (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish , yolvorish, tilak istak bildirish, maqullandash, raxmat aytish ,duo qilish , oq yo‘l tilash).
3. Qoralash va jazo (ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ont, qasam, urish, kaltaqlash va x.)

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta’sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mexmon kutish, mexmonga borish, turli mexnat jarayonlari, xasharlar, musobaqalar, turli nishonlashlar, sayllar, turli marosimlar, bazmlar va boshqa. O‘ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Yoshlarni tarbiyalashda turli milliy an’nalar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Inson qalbiga bugun qilgan yaxshilik o‘rniga oradan 10 yil o‘tgach unib chiqishini har bir pedagog ilmiy asoslab oldindan ko‘ra bilish kerak. Tarbiya usullarini o‘rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagog jarayonda foydalanish, ko‘nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhgaga bo‘lib olamiz:

-Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.

-O‘z o‘zini tarbiyalovchi usullar.

-Rag’batlantirish usullari.

-Jazolash usullari

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.

Bu guruhda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqodni, ma’naviy va siyosiy g’oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta’sir etish usullari kiradi.

-suhbat va hikoya

-hikoya

-namuna (qush uyasida ko‘rganini qiladi)

Mashq o‘rgatish usullari.

Mashq muayyan xatti harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlanish o‘quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma odat, yangi bilimlar hosil qiladi. O‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi. Axloqiy tajribasi kengayadi. O‘rgatish ijtimoiy xulq atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarilishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O‘rganish bir necha izchil harakatlar yig’indisidir.

Pedagogik talab tarbiyaning e’ng muhim usullaridan biridir. Talab—bu

- o‘quvchining turli vazifalarini bajarishi
- ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi
- u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo‘lishi.

-turli ko‘rsatma sifatida namoyon bo‘lishi u yoki bu harakatlar

Rag’batlantiruvchi yoki uni to‘xtatuvchi bo‘lishi.

-oqilona harakatlarga undovchi bo‘lishi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari. O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtadan boshlanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda (axloqiy, jinsiy, xissiy-irodaviy) maslahat va ko‘nikmalar berilishi lozim.

-o‘z-o‘zini tahlil qilish.

-o‘z-o‘zini baholash o‘z-o‘ziga xolisona baho berish, qoniqish hosil qilish, rag’batlantirish va jazolash usullari. O‘quvchi bolalarning har biri o‘sib, ulg’ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo‘lganini sezishi kerak. Shundagina bola o‘zining olg’a siljib borayotganini ko‘ra biladi, o‘z kuchiga ishonadi.

Rag’batlantirish quyidagi turlarga bo‘linadi. (maktablarda)

1)O‘quvchining kuchi yetadigan, mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish: bunda bola o‘z qadr qimmati bilan faxrlanadi.

2) muktab (majlislarda)

3) etsalik sovg’alar berish.

- 4) maqtov yorlig'i berish
 - 5) stipendiya bilan ta'minlash.
 - 6) hurmat taxtasiga rasmini osish
 - 7) qo'llab quvvatlash
 - 8) ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi
 - 9) sinfda birinchi o'rinda turish
 - 10) musobaqalarda bayroq ko'tarish, gazeta, radioda, televizorda e'lon.
- Jazolash bu tarbiyalanuvchining harakat va faoliyatiga salbiy baxo berish, bu oxirgi tarbiya usuli, (urish, kaltaklash, jismoniy jazo mumkin e'mas) Turlari.

- tanbeh berish
- hayfsand e'lon qilish
- uyaltirish.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim. Jazo yakka tartibda bo'lishi kerak ya'ni bitta jazo aybiga mos.

Pedagogik mahorat asoslari. Pedagogik mahorat ta'lim va tarbiya berish sa'nati deyiladi. Pedagogik maxoratga quyidagilar kiradi: 1.Nutq madaniyati 2.O'qituvchining muomala va munosabati 3.Kommunikativ munosabat (aloqa o'rnatish) insonning qalbiga kirish qobiliyati. 4.Pedagogik odob (o'qituvchi ichki va tashqi olami) 5.Pedagogik texnika:

- mimika (yuz ko'z ifodasi)
- jest (gavda va qo'l harakati)
- pantomimika (so'zsiz harakatlari)

6.Nutq texnikasi.

- nafas
- ovoz
- intonatsiya (tovushni o'zgartirish qobiliyati)
- ritm
- tamp(sur'at)

Pedagogikada eng asosiy talab bu uning nutqiga bo'ladigan talab hisoblanadi.

-Nutq madaniyati deganda fikrni aniq, ravshan, tushunarli, mazmunli, ta'sirchan, chiroyli ifodalash tushuniladi. Nutq madaniyati deganda mantiqiy fikrlashning ahamiyati katta, yana so'zning qaymog'ini aytish kerak. Birovlar gapni yog'lab gapiradi. Birovlar gapga tikanak bog'lab gapiradi. Abdulla Qaxxor.

O'qituvchilarning nutqiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1.Ona tilini mukammal darajada bilish.
- 2.Sof ona tilida so'zlash madaniyatiga rioya qilish .
 - tiliga kelganini aytish nodonning ishi
 - oldiga qo'yganni yenish hayvonning ishi
 - yaxshi gap jon ozig'i
 - yomon gap bosh qozig'i
- 3.Adabiy tilda so'zlashish madaniyati
4. Nutq xalq maqollaridan, iboralaridan nutqlaridan foydalanish.
 - Tig' yoradigan til yarasi yomon, tig' yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi.
 - Bitta insonni xafa qilish ka'batullohnin vayron qilish bilan teng.
5. Nutqda hazil mutoibalardan foydalanish dunyoda e'ng yomon gunoh g'iybat qilish

6. Nutqda qo'pol, dag'al, xunik so'zlarni ishlatmaslik kerak.

Pedagogik munosabat va uning turlari. Pedagogikada muomila masalasi juda nozik masala. Bir so'z bilan insonni yashnatish yoki qaxshatish mumkin.

Ibn Sino davolashda 3 xil usuldan foydalanishni taklif qilgan.

- bemorlarni ruhiy so'z bilan ta'sir e'tish.
- dori darmonlar, giyohlar.
- jarrohlik bilan davolash.

Munosabatning 3 turi bor.

- 1.Avtoritar munosabat
- 2.Demokratik munosabat.

3.Liberal (loqaydlik) munosabat (xamileon-buqalamun) bo‘lmaslik kerak. So‘zi avtaritet so‘zlariga ma’nodosh obro saqlamoq degan ma’noni bildiradi.

- majbur e’tish
- qo‘rqtish
- do‘q
- po‘pisa
- buyruq berish
- ta’qiqlash
- o‘rta darajada jazolash

2.Demokratik talablar mexribon bo‘lish.

“Siz o‘z shogirdingizga shunday muomilada va munosabatda bo‘lingkim, kelajakda undan buyuk inson chiqishiga ishonch ko‘zi bilan qarang. (N.A.Dobralyubov)

- Mo‘rabbiylik to‘g’risida gapirish kerak.

Nutqda raxmat, barakalla, minnatdorman, ofarin, yaxshi o‘ylabsiz, maql gap, tasanno va boshqa so‘zlari ishlatsa o‘quvchi bilan o‘qituvchilar o‘rtasidagi mehr muhabbatni oshiradi, iplarni bog’laydi.

3. Liberal munosabat sovuqqonlik, ishga panja orqasidan qarash.

A.Qahhor “Sinchalak” asarida qoziqning uchi ham orasi ham bo‘lma, sababi uchi bo‘lsang yerga kirasan, orqasi bo‘lsang to‘qmoq yeysan, yaxshisi o‘rtasi bo‘l ekan.

13.3. Ta’limda pedagogik ta’lim-tarbiya jarayoni

Konfliktli vaziyatlarda qarama-qarshi tomonlardan tashqari uning boshqa ishtirokchilari, ya’ni qiziqtiruvchilar, yordamchilar, tashkilotchilar, vositachilar va sudyalar ham ishtirokchi sifatida maydonga chiqadilar. Dalolatchi (qiziqtiruvchi) - bu bir tomonni konfliktga undovchi shaxs, tashkilot yoki davlatdir. Dalolatchining o‘zi keyin bu konfliktda ishtirok etmasligi mumkin, uning vazifasi boshqa shaxslar (guruqlar) o‘rtasida konfliktni yuzaga keltirish bilan belgilanadi. Yordamchi - o‘z maslahatlari, texnik, tashkiliy ko‘magi va boshqa usullar bilan konfliktga yordam

beruvchi shaxsdir. Xalqaro siyosatda qurolli konfliktga sabab bo‘lgan bosqinchiga yordam qilish tinchlikka qarshi qaratilgan jiddiy jinoyat deb baholanadi. Mana shunday baho tarix tomonidan ikkinchi jahon urushi arafasida fashistlar Germaniyasiga Angliya va Frantsiya tomonidan ko‘rsatilgan yordamga berilgan edi (Myunxen bitimi). Tashkilotchi - bu konfliktni rejalashtiruvchi, uning rivojlanishini belgilovchi, uni ta’minlash yo‘llari va ishtirokchilarni muhofaza qilishni nazarda tutuvchi shaxsdir. Tashkilotchi bo‘lib taraflardan biri yoki mustaqil shaxs bo‘lishi mumkin. Misol uchun V.Shekspirning “Otello” asarida Otello bilan Dezdemona o‘rtasidagi fojiali konfliktida Yagoning o‘zi ishtirok etmaydi, biroq, uni har tomonlama tashkil etadi. Vositachilar faqat yuz berayotgan jarayonlar sabablari va sharoitlarini bilishga harakat qilib qolmay (masalan, sudyalar shunday qiladilar), shu bilan birga konfliktni oldini olishga, uni to‘xtatishga va hal qilishga ham urinadilar. Ushbu ma’noda vositachilarni konflikt ishtirokchilari deb hisoblash mumkin. Amaliy konfliktologiyada vositachilik muammozi muhim ahamiyatga ega. Muzokaralar orqali kelishuvga erishishda konfliktlashuvchi tomonlarga yordam ko‘rsatuvchi qat’iy xolis shaxs - vositachini nazarda tutgan tartib eng samarali hisoblanadi. Vositachilikning o‘ziga xosligi shundaki, tomonlar odatda kelishuv bitimini o‘zları tuzadilar. Vositachi birorta qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lmasa-da, uning yordamida erishilgan kelishuv tomonlarning keyingi harakatlarini belgilab beradi. So‘nggi yillarda millatlararo hududiy konfliktlarning ortib borishi bilan tinchliksevar kuchlar (BMT qo‘sishlari) deb nomlanuvchi vositachilikka tez-tez murojaat qilinmoqda, ko‘p hollarda ular konfliktga bevosita qo‘shiladilar. Kongo, Somali, sobiq Yugoslaviya hududidagi bunday vositachilar orasida qurban bo‘lganlar ham bo‘ldi. Ta’kidlash kerakki, vositachilar sudyalar singari konfliktda qarama-qarshi kurashuvchi tomonlar hisoblanmaydilar, ularning maqsadlari diametal qarama-qarshi, ya’ni konfliktni rivojlantirishga emas, balki uni to‘xtatish, ziddiyatni iloji boricha tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan bo‘ladi. O‘z navbatida, vositachidan quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lish talab etiladi: u dono va ijodkor, konfliktdagi barcha tomonlar uchun axloqiy jihatdan obro‘li, xolis va savodxon shaxs bo‘lishi lozim. Konfliktlarni hal qilishning an’anaviy

shakllariga nisbatan (bevosita to‘g’ri muzokaralar olib borish, tomonlarning mahfiy uchrashuvlari va b.) vositachilik qator afzalliklarga ega. Vositachini kurashuvchi tomonlarning o‘zlari tanlaydilar, shu bois u tomonlarning o‘zlariga qaraganda muzokaralarni oson boshqaradi va nazorat qiladi hamda qulay ahloqiy muhitni yarata oladi. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish shakllari. Konfliktning ijobiy va salbiy tomonlari. Konflikt faqat bir tomondan iborat bo‘la olmaydi. Konfliktda, uning qanchalik murakkab bo‘lishiga qaramay, har vaqt ikki tomon-buzg’unchilik va yaratuvchanlik mavjud bo‘ladi. Shu bois, konfliklarning murakkab xususiyatlari ularda vayron etish va yaratuvchanlik, zo‘ravonlik va hamkorlik qirralarining ham mavjudligini ko‘rsatadi.

Konflikt: vayron etishmi yoki yaratuvchanlik?! Xitoyliklar hayotdagi har bir vaziyat va holatning ikki ajralmas tarkibiy qismini ta’kidlashadi: bir tomondan, konflikt, albatta odatdagi holatni vayron etadi, va boshqa tarafdan, konflikt, uning kelib chiqishi bilan vaziyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, natijada yangi vaziyat vujudga keladi, ana shu yangi vaziyatda esa o‘ziga xos ijobiy holat ham mavjud bo‘ladi, shu bois konflikt yangi ijobiy o‘zgarishlar uchun ham imkon yaratishi mumkin. Konfliktning ijobiy va yaratuvchanlik qobiliyati konflikt vaziyatni siz qanday maqsadlarga ishlata olishingizga bog’liq bo‘ladi. Xitoyliklar fikricha, konflikt ikki asosiy tushuncha: vayron etish va yaratuvchanlikning yaxlitligi, yagonaligidan iboratdir. Qadimgi xitoy falsafasida In va Yan tushunchalari mavjud. Ularga ko‘ra Yan – oq rang, yaxshi va ijobiy narsalarda iborat bo‘lgan, faol birlik, tashqi olamni bilishga qaratilgan va erkaklik belgilaridan iborat bo‘lgan voqelikdir. In esa – qora rang, sust bo‘lgan, ya’ni faol bo‘limgan birlik, ayollik belgilarini o‘zida mujassam etgan, ichki olamni anglashga qaratilgan voqelikdir. Hayot esa, mana shu ikki muhim kategoriya – Yan va In birligi, o‘zaro qorishmasi, yagonaligi, uzviyligi, biri birini mutlaqo inkor etmasligi, o‘zaro hamkorligidan tashkil topadi. Ularni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yish olamdagи tabiiy mavjud bo‘lgan muvozanatni buzishga, uni ichdan qo‘parishga olib keladi. Shu bois, qadimgi obidalardan bo‘lgan “Itszin” (“O‘zgarishlar kitobi”) da ta’kidlanishicha, Yan va In olamdagи rang-baranglik asosida vujudga keladigan birlikni tashkil etuvchi omillar hisoblangan. Tabiatdagи

yorug'lik va qorong'ulik, nur va og'u, yumshoqlik va qattiqlik, tosh va suv, ayol va erkak, kun va tun, osmon va yer, quyosh va oy, issiq va sovuq, yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshiliklar muvozanati tabiiy bo'lib, ularni o'zaro qarama-qarshi qo'yish emas, ularni o'z holicha qabul qilish kerak. Tabiatdagi evolyutsion taraqqiyot mana shu tabiatan qarama-qarshi bo'lgan birliklarning hamkorlikdagi tabiiy harakatidan iboratdir. Borliqning evolyutsion o'zgarishlari Inning Yanga aylanishi jarayoniga teng keladi. In va Yan tabiatning ikki fundamental asosi hisoblanadi. Ular borliq – makon va kosmosni tashkil qiladi. Ularning o'zaro munosabatlari borliqdagi barcha o'zgarishlarning kelib chiqishi uchun xizmat qiladi. Ular harakati – borliqdagi garmoniyaning negizidir. Aslida, har bir narsa, har bir o'zgarishda Yan va Inning o'zaro qarama-qarshiligi mavjud bo'ladi. Chunki ular ikki qarama-qarshi energiya birligidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi harakat olamdagи barcha dinamik taraqqiyotning asosini tashkil qiladi. Demak, reallik – qarama-qarshi birliklarning o'zaro hamkorlikdagi harakatidan iborat bo'lgan kategoriyadir. Shu bois, Yan va In mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi, ulardan birining borligi ikkinchisi bilan solishtirgandagina o'zini namoyon qiladi. Ular o'zaro bir biri bilan aloqadordir. Ular faqat qarama-qarshi kategoriyalar bo'lmay, ular birida yo'q xususiyatlarni ikkinchisidan oladigan, buning hisobiga biri birini to'ldiradigan va o'zaro olamdagи turli-tumanlik va rang-baranglik o'rtasidagi garmoniyani vujudga keltiradigan kategoriyalardir.Qadimgi xitoy filosofiyasiga ko'ra, olamni vujudga keltirgan besh asosiy element, ya'ni unsur Yan va Inning o'zaro harakati orqali vujudga keltiriladi: ular – suv, olov, yog'och, metal va yer. Bu besh unsur – olamdagи besh energiyaning turli ko'rinishlari hisoblanadi. Ular munosabati bir energiyaning ikkinchisiga aylanishi asosi bo'lib xizmat qiladi. Mana shu energiyalar almashuvি borliqdagi jarayonni ta'minlab beradi. Bir unsurdan ikkinchi unsurga o'tilishi davomiylik va abadiylikni ta'minlaydi. Yanning Inni qabul qilishi, Inning Yanga aylanishi - taraqqiyotni belgilaydi. Hayot, taraqqiyot, borliq va tabiatning mavjud bo'lishi uchun Inning doimiy Yanga aylanishi jarayoni bo'lishi kerak. Shunday ekan, konfliktlarning ham o'z ichki In va Yani mavjud, deb hisoblanadi. Demak, qadimgi xitoy falsafasiga ko'ra,

konfliktda ham mana shu tabiiy qarama-qarshiliklar birligi mavjuddir. Konfliktdagi qarama-qarshiliklar birligi o‘zini uning vayron etish va bunyodkorlik xususiyatlari orqali namoyon etadi. Ya’ni, har bir konfliktda vayron etish xususiyati bilan birgalikda bunyodkorlik, yangitdan yaratish xususiyati ham mavjud bo‘ladi. Konflikt ziddiyatli vaziyatni tugatadi, ya’ni vayron etadi, ammo shu bilan birga uning qanday hal etilishidan qat’iy nazar, yangi vaziyat, yangi holat yuzaga keladi. Ana shu yangi vaziyatda konfliktning yaratuvchanlik xususiyati yashiringan bo‘ladi. Konfliktning mazkur yaratuvchanlik qobiliyatini ko‘ra bilish, uni anglash va o‘z maqsadlarida ishlata olish konfliktning yaratuvchanlik echimi bilan bog’liq bo‘lgan vaziyat hisoblanadi. Konfliktlarni doimo yaratuvchanlik sari yo‘naltira bilish ma’lum bilim va malakalarni talab etadi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiya qoidalari nimalardan iborat?
2. Munosabatning turlari nimadan iborat?
3. Xitoyliklarnind fikricha, konflikt qaysi tushunchalarining mujassamlashuvidan iborat?
4. Pedagogik munosabat va uning turlari?
5. Pedagogik mahorat asoslari?
6. O‘qituvchilarning nutqiga qaysi talablar qo‘yiladi?

14-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMI VOSITALARI HAMDA UALAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Tayanch so‘zlar: kontur karta, o‘quv ko‘rgazma, tasvirli qullanmalar, ekranli qo‘llanmalar, natural qullanmalar, tasvirli materiallar, asboblar, amaliy ish , o‘quv qurollar

14.1. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalarni tasniflash

O‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalarni tasniflash. Geografiya talimida rasmlardan foydalanish. Geografiya o‘qitish metodikasiga doir mavjud qo‘llanmalarda o‘quv qurollar tushunchasi turlicha ifodalanadi. O‘quv qurollari deganda nimani tushunmoq kerak? U nimalarni o‘z ichiga oladi? Ta’lim-tarbiya saviyasini yanada yuqori maqsadida maxsus tayyorlangan va darsda bevosita tadbiq etiladigan, qo‘llaniladigan, foydalaniladigan barcha qo‘llanmalar o‘quv qurollari tushunchasiga mansubdir. Geografiya ta’limida qo‘llaniladigan o‘quv qurollari xilma-xil bo‘lganligidan ulardan to‘laroq va samarali foydalanish uchun uni guruhlarga bo‘lib tavsiflash maqsadga muvofiqdir. O‘quv qurollarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh-darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar,

Ikkinci guruh- o‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar,

Uchinchi guruh-asboblar ,

To‘rtinchi guruh – moslamalar,

Xar bir guruh o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari. Bu guruhdagi o‘quv qurollari o‘qituvchining bayonidan keyinda turadigan bilim manbaidir. Darslik o‘quvchilar uchun asosiy qo‘llanma, shuningdek mustaqil bilim olish manbaidir. Darslik bo‘lmasa, ta’lim aniq va mukammal bulmaydi. O‘quvchidan talab qilinadigan bilimlar minimumi ham darslikdir. O‘quv qo‘llanmalari o‘quvchilar bilimini kengaytirishda qo‘llaniladigan xrestomatiya, malumotnomalardan iborat.

O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalardan o‘rganiladigan xodisa va ob’ektlar haqidagi aniq tasavvur xosil qilish maqsadida asosiy bilim manbalaridan biri sifatida foydalaniladi. Bu o‘quvchilarning geografik qonuniyatlarni yaxshi tushinishiga va kuzatish qobiliyatlarini o‘sishiga yordam beradi.

O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar xususiyatiga ko‘ra yana 4 ga bo‘linadi:

Kartografik qo‘llanmalar

Tasvirli qo‘llanmalar

Sxematik qo‘llanmalar

Natural qo'llanmalar

1.Kartografik qo'llanmalar. Yer tasvirini (tabiiy geografik ob'yeqt va xodisalar, ularning joylanishini) shartli kichraytirilgan xolda va muayyan kartografik proyeksiyada ifodalaydi. Kartografik qo'llanmalar topografik, umumgeografik, maxsus kartalarni geografik atlaslarni, blankali va kontur kartalarni, globusni o'z ichiga oladi.

2.Tasvirli qo'llanmalar. Geografik obyekt va xodisalarning xaqiqiy ko'rinishini tasvirlaydi. Tasvirli qo'llanmalar bilimlarni o'rganishda aniq taassurot qoldirishi tufayli bilimlar puxta o'zlashtiriladi. Tasvirli qo'llanmalar turli rasmlarni, fotosurat, ekranli qo'llanma (diapozitiv, diafilm, kinofilm), panorama, model va maketlarni o'z ichiga oladi. Sxematik qo'llanmalar geografik obyekt va xodisalarning shartli xolda tasvirlaydi. Sxematik qo'llanmalar kartasxema, grafik, diagramma va jadvallardan iboratdir. Natural ko'llanmalar o'rganiladigan geografik obyekt va xodisalarni aslidan iboratligi uchun ham alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar turli sezgi azolari yordamida narsalar haqida aniq tasavvur xosil qiladilar. Natural qo'llanmalar turli kolleksiya, gerbariy tuproq namunalarini toplashdan iborat.

3. Asboblar turli mazmundagi amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lган о'кув qуорларини o'z ichiga oladi.

Maktabda geografiyani o'qitishda tadbiq etiladigan asboblar quyidagilardan iborat.

1) Kuzatish asboblari: termometr (maksimal, minimal), termograf, flyuger, anemometr, barometr barograf, gigrometr, yog'in o'lchagich, qor qalinligini o'lchaydigan reyka, kalkitma, burchak o'lchagich.

2) Joyda oriyentirovka olish va gorizont tomonlarini aniqlash uchun ishlatiladigan asboblar: kompas, qutb yulduzi ko'rsatkichi.

3) Masaofalarni o'lhash asboblari: yer o'lchaydigan sirkul, ruletka, metr o'lchagich, reyka, eklimeetr, planshet, vizir chizgichi.

4) Tajriba o'tkazish uchun ishlatiladigan asboblar: stakan, probirka, kolba va har xil shisha, voronka, shtativ, spirt lampasi.

4. Moslamalar. Bu moslamalar ko‘rsatmali qo‘llanmalarni ko‘rsatish, saqlash, va ixcham qilib joylash maqsadida foydalaniladigan yordamchi qurollardi. Moslamalar geografiya talimida bevosita ishtirok etmasada, kartalar jadvallar, sxemalar, ekranli qo‘llanmalarni ko‘rsatishga yordam beradi. Ular karta iladigan va saqlaydigan maxsus moslamalar, karta rasmlar, jadvallar iladigan tagliklar, rasmlar iladigan maxsus tutgichlar, ko‘rsatmali qo‘llanmalar saqlaydigan maxsus moslama va jovonlar, shuningdek proyektsion apparatlar va maxsus ko‘rsatkichlardan iboratdir. Ko‘rsatmali qo‘llanmalarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan asbob buyumlar ham manzur guruxga mansubdir. Geografiya talimi metodi va usullari tarkibida kartografik qo‘llanmalar bilan ishslash metodlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi.

A.Karta bilan ishslash:

- 1) Geografik nomlarni o‘rganish;
- 2) Kartadagi joyni tasvirlash;
- 3) Karta bo‘ylab sayoxat;
- 4) Solishtirish;

B. Kontur karta bilan ishslash:

- 1) Geografik ob’ektlarni nomlarini kontur kartaga yozish;
- 2) Karta-sxema va katogrammalar tuzish;
- 3) Karta ko‘chirish va andoza tayyorlash.

V. Globus bilan ishslash kiritiladi. Kontur karta bilan ishslash geografik ob’ektlarning nomlarini, ularning kartalardagi o‘rinlarini o‘quvchilar xotirasida mustahkamlaydi. O‘quvchilarda geografik nomlarni to‘g’ri yozishga va to‘g’ri talaffuz qilish, materiallarni mukammal o‘rganish imkoniyati vujudga keladi.

14.2.Maktabda geografiyani o‘qitishda tadbiq etiladigan asboblar

Maktablarda kontur kartalarni ko‘pincha dars oxirida to‘ldiradilar xamda ularga uyga topshiriq tariqasida beriladi. Uyda bajarilgan kontur kartalar aniq chiroyli bo‘lsa xam, biroq ko‘chirib olingan yoki boshqa bir kishi ishlab bergen bo‘lishi mumkin, bu ish o‘quvchiga yetarli bilim bermaydi. Kontur kartalarni

sinfda ishslash yaxshi natija beradi; bunda o'quvchilar Yangi materialni o'rganadilar, bilimlar mustahkamlanadi. Kontur karta bilan olib boriladigan ishdan oldin o'qituvchi uni bajarishga doir ko'rsatmalar berishi kerak. Ob'yekt kontur kartaga tushirilgach, o'quvchidan bu obyekt haqida qisqacha ma'lumot berishni talab qilish mumkin. Kontur kartani izox bilan to'ldirish usulidan kengroq foydalanish kerak. Kontur kartaga tushiriladigan geografik nomlar miqdori juda ko'p bulmasligi kerak. Kontur kartada bajariladigan ishlar ijodiy xarakterga ega bo'lishi, o'quvchilar bu ishlarni ongli va mustaqil bajarishlari kerak. Bir xil turdag'i ishlar o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi, shu sababli kontur kartada bajariladigan ishlar xilma-xil bo'lishi kerak. Kontur kartada olib borilgan ishlar o'z vaqtida tekshirilib, baxolanib va tegishli ko'rsatmalar berilib turilishi lozim. Kontur kartalarni tekshirgandan so'ng ijobiy va kamchilik tomonlarini sinfda muhokama qilish kerak. O'quv yilining oxirida yaxshi ishlangan kontur kartalar ko'rgazmaga qo'yiladi.

Globus bilan ishslash. Globus geografiya uchun eng zarur qo'llanmadir. Yer shari modeli-globusning qimmatli va o'ziga xos xususiyati uning teng masshtabligidir. Globus- yer haqida tug'ri tasavvur beradigan, maydon va eng qisqa oraliqlarni (ortodromiya) to'ri ko'rsatadigan va ifodalaydigan asosiy o'quv qurolidir. Globus o'quvchilarga bir qancha noaniq narsalarni bilib olishga imkon beradi. Yer shari tabiatini quyoshdan tushadigan nurning tik yoki qiyaligiga bog'lik ekanligi xam globusdan o'rganiladi. Globus barcha tabiiy geografiya kurslarida, xususan quyidagi masalalarni hal etishda; yerning sharsimonligini isbotlashda; yer yuzasidan ko'tarilgan sari gorizontning kengayib borishini tushuntirishda; materiklar va okeanlarning o'zaro xolatini aniqlashda qo'llaniladi. Geografiya o'qituvchisi qanchalik tajribali, nutqi chiroyligi, ravon va sodda bo'lmasin, u darsni quruq so'zlar bilan o'tmasligi kerak. O'quvchini o'zi tug'ilib o'sgan joylarning tabiatidan keskin farq qiluvchi landshaftlar xaqida bilim berilganda, uning tasvirini ko'rsatib, tushuntirib berish lozim. Tasvirli o'quv qurollaridan foydalanish-geografik tasavvurning shakllanishiga, tushunchalarning aniq o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'qituvchi tasvirli materiallardan foydalananayotganda o'quvchilar

diqqatini o‘rganilayotgan ob’yekt tasvirini kuzatishga, uning o‘ziga xos belgilarini aniqlashga va umumiylar xulosalar chiqarishga jalb etishi va tasvirga izoh berib borishi kerak.

Rasmlar. Rasm darsda bilim manbalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli o‘rganiladigan ob’yekt va xodisalarni ko‘rib tasavvur qilishda rasmlarning ahamiyati kattadir. Rasmda tasvirlangan tabiiy geografik ob’yekt va jarayonlar (vulqon otilishi, tabiat zonasining landshafti) mushohada qilinadi. Bunda o‘qituvchi bir necha savollar berib o‘quvchilar e’tiborini rasmning asosiy qismiga tortadi. Rasmni karta bilan bog’lik xolda o‘rganish va undagi tasvirni kartadan topish o‘quvchilarni rasm bilan kartani birga qo‘sib o‘rganishlariga yordam beradi. Rasmda ko‘rilgan xamma narsa umumlashtiriladi. Bundan tashqari, rasm yangi bilimlarni o‘rganishda, bu bilimlarni mustahkamlash va takrorlashda aloxida ahamiyat kasb etadi. Darsni yangi materialga tegishli rasmlarni tahlil qilishdan boshlash ham mumkin. Tasvirli ko‘rsatmalardan biri fotosuratlar bo‘lib, ular landshaftning aslini ko‘rsatadi. Jurnal, kitob, gazetalardan to‘plangan illyustratsiyalar va fotosuratlarni epidiaskop orqali ko‘rsatish ham mumkin. Bugungi kunda zamонавиyy axborot texnologiyalar asri bo‘lganligi sababli kompyuter ekranli slaydlar prezentatsiyalardan foydalanish samara bermoqda.

Ekranli qo‘llanmalar. Ekranli qo‘llanmalar ikki xil bo‘ladi: proyeksiyon apparatlar va televideniya proyeksiyon apparatlarning o‘zi 3 xil (episkop, epidiaskop, diaskop) ga ajratiladi.

Televideniya. Bu ta’lim-tarbiyatagi eng yangi vosita . Televizor ekranini ob’yekt, xodisa , voqealarni ayni vaqtida ro‘y berayotgan va o‘zgarayotgan xayotni ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Bu o‘quvchilarga geografik landshaft, geografik voqelikning ichiga bevosita kirib borishiga yordam beradi. Televideniya katta emotsiyal ta’sir kuchiga ega. U o‘quvchilarni o‘ziga jalb etuvchi, bitmas-tuganmas bilim manbaidir. Televideniyadan ta’lim – tarbiya ishlarida bilimning qo‘sishimcha manbai va yordamchi vosita sifatida foydalaniлади. Televideniyadan maktab o‘quvchilariga mo‘jallangan bir necha ilmiy ommabop suxbat, leksiya, filmlar, shuningdek olamga sayoxat, kinosayoxatchilar klubi, fan olamida kabi

eshittirishlar beriladi. Bu eshittirishlar o‘zining mazmuni jixatidan geografiya faniga tegishlidir. Bunday eshittirishlarning asosiy maqsadi o‘quvchilarining bilim doiralarini kengaytirish, ularning turli soxadagi qiziqishlarini ma’lum darajada qondirishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalarni necha guruhga tasniflash zarur?
2. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar xususiyatiga ko‘ra qaysilarga bo‘linadi?
3. Katografik qo‘llanmalarga nimalar kiradi?
4. Geografiyada eng zarur qo‘llanma bu ?
5. Ecranli qo‘llanmalar nima?
6. Tasvirli qo‘llanmalar nimani tasvirlaydi?
7. Natural qo‘llanmalar nimalarini to‘plashdan iborat?
8. Asboblar qanday ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollarini o‘z ichiga oladi?

15-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMIDA FOYDALANILADIGAN O‘QUV-KO‘RGAZMALI VOSITALAR TASNIFI

Tayanch so‘zlar: ko‘nikma va malakalar, bilish faoliyati, geografik borliq o‘qitish vositalari, natural obyektlar, geografiya darsligi, maketlar, model, illyustrasiya, texnik vosita.

15.1. O‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar va ularning turlari

O‘qitish vositalari- bu bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o‘quv jarayonini tarkibiga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir. O‘quv dasturi bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materiali turli manbalardan olinadi. Ushbu bilimlar o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi va o‘zlashtirishi uchun aniq bir pedagogik va metodik sharoitlar bo‘lmog’i lozim. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarini bilish faoliyatini

tashkil qilmog'i lozim. O'quvchilar bilim faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiradi: - eshittirish; - eshitgan geografik ma'lumotlarni belgilash; - eshitgan geografik ma'lumotlarni eslab qolish; - nashriy manbalardan ma'lumotlarni qabul qilish; - kuzatish va hokazo. Umumta'lim maktablarida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish maqsadida, o'quv jarayoni tarbiyaviy vazifalarini yechish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiga kiritilgan bilim manbalarini o'qitish yoki o'quv vositalariga aylanadi. Masalan, tog' jinslari ochilmasi o'quvchilar tomonidan o'r ganilgan taqdirdagina o'qitish vositalariga aylanadi. O'qitish vositalari tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarni shakillantirishda katta ahamiyatga ega. O'qitish vositalarining asosiy vazifasi bilim olish jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlashdir. Geografik voqeа va hodisalarни tasvirlash usuliga ko'ra o'qitish vositalari to'rt turga bo'linadi (I.S. Matrusov, L.M. Pancheshnikova): a) natural obyektlar; b) geografik borliq, voqeа va hodisalarни tasvirlash; v) predmet va hodisalarни belgilar bilan tasvirlash; g) tabiat xodisalarini hosil bo'lishini ko'rsatish va tahlil qilish uchun jihozlar. Natural, ya'ni tabiiy obyektlarga quyidagilar kiradi: - sind sharoitida o'r ganiladigan tabiat obyektlari va inson xo'jalik faoliyati predmetlari (namunalar, gerbariyalar, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalari); - bevosita o'quv sayohati jarayonida o'r ganiladigan tabiiy obyektlar va xo'jalik faoliyati mahsulotlari: bevosita tabiiy sharoitda o'r ganiladigan obyektlarga geografik ochilmalar, daryolar, soylar, ko'llar, tuproqlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Xo'jalik faoliyati mahsulotlariga ekinzorlar, polizlar, bog'lar, uzumzorlar va boshqalar kiradi; Natural o'quv vositalari yordamida o'r ganilayotgan predmet va hodisalar haqida bevosita tasavvurlar hosil qilinadi. Geografik voqeа va hodisalarning tasviri quyidagi guruhlarga bo'linadi: - tabiiy va xo'jalik obyektlarining modellari. Ularga relyef shakillari, daryo vodiylari, botiqlar, tekisliklar, muzliklar, g'orlar, suv omborlari va boshqa xo'jalik obyektlarining modellari kiradi; - yassi ko'rgazmali qo'llanmalar. Mazkur vositalarga qo'yidagilar kiradi: devoriy rasmlar, portretlar, diapositivlar, diafil'mlar, kinofi'lmlar, kinolavhalar, vidiotasmalar. Sharli belgilar yordamida geografik predmet va hodisalarни bayoni va tasviri (so'zli, belgili,

sonli). Mazkur vositalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: - verbal vositalar. Darsliklar, ma’lumotnomalar, matndagi jadvallar; - kartografik vositalar: kartalar, atamalar, karta-sxemalar, chiziqli kartalar, devoriy kartalar; - chizmali sxematik qo‘llanmalar. Ularga quyidagilar kiradi: tarkibiy sxemalar, masalan gidrosferaning tuzilishi, xalq xo‘jaligini tuzilishi; sinflashtirish sxemalari (tog’ jinslari, landshaftlar va h.k); tabiiy va iqtisodiy voqeа va hodisalarning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’siri; -chizmali statistik qo‘llanmalar; chizmalar, diagrammalar, jadvallar. Mazkur o‘quv vositalari geografik voqeа va hodisalarni fozoviy joylashishini va ularning tuzilishi va mohiyati haqida tasavvurlarni shakllantiradi. Tabiiy hodisalarni sodir bo‘lish jarayonini ko‘rsatish va tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan vositalarga quyidagilar kiradi: - joyda o‘lchash ishlari olib borish uchun zarur bo‘lgan jihozlar (ruletka, kompas, nivelir, teodolit); - tabiiy hodisalarni miqdoriy va sifat ko‘rsatgichlarini aniqlaydigan jihozlar (termometr, barometr); - kartometrik ishlarni olib borish uchun ishlatiladigan jihozlar (kurvaymetr, lineyka, transportir va h.k.); - Yerni sutkalik va yillik harakatini ko‘rsatadigan jihozlar (telluriy).

15.2. Geografik voqeа va hodisalarni tasvirlaydigan o‘quv vositalaridan foydalanish texnologiyasi

O‘quv vositalarini mazkur guruhi ikkiga bo‘linadi: hajmli o‘quv vositalari va geografik voqeа va xodisalarni tasviri. Ushbu ikki guruh geografik obyekt voqeа va hodisalarni tasvirlaydi. Hajmli o‘qitish vositalari bilan ishslash texnologiyasi. Geografiya darslarida hajmli o‘qitish vositalaridan ham foydalaniлади. Ularga modellar va maketlar kiradi. Modellar geografik voqeа va xodisalarni hamda obyektlarni uch o‘qli (hajmiy) tasviri xisoblanadi. Ular ma’lum bir masshtabda kichraytirilgan bo‘ladi yoki o‘z o‘lchamida tasvirlanadi. Ammo hajmli modellarda xatoliklarga ham yo‘l qo‘yiladi. Qurilishiga ko‘ra modellar quyidagi turlarga bo‘linadi: bo‘linmaydigan, bo‘linadigan, kesmali, ochilmali, statistik va faoliyatdagi. Geografiya darslarida Yer sharining modeli ko‘proq ishlatiladi. Barcha voqeа va ho disalarni modellarini o‘quv maqsadlarida yasash

maqsadga muvofiq emas. Masalan, vulkanni, geyzelarni, tog'larni, tsunami, sel, toranodolarni sodir bo'lishi modelini qurish maqsadga muvofiq emas. Chunki ular tabiiy jarayonlarning sodir bo'lishini aniq tasvirlay olmaydi. Ammo harakatdagi artezian qudug'ini modelini yasab o'quv jarayonida bemalol ishlatish mumkin. Dars jarayonida termometr, barometr, flyunger, kompas va boshqa asboblarni modellaridan ham foydalanish mumkin. Modellar yordam o'quvchilar ularni tuzilishini va ishlashini tesh o'rganib olishadi. Modellar yordamida kanallar, to'g'onlar va suv omborlari tuzilishi va ishlashini ham ko'rsatish mumkin. Geografiya ta'limida maketlar ham keng qo'llaniladi. Maketlar geografik obyektlar, voqeа va hodisalarning soddalashtirilgan nusxasi hisoblanadi. Ular tabiiy geografik hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografik maketlarga bo'linadi. Tabiiy geografik maketlarga landshaftlar, relyef, daryo vodiysi, tog'lar, chuqqilar, g'orlar maketlari kiradi. Yer yuzasi shakllarini o'rganishda relyef shakllari maketlari juda katta ahamiyatga ega. Relyef bo'yicha bilimlarni o'quvchilarni o'zlashtirishi juda qiyin kechadi, chunki relyef uchta o'lchamli hisoblanadi. Shuning uchun relyefni o'rganishda dalada olib borilgan kuzatishlar katta ahamiyatga ega. Joyda relyefni shakllanishini ko'ribgina qolmasdan balki o'rganilayotgan obyekt bevosita o'rganiladi, o'lchamlari aniqlanadi, har tomonlama o'rganiladi va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Relyef haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni oson yo'llaridan biri geografiya maydonida ularning shakllarini maketlarini yasashdir. Maketlardan foydalanib dars o'tganda o'qituvchi maketi hamma tomonini ko'rsatishi lozim, shundagina mazkur maketda tasvirlangan geografik obyekt yoki voqeа va xodisalar haqida o'quvchilar ongida to'la va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

15.3.Natural vositalardan foydalan ish texnologiyasi.

Geografiya darslarida o'qitishning samarasи o'quvchilarni tabiat va xo'jalik haqida bevosita olgan tasavvurlariga tayanadi. Shunning uchun geografik bilimlarni o'zlashtirishda natural vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Natural geografik vositalar ikkita katta guruhga bo'linadi: - bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan natural vositalar; -sinf sharoitida o'rganiladigan natural

vositalar. Bevosita tabiiy sharoitda o‘rganiladigan natural vositalarga geologik ochilmalar, relyef shakllari, tuproqlar, o‘simliklar, soylar, ko‘llar, qishloq xo‘jaligi ekinlari, sanoat korxonalari kiradi. Mazkur natural vositalar o‘quv sayohatlari davomida o‘rganiladi. Tabiiy va ishlab chiqarish obyektlarini tabiiy sharoitda bevosita o‘rganish yoki kuzatish boshqa o‘quv vositalarini o‘rganish uchun asos bo‘lib hisoblanadi (namunalar, gerbariyalar.). Tabiiy sharoitni va jarayonlarni kuzatish murakkab jarayon hisoblanadi. Kuzatish davomida o‘quvchilarga ma’lum vazifalar topshiriladi va ularni bajarilishini nazorat qilib turiladi va kuzatish natijalari qiyoslab beriladi. O‘quvchilar kuzatgan voqeа va hodisalarini qayd qilib borishlari lozim. Mazkur kuzatish natijalaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Tabiiy holda voqeа va hodisalarni kuzatish ko‘nikmalari dars jarayonida mashq qilish va rasmlarni kuzatish hamda statistik ekranli qo‘llanmalarini kuzatish asosida shakllantiriladi. Masalan, “Cho‘l tabiatи tasvirlari” dipozitivini ko‘rsatayotib o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘yidagicha savol berishi mumkin “Cho‘l relyef shakllarini hosil bo‘lishining sababi nimada? Cho‘l relyef shakllarining asosiy belgilari nimadan iborat?”. O‘quv sayohatlari davomida geografik obyektlarni kuzatish juda murakkab muammo hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi avval tashkiliy ishlarni amalga oshirmog‘i lozim. Buning uchun o‘quvchilarga o‘quv sayohatini maqsadi va vazifalarini tushuntiradi, sinf ma’lum bir guruahlarga bo‘ladi, har bir guruhgа topshiriq beriladi. Masalan, boshlang‘ich tabiiy goeografiya (V sinf) kursi bo‘yicha o‘quv sayohatiga chiqqanda quyidagi topshiriqlarni ifodalash mumkin. - geologik ochilmalarni tozalash va uni diqqat bilan ko‘zdan kechirish; - ochilmadagi qatlamlar sonini aniqlash. Qatlamlarni qalinligini o‘lchash; - qatlamlarni yotish holatini o‘rganish va ularni sabablarini aniqlash; - yotqiziqlar hosil bo‘lishi qanday sharoitda sodir bo‘lgan; - relyefni o‘zgarishiga qanday tashqi kuchlar ta’sir etadi; - tashqi kuchlarni relyefga ta’siri nimalarda ifodalangan. Mazkur topshiriqni bajarish o‘quvchilardan o‘ta kuzatuvchanlikni talab qiladi. Ular qatlamlarni chegaralarini, qatlamlarni joylanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni, qatlamlar tarkibidagi tog’ jinslarini o‘lchamlarini aniqlashlari lozim. Olib borilgan kuzatishlar natijasida o‘quvchilar

guruhi tog' jinslarini hosil bo'lishi, ularni to'planishi va yotishi haqida bilimlarni yaxshi o'zlashtirishlariga imkon beradi. O'quvchilarni natural obyektlarni kuzatishi o'qituvchilarning bevosita rahbarligida olib boriladi, ayrim hollarda kuzatish ishlarida o'qituvchilarni o'zi ham qatnashadi. Sinf sharoitida quyidagi natural obyektlarni kuzatish mumkin: a) tog' jinslari namunalari; b) tuproq namunalari; v) gerbariyalar; g) hayvonlarning qotirilgan tanalari (tulum va mulyaj); d) sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalari.

Nazorat savollari:

- 1.O'qitish vositalari deb nimaga aytiladi?
- 2.O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilishni qanday turlarini bilasiz?
3. O'qitish vositalari qanday turlarga bo'linadi?
4. Natural obektlarga nimalar kiradi?
5. Geografiya darsligi qanday o'qitish vositalari turiga kiradi?

16-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA'LIMDA TADQIQOT USULLARI

Tayanch so'zlar: uslub, vosita, og'zaki usul, tasviriy-ko 'rgazmali material, takroriy-umumlashtiruvchi, tasviriy-ko 'rgazmali materiallar.

16.1. Tadqiqot usullari va turlari

Umuman usul o'qitishning o'z oldidagi qo'ygan maqsadlariga e'rishish, ma'lum ob'ektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va faoliy angalatadi. O'qitish usuli deganda—ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga e'rishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Maktab ta'lim tizimida o'qitish bilan bir qatorda «uslub» va «vosita» terminllari xam ishlatiladi. Uslub-ma'lum o'quv materillarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim e'lementlaridan foydalanib ish ko'riladi. Vosita-ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun

zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materillari asbob, quroq apparatdan foydalanishdir. Ta’lim tizimida o‘quvchilarga bilim berishning e’ng qulay imkoniyatlariga asoslangan holda o‘qitish usullarini quyidagi turlarga bo‘lamiz.

- 1) O‘qitishning og’zaki usuli.
- 2) O‘qitishning ko‘rgazmali usuli.
- 3) O‘qitishning amaliy usuli.
- 4) O‘qitishning muammoli –izlanish va reproduktiv usuli.
- 5) O‘qitishning induktiv va deduktiv usullari.
- 6) Mustaqil ish usullari.
- 7) O‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini rag’batlantirish va asosiy usuli.
- 8) O‘qtishda nazorat va o‘z o‘zini nazorat qilish usuli.
- 9) Kitob bilan ishslash usuli.

O‘qitishning ko‘rgazmali usuli. Ta’limning ko‘rgazmali usuli Illyustratsiya va e’kskurtsiya tariqasida olib boriladi: maktablarda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali materiallar ikki turga bo‘linadi:

- 1) Asliche ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan narsalar: (o‘simgich, xayvon, asbob, mashina va boshqalar)
- 2) Tasviriy-ko‘rgazmali materiallar. Ular ham ikki turga bo‘linadi.
 - a) buyum va narsalar yoki voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar (rasm, fotosurat, vidofilm, kino va hakozo)
 - b) buyum va narsa, xodisa va voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalanadigan simvolik va sxematik tasviriy materiallar (kartalar, chizmalar, jadvallar, diogrammalar)
- 3) Ko‘rgazmali materiallarning turliligi ularning har xil qo‘llanishini talab qiladi.

Buyum va narsalarni tabiiy holda ko‘rsatishni ikki usulda namoyon qilish mumkin.

- a) O‘tilayotgan temaga oid badiiy ko‘rgazma materallarni o‘qituvchi bayon qilayotgan o‘quv materiali bilan bir vaqtida faqat o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilishi mumkin.

b)tabiiy-ko‘rgazmali materiallar soni yetarli bo‘lsa, ular har bir o‘quvchiga tarqatib beriladi.

2)Tasviriy ko‘rgazma materialining har ikkala turini xam ikki xil usulda olib borish mumkin.

a)ko‘rgazma materialini o‘qituvchi namoish qiladi.

b) ko‘rgazma materiallari o‘quvchilarga tarqatiladi.

E’kskursiya usuli. E’kskursiya ta’lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o‘rganilayotgan narsa va hodisalarini tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, kolxoz, sovxozi, tabiatni, muzey, ko‘rgazma va xakoza) ta’limiy sharoitda beriladi. Har qanday e’kskursiyadan so‘ng yakunlovchi dars o‘tkaziladi.

O‘qitishning amaliy usullari. Labaratoriya mashg’ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda, tajriba yer uchatskalarida olib boriladi. Bunday darslar asosan 9-11 sinflarda o‘tkaziladi. Mashg’ulotlarning xarakteriga qarab turlicha bo‘ladi.

1) O‘quvchilar bilan yoppasiga olib boriladigan darslar. Har bir o‘quvchi bilan alohida-alohida olib boriladigan darslar

Muammoli vaziyat yaratish usuli. Muammoli ta’lim deyilganda o‘quv materiallarini o‘quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o‘xshash bilish vazifalari va muommolari paydo bo‘ladigan qilib o‘rganish tushuniladi. Bunda ma’lumotlar masala tarzida beriladi. Nazariy va e’ksperimental vazifaning bo‘lishi o‘qitishning o‘z o‘zidan muammoli qilib qo‘ymaydi. Ishning moxiyati, O‘qituvchi va vazifalarga muommolik xarakterini qanchalik bera olishidadir. Vazifa quyidagi talablarni qondira olsagina shu masalaning tub mohiyatini bilish muommosiga aylanishi mumkin.

1) O‘quvchilar uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya’ni o‘rganilayotgan muammo utsida fikr yuritish.

2) O‘quvchilarga bilishga qiziqish uyg’otish.

3) Tahlil jarayonida o‘quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimlariga suyanish. Muammoli vaziyat fanning mazmunini, xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlari, uni o‘rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi.

16.2.Ta’lim jarayonida o‘quvchini rag’batlantirish va tanbeh berish usullari.

O‘quv faoliyatini rag’batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo‘lgan tashqi mayliga aytiladi. Rag’batlantirish va tanbeh berish usullari o‘ziga xos xususiyatlarga e’ga.

- baxo bilan Rag’batlantirish
- baxosini pasaytirish
- kundalikka yozish
- xatolarini ko‘rsatish
- koyish – bu ilojsiz kolgandagina chora
- so‘kish (yomon gaplar bilan) urish mumkin e’mas

Ta’limni tashkil e’tish vakillari.Respublikamizda Xalq ta’limi oldiga qo‘ygan talab va ehtiyojlardan kelib chiqkan holda maktab ta’limini tashkil qilishning yangi-yangi vakillari yaratilmokda.

Sinf-bu yoshi va bilimi jixatidan bir xil ma’lum miqdordagi o‘quvchilar guruhi.

Dars-deb bevosita o‘quvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib borilgan ta’lim mashg’ulotiga aytiladi.

Dars o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

Hozirgi maktablarimizda qo‘llanayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi.

- 1) Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo‘ladi.
- 2) Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

3) Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

Hozirgi kunda ta’lim shakli ikki turda olib borilmoqda.

- 1) Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg’ulotlar
- 2) Amaliy va mashg’ulot tajriba shaklida olib boriladigan mashg’ulotlar (sinfdan tashqari) utsaxona va uchatskada va boshqalar.

Darsda bo‘lgan talablar. Darslar quyidagi umumiylidik didaktiv talablarga javob berishi kerak.

- 1) Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta reja asosida bo‘lmog’i lozim.
- 2) Har bir dars mutsahkam g’oyaviy-siyosiy yo‘nalishga ega bo‘lmog’i kerak.
- 3) Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog’langan bo‘lmog’i kerak
- 4) Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan foydalanilgan bo‘lmog’i kerak
- 5) Darsga ajratilgan vaqtidan tejamli foydalanish kerak
- 6) Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchilarining faolligi bilan ta’minlanishi lozim.
- 7) Ko‘rsatmali qurollar bo‘lmog’i lozim.
- 8) Dars umumiylidik barcha o‘quvchilarga olib borilishi bilan birga har bir o‘qituvchi o‘ziga xosligi hisobga olinishi kerak.
- 9) Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosidan keng foydalanish lozim.

16.3. Sinf dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi.

O‘qituvchi o‘zining aniq sharoitlari va imkoniyatlari eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonnni boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo‘l qo‘ymaydi.

Darsga bo‘lgan talablar. Dars, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarmas shakli emas. O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi, bu sohada turli xil ko‘rik-tanlovlar, respublika miqyosida o‘tkazilayotgan pedagogik o‘qishlarda o‘rtaga qo‘yilayotgan ilg’or o‘qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiylidik didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejallashtirilgan bo‘lmog’i lozim.
2. Har bir dars mustahkam g’oyaviy-siyosiy yo‘nalishga ega bo‘lmog’i lozim.
3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog’langan bo‘lmog’i lozim.
4. Har bir dars xilma-xil usul, metod va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog’i lozim.
5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.
6. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faolligi birligini ta’minlamog’i lozim.
7. Darsda o‘quv materiallarining mazmuniga oid ko‘rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.
8. Dars mashg’ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o‘quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.
9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizining boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan fondalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi. Bir soatlik darsga mo‘ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg’ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O‘tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo‘llanish).

Har bir dars turining ma’lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o‘qituvchining o‘quv materialini to‘g’ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Bir soatlik darsga mo‘ljallangan datsur materiallarining mazmunini bayon e’tish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg’ulot turi dars turi deyiladi.

Quyidagi dars turlari mavjud.

- 1) Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- 2) O‘tilgan materiallarni mutsahkamlash darsi.
- 3) O‘quvchining bilim malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi
- 4) Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darsi.
- 5) Aralash dars(yuqoridagi bir nechasi aralashdir)
maktablarda e’ng ko‘p qo‘llanadigan dars turi-bu yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagilarga bo‘linadi.
 - a) yangi bilimlarni bayon qilish
 - b) yangi bilimlarni mustahkamlash
 - v) yangi bilimlar ustida mashq qilish
 - g) yangi bilimlarga bog’lik holda uy vazifalarini topshirish

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o‘zgarishi dars deb yurtildi.

Masalan: Aralash dars turining tuzilishi!

- 1) uy vazifalarini surash tekshirib ko‘rish
- 2) yangi materiallarni bayon qilish
- 3) yangi materiallarni mustahkamlash
- 4) uy vazifalarini topshirish

Nazorat savollari:

1. Qanday dars turlari mavjud?
2. Darsga bo‘lgan talablar qanday?
3. Hozirgi kunda ta’lim shakli qanday turda olib borilmoqda?
4. O‘qitishning amaliy usullari?
5. Aralash dars turining tuzilishi?
6. Rag’batlantirish va tanbex berish usullari qanday xususiyatlarga ega?

17-MAVZU: GEOGRAFIK MAYDONCHA VA UNI JIHOZLASH

Tayanch so‘zlar: *ochiq sinf sektor, maksimal termometr, ekspozitsion devor, azimutal stolcha, vild flyugeri, o‘quv vositalari saqlanadigan zona,*

17.1. Geografik maydonchaning o‘quv jarayonidagi ahamiyati

Geografiya xonasi tegishli o‘quv vositalari, ko‘rgazma quollar, texnika vositalari, mebel va mavzuli jihatdan bezatilgan, ta’lim va tarbiyani hamkorlikda tashkil etishga imkon beradigan maxsus xonadir. Mashhur geograf-olim N.N.Baranskiy ta’rif berganidek: «Geografiya xonasi dars va darsdan tashqari o‘tkaziladigan barcha geografiyaga oid ishlar markazidir».

Maktabda geografiya xonasi, uni jihozlash tajribasi geografiya o‘qitish metodikasi fani sohasida xizmat qilgan olimlar tomonidan asoslab berilgan. Geografiya o‘quv xonasini jihozlash yuzasidan E.Yu.Petri, V.P.Budanov, A.A.Bozorov, A.S.Barkov, N.N.Barnskiy, V.A.Korinskaya, A.B.Darinskiy, I.S.Matusov, N.V.Semakin, L.I.Barinova singari olim metodistlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ilg‘or geografiya o‘qituvchilarining bu sohadagi ish tajribalari ham maktab geografiya xonasini jihozlashda katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib zamonaviy geografiya xonasini jihozlashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilish lozim:

1. Zamonaviy geografiya xonasi O'zbekiston xalq ta'lifi vazirligi ishlab chiqqan namunaviy jihozlar ro'yxatida ko'zda tutilgan barcha geografiya faniga oid o'quv vositalari bilan jihozlanmog'i kerak.

2. Geografiya xonasi o'quv texnika vositalari bilan jihozlanmog'i kerak.

3. Geografiya xonasi siyosiy, ilmiy-ammabop, metodik va o'z o'lkasiga oid adabiyotlar o'quv darsliklari, geografiya atlasi, yozuvlari, xaritalar, metodik va geografik mavzudagi jurnallardan iborat kutubxonasiga ega bo'lishi lozim.

4. Geografiya xonasida o'lka tabiatiga doir o'quvchilar tomonidan tayyorlangan, natural va ko'rgazma qurollar bir necha muddatda asrab qolinadi.

5. Geografiya xonasi faoliyatini to'g'ri tashkil etishda, kartotekalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan mavzuli albomlar, ma'ruza axborot, referatlar geografiya xonasida markazlashtirilishi va amalda ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

7. Bevosita tabiatda kuzatish olib borishga mo'ljallangan o'lchov asboblarida geografiya xonasida markazlashtirilgan.

8. Maktab geografiya xonasini jihozlashni nimadan boshlash kerak? Bu savolga javob berishda ilg'or pedagogik tajriba va ilmiy metodik adabiyotlarga suyanib xonani jihozlash bir necha bosqichda olib boriladi.

Geografiya xonasini jihozlash bosqichlari.

1. Geografiya xonasining yuzasini o'lhash. Hozirgi metodik adabiyotlarda geografiya xonasining yuzasi $50-60\text{ m}^2$ bo'lishi ko'zda tutilgan. Maktab ma'muriyati geografiya xonasi uchun ajratgan xona shunga ega bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuning uchun, geografiya xonasida mebel va boshqa o'quv vositalarini joylashtirishni hisobga olish uchun o'qituvchi dastlab xona yuzasini hisoblab chiqish shart.

2. Xonada o'quv vositalari va mebellarni joylashtirish rejasini tuzib olishi kerak. Geografiya xonasini mazmuniga ko'ra 4 ta asosiy funksional boqichga ajratiladi.

a) o'qituvchining ish joyi

- b) o‘quvchining ish joylari.
- v) o‘quv vositalari saqlanadigan zona
- g) ekspozitsion ashyolarni namoyish etuvchi zona.

3. Xonada mavjud o‘quv vositalari, ya’ni tablitsa, karta, o‘lchov asboblari, adabiyotlar va boshqa barcha vositalar aniq hisobga olinadi va shu asosda xonaning pasporti tuziladi.

4. Geografiya xonasini jihozlashning uzoq yillarga mo‘ljallangan istiqbolli reja tuziladi.

Geografiya xonasining rejasini tuzish.

Xonaning rejası deganda xona devorlarini jihozlash va bu jihozlarni joylashuv tartibi tushiniladi.

Olidingi devorning jihozlanishi. Olidingi devorda sinf doskasi, doska ustida sharq allomalaridan birining portreti va geografiya faniga doir shiorlar, doskaning yorug‘lik tushib turadigan tomonida karta osuvchi moslama doskaning yorug‘lik tushib turmaydigan tomonida 5-9 sinf o‘quvchilari uchun barcha geografiya kurslariga oid «Asosiy geografik tushunchalar» stendi joylashtiriladi. Doskaning pastki qismida 90x85 sm² hajmli tablitsalar saqlanadigan quttilar 5 ta qo‘yilishi zarurdir.

Yon ekspozitsion devor: Yon devorni uch asosiy qavatga bo‘lib jihozlash maqsadga muvofiqdir. Eng pastki qavatda balanligi 1 metrgacha yerdan baland bo‘limgan vitrina tashkil etildi. Bu vitrina o‘quvchilar qo‘lida tayyorlangan albomlar, ekskursiyalar davomida yig‘ilgan kolleksiyalardan namunalar, o‘quvchilar yozgan ma’ruzalar, referatlar va kundaliklar, kartosxemalar va diagrammalardan namunalar qo‘yiladi.

O‘rta qavatda ekspozitsion stendlar joylashtirilib unda 90x120 sm o‘lchamdagи 4-5 ta mavzuli stendlar o‘rnataladi.

Ekspozitsion-stendlar mavzusi.

1. Yer haqidagi umumiy ma’lumotlar.
2. Geografik yilnomasi.
3. O‘lka tabiatni ko‘z qorachig‘iday asraymiz.

4. O‘zbekiston-sharq durdonasi
5. Materiallar va okeanlar bo‘ylab
6. Geografiya va kosmos.

Stendlar mavzusi jihatdan mazmunan rang-baran bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqori qavatda buyuk goegraf olimlar portretlari joylashtirildi.

Orqa devorning johozi.

Orqa devorning jihozlanishi xususida metodist-olimlar, o‘qituvchilar turlicha fikr bildiradilar. Birinchi guruh olim-metodist va o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra xonaning orqa devorida shkaflar joylashtirilib unda dars davomida zarur bo‘limgan barcha o‘quv vositalari, texnika vositalari joylashtiriladi.

Ikkinci guruh olimlar, metodist va o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra geografiya xonasining orqa devorida chiroyli tabiat manzarasi tasvirlanishi kerak. Chunki bu geografiya xonasida shug‘ullanayotgan o‘quvchilarga estetik zavq bag‘ishlaydi deb hisoblaydilar.

Uchunchi guruh metodist, olim va o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra xonaning orqa devori o‘quvchilarning mustaqil harakat zonasi bo‘lishi kerak, ya’ni u yerda mavzuli kartalar joylashtirilib tanaffus paytida, to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar bu kartalar bilan ishlashi lozim deb hisoblaydilar. Devorni jihozlash haqidagi olim, metodist va tajribali o‘qituvchilar bildirgan har uchala fikr ham o‘ziga yarasha ajobiy xususiyatlarga ega. Shuning uchun geografiya o‘qituvchisi maktab sharoitini hisobga olib bu masalaga yondashuvi lozim.

Geografiya xonasining mebellari.

O‘qituvchining ish stoli: Geografiya o‘qituvchisining xonasida ma’lum darajada unumli faoliyatini tashkil etish uchun har tomonlama qulayliklarga ega bo‘lgan mebellar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchining faoliyat zonasi, sinf doskasi, pult bilan boshqaruvchi maxsus moslama va boshqa demonstratsion materiallarni ko‘rsatishga moslashtirilgan bo‘limg‘i zarur.

Geografiya xonasida o‘qituvchining ish stoli asosiy uch qismdan iborat:

1. Namoyish qilinadigan stol. GOST 18313-73. Bu stol oldida o‘qituvchi asosan tik turgan holatda faoliyat ko‘rsatadi. Katta yoshdagi kishining antropogen xususiyatlarini hisobga olagan holatda bu stolning xona yuzasidan balandligi 900 mm, stol yuzasi 1200x750 mm ni tashkil etadi. Demonstratsion stolda markazlashtirilgan pult o‘rnataladi. U orqali geografiya kabinetidagi ekran moslamalar, qora parda va boshqa texnika vositalari bir joydan turib boshqariladi. Namoyish stolidan chap tomonda grafoproektor o‘rnatilgan ikkinchi moslama. Ya’ni uning balandligi xona yuzasidan 600 mm balandda joylashtiriladi. O‘qituvchining ish stoli yonida o‘qituvchi o‘tirib ishlaydagan alohida stol joylashtiriladi. Bu stol o‘qituvchining antropogen xususiyatlarini hisobga olgani holida xona yuzasida 750 mm blandlikda bo‘lib, yuzasi 750x760 mm ni ya’ni GOST 18607-73 mos kelishi zarur.

Umuman olaganda o‘qituvchining ish stoli sinf doskasidan 1000-1200 mm va o‘quvchilarning ish stolidan 600 mm masofada turishi, xonada sanitar gigienik xususiyatlarga mos kelishi katta ahamiyatga ega. Geografiya xonasida qo‘yiladigan sinf doskasi, kartosxemalar chizishga va turli tuman ishlarni bajarishga qaratilgan. Shuning uchun geografiya xonasidagi sinf doskasi GOST 20064-74 talablariga mos kelmog‘i ayniqsa zarur. Bunday doska ikkita harakat qiladigan qismdan iborat bo‘lib ularning o‘lchovlari 1800 x 1105x100 mm va ikkita 900x1020 mm li qismlardan iborat. Doskaning ostki qismida turli mavzudagi tablitsalarini saqlashga xizmat qiluvchi 960x880x200 mm (indeksi ON I-549136) ga mos keluvchi quttilar bo‘lishi lozim. Bunday o‘lchovdagi to‘rtta quttini sinf doskasi ostida joylashtiriladi.

17.2. Maktab geografiya – o‘lkashunoslik muzeyi va uni jihozlash

Geografiya ta’limining asosiy tamoyillaridan biri o‘lkashunoslik tamoyilidir. O‘lka materiallaridan foydalanish samarador-usullaridan biri maktabda o‘lkashunoslik materiallaridan unumli foydalanish imkonini beruvchi o‘lkashunoslik muzeyidir.

Maktab o‘lkashunoslik muzeyi haqidagi nizom 1995-yil 19 avgustda tasdiqlangan. Bu nizomga muvofiq barcha maktablarda o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etishni shart etib qo‘yadi.

Maktab sharoitiga qarab, o‘lkashunoslik muzeyi alohida xonaga joylashtirilishi yoxud maktab zallardan biri o‘lkashunoslik muzeyi sifatida foydalanish mumkin. O‘lkashunoslik muzeyida eksponatlar ma’lumotlar muayyan tartibda joylashtirilmog‘i, maktab geografiya programmasi mazmuniga mos tarzda tuzilganligi alohida ahamiyatga ega. Maktab o‘lkashunoslik muzeyida ekspozitsiyalar quyidagi tartibda joylashtirilmog‘i kerak.

1. Tabiiy geografik bo‘lim:

- a) o‘lkaning geografi o‘rni, chegaralari, maydoni
- b) geologik tuzilishi va relefi
- v)o‘lkaning foydali qazilmalari
- g) ichki suvlari
- d) iqlimi va yil davomida iqlimning o‘zgarishi
- y) o‘simlik va hayvonot olami
- j) o‘lka tabiatini muhofaza qilinishi

2. Iqtisodiy-geografik bo‘lim.

- a) o‘lka sanoati va uning ixtisoslashgan asosiy tarmoqlari
- b) o‘lka qishloq xo‘jaligi va uning asosiy ixtisoslashgan tarmog‘i
- v) o‘lka transporti, uning sostavi
- g) o‘lka xalq xo‘jaligining rivojlanish istiqbollari

3. O‘lka aholisi bo‘limi:

- a) aholi soni va zichligi
- b) aholining milliy, yosh jinsiy strukturasi
- v) mehnat resurslari
- g) aholining asosiy xo‘jalik faoliyati
- d) aholi madaniyati va turmush tarzi.

O‘lkashunoslik muzeyini tashkil etishdan oldin, maktabda yosh o‘lkashunoslari to‘garagi a’zolari tomonidan bir necha yil davomida to‘plangan materiallarni tartibga solish, o‘quvchilar yig‘gan har bir eksponatni nomerlash va bu eksponatlarni ma’lum ro‘yxatga kiritish va ularni temalarga muvofiq ravishda muayyan sistemaga solish ayniqsa zarurdir. O‘lkashunoslik muzeyida ishlarni to‘g‘ri tashkil etishda, muzey raxbari (geografiya o‘qituvchisi) bosh saqlovchi yuqori sinf o‘quvchisi 3-5 kishidan iborat muzey kengashi tuzilishi lozim.

17.3. Maktab geografiya maydonchasi, uni jihozlash tartibi va unda olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlari

Geografik maydoncha amaliy ishlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, maktabda uning ikki xilini tashkil etish mumkin:

1. Maksimal variantdagi geografik maydoncha (yuzasi 12mx25m);
2. Minimal variantdagi geografik maydoncha (yuzasi 12mx12m).

Geografik maydonchani tashkil etishdan oldin maxsus joy tanlanadi. Binolar, daraxtlar to‘sib turmagan ochiq yuza bo‘lishi lozim.

Maydonchani tashkil etishdan avval tush chizig‘i o‘tkaziladi, gnomon tayoqchasining tush vaqt(soat 12⁰⁰)da soyasi tushgan tomon tush chizig‘i deyiladi. Tush chizig‘i maydonchani shimoldan janubga teng 2 ga bo‘lib turishi kerak. Tush chizig‘ini ustida ayrim geografik asboblarni o‘rnatish talab etiladi.

1. Gnomon tayoqchasi. Uning balandligi 120 sm.ga teng bo‘ladi, vazifasi joyidagi meridian chizig‘ini aniqlash.

2. Vild flyugeri. Vazifasi shamolni kuchini, yo‘nalishini aniqlash, balandligi 8-10 m bo‘ladi. Bofort shkalasi yordamida shamol kuchi 12 balli sistemada aniqlanadi.

3. Azimutal stolcha tush chizig‘ini ustida joylashtirilib, joydagi ob’ektlarni azimutini aniqlashga xizmat qiladi, balandligi 120sm bo‘lgan maxsus taglikka o‘rnatilgan doira va uning markazida o‘tkazilgan, o‘z o‘qi atrofidan aylana oladigan chizg‘ichdan iborat.

4. Maydonchaning eng shimolida, tush chizig‘i ustida qutb yulduzi ko‘rsatgichi o‘rnataladi. Vazifasi joydagi geografik kenglikni aniqlash. 120 sm balanlikdagi asosga o‘rnatalgan, o‘z o‘qi atrofidan aylana oladigan truba va unga mustahkamlangan gradus o‘lchagich (transportir)dan iborat. Asos va truba markazidan pastga qarab shoqul o‘rnatalgan.

Geografik maydoncha asosan 4 bo‘limdan iborat:

1. Meteorologik sektor – maydonchaning janubi – sharqiy qismida joylashtirilib, unda quyidagi o‘lchov asboblari joylashtiriladi:

a) Meteorologik budka – osti yer yuzidan 2 m balandda joylashtirilgan, eshigi janubga ochiladigan, havo harorati, namligi, bosim va boshqa iqlim ko‘rsatgichlarini o‘lchovchi asbob. Ichiga termometr, gigrometr, barometr, aneroid kabi asboblар joylashtiriladi.

b) Yomg‘ir o‘lchagich (dojdomer). Ostki qismi yerdan 2 m balandda bo‘ladi. Doira yuzasi 500 sm^2 , 16-24 parraklardan iborat ichma – ich joylashgan 2 ta silindr dan iborat.

v) Tuproq termometrlari 3 xil bo‘lib shimoldan janubga qarab, oralig‘i 10sm dan qilib, quyidagi tartibda joylashtiriladi:

- tez ko‘rsatuvchi termometr (bu shimolda o‘rnataladi)yer yuzasidagi haroratni ko‘rsatadi;
- maksimal termometr – 10sm chuqurlikdagi haroratni ko‘rsatadi;
- minimal termometr – 5sm chuqurlikdagi haroratni ko‘rsatadi;

g) Qor o‘lchagich reyka balandligi 120sm ga teng, sm.larga bo‘lingan.

2. Astronomik sektor - geografik maydonchaning shimoliy – sharqiy yo‘nalishida joylashtirilib, osmoniy jismlar bilan bog‘liq bo‘lgan geografik hodisa va jarayonlarni o‘rganishga xizmat qiladi. Unda quyidagi o‘lchov asboblari joylashtiriladi:

a) Quyosh soati. Uning 2 xili bor:

- ekvatorial quyosh soati – doira, uning ustida – markazida 25sm.li tayoqcha o‘rnataladi. Tayoqcha quyosh nurining tushishiga qarab vaqt ni belgilashga xizmat qiladi.

- Kenglik quyosh soati 2 ta 30sm x 30sm.li fanera bo‘lagidan iborat bo‘lib, bu faneraning biri asos vazifasini, ikkinchisi ma’lum burchakni aniqlash vazifasini bajaradi. Yuzadagi faneraga soat sferblogi o‘rnataladi va markaziga 25sm. uzunlikdagi tayoqcha qo‘yiladi. Ikkita fanera birlashgan joydagi burchak joy kengligiga teng bo‘lishi kerak soatning o‘tkir burchagi shimoliy yarim sharda janubga qarab, janubiy yarim sharda shimolga qarab turishi kerak.

b) Nefiskop – havoning bulutlilik darajasini aniqlaydi. Balandligi 2m bo‘lgan 2ta yarim shar shaklidagi simning aylana simga o‘rnatalishidan hosil bo‘ladi.

3. Topografik sektor – bu sektordan tog‘, vodiy, vulkan va boshqa relef shakillarini tosh va sement qorishmasidan tayyorlanib, tegishli ranglarga bo‘yalgan maketi joy oladi.

4. Ochiq sind sektori – bunda partalar va doska qo‘yiladi.

Geografik maydonchada mashg‘ulotlar 15 minutdan 45 minutgacha davom etishi mumkin.

Maydonchada sind o‘quvchilarini 4-5 kishilik guruhlarga ajratib, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Geografiya xonasida deraza oldida ham geografik maydoncha tashkil qilish mumkin. Bunda termometr, gigrometr, barometr, aneroid va grammlı sut shisha, voronka qo‘yiladi.

Nazorat savollari:

1. Geografiya xonasi qanday asosiy talablarga rioya qilish lozim?
2. Nefiskop – nimani aniqlaydi?
3. Quyosh soatining necha xili bor?
4. Geografiya xonasini jihozlash bosqichlari?
5. Ekspozitsion-stendlar mavzusi nima?
6. Geografiya xonasida o‘qituvchining ish stoli asosiy nechi qismidan iborat?
7. O‘lka aholisi bo‘limi necha punktdan iborat?

18-MAVZU: ZAMONAVIY GEOGRAFIYA XONASI

Tayanch so‘zlar: *geografiya kabineti, o‘quv vositalari, o‘quv jihozи, fakultativ mashg’ulot, amaliy mashg’ulot, sinfdan tashqari ishlar, geografiya to‘garagi, sinf taxtasi, kartoteka.*

18.1. Geografiya xonasining o‘quv jarayonidagi o‘rni

Geografik bilimlarni o‘zlashtirishda geografiya xonasi va unda joylashgan jihozlar katta ahamiyatga ega. Geografiya xonasi mavjud bo‘lgandagina tegishli o‘quv vositalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Geografiya xonasi o‘quv vositalari majmuasini, mebellar, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun moslamalar, o‘quv jihozlarini saqlash qurilmalari, texnik vositalar, ekspozitsion materiallar, ilmiy-metodik qo‘llanmalardan iborat murakkab tuzum bo‘lib hisoblanadi. Geografiya xonasini uch qismga bo‘lishimiz mumkin: a) o‘quvchilarni joyi; b) o‘qituvchini joyi; v) jihozlar. O‘quvchilarni ish joyi. Geografiya xonasida o‘quvchilarni ish joyi ikki o‘rindiqli stol va stuldir. Ular yog’ochdan yoki temirdan qilingan bo‘lishi mumkin. Bu yerda asosiy antropometrik talab, stol va stullarning balandligi o‘quvchilar bo‘yiga mos kelishi lozim. O‘quvchilar stollarini joylashtirayotganda umumiyligi gigienik talablarga amal qilish lozim. Stol va stullarni uch qator qilib joylashtirgan ma’qul. Ular sinf taxtasidan 2 m uzoqlikda joylashishi zarur. Deraza va stollar hamda stullar qatori oralig’idagi masofa 60 sm dan kam bo‘lmasligi lozim. Oxirgi qatoragi stullar bilan shkaflar orasida o‘tish uchum masofa bo‘lmog’i lozim. O‘quvchilar stollarda bo‘yiga qarab o‘tirishi lozim. Geografiya xonasida o‘qituvchilarni ish joyi. O‘qituvchi odatda o‘rta qatorni boshida joylashadi. Uning ish joyi o‘quv vositalarini namoyish qiladigan joy hisoblanadi. O‘qituvchi o‘tirgan joydan sinfni hamma tomoni va sinfdagi barcha o‘quvchilar ko‘rinib turishi lozim. O‘qituvchini ish joyi quyidagi talablarga javob bermog’i lozim: 1. Sinfni barcha tomoni hamda barcha o‘quvchilar o‘qituvchi nazoratidan chetda qolmasligi lozim. 2. O‘qituvchini stoli yonida o‘quv vositalarini namoyish qiladigan yoki ulardan foydalaniladigan moslamalar bo‘lmog’i lozim; 3.

Geografiya darslarida ko‘p hollarda asosiy o‘quv vositasi sifatida haritadan foydalanilganligi uchun kartografik vositalarni namoish qiladigan moslamalar bo‘lishi e’tibordan qochmasligi lozim. O‘quv vositalarini namoyish qiladigan stolni balandligi 90 sm dan oshmasligi lozim, uning yuzasi esa 120x75 bo‘lishi zarur. Namoyish stolida proekcion apparatlarni, deraza pardalarini, haritalarni tushuntirib va ko‘taradigan boshqaruv pultini joylashtirish mumkin. Namoyish stoli bilan birga o‘qituvchi stoli ham bo‘lmog’i lozim. Unda o‘qituvchini kitoblari, daftarlari, darsga oid materiallar va sinf jurnali joylashadi. Mazkur joyda o‘qituvchi o‘tirib ishlaydi. Stolning baladligi 75 sm, yuzasi 75x76 sm bo‘lmog’i lozim. Geografiya xonasidagi sinf taxtasi o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan turli o‘quv maqsadlarda foydalaniladi, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

- yozish uchun;
- chizish uchun;
- chizmalarni, diagrammalarni, xomaki haritalarni chizish uchun;
- jadvallarni, rasmlarni joylashtirish uchun;
- ekranli qo‘llanmalarini namoishi uchun;
- o‘qituvchi tomonidan topshiriqlar yozish;
- o‘qituvchi tomonidan dars mavzusi rejasini yozish uchun.

Sinf taxtalarining o‘lchamlari quyidagicha bo‘lmog’i lozim: 180x1105 sm jadvallar va rasmlarni saqlash uchun yasalgan sandiqlarni o‘qituvchiga yaqin joylashtirilgani maql. Geografiya xonasida o‘quv vositalarini joylash o‘quv dasturi bo‘limlari va sinflar bo‘yicha bo‘lishi lozim. Buning uchun bo‘limli shkaflardan foydalaniladi. Mazkur shkaflar olinadigan va qo‘yiladigan tokchalardan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari jihozlarni saqlash uchun ham sandiqlar bo‘lishi lozim. SHkaflarda kitoblar, jurnallar, audio, video qo‘llanmalar saqlanadi. Geografiya o‘qitishni texnika vositalarini saqlash va ulardan foydalanish uchun moslamalar bo‘lmog’i lozim. Masalan, diaproektorlar, kinoproektorlar, grofoproektorlar (plyonkalar bilan ishslash uchun). Geografiya xonasida turli xil yo‘nalishdagi kartotekalar albatta bo‘lmog’i lozim. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

- o‘qituvchilarni darsga tayyorgarlik kartotekasi.
- Unda dars mavzusi, mazmuni, o‘qitish metodlari va usullari, vositalari, dars rejasи yozilgan bo‘ladi;
- o‘quv jihozlari kartotekasi;
- mavzular bo‘yicha masala va mashqlar kartotekasi;
- yozma ishlar kartotekasi;
- mavzuli kartotekalar;
- qo‘srimcha adabiyotlar kartotekasi;
- jurnallar va gazetalar kartotekasi;
- davlatlar

kartotekasi. Ma'lum bir mavzuga muammolar tayyorlash jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan uyg'unlashgan xolda foydalanishni ko'zda tutilsa maqsadga muofiq bo'ladi. Matnli ma'lumotlar rasmlar, chizmalar va diagrammalar bilan boyitilgan bo'lmog'i lozim.

18.2 O'qituvchini geografiya xonasida olib boradigan tashkiliy xo'jalik ishlari

Geografiya xonasi o'quvchilarni bilim olish faoliyatini samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun geografiya xonasini tashkil qilishga katta ahamiyat berilmog'i lozim. O'qituvchilarni geografiya xonasida qiladigan ishlari quyidagi bosqichlardan iborat: Birinchi bosqich. O'qituvchi geografiya xonasini qabul qilib oladi. Xonani qabul qilib olgandan so'ng o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi: -kabinetdagi mavjud bo'lgan o'quv jihozlari ro'yxatini tuzadi. O'quv jihozlariga: mebellar, barcha o'quv vositalarini namoyish qilish va saqlash moslamalari kiradi. Buning uchun barcha ishga yaroqli bo'lgan o'quv jihozlarini ro'yxati tuziladi. Shu bilan birga ishga yaroqsiz ta'imrlash lozim bo'lgan o'quv jihozlari ro'yxati ham tuziladi. O'quv xonasida mavjud o'quv jihozlari optimal xona jihozlari bilan solishtiriladi va xonaning jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi. Ikkinchi bosqich. Mazkur bosqichda barcha o'quv jihozlari ularga ajratilgan joylarga o'rnatiladi. O'qituvchi va o'quvchining ish joyi tashkil qilinadi. O'quv vositalari saqlanadigan joy aniqlanadi va ular o'qitishni texnik vositalari va geografik haritalardan foydalanish uchun moslamalar bilan jihozlanadi. So'ngra quyidagi ishlar amalga oshiriladi: -geografiya xonasini qayta jihozlash, namoyish stendlari uchun materiallar toplash, o'lkashunoslik materialini yig'ish bo'yicha ishlar rejasi tuziladi; -o'lkashunoslik burchagini va muzeyini jihozlash rejasi tuziladi. Unda o'lka tabiiy va iqtisodiy sharoiti tarkibiy qismlari namunalari, modellari va maketlari joylashtiriladi. Masalan, tog' jinslari namunalari, qishloq yoki shahar modeli, qishloq xo'jalik yoki sanoat mahsulotlari namunalari; -geografik maydonchani jihozlash rejasi tuziladi; -geografiya xonalaridagi barcha jihozlar, asbob-uskunalar ro'yxati tuziladi. Uchinchi bosqichda

va geografiya xonasini keyingi faoliyati davomida yetmayotgan jihozlar to‘ldiriladi, eskilari yangilanadi, yangi jihozlar chiqqan bo‘lsa ular olinadi va o‘rnataladi. Kutubxona yangi adabiyotlar bilan boyitib boriladi. Bir vaqtning o‘zida geografiya xonalaridagi barcha o‘quv jihozlari tartibga tushiriladi va katalogi tuziladi. O‘lkashunoslik burchagi yoki muzeyi hamda geografiya maydonchasi jihozlanadi. Mazkur ishlarni barchasini geografiya o‘qituvchisi o‘zining xo‘jalik-tashkliy faoliyati davomida bajaradi va uning muhim pedagogik faoliyatiga kiradi. Geografiya xonasi jihozlanish darajasi o‘quvchilarni bilish faoliyatini samarasini belgilab beradi. Shuning uchun geografiya xonasini jihozlash bo‘yicha o‘qituvchi aniq rejani ishlab chiqmog’i lozim.

18.3. Geografiya xonasidan o‘quv va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish.

Hozirgi vaqtda geografiya xonasidan samarali foydalanish muammosi hamon dolzarb muammolardan bo‘lib turibdi. Chunki geografiya xonasidagi ayrim o‘quv vositalari umuman yil davomida foydalanilmaydi, ayrimlaridan, masalan, geografik haritalar muntazam foydalaniladi. Geografiya xonasida joylashgan barcha o‘quv vositalaridan dars jarayonida samarali foydalanish uchun ularni ta’lim jarayonida bir nechtasidan uyg’unlikda foydalanish zarurligini geograf-metodist olimlar takidlاب o‘tishgan (Yu.G. Barishova 1983 y). Dars jarayonida o‘quv vositalaridan uyg’unlikda foydalanish quyidagi samaralarni beradi: - geografik obyekt, voqeа va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Masalan, tabiiy obyektlar, audiovizual va ko‘rgazmali vositalar; - yangi darsni tushunishga va yangi tushunchalarни shakllantirishga imkon beradi. Masalan, chizmalar, haritalar, modellar; - olingan bilimlarni amalda qo‘llashni taminlaydi. Masalan, ma’lumotnomalar, turli xil topshiriqlarni yechish uchun tayyorlangan tarqatma materiallar, yozuvsiz haritalar, test topshiriqlari, yozma topshiriqlar. O‘quv jihozlari majmualari yoki ularning ayrim qismlari (tarkiblari)dan dars jarayonining turli qismlarida foydalanish mumkin (takrorlashda, yangi mavzuni o‘rganishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda).

Bevosita darslardan tashqari geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni, geografiya to‘garagi mashg’ulotlarini o‘tkazishda, o‘lkashunoslik va boshqa ishlarni olib borishda ham foydalanish mumkin. Geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Geografiya xonasi jihozlaridan foydalanib o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida geografik kechalar, sayohatlar, ekursiyalar, tanlovlardan rejalarini tuzishlari mumkin. O‘quvchilar geografik borliq, voqealarni modellashtirish, ularni xomaki materiallarini yasash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi, texnik o‘quv vositalaridan foydalanish malakalariga ega bo‘lishadi. Geografiya xonasidagi kutubxonadan foydalanib o‘quvchilar sinfdan tashqari mutoala bilan ham shug’ullanishlari mumkin. Geografiya xonasidagi kutubxonalarda adabiyotlar quyidagi yo‘nalishlarda saqlanadi: ilmiy-geografik, ilmiy-fantastik, ilmiy-ommabop, sarguzasht va badiiy adabiyotlar. Geografiya xonasiga keladigan kitoblar mavzular, bo‘limlar, kurslar bo‘yicha guruhlashtiriladi. Har bir kitobga annotatsiya yoziladi. Geografiya xonasida to‘garak mashg’ulotlari ham o‘tkaziladi. O‘quvchilar mashg’ulot va muhokama o‘tkazish uchun turli xil mavzular va topshiriqlar beriladi. Geografiya xonasida o‘quvchilar okean tubiga va Yer qariga sayohat uyushtirishlari, fazoga sayohat qilishlari, tropik o‘rmonlarda yurishlari, o‘z shahri, tumani, viloyati, Pomir va Tyanshshan tog’lariga sayohatga chiqishlari mumkin. To‘garaklarning o‘quv qo‘llanmalari va vositalari tayyorlash bo‘limi geografiya xonasini yangi o‘quv vositalari bilan tanishishi mumkin. Geografiya to‘garagini mazkur bo‘linmasining ishlariga yuqori sinf o‘quvchilarini ham jalb qilish mumkin. Bunday sharoitda geografiya xonasida yetishmaydigan jihozlar ro‘yxati tuziladi va ular o‘quvchilar yordamida tayyorlanib joy –joyiga qo‘yiladi. O‘quvchilar tomonidan olib boriladigan o‘lkashunoslik materiallari geografiya xonasida o‘lkashunoslik burchagiga o‘rnataladi va dars jarayonida foydalaniladi. O‘lkashunoslik ishlari natijalari tog’ jinslari namunalaridan, gerbariylardan, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari namunalaridan, hamda diagrammalar, chizmalar, ko‘rgazmali qurollardan iborat. Ular darsdan tashqari va tashqi ishlarda foydalanilishi mumkin. Geografiya xonasida fakul’tativ mashg’ulotlar ham o‘tkazish mumkin. Fakul’tativ

mashg'ulotlar topografiya, ekologiya, geologiya asoslari va boshqa fanlardan o'tkazilishi mumkin. Topografiyadan fakul'tativ mashg'ulotlar o'tkazish uchun geografiya xonasida tapografik asbob uskunalar (astrolyabiya, nivelir, reyka), topografik harita, kurvimetrik, transportir, ugomer va boshqa jihozlar bo'lmog'i lozim. Geografiya darslaridan fakul'tativ mashg'ulotlar o'tkazish uchun geografiya xonasida quyidagi jihozlar bo'lmog'i lozim: tog' jinslari namunalari; toshqotgan o'simlik va hayvonlar namunalari; geologik kesmalar; geoxronologik jadval; turli xil geologik davrlarda yashagan o'simliklar va hayvonot dunyosi rasmlari .

Nazorat savollari:

1. Geografiya xonasini jihozlariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Geografiya xonasida o'quvchilarni ish joyi qayerda joylashadi?
- 3 Geografiya xonasida o'qituvchining ish joyini aniqlang.
4. Geografiya xonasida o'quvchining ish joyi qanday talablarga javob berishi lozim?
5. Sinf taxtasidan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
6. Geografiya xonasidagi kartotekalar qanday guruhlarga bo'linadi?

19-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYANI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so'zlar: axborot-kommunikatsiya, interfaol usul, sinektika, viktorina, rebus, eksperrimintal, klaster usuli, aqliy hujum usuli, zamonaviy dars, noan'anaviy dars, psixologik talablar,

19.1. Tabiiyot va geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham ta'lim tizimiga izchil joriy qilinmoqda. Chunki bu shuni ta'kidlab o'tish kerakki o'quvchilarni faqatgina axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'lab

qo‘yish ham noto‘g’ridir. Albatta bu jarayon me’yori bilan bo‘lgani yaxshi. Maktab geografiya ta’limini o‘qitishda har bir o‘qituvchi dars avvalida o‘z oldiga maqsad qo‘yib – darsdan so‘ng o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olgan dars, eng yaxshi darsdir. O‘qituvchi bo‘lish katta mas’uliyatni, tinimsiz mehnatni, izlanish, ijodkorlikni va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Buyuk pedagoglardan biri K.D.Ushinskiy “O‘qituvchi – o‘zining bilimini uzlucksiz ko‘tarib borgandagina o‘qituvchi, u o‘qishdan, izlanishdan to‘xtaganda uning o‘qituvchiligi ham tugaydi” degan edi. Maktab geografiya ta’limida mashaqqat va sharaf bilan, yosh avlodlarga ta’lim-tarbiya berishda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. Talabalarga murakkab ilmiy tushunchalarni talqin qilish, har qanday sohaning aniq rasmini ko‘rsatish va turli xil interaktiv tadbirlarni o‘tkazishda yordam beradi. Ta’kidlash joizki, u o‘quv jarayonida asosiy o‘qituvchi yordamchisiga aylandi.

Geografiya darslarida ma’ruzalar, og’zaki ma’ruzalar va tushuntirishlar orqali ko‘p narsaga erishish mumkin emas. O‘qituvchi sifatida har bir darsda o‘quvchilarni hayratda qoldirishni unutmasligimiz kerak. Axir “Donolikka intilish hayratdan boshlanadi”. Har bir geografiya o‘qituvchisining o‘z darslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni avvalo Microsoft - Word, Excel, Power Point dasturlaridan boshlashi zarur. Word dasturida o‘qituvchi kundalik dars rejasi va darsga ta’luqli bo‘lgan yozuv ishlarini bajarsa bo‘ladi. Excel dasturi murakkab hisoblanib, geografiya uchun ko‘p xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslaridagi jadval, chizma va diagrammalarini tayyorlashda ko‘p qulayliklarga ega. Power Point dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin. Geografiya ta’limida “Google Earth” dasturi o‘qituvchining eng yaqin ko‘makchisiga aylanishi zarur. Bu dastur sayyoramizning landshaftini va relyefini asl holida ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Hatto kichik hududlarni ham yuqorida ko‘rish imkoniyati mavjud. Bunda albatta kompyuter internet tarmog’iga ulangan bo‘lishi zarur. ”Pinnacle studio” videorolik

tayyorlovchi dastur hisoblanadi. Ma'lumki, geografiyaga ta'luqli videoroliklar ko'plab topiladi. Ammo u videoroliklarning barcha qismlari dars mavzusiga mos kelmaydi. Bunda biz ushbu dasturning imkoniyatlaridan foydalanib, kerakli, mavzuga mos joylarini olib va mikrofon orqali ovozlashtirgan holda o'quvchilarga namoyish etishimiz mumkin. O'qituvchi darsga puxta tayyorgalik ko'rishi uchun wikipedia.org, zyonet.uz, geografiya.uz kabi internet resurslarining o'rni katta. Bu saytlar orqali mакtab geografiya ta'limining barcha mavzulariga mos qiziqarli va qimmatli ma'lumotlarni topish mumkin. Shuningdek, google.com qidiruv tarmog'idan foydalangan holda foto va videomanbalarda foydalanish yaxshi samara beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda har bir geografiya o'qituvchisida...

- mavzuli xaritalar;
- mavzuli fotojamlanmalar;
- mavzuli videoroliklar bo'lsa va bu ma'lumotlarni interfaol dars o'tish usullari orqali hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirsa darslarda yuqori samaradorlikka erishadi. Umumta'lim maktablarining geografiya darslarini tashkil etish va uni o'tkazishda uchraydigan ba'zi tashkiliy hamda metodik muammolarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yechishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki o'quvchilarni faqatgina axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'lab qo'yish ham noto'g'ridir. Albatta bu jarayon me'yori bilan bo'lgani yaxshi. Maktab geografiya ta'limini o'qitishda har bir o'qituvchi dars avvalida o'z oldiga maqsad qo'yib – darsdan so'ng o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olgan dars, eng yaxshidarsdir. O'qituvchi bo'lish katta mas'uliyatni, tinimsiz mehnatni, izlanish, ijodkorlikni va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishni talab qiladi. Maktab geografiya ta'limida mashaqqat va sharaf bilan, yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berishda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

19.2. Geografiya darslarida off-line va on-line vositalaridan foydalanish

Geografiya ta’limi o‘qitish va o‘rganish jarayonida Internet-texnologiyalariga katta o‘rin ajratilmoqda. Bunday texnologiyalar ta’lim jarayoniga ko‘maklashib, o‘qitish dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari, elektron darslik va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, o‘quvchilarning testlarda, tadqiqot va ilmiy ishlar tanlovlarida, masofaviy loyihalarda, ilmiy maktab ishlarida ishtirokini ta’minlamoqda. O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov jarayonida ilmiy-ijodiy ishlarni bajarishda Internetdan foydalanuvchi o‘quvchilar, internetning quyidagi afzalliklarini ko‘rsatib o‘tishdi: turli-tuman qiziqarli materiallarning mavjudligi, fan tarixi va uning rivoji yuzasidan materialning mavjudligi, tadqiqot natijalarini umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi, ilmiy ishlarga qiziqishning ortib borishi, yangi tushunchalarni o‘zlashtirish imkoniyati, boshqalar bilan faol o‘zaro muloqotga kirisha olish imkoniyati.

Bilim olish jarayonida internet tarmog’idan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishga imkon beradi. O‘quvchining o‘quv tadqiqotchilik madaniyati shaxs madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanib, dunyo yaxlit tasvirini bilish, ilmiy bilish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish, uning natijalarini qadrlash, shaxsning ijodiy rivojlanishini ta’minlash bilan xarakterlanadi. So‘rov jarayonida shu narsa aniqlandiki, tanlangan mavzu bo‘yicha referat tayyorlashda internetdan 55% talabalar foydalanadi, ilmiy ijodiy ish uchun axborot izlab topishda – 48%, izlash jarayonida axborot olingan saytlarga havola ko‘rsatishda – 48%, qo‘srimcha material topib, uning mazmunini tahlil qilishda – 45%, uyga berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda – 36%, turli Internet-loyihalarda (anjuman, tanlov, olimpiada va boshqalar) ishtirok etishda – 16% o‘quvchilar foydalaniladi. Bugungi kunda internetda juda ko‘p veb-forumlar, chatlar mavjud bo‘lib, o‘quvchilar bir-biri bilan muloqotga kirisha olishadi. Chatlarning imkoniyatlaridan ta’lim-

tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish uchun o‘qituvchi muayyan mavzuda muloqot, bahs, munozara tashkil etishi mumkin. Bunday maqsadlarga, masalan, virtual auditoriyalar, ta’lim tarmog’lari kabi loyihalarni kiritish mumkin. Internetda bunday faoliyat shaklini qo‘llash ta’lim mazmunini boyitadi, talabalarni o‘zaro g’oyalar, fikrlar almashinuviga jalg etadi, bir-birlariga yordam berishga ko‘maklashadi, hamkorlikda yangi bilimlarga ega bo‘lish imkonini beradi, guruhdagi o‘quv ishi uchun mas’uliyatlarini kuchaytiradi, natijada esa ularning o‘quv-tadqiqotchilik madaniyati yuksalib boradi. Internet tarmog’idan foydalanishda yana bir jiddiy muammo mavjudki, u ham maxsus dasturiy ta’minotning yo‘qligi tufayli, internet-sahifalarga narkotiklar, axloqsiz o‘yinlar, diniy, irqiy diskriminatsiyani targ’ib qiluvchi materiallar va boshqa salbiy, yot g’oyalardan iborat materiallar kirib qolishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchilarning vazifasi – Internet tarmog’ida mavjud ma’lumotlarni, axborotni tushunib, keraklisini tanlab olish sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Agar o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha internet-saytlar ro‘yxatini tuzib, resurslar bilan o‘quvchilarni tanishtirsa, ularning faoliyati maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi, ular begona saytlardagi materiallar bilan tanishmay qo‘yadilar. Har hafta bo‘lib o‘tadigan ma’naviyat darslarida ham internet ma’lumotlaridan keng foydalanish mumkin. Xullas, internet keng imkoniyatlar yaratib beruvchi tarmoq bo‘lib, fan o‘qituvchilari va o‘quvchilarda bu tarmoqda ishslash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, takomillashtirib borish ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Internetda ma’lumot axtarishning ikki yo‘li mavjud: aniq manzilli hujjatni axtarish; manzili noaniq, ammo mavzusi yoki kalitli so‘zлari orqali hujjat yoki sahifani axtarishdan iboratdir. Aniq manzilli hujjatni internetdan izlash uchun biror bir brauzerni, masalan, Internrt Explorer, Mozilla yoki boshqalar, ishga tushiramiz va uning manzilni kiritish (Adress) oynasiga kerakli manzilni yozamiz va «Enter» tugmasini bosamiz. Kalitli so‘zлar yordamida internetda ma’lumotlarni axtarish uchun qidiruvchi tizimlar (masalan, Google.ru, Google.uz, Yandex.ru va boshqalar) yoki biror bir provayderning bosh sahfasiga (masalan, rambler.ru, mail.ru, pedagog.uz va boshqalar) murojaat qilish kerak. Har

bir provayderning o‘z bosh sahifasi mavjud va unda albatta ma’lumotlarni kalit so‘zlar bilan qidiruv tizimi faoliyat ko‘rsatadi. Qidiruvni tashkillashtirish uchun maxsus oynacha yaratilgan. Oynachaga kerakli kalitli so‘zlarni kiritamiz va qidiruvni boshlaymiz. Natijada ma’lumotning buferdagи nusxasi matn fayli tarkibiga qo‘shiladi. Ushbu faylni saqlaymiz va kerakli vaqtida ishlatajiz.

19.3.Ta’lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash.

O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o‘qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo‘yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o‘z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish o‘zi – o‘ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya’ni o‘quvchining:

- O‘zi mustaqil mutoala qilishi, o‘qishi asosida bilim olishi;
- O‘zini -o‘zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;
- O‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O‘quv mehnatiga mas’uliyat xissi bilan qarashga;
- O‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g’animat bilishga;
- O‘quv mehnatiga o‘zida hoxish, istak uyg’ota olishga;

Har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata olishga; Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o‘rganmog’i zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda o‘quvchining o‘zini – o‘zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir. Keyingi vaqtarda o‘qituvchilar orasida Shaxsga qaratilgan ta’lim nima? Interfaol metoddasi o‘qitish nima uchun zarur?

Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni ta’lim jarayoniga qanday olib kiriladi? Uning avvalgi usullardan farqi nimada? degan savollar uchraydi. Bu savollarga aniq javob topish uchun shu kunlarda umumta’lim maktablarimizda olib borilayotgan an’anaviy darslarni yana bir marotaba tahlil etish joizdir. An’anaviy usul 17 asrda Chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan. U o‘qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf – dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An’anaviy maktab sinf dars sistemasi quyidagicha o‘ziga xos an’analarga ega: taxminan bir xil yoki yaqin yoshli, tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfni tashkil etadi. Sinf yagona reja, dastur, darslik, dars jadvali asosida ishlaydi. Mashg’ulot turi asosan yagona dars hisoblanadi. Dars ma’lum bir o‘quv predmeti, mavzuga oid bir xil material ustida ishlaydi. O‘quvchilar faoliyatini o‘qituvchi boshqaradi, har bir o‘quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o‘quvchini sinfdan – sinfga ko‘chirishni ham u hal qiladi, ya’ni o‘quvchilarning taqdirining hal etilishi o‘qituvchi qo‘lidadir. Endi interfaol metodlarga batafsilroq to‘xtalamiz. Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o‘quvchilarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta’siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni o‘quv – biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘quvchi – o‘qituvchining o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, u o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o‘zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o‘quv sifati va samaradorligini oshiradi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylilikni ta’minlaydi, yangi bilimlarni olish, o‘zlashtirishga havas ortadi.

Dars jarayonida bir – birlarini qo‘llab – quvvatlash, o‘zaro samimiylilikni, do‘stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy

ahamiyatga ega. Dialog asosida kechgan jarayonlarda o‘quvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o‘zaro muzokaralarda erkin bayon qilishga o‘rganadi va shunday ko‘nikmalar shakllanib boradi. Interfaol darslarni tashkil etishda o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishslash, guruhlarda ishslash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, hujjat bilan ishslash, axborot manbalari bilan ishslash, ijodiy ishslashlardan foydalanish mumkin. Interfaol usullar nimalarni o‘z ichiga oladi? Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o‘qituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo‘llamoqda. Ulardan:

- Juftlikda ishslash;
- Karusel;
- Kichik guruhlarda ishslash;
- Akvarium;
- Tugallanmagan gaplar;
- Aqliy hujum;
- Broun harakati;
- Daraxt yechimi;
- O‘z nomimdan so‘zlayman;
- Rolli o‘yinlar;
- Press metod;
- O‘z pozitsiyasini egallash;
- Munozara;
- Debatlar;
- Katta davra va boshqalar.

Yuqoridagi turli shakl – formalardan foydalanishda, o‘quvchilarni shu jarayonda ishslashga tayyorlab, ularni ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan hollarda qo‘llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin. Boshlang’ich ta’lim darslarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonini interfaol metodlar asosida

tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma mohiyatini nazorat guruhi respondentlarining 34 foizi, tajriba guruhining 43 foizi ijobiy tarzda e’tirof etgan bo‘lsalar, tegishli ravishda 30/21 foiz respondentlar esa boshlang’ich ta’lim darslari faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish muammosining u qadar dolzarblik kasb etmaslikligini, O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan o‘tish davri sharoitidagi ayrim muammolarning mavjudligi bu borada muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini bermasligini ta’kidlaydilar.

Nazorat savollari:

1. «Pinnacle studio” qanday dastur?
2. Sinf – dars sistemasi nima?
3. An’anaviy usul nechinchi asrda kim tomonidan taklif etilgan?
4. Shaxsga qaratilgan ta’lim nima?
5. Interfaol metodda o‘qitish nima uchun zarur?
7. Interfaol metodda qanday turlari mavjud?
8. Interfaol metodi tarkibiy tuzilishi qanday?

20-MAVZU: O‘QUVCHILAR MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING USLUB VA VOSITALARI

Tayanch so‘zlar: mahorat, ko‘rgazma, ko‘rgazma, nutq o‘stirish, temperamenti xolerik, she’riyat gulshani, mustaqil o‘quv ishlari, lug’at ustuda ishlash

20.1. Mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish yo‘llari

Har bir o‘quvchining ta’lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o‘ziga xos bo‘lib biri -birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqedan ko‘rish albatta noo‘rin. O‘quvchilarning mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O‘quvchilarda mustaqil ishslash, avvalo unga tayyorlash o‘qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo‘llar bilan hosil qilinadi. Bunda

quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o‘rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagи topshiriqlar, ijodiy ishlarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishslashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim. Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo‘lishi kerak? Avvalo, ish turlari o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta’lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

O‘quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to‘la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e’tibor beriladi. O‘quvchilarning topshiriqlarni tez, to‘g’ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib tayanch so‘zlar tavsiya etish foydalidir. O‘quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so‘z boyligi yetarli emas.

Ma’lumki bola ilk bor tarbiyani oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhit uning ichki tartib intizomi ongli ravishda bola tarbiyasiga tasir ko‘rsatadi. Bolalar ulg’aya boshlashi bilanoq o‘z ota-onalarining qayerda ishslashlari, jamiyatda tutgan o‘rinlari, ularning bilimiga qiziqa boshlaydilar. Oiladagi hamkorlikning tarbiyaviy jihatdan to‘g’ri bo‘lishini ta’minlash mакtabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta’sirni mакtab belgilaydi. Maktebgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, mакtab va jamoatchilik hamkorligi xozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Tajribalar shuni

ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zlarini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalg etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? Kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir. O'z fikrini bayon qilish, yo'l qo'yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritish uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'laydi. Pichirlab allanimalar haqida o'z-o'zicha gapiradi (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishslash lozimligini rejalaydi.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilishi lozim: -beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin; -ish osondan qиyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin; -ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;

-Mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak.

-Topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak; -topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan keyin (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatlari o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi.

Shuning uchun uy vazifalari oson bo‘lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

- Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalar, noan'anaviy usullardan keng qo‘llash;
- Ko‘rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallaridan keng foydalanish;
- O‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish;
- O‘qish sifati va samaradorligiga e’tibor berish;
- O‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda turli mashqlardan foydalanish;
- Nutq o‘stirishga alohida e’tibor qaratish;
- Yanga axborot texnologiyalardan foydalanish;
- Lug’at ustuda ishslashga o‘rgatish;
- Xalq og’zaki ijodidan foydalanish;
- “She’riyat gulshani”, “Ifodali o‘qish” kabi to‘garaklar tashkil etish;
- Bo‘sh vaqtarda ulgurmovchi o‘quvchilar bilan alohida, yakka tartibda ish olib borish;

O‘quvchilar bilishini nazorat qilib borishda albatta past o‘zlashtirgan o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish lozim. Boshlang’ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qishning bir necha turlari yani, ongli, tez, to‘g’ri va ifodali o‘qishga o‘rgatib boriladi.

20.2. Talabalarni adabiyotlar bilan mustaqil ishslash mahoratlari shakllantirish

Talabalarni adabiyotlar bilan mustaqil ishslash mahoratlari ta’lim jarayonida shakllanadi. Avvalgi bobda biz o‘quvchi o‘quv faolligini o‘rganib, rivojlanib borishi o‘z-o‘zini shakllantirishga, o‘z e’tiboringizni qaratdik. Bunga talabalarning fikrlashlarini faollashtirishga mo‘ljallangan, ularda berilgan yuqorida bayon etilgan barcha topshiriqlar (savol va topshiriqlar) xizmat qiladi. Asosiysi o‘quvchi shaxsining ilmiy va hayotiy muammolarini tushunish qobiliyatini egallab o‘zini-o‘zi yaratadi.

Rivojlantiruvchi o‘qitish yordamida talabada nazariy fikrlash mahoratini shakllanadi va bu orqali kitobdan o‘quv materiallarini yodlash, mexanik eslab qolishni yo‘qotish, talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini to‘g’ri yondashilgan holda tashkil qilinishi.

Bu adabiyotlarni o‘qiganda ma’ruza tinglaganda talaba olgan ma’ruzalarini doim odamlarning hayotiy xulqlarini shaxsiy fikrlari, sezgi hissiyotlari bilan xayolan taqqoslashi ularni tanqidiy tahlil qilishi va yangi ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda baholashlarini anglatadi.

Bu o‘rganilayotgan materialda talaba nazariyani yodlab olmasdan balki, uning yordamida hayotiy hodisalarini tahlil qilib unga yanada yaxshi o‘qishga yordam beruvchi, fikrlashni rivojlanishini anglatadi. Faqat shu yo‘l bilangina psixologiyani fan sifatida umuman har qanday boshqa fan kabi o‘zlashtirishi mumkin. Biroq ko‘plab boshqa fanlarga qaraganda psixologiyani ustunlik tomonlari mavjuddir. Jumladan, ilmiy bilimlarni amaliy qo‘llash sohasi shuningdek, amaliy material sifatida qo‘l ostidagi odatlar va boshqalar.

Ko‘rsatilgan maqsadlarga talabalar erishishlari uchun o‘qituvchi tomonidan quyidagi masalalar hal qilinishi lozim.

1. Talabada fanni chuqur o‘rganishga turtki bo‘luvchi omilni shakllantirish va shu orqali u quyidagilarni hal etishi lozim.

Ana shu masala o‘qituvchi uchun eng birinchi va bilish uchun eng muhim vazifadir. Uni qanday qilib hal etish kerak? Talabaga geografiya unga shaxsan qachon, qayerda va nima uchun kerak bo‘lib qolishini tushuntirib berish va hokazo. Bunga geografiyani fan sifatida predmeti va vazifalarini ochib beruvchi maqsad birinchi ma’ruzadayoq amalga oshiriladi. Ma’ruzada geografiya inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, shaxs kamolga yetar ekan insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi, shunday ekan geografiyani bilish kelajakdagi faoliyatları uchun kerakligini anglatgan holda qiziqtirishi kerak.

Ma’ruzalar va kitoblardan olingan bilimlarni o‘zlashtirish uchun hayotiy geografik hodisalni, geografik bilimlar asosida tushuntirishga intilib ularni hayotiy geografik hodisalar bilan solishtirish kerakligini talabalarga tushuntirish lozim. Bu

masalani hal etishda ma'ruzalarda o'qituvchi tahlil qiladigan adabiyotlardan keltiriladigan misollar hamda amaliy mashg'ulotida, seminarlarda muhokama etiladigan amaliy topshiriqlar (geografik o'quv masalalari) yoki geografiya fanlar bo'yicha yozma nazorat ishlar mazmunini tashkil etuvchi amaliy topshiriqlar yordam beradi. Kundalik hayotiy hodisalarni geografik nuqtayi nazaridan o'rganish har qanday sharoitda ham inson bilan to'g'ri munosabatlar qurish uchun uni tushunish, o'rganishni anglatadi. Adabiyotlarni mustaqil o'rganishda talaba uchun quyidagi shior harakatlarga chorlovchi doimiy ko'rsatma bo'lishi kerak. Oliy o'quv yurtida o'qitish talabalarning sessiyalar oralig'ida o'zi mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Mustaqil bilim olish tartib, kitob o'qishga, navbatdagi vaqtinchalik tadbiriga aylanmasligi uchun unga bu ishni doimiy amal qiladigan tizimga aylantirishga yordam berishi kerak.

Ma'lumki, fanni o'rganish masalani hal etishga sun'iy majburlash emas, yaxlit yondashish, mazmuni bo'yicha va bajarilishi yuzasidan mustaqil bo'lishni talab etadi. Alovida masalalarni o'rganish, qandaydir bir xususiy va bunda rasmiy bo'lgan ma'ruzalarga erishish (misol uchun nazorat ishlarini o'z vaqtida bajarilganligi haqida «hisobot» berishi) kabi o'rganish tuzish elementlarining barchasi bir-biri bilan tabiiy bog'liq bo'lishi hamda bir biridan ajralgan holda to'la o'zlashtirilishi mumkin bo'limgan fanni qandaydir tizim sharoitida mazmunini o'zlashtirishiga imkon bermaydi. Biror narsani eslab qola olsa ham baribir buni chuqur bilib bo'lmaydi va shaxsning ijtimoiy xulqi ilmiy boshqaruvchisi bo'lib xizmat qila olmaydi.

Agarda talaba alovida bir masalani hal etishga kirishsa lekin bu masalani to'la hal etishi uchun ilmiy asoslarini hali o'zlashtirmagan bo'lsa, u asosiy maqsadga erishishida mavjud odamlar xulqini tushunishga imkon beradigan ilmiy bilimlarni egallash yo'lida o'ziga sun'iy tasdiqlarni yaratadi. Shuning uchun muhit talabaning o'quv dasturi alovida qoliplari bo'yicha hisobotlari emas, fanni qadamma-qadam kompleks o'rganishi bir vaqtning o'zida o'zlashtirib olish va uni barcha alovida o'quv masalalarini hal etishga qo'llash hisoblanadi. Mana shu dialektikadir: talaba aniq bir masalani hal etib fanni o'rganadi, o'rganish esa

keyingi hamma o‘quv (nazariy va amaliy) masalalarni to‘g’ri hal etishga qodir bo‘lib qoladi. Bunga faqatgina fanni o‘qitishga xususan talabaning mustaqil bilim olishini tashkil etishga kompleks va sistemali yondashish yordamidagina erishish mumkin. Mustaqil ishslashga kompleks yondashishni talaba qanday amalga oshirishi mumkin. Asosiysi talaba darslik va boshqa adabiyotlarni o‘qiyotganida ma’ruzalarda olgan axborotlarga tayanishi kerak. Bir manbadan o‘qiganlarini boshqa manbadan olgan axborotlari bilan solishtirishi, olgan bilimlarini to‘ldirib va aniqlashtirib borishi kerak. Ularni o‘z navbatida hayotiy hodisalar odamlarda va shu jumladan o‘zida hali kuzatiladigan haqiqiy psixik hodisalar bilan solishtirilishi kerak. Shunday qilib, ma’ruzada nazariy adabiyotlarga ulardan amaliyotga o‘tish hodisasi yuz beradi. Bu esa o‘quvchining ongida mavjud bo‘lmagan bilimlarni egallab oladi, ya’ni o‘zlashtirish jarayoni ketadi. Ilmiy adabiyotlardagi bilimlar talabani odamlar psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha amaliy analistik amallari bajargani uchun olgan bilimlardan foydalanishga o‘rganib olgandagina o‘zlashtirilgan deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, talaba tomonidan fanni o‘zlashtirilishi faqat uning mazmunini yaxshi bilish bilan emas, balki yana bu bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashni bilishini anglatadi. Mustaqil bilim olish tizim sifatida o‘z tuzilishlariga ega. Talaba bu tuzilishning barcha elementlaridan to‘la foydalanish muhimdir. Shuni ham hisobga olish kerakki, har qanday talaba ham o‘qituvchiga maslahat so‘rab murojaat etavermaydi. Tajribalardan ko‘rinadiki talabalar hatto konsultatsiyalar olish uchun navbatchi o‘qituvchilar bilan uchrashuvga ham kelmaydilar. O‘quv materialini o‘zlashtirishda qiyin nazariy masalani tushunib olish uchun zarur bo‘lgan jiddiy vaziyatda talaba birinchi navbatda o‘ziga o‘zining o‘quv o‘rganish faoliyatini qurish mahoratiga tayanadi. Lekin nima bo‘lishidan qat’iy nazar baribir birinchi kurs talabasi hali o‘qishni bilmaydi. Mustaqil bilim olish mahoratiga tezda o‘rganib olishi uchun unga ishslash metodlari va usullarining ba’zilaridan foydalanishga yordam beradi. Bu metodlarni ko‘rib chiqish uchun mustaqil ishslashni tashkil etuvchi qismlariga ajratib chiqamiz:

- ma’ruza konspektlarini o‘qish;

— o‘quv va ilmiy adabiyotlarni o‘qish sharhlash va konspekt tuzish;

— imtihonlarga (sinovlarga) tayyorlanish.

Ma’ruzalar konspektlarini o‘qish bir necha maqsadlarga ega:

Birinchisi, ma’ruzalarda nimalar haqida gapirilganligini esga olish; *ikkinchisi*, talabaning ishlarini ma’ruzalarda eshitganliklarini tushunishini mustahkamlovchi va guruhlashtiruvchi hayotiy misollar va fikrlar bilan to‘ldirish;

uchinchisi, qisqacha ma’ruzani to‘la ochib berishi mumkin bo‘lmagan, lekin qandaydir hujjatlar va adabiyotlarni o‘qish paytida talabalar alohida e’tibor berishlari kerak bo‘lgan ma’lumotlarni darslikdan o‘qib olish.

Bu holatda ma’ruzalar konspektlari keyingi ishlari uchun o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatuvchi, yo‘naltiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’ruzalarda faqatgina ko‘rsatib o‘tilgan, lekin ochib berilmagan masalalarni yaxshiroq va to‘laroq tushunib olishga yordam beradi. Bu yerda u yoki bu psixologik hodisalarini tushuntirish uchun hayotiy metodlarni tanlab olish muhimdir, chunki talabaning hayotiy kuzatishlariga mos keladigan misolni tanlab olishda o‘ylash jarayonining o‘zi ushbu mavjud muammo yoki mavzuni hayotga mos ravishda o‘zlashtirish bo‘yicha fikrlash faoliyati nazariyani amaliyotda qo‘llashga birinchi urinish hisoblanadi.

2. Darslik bilan ishslash va fan bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni o‘rganish.

Darslik o‘quv adabiyotining asosiy va muhim turi hisoblanadi. Unda material ushbu fanning yutuqlari zamon rejasida va talaba tushunadigan tilda tizimli bayon etiladi.

20.3. Maktab geografiya o‘lkashunoslik to‘garagi, uni tashkil etish usullari va qoidalari

1.To‘garak o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari asosida mutlaqo ixtiyoriy tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari asosiy tadbir sifatida tashkil etiladi.

2.To‘garak maktabda tasdiqlangan jadval asosida har 15 kunda sinfdan tashqari geografiya xonasida tashkil etib o‘tkaziladi.(Sentabr va may oylarida birtadan mashg‘ulot o‘tkazilishi maqsadga muvofiq)

3. Geografiya to‘garagi a’zolari soni 16 – 25 nafar V-IX sinnf o‘quvchilaridan tanlanadi.

4. To‘garak mashg‘ulotining davomiyligi 45-90 minutni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

5. To‘garak mashg‘ulotlarin geografiya o‘qituvchisi boshchiligidagi uch kishidan iborat to‘garak kengashi boshqaradi.

6. To‘garakning ish rejasi o‘quv yilining boshida tuzilib fan metodbirlashma yig‘ilishida muhokama etilib maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

7. To‘garak mashg‘ulotlari maktabda tashkil etilgan yagona to‘garaklar jurnalida qayd etib boriladi.

8. Har bir to‘garak mashg‘ulotida kamida uchta masalani rejalashtirish lozim, ular ma’ruza yoki amaliy ish yoki ijodiy ish, sayr yoki geografik biror bir asrning muhokamasi bo‘lishi mumkin.

9. To‘garak nomi, madhiyasi, har oyda bir marotiba nashr ettiriladigan devoriy gazetasi, o‘z emblemasiga ega bo‘lishi shart.

10. To‘garak geografik kechalar, uchrashuvlar, bilimlar sinovi va fan olimpiadalari vaboshqa sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazish uchun asosiy baza vazifasini bajaradi.

20.3.-1 jadval

Geografiya o‘lkashunoslik to‘garagining taxminiy yillik ish rejasi

№	Mashg‘ulot mazmuni	O‘tkazish vaqtি	O‘tkazish joyi	Масъул
Birinchi mashg‘ulot				
1.	To‘garak faollarini saylash	sentabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkaning geografik o‘rnini, chegaralari	sentabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lka tabiatini haqida film namoyishi	sentabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
Ikkinci mashg‘ulot				
1.	“Globus” devoriy gazetasini chiqarish	oktabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkaning o‘rganilish tarixi	oktabr	Geografiya	To‘garak

	haqida		xonasi	rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	oktabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
Uchinchi mashg‘ulot				
1.	Mashg‘ulot maqsadi va vazifalari	oktabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka relyefi va geologik tuzilishi	oktabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lka relyefi maketini tayyorlash	oktabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
To‘rtinchi mashg‘ulot				
1.	Geografik kechaga tayyorlanish	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi tabiiy resurslar haqida	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Yozuvsız xarita bilan ishslash	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
Beshinchi mashg‘ulot				
1.	“Globus” devoriy gazetasini chiqarish	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi joy nomlari toponimikasi	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	noyabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
Oltinchi mashg‘ulot				
1.	Geografik kechaga tayyorlanish	dekabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka iqlimi	dekabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografik maydonchada kuzatish	dekabr	Geografik mayd-cha	To‘garak rahbari
Yettinchi mashg‘ulot				
1.	Mashg‘ulot maqsadi va vazifalari	dekabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi suv resurslari	dekabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lka tabiat haqida film namoyishi	dekabr	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
Sakkizinchi mashg‘ulot				
1.	Qiziqarli geografik faktlar	yanvar	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi tuproqlar haqida	yanvar	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lkashunoslik muzeyiga	yanvar	muzey	To‘garak

	sayyohat			rahbari
To‘qizinchi mashg‘ulot				
1.	Geografiyaga doir albom tayyorlash	yanvar	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi o‘simlik olami	yanvar	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	yanvar	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
O‘ninchchi mashg‘ulot				
1.	Mashg‘ulot maqsadi va vazifalari	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka hayvonot dunyosi	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lka tabiatini haqida film namoyishi	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
O‘n birinchi mashg‘ulot				
1.	“Globus” devoriy gazetasini chiqarish	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka tabiatini muhofaza qilish	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	fevral	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
O‘n ikkinchi mashg‘ulot				
1.	Navro‘z ning geografik ahamiyati	mart	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lkadagi qo‘riqxona va buyurtmalar	mart	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	mart	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
O‘n uchinchi mashg‘ulot				
1.	Tabiat qo‘yniga sayohat	mart	Tabiatda	To‘garak rahbari
2.	O‘simlik namularidan gerbariy tayyor	mart	Tabiatda	To‘garak rahbari
3.	Tabiatdagi sayyohat hisoboti	mart	Tabiatda	To‘garak rahbari
O‘n to‘rtinchi mashg‘ulot				
1.	“Globus” devoriy gazetasini chiqarish	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka aholisi va mehnat resurslari	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Geografiyaga doir masala yechish	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
O‘n beshinchi mashg‘ulot				

1.	O‘lkadagi sanoat korxonalarini haqida	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	O‘lka tranporti haqida	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	O‘lka tabiatini haqida film namoyish	aprel	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari

O‘n oltinchi mashg‘ulot

1.	O‘lka qishloq xo‘jaligi	may	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
2.	Yak5uniy suhbat	may	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari
3.	Hisobot tayyorlash	may	Geografiya xonasi	To‘garak rahbari

20.4. Geografiya fanidan mavzuli kechalarini tashkil etish

Geografik kechalar- o‘quvchilarni fanga qiziqtirish , bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni qo‘srimcha bilimlar bilan qrollantirish maqsadida tashkil etiladi.

1. Geografiyaga oid kechalar 4 xil bo‘ladi:

- Buyuk geograf sayyoh olimlar hayot va ijodiga bag‘ishlangan;
- O‘lka tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan;
- O‘lka iqtisodiyoti va madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan;
- Bir mamlakat yoki bir necha mamlakatlar geografiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan kechalar.

2. Tashkil etilishiga ko‘ra kechalar uch guruhga bo‘linadi:

- Umumi obzor beruvchi;
- Musobaqa shaklidagi;
- Savol – javob (viktoriga) shaklidagi kechalar.

3. Geografiyaga oid mavzuli kechalarini o‘tkazishga quyidagi talablar quyiladi:

- Geografik kechalar mazmun jixatidan tarbiyaviy axamiyatga ega bo‘lishi kerak (saxna ko‘rinishlari, qo‘sish va she’rlar mazmuni);
- Kecha mazmunida ilmiylikka rioya qilinishi shart;
- Geografik kechalarda tanlangan ma’lumotlar qiziqarli bo‘lishi shart;

- Kechada faol ishtirok etgan o‘quvchilarni moddiy va ma’naviy jixatdan rag‘batlantirish lozim;
- Kecha mavzusi o‘quvchilar yoshiga mos tanlanishi kerak.

4. Geografik kechalarni tashkil etish qoidalari:

- Har o‘quv yilda geografiya faniga oid 1-2 marotaba kecha o‘tkazish lozim;
- Kecha davomiyligi 45-minutdan 1.5 soatgacha bo‘lishi mumkin;
- Geografik kechalar mavzusi fan metodbirlashmasida o‘quv yilining boshida aniqlanib, kecha o‘tkazilishidan 20 kun oldin e’lon chiqarilishi kerak;
- Geografik kechalar o‘tkazish tartibi (ssenariysi) fan metodbirlashma yig‘ilishida tasdiqlanadi.
- Geografik kechalarning mavzusiga qarab boshqa fan o‘qituvchilarini ham bu ishga jalb etish lozim.

Kechalarning ssenariysini tuzishda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Kechaning mavzusi;
2. Maqsadi; Zalni bezatilishi;
3. O‘quvchilar tomonidan kecha mavzusiga oid 5 – 10 minutlik ma’ruzalar mazmuni ko‘rsatiladi;
4. Mavzuga doir she’r, qo‘sish, maqol, olimlarning so‘zlari to‘liq kiritiladi;
5. O‘quvchilarga beriladigan savollar (javoblar) to‘liq ssenariyga kiritiladi.

Kechani boshqarib borish uchun va o‘quvchilar bilimini baholab borish uchun uch kishilik hay’at tayinlanadi.

“O‘zbekiston vatanim mening” nomli kecha o‘tkazish buyicha tavsiyalar.

1. O‘zbekistonning tabiatni, aholisi, xo‘jaligini aks ettiruvchi ikki qismdan iborat ma’ruza tayyorlash.
2. O‘zbekistonga bag‘ishlangan videofil’m namoish etish.
3. O‘zbekistonning tabiiy kartasini maketini tayyorlash.
4. O‘zbekiston gerbini ipak bilan tikish.
5. O‘zbekistonning iqtisodiy kartasini ishlash.
6. Buxoro viloyati tabiiy kartasini ipak bilan tikish.
7. O‘zbekistonning sanoati qishloq xo‘jaligiga bag‘ishlab al’bomlar tayyorlash.

8. O‘zbekistonning madaniyati, tabiat in’omlari fotoal’bomini tayyorlash.
9. Respublika iqtisodiyoti muhim tarmoqlarida maxsulot ishlab chiqarish o‘sish diagramma va kartogrammalarini tayyorlash.
10. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalari karta – chizmasini tayyorlash.
11. O‘rta osiyolik geograf va sayyoohlarning rasmlari va tarjimayi holini tayyorlash.
12. “Siz o‘z o‘lkangizni bilasizmi?” degan jurnal chiqarish.
13. Kechaga atab devoriy gazeta chiqarish.
14. Iqlimga oid grafiklar diagrammalar tayyorlash.
15. To‘garak a’zolarining boshqa shaxarlar bilan aloqasini aks ettiruvchi karta – chizma tayyorlash.
16. “Ta’surotlar daftari” tayyorlash.
17. Faollar zalini kechaga tayyorlash.
18. To‘garak a’zolarini qilgan ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.
19. Kechaga mehmonlarni taklif qilish.
20. Kechaga navbatchilar ularga bog‘ichli belgi tayyorlash.
21. Kechaga radio, gazeta, televideniyadan muhbirlarni taklif qilish.
22. Tayyorlangan eksponatlarni tushuntiruvchi ekskur savdolarini tayyorlash.

Savol – javoblar o‘tkazish uchun 100 dan ortiq savollar yozib, kechaga bir oy qolganda yangiliklar taxtasiga osib quyiladi. Shulardan 30 savol ajratib olinadi.

Savollar quyidagicha bo‘ladi.

1. O‘zbekistonning chekka nuqtalaridan qaysi siz yashab turgan joyga yaqin?
2. O‘zbekistondagi eng baland va eng past joyning nomini aytинг?
3. O‘zbekistonda so‘ngi yillarda qaysi sanoat tarmoqlari yangidan bunyod etildi?
4. Amerika qit’asini birinchi kim tasavvur etgan?
5. Qaysi viloyatlarda ingichka tolali paxta yetishtiriladi?
6. O‘zbekistonda eng ko‘p va eng kam yog‘in qayerlarga tushadi?
7. Qarako‘l qo‘ylari qaysi viloyatlarda yetishtiriladi?
8. O‘zbekistonda gazdan qaysi sohalardan foydalanimoqda?
9. O‘zbekiston chet ellarga nimalar chiqarmoqda?

10. O‘zbekiston chetdan nimalar olib kelmoqda?

Yil davomida o‘quvchilar olgan topshiriq va ishlarni bajarilish ustidan nazorat qilib boriladi. Qilingan ishlar xususiy va yalpi ko‘rikdan o‘tkazib boriladi. Yetarli tayyorgarlik ko‘rilgandan so‘ng kecha o‘tkaziladigan kun belgilanadi. Mehmonlarga taklifnomalar beriladi. Ular oliy, o‘rta maktab o‘qituvchilari, matbuot xodimlari, ota – onalardir.

Kechani to‘garak raisi kirish so‘zi bilan ochadi. O‘zbekiston gimni magintafondan quyiladi. Unga o‘quvchilar jo‘r bo‘ladilar.

O‘zbekistonning geografik o‘rni, tabiatini va tabiiy resuslari haqida to‘garak a’zolari ma’ruza qiladilar.

O‘zbekiston deganda go‘zal va sahiy tabiatning xilma – xil resuslari, cho‘llari, oppoq qorli tog‘lar, dalalar, cho‘llardagi qorako‘l qo‘ylar, qadimiy hayotni eslatuvchi yodgorliklar, yangidan bunyod etilgan shahar va qishloqlar, yangi sanoat korxonalari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Nisbatan janubda joylashgan o‘lkamizning qishi bir muncha iliq yozi esa issiq bo‘ladi. Atrofdagi qo‘shni hududlardan iliq havo massalari esganda yanvarda ham ba’zan 20 – 25 daraja iliq bo‘ladi. Pomir, Tyan’shan tog‘laridan boshlanuvchi Amudaryo bilan Sirdaryo o‘lkamiz chetidan oqib o‘tib unga obi – hayot bag‘ishlaydi. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘z chiqishlarini she’rda ifodalaydi:

Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.
Dalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.

O‘lkamiz shunday go‘zal bo‘lishi bilan birga bepoyon ham. Uning maydoni 448,9 ming km.kv bo‘lib, Yevropadagi Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya, Luksemburg va Shvetsariya kabi davlatlar hududidan katta, yoki O‘zbekiston

hududiga o'n bitta Belgiya, o'n to'rtta Shvetsariya kabi davlatlarni joylashtirish mumkin.

O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston go'zal tabiat, tabiiy boyliklari va qulay geografik o'rin tufayli bir necha bor bosqinchilar hujumiga duchor bo'ldi. O'lkamizda eron shohlari, yunon, arab, mo'g'il qo'shinlari jang maydoniga aylantirib, obod shahar va qishloqlarimizni taladilar.

Iqlimi haqida so'z ketganda Oybekning "O'zbekiston" she'ridagi quyidagi misralar mos keladi va yil fasllarini ham ifodalab beradi.

Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor.

Bir o'lkaki ,sal ko'rmasa quyosh sog'inar

* * *

Ufqlarning zumrad ko'zini o'par paxtazor

O'qi va sev. Buning ismi yosh O'zbekiston.

Yoki Amir Umariyning "Bahor" she'rida
Quyosh olovini yoqa boshladi,
Qorlar asal kabi erib ketdilar.
Suvlar shildir – shildir oqa boshladi,
Kumush bulutlar yurib ketdilar.

* * *

Uyg'unning "Kuz qo'shig'i" she'rida

Har faslning o'z xislati bor,

Har faslning o'z fazilati.

Kumush qishdan, zumrad bahordan,

Qishlamaydi kuzning ziynati.

Ko'k yuvilgan artilgan shisha,

Suvlar tiniq, yaproqlar oltin.

Shakar qovunlarning mayin hidlari,

Sabo bilan tarqalar sekin.....

G‘. G‘ulom “O‘zbekiston” she’rida.

Sevikli Vatanim -O‘zbekistonim,

Butun Sharq ichra zeb – ko‘rasan.

Go‘zalsan, obodsan, to‘qsan madaniy

Qizlarning qosh uzra qiyg‘och burkisan

Hamid Olimjon “Chirchiq bo‘ylari” she’rida.

Chirchiq bo‘ylarida yonar chiroqlar,

Qarshimda zo‘r dunyo ochadi chiroy.

Qalbimdan oqmoqda bir qo‘shiq,

Qor bosgan tog‘larning tepasida oy.

G‘. G‘ulom “O‘zbekiston” she’rida.

Maqtamay bo‘lurmi baxmal vodiyni,

Jahonda dong tortgan go‘zal Farona.

Limmo – lim javohir to‘la sandiqdek,

Xalqimiz faxrisan sensan yagona.

Po‘lat Mo‘min “Zarafshon” she’rida.

Zilolning sharbatidan bahra olmay qancha yer chanqoq,

Suvning dengiziga teng daryo, labingda o‘smasin yantoq.

Shoir daryoni suvi kamaygan paytda ko‘rgan. Zarafshon daryosi ko‘pincha loyqa bo‘tana bo‘lib oqadi. Suvningdan bahra olmay qancha yer qaqrab ketadi deganda Ohalik, Qarnab, cho‘llari kuzda tutilgan bo‘lsa kerak. Aslida Samarqand, Buxoro shu daryordan suv ichadi. Suvning bir tomchisi ham bekor ketmaydi. SHe’riyat bilan oshno bo‘lish geografiya o‘qituvchisi bilimini oshishiga, nutqining boyishiga hamda ma’naviy o‘sishiga yordam beradi.

Go‘zal O‘zbekiston bir oltin diyor,

Inson ne istasa bari unda bor

Dunyoni bezashga yetar paxtasi,

Bunda har bir odam paxta ustasi.

Shundan so'ng qizlar paxta raqsini ijro etadi. Mirzacho'lda birinchi sug'orish kanali 1872-yildan qurila boshlagan 13 km uzunlikdagi ariq yetti yil qazilgan, 1883-yilda rus knyazlari qurishadi. 1891-yilda 27 km uzunlikdagi yangi kanal qurilib ishga tushiriladi. Bu marosimdan uch kun o'tib Sirdaryo to'Onini o'pirib kanalni yuvib ketadi. Shoir Akmal Po'lat Mirzacho'lni o'zlashtirishni o'z she'rida shunday ifodalaydi.

Yomg'ir yuvar baland tog'lar toshini,
Biz to'xtatdik Mirzacho'l ko'z yoshini.
Suvni qildik tashna labga muhayyo
Baxil emas, endi saxiy Sirdaryo.
Quvmoqdamiz chekmoqda bu och cho'l,
Yildan yilga yashnamoqda, hosil mo'l.

O'zbekistonning yangi o'zlashtirilgan yerlari bilan birga biz yuqorida ta'riflagan Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq kabi go'zal vodiylarni haqli ravishda O'zbekiston "Shveytsariyasi" desa bo'ladi. So'ngra ikkinchi ma'ruzachi Mirzacho'l xo'jalik sohasida olib borilayotgan ishlar haqida gapiradi. 25 mln aholisi bo'lgan O'zbekiston undan ko'ra o'n besh barobar aholisi ko'p bo'lgan Braziliya, Pokiston, Turkiya, Eron, Iroq, Afg'oniston, Sal'veador, Gretsya, Italiya, Ispaniya singari davlatlarning birgalikda yetishtiradigan paxtasidan ko'p paxta yetishtirmoqda. O'zbekiston paxta hosildorligiga ko'ra, dunyoda ikkinchi yalpi hosil buyicha dunyoda beshinchi o'rnini egallaydi. Pilla yetishtirish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rindadir. Shundan so'ng qizlar pilla raqsini ijro etadi. O'zbekiston qarako'l terisi, shirin – shakar mevalari bilan ham olamga mashhur.

O'zek qorako'li, o'zbek ipagi
To'rt jihat dunyoning barigamashhur.
O'zbekning to'qigan atlaslarida
Yetti rang yaltirab tovlanadi nur,
Quvaning anori, Andijon uzimi
Namangan anjiri, Toshkent olmasi,

Samarqand sharobi, Qo‘qon qovuni
Marg‘ilon luchchagi hamma – hamasi
O‘zbekning qo‘lida nixoli ungan
O‘zbeklar gullatgan bog‘i-bo‘stondan. .
Qarindosh, qoi-qardosh jondosh ellarga
Xalqimning sovg’asi O‘zbekistondan.

Mamlakatimiz neft mustaqilligiga mustaqillik yillari erishdi. Gaz bilan respublika aholisini ta’minalash ishlari jadal olib borilmoida. Neft-gaz-kimyo komplekslari paydo bo‘lmoqda. Chetga ham gaz mahsulotlari chiqarilmokda. Rangli metal ishlab chiqarish jadal o’smoqda. Sanoatda chet el invistitsiyalari ishga solinib qo‘shmama korxonalar qurilmokda.

«O‘zbekistonim mening» nomli kecha oxirida mehmonlar so‘z olib o‘zlarining fikr va mulohazalarini aytishadi. Kechada faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Bunday kechalar o‘quvchilar bilimiii mustahkamlaydi, Vatanga, odamlarga, mehnatga muhabbat ruhini oshiradi, Ota-onalar bilan maktabning aloqasini mustahkamlaydi .

Nazorat savollari:

1. O‘quv adabiyotining asosiy turi sifatida darslikning o‘ziga xos xususiyatlari qaysilar?
2. Mustaqil faoliyat talabada qanday fazilatlarni oshiradi?
3. Mustaqil ish turlarini qanday bo‘lishi kerak?
4. Darslikning vazifasi nimadan iborat?
5. Mustaqil bilim olish elementlari?

21-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYA TA’LIMIDA AMALIY TOPSHIRIQLARNI TUZISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH

USULLARI

Tayanch so‘zlar: sodda usul, amaliy topshiriq, mustahkamlash, hodisani kuzatish, ko‘nikma, malaka, krossvord, savol—javob.

21.1. Tabiiyot va geografiyani o‘qitishda mashq va masalalarining ahamiyati

Vatanimiz kelajagi, hech shubhasiz bilimli, zukko, iqtidorli yoshlarimizning bilim saviyasiga bog’liq. Hozirgi kunda Yurtboshimiz tomonidan xalqimizning ulug’ yo‘lga boshlaydigan, uddaburon, zehnli yoshlarni tarbiyalashga va malakali kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Vatanimizga shunday yoshlarni yetkazib berishda, albatta fidoyi uztozlarimizning xizmatlari katta.

Geografiya fanida juda ham ko‘plab amaliy topshiriqlar bajarilishi zarur. Chunki yer yuzasini o‘rganishda faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanilsa, o‘quvchilar o‘rtasida fanga bo‘lgan qiziqishlari yo‘qolib boradi. Shuning uchun har bir darslikda amaliy topshiriqlar berilgan. Amaliy topshiriqlarning asosiy maqsadlari – o‘quvchilarda geografiya faniga oid bo‘lgan ko‘nikma va malakalar, ya’ni geografik mashq va masalalar yechish, xarita bilan ishslash, raqamli ma’lumotlar bilan ishslash, tabiat hodisalarini kuzatish, tahlil qilish va boshqalarni hosil qilishdan iborat. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash amaliy topshiriqlarning asosini tashkil etadi. Amaliy topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan individual tarzda ham, oqituvchining ishtirokida ham bajarilishi kerak. O‘quvchilar amaliy topshiriqlarni bajarish, geografik mashq va masalalarini yechish usullarini egallaganlaridan keyin topshiriqlarni mustaqil bajarishlari mumkin. Amaliy topshiriqlar geografiya o‘qituvchisidan ham, o‘quvchilardan ham alohida tayyorgarlikni talab etadi. Amaliy topshiriqlarga o‘quvchilarni dars jarayonida avval, sodda usulni qo‘llagan holda, elementar ishlardan asta- sekinlik bilan murakkab topshiriqlarga o‘tib borish lozim. O‘qituvchi dastlab o‘quvchilarni darslikdagi matn, rasm, jadval va amaliy topshiriqlar bilan ishslashga, geografik xaritalarni o‘qish qobiliyatini yaxshilashga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatuv natijalarini tahlil qilishga, keyinchalik esa alohida o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarda berilgan bajarishga, geografik mashq va masalalarini yechishga o‘rgatib borish zarur

O'quvchilar bajaradigan amaliy topshiriqlarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:

1. Amaliy topshiriqlar o'quvchilarning bilimi va qobiliyatiga mos, ularning psixofizologik imkoniyatlarini hisobga olgan, ayni vaqtida ularning fikrlash qobiliyatini va ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak;
2. O'quvchilarning amaliy topshiriqlari (geografik masq va masalalar, xarita bilan ishslash va hokazo) ilgari egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishni taqozo etadigan hamda ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi zarur;
3. Amaliy topshiriqlarning turi va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyati, ularning tayyorgarlik darajasiga va individual xususiyatlariga mos kelishi lozim;
4. Amaliy topshiriqlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo'lishiga e'tibor berish kerak, ularning natijasi o'quvchilarga yangilik berishi shart;
5. Amaliy topshiriqlar quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon asta- sekin murakkablashib borishi lozim;
6. Amaliy topshiriqlarning har birida natijalar o'z vaqtida tahlil qilinishi, hamda muhokama qilib baholanishi, amaliy topshiriqlar natijalari esa ta'lim sifatini o'stirish jarayoniga ta'sir etishi zarur.
7. O'quvchilarga amaliy topshiriqlar quyidagi metodik talablar asosida berib borilsa ,ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sirlar ko'rsatadi. Xususan ,dars jarayonining qiziqarli o'tishiga, o'quvchilarning mavzu yuzasida ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi. O'quvchilarda Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida talab etilagan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiradi. Ayniqsa, o'quvchilar tabiat hodisalariga juda qiziqadi va darsda o'rgangan ma'lumotlari, kuzatuвшисьini hayotga tadbiq etadilar. Bu esa kelgusida duch keladigan tabiat hodisalarini, yoki iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o'z bilimlari asosida hal eta olishida zamin bo'ladi. Amaliy topshiriqlar orasida raqamli ma'lumotlar asosida berilganlari juda ko'p. Turli xil jadvallar,grafiklar, diagrammalar va masalalar shular jumlasidandir. Bu esa o'z o'rnida fanlararo bog'lanishni yuzaga keltiradi. O'quvchilar geografik topshiriqlarni bajarish

jarayonida matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, astronomiya va boshqa fanlarga ham bog'lanadi.

8. Amaliy topshiriqlarning yuqoridagi jihatlarini hisobga olib aytadigan bo'lsam, amaliy topshiriqlarning samarasi o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi ortishiga, dunyoqarashi, fikrlash darajasi o'sishiga va o'qituvchining ijodiy faoliyati,mahorati, tajribasi yuksalishida juda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun geografiya darslarida berilayotgan amaliy topshiriqlarga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

21.2. Geografiyadan fan olimpiadalarini tashkil etib o'tkazish

2004 – 2009-yillar maktab ta'lmini rivojlantirish umummiliy dasturida fan olimpiadalarining maqsad va vazifalari alovida ko'rsatilgan fan olimpiadalari quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- O'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini kuchaytirish va fan asoslarini chuqurroq egallashga yo'naltirish;
- O'quvchilarning ma'lum sohaga bo'lgan iqtidorini shakllantirish;
- O'quvchilarnin o'quv–biluv imkoniyatlarini kengaytirish va ularda komil inson sifatlarini tarbiyalash.

O'zbekistonda umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida geografiya fanidan olimpiadalar 1976 – yildan boshlab o'tkazib kelinmoqda. Olimpiadalarni o'tkazish uchun ularning tartib qoidalari belgilab berilgan me'yoriy hujjatlarga asoslanish lozim. Olimpiadalarni o'tkazish me'yoriy hujjatlari asosan 2 ta bo'lib, ular "olimpiadalarni o'tkazish haqida Nizom" va "o'quvchilar bilimini baholash mezonlari" Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Olimpiadalar o'tkazish Nizomida quyidagilar ko'rsatiladi:

- Olimpiadani o'tkazish bosqichlari;
- Olimpiada ishtirokchilarining sinfi va fani;
- Olimpiadani o'tkazish muddatlari;
- Fan bo'yicha olimpiadani o'tkazish turlari;
- Olimpiada hakamlar hay'atining tarkibi;

- Aplatsiya komissiyasining tarkibi va uning vazifalari;

Olimpiada davomida to‘ldiriladigan hujjatlar va ularni yuritish tartibi.

Olimpiadani o‘tkazish nizomi “Ma’rifat”, “Buxoro muallimi” va boshqa matbuot sahifalarida o‘quv yilining boshida nashr etiladi.

Olimpiadani baholash mezonlarida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- o‘quvchilar bilimini baholash tartibi;
- g‘olib o‘quvchilarni aniqlash tartibi;
- g‘oliblar o‘rtasida qo‘srimcha sinovlar o‘tkazish tartibi;
- har bir tur bo‘yicha qo‘yiladigan bahoning maksimal qiymati;
- har bir topshiriqga qo‘yiladigan baho mezonlari.

Olimpiadaning bosqichlari.

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan fan olimpiadalari asosan 4 bosqichda (kimyo, biologiya, matematika, fizika va informatika fanlari bo‘yicha 5 bosqichda) o‘tkaziladi.

21.3. Geografiya fanidan olimpiadalar uchun mashq va masalalar.

Geografiya umumiy o‘rta ta’lim fanlari ichida o‘zining keng qamrovliligi, qiziqarliligi va ommabopligi bilan ajralib turadi. O‘rta umumta’lim maktabi geografiyasi o‘quv dasturi hamda geografiyadan qabul qilingan umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatib o‘tilgan talablarda o‘quvchilar o‘rganib o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirilgan. Ammo, geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni, ularni keltirib chiqaradigan sabab – oqibat bog‘lanishlarini mohiyatini to‘liq anglab yetish uchun nazariy bilimlarning o‘zi kifoya etmaydi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ayrim geografik hodisa va jarayonlarga oid mashq hamda masalalar yechish zarurati o‘z – o‘zidan paydo bo‘ladi. Ko‘pgina geografik qonuniyatlar mazmunini tushunish uchun tegishli hisob – kitob ishlarini bajarish kerak.

Geografiyadan mashq va masalalar yechish o‘quvchilarda quyidagi ijobiylar fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi:

1. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

2. O‘quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarning tashqi ko‘rinishi bilan birga uning ichki tuzilishini tasavvur eta bilish qobiliyati rivojlanadi.
3. O‘quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan bilimlar rivojlanadi.
4. O‘quvchilarda muayyan geografik obyekt, hodisa va jarayonlar ko‘lamini aniqlashga doir hisoblash malakalari takomillashadi.
5. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va abstrakt tafakkurlay olish malakalari shakllanadi
6. O‘quvchilarda iqtisodiy – tejamkorlik malaka va ko‘nikmalar shakllanadi.

Oriyentirlash va ufq tomonlarini aniqlash

1. Agar o‘rmon qishloqdan shimoli- sharqda joylashgan bo‘lsa, o‘rmonga sayr uchun chiqqan o‘quvchilar uygaga qaysi yo‘nalishda qaytib keladilar?
2. 1350, 00, 2700, 450, 2250, 3150, 3600 li azimutlar ufqning qaysi tomoniga to‘g‘ri keladi?
3. Buxoro shahriga nisbatan Nukus, Moskva, Toshkent, Qobul shaharlari qaysi yo‘nalishda joylashgan?
4. Agar mакtabga 450 azimut bilan borgan bo‘lsangiz, uygaga qaysi yo‘nalishda qaytasiz?
5. O‘quvchilar o‘lkashunoslik muzeyiga 900 azimut bilan bordilar. Ular qaysi yo‘nalishda va nechanchi azimut bilan qaytib keladilar?
6. O‘quvchilar yozgi dam olish oromgohiga avval shimoliy – sharqiy, so‘ngra janubiy, keyin esa janubiy - g‘arbiy yo‘nalishda jo‘nab ketdilar. Ular oromgohdan xuddi shu yo‘l bilan qaytsalar qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha yuradilar?
7. O‘quvchilar ko‘lgacha 2700, 2250, 1800 azimutlar bo‘yicha yurdilar. Ular yurgan yo‘nalishlarni aytib, shu yo‘lni sxema tarzida tasvirlang.
8. Siz yuz tomoningiz bilan janubga qarab turgan bo‘lsangiz sharq, g‘arb, janubiy – g‘arb va shimoliy – sharq qaysi tomonda ekanligini aniqlang.
9. Siz janubiy – g‘arbiy yo‘nalishda ketayotgan bo‘lsangiz, sizning o‘ng tomoningizda ufqning qaysi tomoni turadi?

10. Tush vaqtida uylarning soyasi tushib turmaydigan ko‘cha qaysi yo‘nalishda ekanligini aniqlang.

21.4. Geografiya darslarida topishmoqlardan foydalanish

Geografiya- ulkan va sahiy, ulug‘vor va betakror, ayni vaqtda mo‘jizakor tabiat sehri bilan qurshalgan. Yer deb atalmish hayot makoniga aylangan borliqni, yoki bir so‘z bilan aytganda «Xayot sayyorasi»ni o‘rganuvchi fan. Bu fanni o‘rganishga ham bir davr ziyolilari o‘z qarashlari bilan yondashganlari aniq. Bugungi kunga kelib geografiya fanlarini takomillashtirishga yanada katta e’tibor bilan qaralmoqda. Jumladan ham bir fandagi kabi ushbu fanga ham ijodiy yondashgan holda zamonaviy dars-lar tashkil etiil uning rivojlanish ko‘rsatkichlaridir. Geografiya darslarini xayotga bog‘lash, ularni qiziqarli va jozibali tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosan geografik o‘yinlarga ularning xilma—xil shakllari: Krossvord, savol—javob, topishmoq boshqotirmalardan tuzilgan masala kabilar asosiy materiallar bo‘lib xizmat qiladi. Bular ichida ayniqsa jozibadorligi topishlar deb hisoblasa bo‘ladi, chunki u katta so‘z o‘yini asosida vujudga keladi. Bu qadimiy geografik o‘yin, shuning uchun ham katta badiiy mahorati va topshiriqlarini talab etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrga monan ravishda tabiat jumboqlari bilan qurshalgan ushbu fan asoslarini topishmoqlar tarzida yechmoq balki eng qulay va g‘oyat zavqlidir. Ko‘p asrlik xalq donishmandlarining durdonalari-topishmoqlar insom idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o‘sturuvchan aqlning quvnoq o‘yini, ma’naviy dam olish vositasigina bo‘lib qolmay, ajdodlarimizning ruxiy olami, tarmxiy o‘tmishini bilishda kalit va-zifasini ham uynaydi. Ular tarixiy madaniyatimizning bebaho xuj-jatlaridir.

O‘zbek topishmoqlari aloxida to‘plam holida chiqarilgan bo‘lsada, unda geografik mazmundagi xillari juda oz. Darslarni jozibali bayon qilishda topishmoqlarni roli juda katta bo‘lib jumxuriyatimiz miqiyosida maxsus topishmoqlar to‘plamlari chiqarilmagan.

Tajriba va kuzatishlardagi shu narsaga ishonch hosil qilish mumkinki, «Geografig topishmoqlar» dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishida, o‘quvchilarni shu fanga bo‘lgan havasini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. U o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim saviyasini, temperamentini aniqlashga yordam beradi. Topishmoqlar xalq ijodiga, obrazli so‘zga muhabbat uyg‘otadi. Bolalarga estetik zavq bag‘ishlab ularni og‘zaki she’riyat dunyosiga olib kiradi. O‘ziga xos tasviriy san’atning milliy badiiy usullarining ifodasi bo‘lmish bu jajji asarlar o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy ehtiyojlariga oziq bo‘ladi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo‘lgan ona tiliga, tug‘ilgan yurtiga muhabbat uyg‘otadi. Shuningdek topishmoqlar darslarda olingan bilimlarni mustahkamlashga, aqlni o‘stirish, har doim o‘z aqlini mashq qildirishga yordam beradi.

Juda qadim zamonlardan odamlar kichkintoylarga har xil topishmoqlar aytib, ularni bu mashqa o‘rgatishgan. Topishmoq esa har doim biror narsa yoki tabiat xodisasini chala, lekin juda aniq tasviridir.

Nazorat savollari:

1. O‘quvchilar bajaradigan amaliy topshiriqlarga qanday metodik talablar qo‘yiladi?
2. Fan olimpiadalari qaysi maqsadlarni ko‘zlaydi?
3. Geografiyadan mashq va masalalar yechish o‘quvchilarda qaysi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi?
4. Ko‘pgina geografik qonuniyatlar mazmunini tushunish uchun qanday ishlarini bajarish kerak?
5. Amaliy topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan qay tarzda bajarilishi kerak?

22-MAVZU: TABIIYOT VA GEOGRAFIYANI O‘QITISH JARAYONIGA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Tayanch so‘zlar: innovatsion faoliyat, novatsiya, innovatsiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari, intellekti rivojlanishi.

22.1 . “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” tushunchasining mazmuni.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. «Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri eng avvalo, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog’liq».

Bugun hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta’lim-tarbiya mazmunini tubdan o‘zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko‘tarish asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki jamiyatning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi taqdiri, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish-bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog’liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri - bu ta’lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o‘qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg’unlashtirish, ilg’or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg’or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o‘z-o‘zidan ta’lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o‘qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog’liq jarayon. O‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas’uliyati va faolligini oshirmsandan ta’limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmaydi. Akademik A.N.Leontev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarining qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir», - deb ta’kidlaydi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g’oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish «o‘qituvchining

innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritchyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: - «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo’llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog’liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoxlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. Bu g’oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug’ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya-ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo’llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga

olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda: Faoliyat yo'naliishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi). Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).

O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli). Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan). Innovatsianing maqsadi-sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'لامи asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'limasa, o'z oldiga muayyan tizimdagagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: inovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'naliishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsianing amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb - innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytildi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif

tomonidan qayd etilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg’a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. «Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatadir», -deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni echish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni echish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir.

22.2. Pedagogning innovatsion faoliyati

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin: ijodiy faoliyat falsafasini egallahsga intilish;

- pedagogik tadqiqot metodlarini egallah;
 - mualliflik kontsepsiylarini yaratish qobiliyati;
 - tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
 - o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
 - hamkasblar bilan hamkorlik;
 - fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
 - ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o‘z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tadbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning tuzilishini o‘rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko‘rsatib o‘tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi-ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo‘lishi mumkin». Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda ta’lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi/ Muammoni tahlil asosida aniqlash. Mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash. O‘zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish. O‘zgarishlarni amalga oshirish. Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg’ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. «Innovatsion faoliyat o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o‘qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to‘siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». Innovatsion faoliyat yangi qoyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta’lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo‘nalitirilganligi sababli o‘qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini taxlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A. Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to‘siqlar mavjud. Bularning birinchisi o‘qituvchining o‘zi ko‘nikkan faoliyat chegarasidan

tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya’ni o‘qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo‘lsa, yana bir sabab yangi va noma’lum narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O‘rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida «innovatsion faoliyat» tushunchasiga ta’rif berilgan bo‘lsada, bu sohada hammaga maqul keladigan va innovatsion faoliyatning to‘liq mazmunini ochib beradigan yagona ta’rif yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo‘lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u g’oyalar maydonida ham va alohida bir sub’ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi–loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo‘yicha tug’ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo‘llab-quvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo‘ladi.

22.3. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalilanladi, ularning ayrim asosiy belgilarini

ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.
3. Bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik, bilimlarni o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar etkazmaydigan tarzda bartaraf etish.
4. Ta’limda «muvaffaqiyat muhitini» tashkil etish, bolaga o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O‘quvchiga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
5. O‘quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati: Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta’minlash juda muhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat sinf xonalarida, balki ta’lim muassasasiga kirishda, yo‘laklarda, sport va dam olish maydonchalarida ham yaratilgan bo‘lishi shart. Xona va bino-bu bolaning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan ichki omildir, binodan tashqaridagi sport, dam olish va o‘yin maydonchalari, maktab va boshqa ta’lim muassasasining hudud-tashqi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi muhit ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holdagi eng qulay shart-sharoitlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Unga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi: Bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug’lik ta’minlanadigan bino va o‘quv xonalari. Maktabning bolani noxush, kutilmagan

hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joy bo‘lishini ta’minlash. Bolalarning harakat, kashf qilish va tajriba qilishlariga rag’bat ko‘rsatish, ya’ni maktab hududining barcha joylarida bunga imkon bo‘lsin. Masalan, sport, dam olish va o‘yin maydonchasida jihozlarning yetarli bo‘lishi; koridorda turli o‘simliklarning o‘sishini kuzatish, xonada o‘quv fanlariga doir ma’lumotlar, kutubxonada turli kitoblar bo‘lishi va shu kabilar. Bolalarning o‘zлari ishlagan barcha narsalar, ashyo va qo‘llanmalar bola ko‘ra oladigan, bo‘yi yetadigan darajadagi masofa va balandlikda joylashgan bo‘lishi. Bolalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotga rag’bat bildirish, ya’ni darsda kichik guruh va juft bo‘lib ishlashlari, darsdan tashqari vaqtida o‘yin o‘ynashlariga sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak. Bolalarda maktabga tegishlilik hissi, xavfsizlik va erkinlik hissi bo‘lishi. Turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish. Sinf xonasi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan alohida mavzular bo‘yicha qismlarga bo‘lingan va shu har bir qismlar o‘z mavzulari bo‘yicha bola uchun kerakli va qiziqarli bo‘lgan ashyo, jihozlar, o‘yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so‘zlar va h.k.bilan jihozlanganligi. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘siq bo‘lmaydigan holda joylashtirilgan bo‘lishi, bola o‘ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira oladigan va nogiron o‘quvchilar uchun mos mebel ham bo‘lishi, shuningdek, o‘qituvchi uchun mebel ham qulay bo‘lishi kerak. Bolaning idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bilan ta’minlash. Bolalar ko‘rishi va tanishishi uchun narsalar va ma’lumotlarni iloji boricha bitta joyga juda ko‘p joylashtirmaslik, bu bolaning ularni ajratib olishiga halaqt beradi. Bolaga erkin tanlash imkonini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash. O‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish. Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadval shaklida so‘zlar hamda belgilar bilan tasvirlash, uni bola ko‘ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo‘yish. Ota-onalar va maktab o‘rtasida iliq munosabatlarni shakllantiruvchi muloqot o‘rnatishga imkon beruvchi muhit yaratish.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda dars shakli: Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari

bilan uzviy bog'liq. Bunday o'quv mashg'ulotlarining shakllari turlicha.Ular orasidan alohida e'tibor dars jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining tadqiqot- izlanish metodlari hamda dialogli shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko'rgazmali, tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar ham qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlarning shakl va usullari bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiysi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'quv faoliyatiga rag'bat uyg'otish orqali o'quvchilarni bilim egallahsga yo'naltirib, bunday shakl va usullarda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning shaxsiy bilimi, tajribasi va hissiyotlarini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib qoladi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho'ng'ish darsi- ma'lum bilimlarni egallah uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o'rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi- o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi- dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi- o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi- o'quvchilarning o'zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi- dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar notog'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi- o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi- ilgari o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o'tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi- o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o‘ylab topishlari mashqini o‘tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi- dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o‘zlashtirishni ta’minlash darsi.

“Paradokslar” darsi- o‘quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog’lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o‘tkazish asosida to‘g’ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi- yangi dars mavzusiga doir savollar bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g’risida ma’lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta’minlash darsi.

Ekskursiya darsi- bu darslarda o‘quvchilarni turli ob’yektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat ob’ektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog’lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta’milanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo‘lgan ob’ektlarga, ular to‘g’risida filmlar, turli ko‘rgazmali va boshqa orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham munkin.

22.4. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, ijobiylashtirish va rivojlantirish.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ta’lim- tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o‘quvchilarning bir- birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha o‘zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o‘qituvchilarning ham

bir- biridan o‘qitish uslubi, o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo‘yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o‘qituvchining ma’lum vaqt davomida optimal natijaga, ya’ni o‘quvchilarning ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtirishlariga erishish yuzasidan individual yondashuvlari mavjud. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarni ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o‘quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil hulosalar chiqarishlarini, bir- birlaridan o‘rganishlarini tashkil qilish, ularning o‘qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e’tibor berish talab qilinadi.

Ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta’minalash Ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta’minalash hamma zamonda ham e’tibor markazida bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqi, muloqot ko‘nikmalari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan: toza joy, toza havo, normal haroratli xona va unda yetarli yoritilganlik bo‘lishi, xavfsizlik, sport, dam olish, o‘yin maydonchalarini yetarlicha jihozlash va shu kabilarga e’tibor berish talab qilinadi. Shu yo‘nalishdagi ayrim tajribalarni keltiramiz: Yorib o‘tishlar texnologiyasi va V. Erxard maktabi. Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash o‘qishlaridan iborat bo‘lib, uning maqsadi har bir alohida odamning ichki olamida mavjud bo‘lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo‘g’ib qo‘yilgan) qobiliyatlarini va intilishlarini an’anaviy muammolarni yangi muammo sifatida echish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg’otish hisoblanadi. Bu kurslar tinglovchining fikrashi va xulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o‘z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo‘llarini ko‘ra olishlarini faollashtirish va o‘zgartirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ko‘p sonli mashg’ulotlardan iborat. Bu kurslarning afzal jihatlari-inson omilini ishga solishga qaratilgan bo‘lib, maxsus mablag’lar sarflashni talab qilmaydi; erishilgan samara so‘nib qolmaydi, ya’ni olingan samara yangi shakllarda va sharoitlarda muntazam kuchayib borishi bilan bir necha marta samara olishni ta’minalaydi; alohida yirik yangiliklar

yaratishga, hosil bo‘lgan boshi berk holatlardan noan’ anaviy chiqish yo‘llarini izlashga qaratilganligidan iborat. 48 yo‘nalishdagi kurslar va seminarlar AQShning 94ta shaharlarida va boshqa mamlakatlarning 128ta shaharlarida olib borilmoqda. Bu kurslarda yiliga 57 ming kishi o‘qiydi. O‘quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) asosida ta’limni intensivlashtirish texnologiyasi (V. F. Shatalov, Donetsk shahri). Tayanch signallar konspektlari ko‘rgazmali sxemalardan iborat bo‘lib, ularda o‘zlashtirilishi lozim axborot birliklari aks ettiriladi, ular orasidagi turli bog’liqliklar ko‘rsatiladi hamda mavhum (abstrakt) materialni yaqqollashtiruvchi misollar, tajribalarni eslatish uchun belgilar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo‘yicha klassifikatsiyasi turli shartli belgilar bilan beriladi. Tayanch signallar konspektlari bilan ishslashda qator o‘ziga xos usullar va metodik yechimlar qo‘llaniladi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limdan amalda foydalanish masalalari Maktabda pedagogik jamoa yoki metod birlashmalar miqyosida o‘qituvchilarning o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishda o‘quvchi shaxsini o‘rganish yo‘nalishlari, muloqot usullari, darsda o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, fanlarni turlicha o‘zlashtirishlaridagi farqlarni hisobga olish, qulay muhit yaratish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga erishish va boshqa masalalar bo‘yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalar bilan tanishish, o‘rganish, ommalashtirish maqsadida amaliy mashg’ulotlarni vaqtiga vaqtiga bilan o‘tkazib borish lozim. Bu mashg’ulotni mavjud sharoit va imkoniyatlarga muvofiq bahsmunozara, trening, ishchanlik o‘yini yoki seminar kabi shakllardan birortasi bo‘yicha o‘tkazish tavsiya qilinadi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi nazariyalarga asoslanish yaxshi natijalar beradi:

Bola intellekti rivojlanishi nazariyasi Bu nazariyani shveytsariyalik psixolog Jan Piaje (1896-1980) ishlab chiqqan. Bu nazariya bolalar intellekti rivojlanishini tushunish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra bolalar fikrlashining ko‘pxususiyatlari ochib berildi. Bular: egosentrizm-boshqa odamning nuqtai-nazariga o‘ta olmaslik; sinkretizm-har turli hodisalarini yetarli ichki asos bo‘lmagani holda

o‘zaro bog’lashga moyillik hosil bo‘ladigan tafakkur turi; transduksiya-mantiqiy fikrlashning xususiyati bo‘lib, bunda xususiydan-xususiyga tomon, umumiylikni chetlagan holda, o‘tish amalga oshiriladi; artifitsializm-olamni go‘yo odam qo‘li bilan yaratilgan, sun’iy deb idrok qilish; animizm-olamni jonli deb hisoblash, ziddiyatlarni sezmaslik. Bola psixikasi rivojlanishining to‘rtta bosqichi nazariyasini ishlab chiqdi. Bular quyidagi bosqichlar:

1. Sensomotor bosqich (tug’ilgandan 2 yoshga to‘lguncha)-jismoniy his tuyg’ular: teri sezgisi, ochlik, og’riq, shovqin, yorug’lik va boshqalarga munosabat shakllanadi.
2. Faoliyatgacha bosqich (2-7 yosh)-bola o‘ziga atrofdagilar ko‘zi bilan qaraydi. Bunda ijobiy muhitning ahamiyati katta. Bola o‘ziga ijobiy baho berishi yaxshi rivojlanishga, past baho berishi, aksincha natijaga olib keladi.
3. Aniq faoliyat bosqichi (7-11 yosh)-faktlarni qiyoslash, ob’ektiv aqliy xulosalar chiqarish, atrofdagilarning tan olishiga erishish va bolalarcha egosentrizmdan xalos bo‘lish, mavjud me’yor va qoidalarni o‘zlashtirish bosqichi.
4. Rasmiy faoliyat bosqichi (11-15 yosh)-mustaqil fikrlashga intilish bilan hayotiy qadriyatlarni qayta baholash, shaxsiy e’tiqodlar, qadriyatlarga munosabat, yangi odamlar bilan o‘zaro munosabatlar, umidlar, kelgusi yo‘lni tanlash, biror ma’naviy qahramon yoki faoliyat sohasiga e’tibor va qiziqishlarning yo‘nalganligi, axborotlarni jadal, ko‘pincha, aralashiga, ba’zan tanlab, to‘plash bosqichi. Shu har bir bosqichda o‘sha darajadagi o‘zgarmas operatsiya paydo bo‘lishi hamda uning o‘zgaruvchanligi rivojlanib borishidan iborat ikkitadan bosqich mavjud. Bunda agar bolaga tanish tajribalar takrorlansa, bu oson qabul qilinadi va o‘zgarmas operatsiya bo‘ladi. Agar bu boshqa yoki yangi tajriba bo‘lsa, bola yangi sharoitga moslashish uchun muvozanatdan chiqadi va o‘zinining bilimi tarkibini o‘zgartiradi. Shunday qilib, bola borgan sari ko‘proq adekvat bilimlari tarkibini boyitib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining rivojlanish darajasiga mos va uning mantiqiy, aqliy va shaxsiy o‘sishiga yordam beruvchi mashg’ulotlarni rejalashtirish zarur.

Eng yaqin rivojlanish sohasi nazariyasi Bu nazariyani rassiyalik psixolog Vigotskiy Lev Semyonovich (1896-1934) ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko‘ra ta’lim oldinda borishi va bolaning rivojlanishini o‘ziga ergashtirib borishi lozim. Rivojlanish faqat bola yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirganida hosil bo‘ladi. Lekin uni real hayotdan ajralgan holda emas, o‘zida bor bo‘lgan bilimlar asosida o‘zlashtirishi shart. Bu «eng yaqin rivojlanish sohasi» deb nomlandi va pedagogika hamda psixologiya faniga kirdi. Eng yaqin rivojlanish sohasi deb L.S.Vigotskiy «yetilish jarayonidagi, ertaga yetiladigan, hozir paydo bo‘layotgan holatda bo‘lgan funkstiyalarni, ularni rivojlanish mevasi deb emas, rivojlanish kurtaklari, gullari, ya’ni endigina yetilib kelayotgan funkstiyalar»ni tushuntirgan edi. Eng yaqin rivojlanish sohasi bola o‘z yoshiga nisbatan qiyin masalalarni katta yoshdagagi odamning yordami bo‘lganda yechishi jarayonida aniqlanadi. Masalan, emaklashni o‘rganib olgan chaqaloq uchun emaklash u o‘zlashtirgan ko‘nikma, lekin tik turish va yurish esa, uning tomonidan endi o‘rganilayotgan va katta yoshdagilar yordamida o‘rganiladigan ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma bolaning eng yaqin rivojlanish sohasida hisoblanadi. O‘quvchi bilan muloqotda uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uning eng yaqin rivojlanish sohasi keng bo‘lgan belgilarni topish va asta–sekin yangi bilimlar bilan to‘ldirib borish orqali kutilgan natijaga erishiladi. Bunda bolalarga do‘slik va o‘zaro hurmatda bo‘lish asosiy shart hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” tushunchasining mazmuni?
2. Eng yaqin rivojlanish sohasi nazariyasi muallifi kim?
3. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni tasniflang.
4. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati?
5. Bola intellekti rivojlanishi nazariyasi qaysi olim ishlab chiqqan?

TESTLAR

1. “Maktab geografiya ta’limini ilmiy – uslubiy jihatdan qayta qurish konsepstiyasi” nechanchi yilda qabul qilingan?
 - a) 1993-yil
 - b) 1994-yil
 - c) 1995-yil
 - d) 1997-yil
2. “Geografiya terminlari lug’ati”, “Maxmud Qoshg’ariy ”, “Geografik nomlar imlosi” kitoblarining muallifi kim?
 - a) H.H.Hasanov
 - b) S.Qoraev
 - c) T.Nafasov
 - d) P.G’ulomov
3. Mashhur geograf astronom Ptolomeyning asarini ko‘rsating?
 - a) «Geografiya», 8 takitobdan iborat
 - b) «Geografiya», 2 tomli
 - c) «Geografiya», 17 kitob
 - d) Sayoxat», 3 tomli
4. Toshkentda birinchi gimnaziya nechanchi yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan?
 - a) 1877-yil.
 - b) 1777-yil.
 - c) 1977-yil.
 - d) 1871-yil.
5. Franstiyada bitiruvchi sinflarida 4 yirik davlatlarning geografiyasi o‘rganiladi. Bularqaysilar?
 - a) Rossiya-AQSh-Xindiston-Yaponiya
 - b) AQSh-Yaponiya-Germaniya-Xitoy
 - c) AQSh- Germaniya -Xitoy-Yaponiya
 - d) AQSh-Xindiston-Xitoy-Yaponiya

6. “Umumlashgan bilim bo‘lib, o‘z ichiga nazariya, qonun, qonuniyat, sabab, oqibatlar tushunchalari” deb qanday bilimga ta’luqli?

- a) Ilmiy
- b) Nazariy
- s) Empirik
- d) Evrestik

7. Tushunchalar mohiyati jihatdan qanday tushunchalarga ajratiladi?

- a) Aniq va mavhum (abstrakt)
- b) To‘g’ri va noto‘g’ri
- s) A va B
- d) Ma’lum va noma’lum

8. Geografiyadan viktorinalarini necha guruhga ajratish mumkin?

- a) 2 ta guruhga
- b) 10 ta guruhga
- s) 8 ta guruhga
- d) 12 ta guruhga

9. Geografiya ta’limi metodlari quyidagilarga bo‘linadi:

- a) umumiylar va xususiy metodlar
- b) xususiy metodlar
- s) og’zaki metodlar
- d) umumiylar

10 o‘quvchilarning eng qiziqib qatnashadigan mashg’ulotlaridan biridir.

- a) Ekskursiyalar
- b) Darslar
- s) Tabiiy geografiya
- d) To‘garaklar

11. Didaktik metodlar guruhini aniqlang?

- a) Og’zaki metodlar, ko‘rgazmali, amaliy metodlar
- b) Tadqiqot metodi, ko‘rgazmali, amaliy metodlar
- s) Muammoli bayon, qisman izlanish metodi

d) Reproduktiv, izhli, ko'rgazmali, amaliyemetod

12. Geografik tushunchalarni shakllantirish yo'llarini aniqlang?

a) Induktiv va deduktiv

b) Induktiv va umumlashtirish

s) Deduktiv va tushunchaning ta'rifini berish

d) Tushuncha haqida bilimni amalda qo'llash

13. Matnning 45-50 foizi qanday materiallardan iborat bo'lsa darslik jahon standartiga mos bo'ladi?

a) Illyustrativ materiallar

b) Raqamli materiallar

s) Rasmlar

d) Qiziqarli materiallar

14. Bilimlar necha guruhga ajratiladi?

a) 2 ta, nazariyya empirik bilimlar

b) 1 ta, nazariy bilimlar

s) 3 ta, nazariy, empirik va xususiy bilimlar

d) 4 ta, umumiy, nazariy, xususiyva empirik bilimlar

15. Geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar qachondan boshlab nashr etila boshladi?

a) 1960 -yilda

b) 1991 -yilda

s) 1958 -yilda

d) 1989 -yilda

16. Geografiya o'qitish metodikasi qanday fanlar tizimiga kiradi?

a) Pedagogika

b) Falsafa

s) Metodika

d) Psixologiya

17. Geografiya o'qitish metodikasi qanday bo'limlardan iborat?

a) Umumiy vaxsususiy

b) Sotsial va ijtimoiy

s) Iqtisodiy va tabiiy

d) Kartografik va topografik

18. Geografiya o‘qitish metodikasining metodologik asosini nima tashkil qiladi?

a) Bilim nazariyasi

b) Iqtisodiy va nazariya

s) Qonuniyat

d) Tasavvur

19. O‘qituvchi talabga javob beradigan darajada talim tarbiya berish uchun avval nima bilan qurolangan bo‘lishi kerak?

a) Yetarli bilim bilan

b) Metodologiya bilan

s) Ta’lim vositalari bilan

d) Ilg’or tajribalar bilan

20. Geografiya o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan chambarchas bog’liq?

a) Geografiya, didaktika, psixologiya

b) Falsafa, tarix, iqtisod

s) Geodeziya, geologiya, geografiya

d) Biologiya, ximiya, astronomiya

21. Hamma o‘quv predmetlari metodikasini umumiy ilmiy asosini nima tashkil qiladi?

a) Didaktika

b) Falsafa

s) Psixologiya

d) Pedagogika

22. Geografiya talimi qaysi fan tomonidan asoslab berilgan qonuniyatlar, qonunlar va qoidalar asosida rivojlanadi?

a) Didaktika

b) Pedagogika

s) Geologiya

d) Psixologiya

23. Ptolomeyga tegishli to‘g’ri ish javobini aniqlang?

- a) Geografik xaritalarnig radus to‘ri bilan tuzilishini ixtiro qilgan
- b) Xaritalarni shartli belgilar yordamida tuzilishini ixtiro qilgan
- s) Xaritalarni meridianlar asosida tuzilishini ixtiro qilgan
- d) Xaritalarni masshtab asosida tuzilishini ixtiro qilgan

24. O‘rtalarda geografiyadan qaysi yurtdoshimiz birinchi bo‘lib kitob yozgan?

- a) Abu Rayxon Beruniy
- b) Al-Xorazmiy
- s) Al-Farobi
- d) Z. MBobur

25. “Kitob surat al-arz” asarini kim yozgan?

- a) Abu Rayxon Beruniy
- b) Al-Xorazmiy
- s) MirzoUlug’bek
- d) Z. MBobur

26. Ta’lim mazmunini belgilovchi huujjatlar qatorini belgilang

- a) o‘quv rejasi va dasturi
- b) pedagogik kengash qarori
- s) darslik va ko‘llanmalar
- d) o‘qituvchining kundalik rejasi

27. Rossiyada geografiya o‘qitish dastlab yo‘lga qo‘yilgan paytda mazmuni nimalardan iborat bo‘lgan?

- a) Rel’ef va daryolar
- b) Foydali qazilma va tektonikadan
- s) Materiklar va ularni ayrim qismlari
- d) Joy nomlari

28. D.N.Anuchin tomonidan yagona geografiya dasturi qachon ishlab chiqarilgan?

- a) 1921 -yilda
- b) 1917 -yilda

- s) 1924-yilda
 - d) 1919-yilda
29. “Yer xususida ilmdan olingan so‘zlar” nomli darslik muallifi kim?
- a) D.N.Anuchin
 - b) N.Balashov
 - s) A.Geyki
 - d) A.Obidov
30. 1880-yilda O‘zbekistonda qanday maktablar ochilgan?
- a) Rustuzem maktablari
 - b) Yangi usul maktablari
 - s) Boshlang’ich ta’lim
 - d) O‘smirlar maktabi
31. 1905-yil Yangi usul maktablari uchun Turkiston va unga yondosh mamlakatlar xaritasi qayerda nashr qilingan?
- a) Samarqandda
 - b) Buxoroda
 - s) Farg’onada
 - d)Termizda
32. 1909-yili Orenburgda qaysi olimning “Geografiya” darsligi bosilib chiqdi?
- a) Muhammad Amin Karimiy
 - b) Behbudiy
 - s) O.Mo‘minov
 - d) Fotix Karim

GLOSSARY

Ta’lim	Ta’lim – bilimga ishtiyoqmand kishilarga bilim berish. U ko‘proq aqliy faoliyat bilan amalga oshiriladi
Tarbiya	Tarbiya – ta’lim oluvchining ta’lim jarayonida egallagan bilimlarini, shu jumladan, ahloq va odob bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rib, ko‘nikma siga aylantirish, ya’ni ta’lim oluvchini o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish. U ko‘proq jismoniy hara katlar bilan amalga oshiriladi.
Ilm	Ilm – insonning muayyan sohada tadqi qotlar olib borib yangi bilimlarni aniqlash maq sadida olib boradigan faoliyat turi. Ilmiy faoliy atning mahsuli “bilim”dir.
Bilim	Bilim- o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish
Ko‘nikma	Ko‘nikma- o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish.
Malaka	Malaka- o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nik malarni notanish vaziyat larda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish
O‘quv predmeti	O‘quv predmeti – mayyan fan ichidan saralanib, uzluksiz ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida ta’lim oluvchilarga berilishi mumkin deb hisoblangan bilimlar majmui
O‘quv jarayoni	O‘quv jarayoni – pedagog bilan ta’lim oluvchining bilim berish va bilim egallash maqsadida qilinadigan hamkorlik harakatlari.
Texnologiya	Texnologiya - sub’ekt tomonidan ob’ektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida sub’ektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon
Innovatsiya	Innovatsiya – (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish)-yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, texnologiya va yangiliklar.
O‘qitish	O‘qitish- bu ta’lim oluvchilarga yangi o‘quv axborotini taqdim etish, uni o‘zlashtirishni

	tashkillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qibiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir
Vaziyat	Vaziyat- (lotinchadagi situation - ahvol) –muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart sharoitlar va holatlar uyushmasi
Eksperiment	Eksperiment – pedagogik jarayonda bo'ladigan qonuniy aloqalarni o'rganish
Tajriba ishlari	Tajriba ishlari – eksperimental tadqiqotlar asosida yaratilgan metodik tizimlarni samaradorligini tekshirish vositasidir
So'roq, so'rov	Surov, so'roq — faqat o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat
Kompetensiya	Kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati
Baholash tizimi	Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiyligi o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiyligi o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat
Qonuniyat	Qonuniyat - geografik borliq (obyekt), xodisa, jarayonlar o'rtasida eng muhim va nisbatan mustahkam aloqa va bog'liqlarni aks etiradi.
Nazariya	Nazariya- kishilar ilmiy faoliyatini umumlashmasidir
O'qitish metodi	O'qitish metodi- ta'lim maqsadlariga eririshish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati
Hikoya	Hikoya metodi – geografik borliq, voqealar va xodisalarini jonli so'z bilan tasvirlash.
Muammoli bayon	Muammoli bayon- o'qituvchi tomonidan muammoni quyilishi va uni yechish yo'llarini asoslash
Kuzatush	Kuzatush- tabiiy sharoitda geografik borliq, voqealar va

	hodisalarini ma'lum bir maqsadli yo'nalishlarda o'quvchilar tomonidan qabul qilish.
Tajriba	Tajriba- geografik voqeasi va hodisalarini sodir bo'lishini suniy sharoitda amalga oshirish va o'rGANISH
O'qitish vositalari	O'qitish vositalari- bu bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida o'quv jarayonini tarkibiga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir.
Geografik ekskursiya	Geografik ekskursiya – sinf yoki muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv dasturiga muvofiq, o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muxit yoki sun'iy yaratilgan sharoitda ob'ektlarning yashash muhiti va ungar bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH maqsadida o'tkaziladigan o'quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi
Tahlil	Tahlil -shunday jarayonki, unda narsa va hodisalarining qismlari, xususiyatlari tahlil etiladi.
Tasavvur	Tasavvur -atrofni o'rab olgan narsa va hodisalarining huddi shu onda qilinmaydigan hissi va ko'z oldiga keltirgan obrazidir
Taqqoslash	Taqqoslash -bunda obektiv dunyodagi narsa va hodisalarining bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi
Tushuntirish	Tushuntirish -bayon qilinayotgan materialni o'quvchilar ongida idrok qilish va tushunib yeto olishiga mo'ljallangan va fikrlashga qaratilgan usul.
Solishtirish	Solishtirish -kartalarni solishtirish va tahlil qilish bilan birga geografik obektga xos bo'lgan obekt va hodisalarining sabablarini aniqlashdan iborat.
Hikoya usuli	Hikoya usuli -bu mavzularni bayon qilish shakli bo'lib, bunda voqeasi va hodisalarini tavsirlash asosiy o'rin tutadi
Didaktik vositalar	Didaktik vositalar – o'quv fanini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi pedagogik vositalar.
Didaktik material	Didaktik material – foydalilaniganda o'quvchilarning bilim olishini faollashtirish, o'quv vaqtini iqtisod qilishni ta'minlaydigan o'quv mashg'uloti uchun

	mo‘ljallangan qo‘llanmalarning maxsus ko‘rinishi.
Didaktik tamoyillar	Didaktik tamoyillar – natijaviylikni ta’minlaydigan ta’lim jarayoniga qo‘yilgan eng umumiy talablar tizimi.
Dizayn	Dizayn – o‘quv materialni ifodalash (tavsiflash, namoyish) usuli.
Differensiallashgan ta’lim	Differensiallashgan ta’lim - o‘quvchilarning moyilliqi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda o‘quv faoliyatni tashkil etish shakli.
Jarayon	Jarayon - qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘naltirilgan amallar yig‘indisi
Individual (yakkama yakka tartibda) masofaviy o‘qitish	Individual (yakkama yakka tartibda) masofaviy o‘qitish - telekommunikatsiya va ta’limni ta’minlash uchun zarur dasturiy vositalariga ega bo‘lgan masofa
“Ilg‘or” va “yangi” pedagogik texnologiyalar	“Ilg‘or” va “yangi” pedagogic texnologiyalar - bu ta’lim shakllarini qulaylashtirish maqsadida va masofaviy o‘qitish, kompyuter va axborot texnologiyalardan audio va video vositalaridan multimediyadan foydalanib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning jarayonlarini yaratish.
Evristik usul	Evristik usul — o‘quv mashg’ulotining uning rejasi, tuzilishi va ayrim qismlarini avvaldan tayyorgarliksiz tashkil etish (ya’ni o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham eksperiment). Avvaldan faqat darsning mavzusi, maqsadi, topshiriqlar hajmigina aniq bo‘ladi
Strategik maqsad	Strategik maqsad -bizning bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bu siyosiy sohada jamiyat hayotining demokratlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, iqtisodiy sohada, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish arayonlarini izchillik bilan amalga oshirish. Ijtimoiy sohada, jamiyat hayotining barcha jihatlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Ma’naviy sohada, ma’naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitish, o‘zligimizni chiqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mavkursi tamoyillarini xalqimiz

	ongiga va qalbiga chuqurroq singdirish va h.k.
Ta’limda faollik	Ta’limda faollik — ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining faolligini va u ta’lim jarayonining sub’ekti ekanligini, aks ettiruvchi didaktik jarayon
Didaktika	Didaktika -(yunoncha didaktikos- o’rgatuvchi, ta’lim beruvchi) pedagogikaning tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug`ullanadi. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o`qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo`llanila boshlagan
Didaktik material	Didaktik material — darsda va mustaqil ish uchun foydalanishga mo‘ljallangan metodik qo‘llanmalar, audio va videotasma yozuvlar, lug’atlar, ma’lumotnomalar va darsliklar
Diskussiya	Diskussiya — o‘quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.
Differentsial o‘qitish	Differentsial o‘qitish — dasturni o‘zlashtirish maqsadida alohida o‘quvchilar yoki guruhga ularning tayyorlanganlik darajasi, bilish qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga qarab yondashishni ko‘zlovchi o‘qitish
Rivojlantiruvchi o‘qitish	Rivojlantiruvchi o‘qitish — o‘quv jarayonining inson ichki (potentsial) imkoniyatlariga va uni qo‘llashga qaratilganligi (yo‘nalganligi).
Test	Test — aniq pedagogik taddiqot uchun ishlataladigan so‘rovnama sinalayotgan o‘quvchining psixologik va intellektual tavsifini, uning bilim, tushunish, uddalash, ko‘nikmalarini o‘lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshirkdar
O‘qitish shakli	O‘qitish shakli — ma’lum tartibda amalga oshiriladigan o‘quvchi va o‘qituvchining kelishilgan faoliyatini tashqi ifodasi

ГЛОССАРИЙ

Образование	Образование - это образование тех, кто интересуется знаниями. Это делается с большей умственной активностью
Дисциплина	Дисциплина - это преобразование знаний, полученных учащимся в процессе обучения, включая моральные и этические знания, в навык путем проверки их на практике, то есть применения на практике знаний, полученных учащимся в процессе обучения. Это делается с большими физическими усилиями.
Наука	Наука - это вид деятельности, при котором человек проводит исследования в определенной области с целью открытия новых знаний. Продуктом научно активной лошади является «знание».
Знание	Знание - это способность запоминать и повторно интерпретировать усвоенную информацию.
Способность	Способность применять полученные знания в знакомых ситуациях.
Навыки	Навыки - это способность применять полученные знания и навыки в незнакомых ситуациях и генерировать новые знания.
Тема	Тема - набор знаний, которые можно передать учащимся на определенном этапе процесса непрерывного обучения
Учебный процесс	Учебный процесс - это совместные усилия учителя и ученика, направленные на передачу знаний и получение знаний.
Технология	Технология - это процесс, который приводит к изменению качества объекта в результате воздействия объекта на объект.
Иновация	Иновация - (англ. «Innovation») - новые введенные концепции, правила, технологии и инновации.
Обучение	Обучение - это процесс предоставления учащимся новой учебной информации,

	организации ее приобретения, развития навыков и компетенций, а также развития когнитивных навыков. это целенаправленный, систематический организационный процесс
Ситуация	Ситуация - (латинское положение - ситуация) - определенная ситуация, совокупность условий и обстоятельств, создающих ситуацию.
Эксперимент	Эксперимент - это педагогический процесс. Изучение правовых отношений
Экспериментальная работа	Экспериментальная работа - инструмент проверки эффективности методических систем, созданных на основе экспериментальных исследований.
Анкета	Анкета - это не только восстановление полученной информации, но и ее подтверждение и объяснение.
Компетентность	Компетентность - это способность применять существующие знания, навыки и компетенции в повседневной деятельности.
Система оценивания	Система оценивания - совокупность критериев, определяющих уровень усвоения учащимися квалификационных требований общего среднего образования и эффективность общего среднего образования согласно государственному образовательному стандарту.
Законность	Законодательство - это наиболее важная и относительно прочная связь между географическим объектом (объектом), событием и процессом.
Теория	Теория - обобщение научной деятельности людей.
Метод обучения	Метод обучения - взаимодействие учителя и учеников для достижения образовательных целей.
Метод повествования	Метод повествования - это яркое описание географического объекта, события или явления.
Постановка проблемы	Постановка задачи - это объяснение учителем

	проблемы и способов ее решения.
Эксперимент	Эксперимент - искусственное воплощение и изучение географических событий и явлений в искусственных условиях.
Наблюдение	Наблюдение - это восприятие студентами географического объекта, события или явления в определенной обстановке в естественной обстановке.
Учебные пособия	Учебные пособия - это различные источники знаний, которые интегрируются в процесс обучения для развития знаний, навыков и компетенций.
Географическая экскурсия	Географическая экскурсия - изучение специфических особенностей объектов в естественной среде или искусственно созданных условий вне школы учителем в соответствии с учебной программой с классом или определенной группой учащихся является важной формой учебного процесса.
Анализ	Анализ - это процесс, в котором анализируются части и свойства вещей и событий.
Воображение	Воображение - это мгновенное ощущение и образ вещей и событий, которые вас окружают.
Сравнение	Сравнение - это процесс определения сходства и различий между вещами и событиями в объективном мире.
Объяснение	Объяснение - это способ мышления, который разработан, чтобы помочь учащимся понять и понять сказанное.
Сравнение	Сравнение - сравнение и анализ карта также для определения причин объектов и событий, характерных для географической области.
Рассказывание историй	Рассказывание историй - это форма повествования, в которой основное внимание уделяется описанию событий и происшествий.
Дидактические инструменты	Дидактические инструменты - это педагогические инструменты, повышающие эффективность изучения предмета.

Дидактический материал	Дидактический материал - при использовании стимулирует обучение студентов, экономит учебное время
Обсуждение	Обсуждение - одна из составляющих процесса обучения
Форма обучения	Форма обучения согласовывается между учеником и преподавателем, которое осуществляется в определенном порядке. внешнее выражение деятельности
Тест	Тест - для конкретного педагогического исследования анкета, используемая тестируемым студентом психологическое и интеллектуальное описание, его знания, понять, добиться успеха, измерить навыки стандартное задание, которое позволяет
Развивающее обучение	Развивающее обучение - это акцент в процессе обучения на внутренних (потенциальных) способностях и их применении.
Дифференциальное обучение	Дифференциальное обучение - это освоение программы обучения, ориентированное на отдельного ученика или группу в зависимости от их уровня подготовки и уровня когнитивного развития

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak malakali mutaxasislar – taraqqiyot omili”. T. “O‘zbekiston”. 1995
2. “Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori”. T “Sharq”. 1997
3. “Barkamol avlod orzusi”. T. “Sharq”. 1998
4. Баринова И.И. Учебник и технология процесса обучения. География в школе, 1990, №5, с.31-33
5. Бельская Е.М. Мўминов А.А. Методические указания к использованию настенных картин по природоведению в 4 классе. «Ўқитувчи», Т.,1976
6. Vaxobov X., Abdunazarov O‘., Zaynudinov A. Geografiya ta’limida darsliklar yaratish muammosi. O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000, №21, 188-191 b
7. Vaxabov X., Alimova N.X. Maxmudjo‘ja Bexbudiyning «Kitobi muntaxabi jug‘rofiya umumiy va namunaviy jug‘rofiya» darsligi xaqida. Geografiya va qadriyatlar. Maqolalar to‘plami T. 2001. 162-164 b
8. Vaxobov X., Abduraxmonov B., Eshpo‘latova N. Umumta’lim va o‘rta maxsus ta’lim muassalarida geografiya ta’limining o‘rni va tuzilishi. O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 25 jild, T.2003
9. Vaxobov X. O‘zbekiston geografiyasining dolzarb nazariy va amaliy muammolari. “ Geografiya faning dolzarb nazariy va amaliy muammoalari” Resp. Ilm-amal. konf. materiallari. T. 2006 3-7 b
10. Vaxabov x., Tosheva N. Jadidchilik davrida geografiya fanining rivojlanishi “ Geografiya faning dolzarb nazariy va amaliy muammoalari” Resp. ilm- amal. konf. materiallari. T. 2006 145-146 b.
11. Vaxabov X., Rafiqov A.A. O‘zbekiston tabiatini muxofaza qilish. Universitet. T. 2001, 38 b.
12. Vaxobov X., Tillaboyeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. T.“ O‘qituvchi”, 2001, 150 b.
13. Vaxobov X. Geografiya. Uchebnoye posobiye dlya 6 klassa vspomogatelnix shkol. Uzinkomsentr, T. 2003. 106 b.

14. Vaxobov X., Po'latova P. Geografiya. Yordamchi maktablarning 7-sinfi uchun darslik. T. Uznikomsentr , 2003, 148 b
20. Vaxobov X., Saydamatov F. Geografiya ta'limi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash. Respub. Ilmiy- amaliy. Konf. materiallari "Janubiy O'zbekistonda geografiya mакtablarining shakllanishi va rivojlanishi" Termiz, 2006, 19-20 b.
15. Vaxobov X., Abduraxmonov B. O'rta maxsus o'quv muassalarida o'rganiladigan geonizariyalar. " Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari". Resp. ilmiy. amaliy konf. materiaillari: T. 2006 136-138 b.
16. Vaxobov X., Saydamatov F., Eshpo'latova N. Geografiya ta'limida qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq ta'limi. 2007. №1, 102-105 b.
17. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практическая мери, ТДПУ ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиши маркази Ахборотномаси 2002, № 6 с. 13-26.
18. Герасимова Т.П., Коринская В.А. Методы и формы организации обучения географии. Изд –во «Пресвящение», М. 1964., 221 с.
19. Герасимова Т.П. Основы методики обучения начальному курсу физической географии. М.1978.
20. Герасимова Т.П Требования к современному уроку физической географии. География в школе, 1981 №2
21. Герасимова Т.П., Ковалевская М.К., Панчешникова Л.М. Формирование мировоззрения учащихся средней школы в процессе обучения географии. М. Педагогика, 1982
22. Герасимова Т.П., Грюнберг Г.Ю, Неклюкова Н.П. Новый учебник по курсу физической географии. География в школе, 1990, №2, с32-38
23. Герасимова Т.П. Практические работы нового вида в 6 классе. География в школе, 1990, №4 с.41-44
24. Гладкий Ю.Н. Пробный учебник по социально-экономический географии мира: что нового? География в школе, 1991, №4, с26-30

25. Гузеев В.В. Оценка, рейтинг, тест. Школьные технологии, 1998, №3, г. ИИИ.40 с.
26. Даринский А.В. Методика преподавания географии. М. Просвещение, 1975, 368 с.
27. Даринский А.В. Урок географии в средней школе. М. Просвещение, 1984
28. Добржицкий В.С., Урок географии в средней школе. М. Просвещение, 1984
29. Душина И.В., Евлахина Т.И. Приёмы тематического планирование уроков в 6 классе. География в школе, 1980, №3
30. Душина И.В., Система геолого-географических знаний в школьном курсе
31. Ковалевская М.К. Методика массовой проверки качества обучения географии. В.кн. Проверка знаний и умений учащихся по географии. М., Просвещение, 1978
32. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе Анализ зарубежного опыта. М., Народное образование, 1998
33. Епишева О. Основные параметры педагогической технологии. ТДПУ Ахборот ва масофавий ўқитиши маркази. Ахборотномаси, 2002, №6, с3-9
34. Ефимова А.А., Коринская В.А. Методика преподавания физической географии и частей света. М. , изд-во АПН РСФСР, 1957 224
35. O.Mo'minov. Zamonaviy geografiya darsiga qo'yilgan talablar. Toshkent "O'qituvchi" 1991 yil.
- 36.Q.Baxromov, A.Safarov. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari. Buxoro 2004 yil.
37. Q.Baxromov , U.Nurov. Geografiya darslarida karta va globus bilan ishlash metodikasi. Buxoro 2005 yil.
38. Q.Baxromov. Xalq maqollari – geografik bilim manbai. Buxoro 2006 yil.
39. Q.Baxromov, A.Jo'raev. Ta'limning interfaol usullari. Buxoro 2007 yil
40. R.Qurban niyozov. Geografiya o'qitish metodikasi. Toshkent 2001 yil.
41. Geografiya fanidan umumiy o'rta ta'lim Davlat Ta'lim Standartlari. Toshkent 1999 yil.

42. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” 1997 yil.
43. D.Mavjutov. Geografik topishmoqlar. Toshkent “O‘qituvchi” 2001 yil.
44. Q.Bahromov. Geografiya o‘qitish metodikasi. Buxoro 2007 yil
45. Qurbonniyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. UrDU, Urganch, 2001, 222b
46. Qurbonniyozov R. “O‘zbekiston geografiyasi” qiziqarli savol va topshiriqlar. “O‘qituvchi” T. 1997
47. Qurbonniyozov R. Geografiyadan o‘quvchilar bilimini tekshirishning shakli va metodlari. T.1993
48. Смирнова В.М. Дидактическое материалов по экономической и социальной географии мира. М. «Просвещение», 1996
49. Щенев В.А. Классификация уроков географии нетрадиционной формы. «География в школе». 1999 №2 с.33-34
50. Radjiyev A.B., Ismailov A.A., Narziyev J.R., Axmedov X.P., Tog’ayeva G.O. O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Toshkent, 2019.
51. G’ofurov A.T. va boshqalar. Biologiya o‘qitish metodikasi. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
52. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Tabiiyot va geografiyani o‘qitish metodikasining ob ‘yekti va predmeti, maqsad va vazifalari	6
2-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limi metodikasining shakllanish va rivojlanish tarixi	15
3-mavzu. Xorijda tabiiyot va geografiya talimi.....	24
4-mavzu. O‘zbekistonda tabiiyot va geografiya ta’limining tarkibi va mazmuni.....	30
5-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida o‘qitish metodlari.....	43
6-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida xarita va globuslardan foydalanish.....	61
7-mavzu. Geografiya ta’limini uyushtirishning shakllari.....	79
8-mavzu. Tabiiyot va geografiya darslarini rejalashtirishning ta’limda tutgan o‘rni va roli	95
9-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida o‘quv ekskursiyalari.....	106
10-mavzu. O‘quvchilarning bilim va ko”nikmalarini tekshirish va baholash.....	117
11-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limi jarayon qismlari.....	125
12-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida kompetensiyalar.....	136
13-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida tarbiya turlari.....	145
14-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limi vositalari hamda ular bilan ishslash metodikasi.....	155
15-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida foydalaniladigan o‘quvko‘rgazmali vositalar tasnifi.....	161
16-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida tadqiqot usullari.....	166
17-mavzu. Geografik maydoncha va uni jihozlash.....	173
18-mavzu. Zamonaviy geografiya xonasi.....	182
19-mavzu. Tabiiyot va geografiyani o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	187
20-mavzu. O‘quvchilar mustaqil ish faoliyatini tashkil etishning uslub va vositalari.....	195
21-mavzu. Tabiiyot va geografiya ta’limida amaliy topshiriqlarni tuzish hamda ulardan foydalanish usullari.....	214
22-mavzu. Tabiiyot va geografiyani o‘qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash.....	220
Test savollari.....	235
Glossariy.....	241
Adabiyotlar.....	250

ОГЛАВЛЕНИЕ

Вступление.....	3
Тема 1. Объект и предмет, цели и задачи методики обучения природоведению и географии	6
Тема 2. История становления и развития методики обучения природоведению и географии.....	15
Тема 3. Изучение природы и географии за рубежом.....	24
Тема 4. Содержание природно-географического образования в Узбекистане.....	30
Тема 5. Методика обучения естественным наукам и географии.....	43
Тема 6. Использования карт и глобусов в природоведческом и географическом образовании.....	61
Тема 7. Формы обучения географии.....	79
Тема 8. Роль и место планирования уроков естествознания и географии в образовании.....	95
Тема 9. Ознакомительные поездки по природе и географии обозрования.....	106
Тема 10. Проверка и оценка знаний и умений учащихся.....	117
Тема 11. Составные части естественно-географического образовательного процесса.....	125
Тема 12. Компетенции в естественно научном и географическом образовании.....	136
Тема 13. Виды природоведческого образования и географического образования.....	145
Тема 14. Естественно-географические средства обучения и методы работы с ними.....	155
Тема 15. Классификация средств обучения, используемых в природоведческом и географическом обозрении.....	161
Тема 16. Методы исследования в естественно-научном и географическом образовании.....	166
Тема 17. Географический район и его оснащение.....	173
Тема 18. Кабинет современной географии.....	182
Тема 19. Использование информационно-коммуникационных технологий в обучении природоведению и географии.....	187
Тема 20. Методы и средства организации самостоятельной работы учащихся.....	195
Тема 21. Как создавать и использовать практические задания в естественнонаучном и географическом образовании.....	214
Тема 22. Применение инновационных педагогических технологий в процессе обучения природоведению и географии.....	220
Контрольные вопросы.....	235
Глоссарий	241
Литература.....	250

TABLE OF CONTENT

Introduction.....	3
Topic 1. Object and subject, goals and objectives of teaching methods of natural history and geography.....	6
Topic 2. The history of formation and development of methods of teaching natural history and geography.....	15
Topic 3. Studying nature and geography abroad.....	24
Topic 4. The content of natural and geographical education in Uzbekistan.....	30
Topic 5. Methods of teaching natural sciences and geography.....	43
Topic 6. The use of maps and globes in natural history and geographical education.....	61
Topic 7. Forms of teaching geography.....	79
Topic 8. The role and place of planning lessons in natural science and geography in education.....	95
Topic 9. Study trips through the nature and geography of formation.....	106
Topic 10. Checking and assessing the knowledge and skills of students...	117
Topic 11. Components of the natural-geographical educational process...	125
Topic 12. Competences in natural science and geography education.....	136
Topic 13. Types of natural history education and geographical education.....	145
Topic 14. Natural geographic teaching aids and methods of working with them.....	155
Topic 15. Classification of teaching aids used in natural history and geographical education.....	161
Topic 16. Research methods in natural science and geography Education.....	166
Topic 17. Geographical area and its equipment.....	173
Topic 18. Cabinet of modern geography.....	182
Topic 19. The use of information and communication technologies in teaching natural history and geography.....	187
Topic 20. Methods and means of organizing independent work of students.....	195
Topic 21. How to create and use practical assignments in science and geography education.....	214
Topic 22. Application of innovative pedagogical technologies in the process of teaching natural history and geography.....	220
Control questions.....	235
Glossary	241
Literature.....	220

